

A. T. NORQOBILOV, J. HASANOV,  
A. RASULEV, S. X. FAYZULLAYEV,  
G. J. ERGASHEV

# KIMYO INJINIRINGI UCHUN AXBOROT TEXNOLOGIYALARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

A.T. NORQOBILOV, J. HASANOV, A.RASULEV,  
S.X. FAYZULLAYEV, G.J. ERGASHEV

# KIMYO INJINIRINGI UCHUN AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Oliy o'quv yurtlarining kimyoviy texnologiya, neft va gazni qayta  
ishlash texnologiyasi hamda kimyo texnologiya jarayonlari va  
qurilmalari yo'nalishidagi talabalari uchun darslik sifatida  
mo'ljallangan

YOSHLAR NASHRIYOT UYI  
TOSHKENT – 2020

UO'K 621:004(075.8)

KBK 34.5ya73

K 42

### **Taqrizchilar:**

Texnika fanlari doktori, professor M.A.Ismoilov  
Texnika fanlari nomzodi, dotsent U.T. Haytmatov.

Kimyo injiniring uchun axborot texnologiyalari: darslik / A. T. Norqobilov, J. Hasanov, A. Rasulev, S. X. Fayzullayev, G\*. J. Ergashev. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 256 b.

Ushbu darslikda kimyoviy injiniring jarayonlarini o'rganishda foydalanish mumkin bo'lgan amaliy dasturlar haqida asosiy tushunchalar berilgan hamda har-bir dasturni kimyoviy texnologiya jarayonlarida qo'llash bo'yicha misollarni bajarish ketma-ketligi ko'rsatib o'tilgan. Bayon qilingan materiallar talabaga informatsion texnologiyalarni kimyoviy injenering masalalarini yechishda amaliy dasturlar orqali tadqiq qilish imkonini beradi.

Darslik asosan oliv o'quv yurtlarining kimyo-texnologiya, neft va gazni qayta ishlash kimyoviy texnologiyasi hamda kimyoviy jarayonlar mashina va qurilmalari sohasi (bakalavr, magistr) talabalari uchun darslik sifatida mo'ljallangan bo'lib, shuningdek, undan ilmiy tadqiqotchilar, doktorantlar hamda sanoatning kimyo va unga turdosh sohalaridagi korxonalari va ilmiy tadqiqot muassasalarining ilmiy va muhandis-texnik xodimlari ham foydalanishlari mumkin.

© A. T. NORQOBILOV,  
J. HASANOV, A. RASULEV,  
S. X. FAYZULLAYEV,  
G\*. J. ERGASHEV  
© YOSHLAR NASHRIYOT UYI,  
2020

**ISBN 978-9943-6184-9-7**

---

## **SO‘Z BOSHI**

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qarori asosida yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta’lim muassasalarining ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv, o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash vazifalaridan kelib chiqqan holda yaratilgan.

Ma’lumki, Respublikamizda yillar davomida axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Dastlab eng oddiy bo‘lgan hisoblash mashinalari, kompyuter qurilmalari va ularda qo‘llanilgan dasturlar o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik ishlash tezligi yuqori, ko‘plab dasturlarni bir vaqtning o‘zida yuklab va ishlata olish imkoniyati bo‘lgan kompyuter texnikalarining texnik hamda dasturiy ta’minoti o‘rganildi va keng omma e’tiboriga havola qilindi. Respublikamizda ta’lim jarayoniga berilayotgan e’tiborning kundan-kunga oshib borishi, fanlar mazmunini chet el adabiyotlari bilan boyitish, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini ta’lim jarayoniga qo‘llash, ishlab chiqarish va ilm-fan integratsiyasini jadallashtirish masalalarini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Shundan kelib chiqqan holda, kimyoviy injeneringda axborot texnologiyalari fani tashkil qilinib, bunda hozirgi bosqichda, dastlab dasturlash tillari haqidagi qisqa ma’lumot berilgan bo‘lsa, keyingi qismida amaliy dasturiy paketlar yordamida kimyoviy texnologik jarayon masalalarini yechish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Darslikda C++, Excel, Matlab, Mathcad, Aspen Plus dasturlari haqidagi boshlang‘ich nazariy tushunchalar hamda kimyoviy injenering masalalarini amaliy dasturlar yordamida yechishga qaratilgan ma’lumotlar keltirilgan. Dasturlar imkoniyatlarini o‘rganish orqali kimyoviy

injenering jarayonlarini simulyatsiya qilish va optimallashtirish masalalarini oson va oddiy o'rganishga dastlabki qadamlar qo'yish imkoniyati paydo bo'ladi.

Imkoniyatdan foydalanib, darslikni yaratishda o'z yordamini aymaganliklari uchun "Informatika, avtomatlashtirish va boshqaruv" kafedrasini professor-o'qituvchilari Z.To'raqulov, prof. A.Artiqov, K.Usmonov, A.Jabborov, D.Tadjibayeva va D.O'ngbayevalarga o'z minnatdorchilikimizni bildiramiz.

## **I BOB**

### **KIMYO INJENERINGIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIGA KIRISH**

- 1.1.** Kirish. Kimyo injeneringi uchun axborot texnologiyalari tushunchasi va uning mohiyati
- 1.2.** Kimyo injeneringi uchun axborot texnologiyalari yo‘nalishining rivojlanish bosqichlari
- 1.3.** Ishlab chiqarish jarayonlarida kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish

## **1.1. Kirish. Kimyo injeneringi uchun axborot texnologiyalari tushunchasi va uning mohiyati**

Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyatda va sanoatda axborot resurslaridan foydalanish jarayonining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. XXI asrda AKT barcha sohalarning, jumladan, ta'lim jarayonining muhim bo'lagiga aylandi. XX asrning nazariyachilaridan biri O.Tofler: "XX asrda o'qishni yoki yozishni bilmagan odam savodsiz sanalgan bo'lsa, XXI asr - texnologiyalar davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilmaydiganlar chinakam omi hisoblanadi", deganida qanchalar haq bo'lganiga bugungi tezkor taraqqiyot davrida amin bo'lmoqdamiz.

**Axborot texnologiyalari** yoki **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)** – ma'lumotlarni o'zida to'plash, saqlash, qayta ishlash, ulardan foydalanish vositalari orqali barcha sohalarda keskin rivojlanishga imkon yaratib beruvchi texnologiyalardir. Bu texnologiyaning asosini axborot (informatsiya) va ularni qayta ishlash vositalari (asosan kompyuterlar) tashkil qiladi. Ushbu texnologiyadan hozirgi vaqtda deyarli barcha sohalarda keng foydalanimoqda. Axborot texnologiyalari sohasida turli axborotni elektron hisoblash mashnalari va kompyuter tarmoqlari orqali yig'ish, saqlash, himoyalash, qayta ishlash, uzatish kabi amallar ustida ishlar olib boriladi.

Axborot texnologiyalarining **asosiy texnik vositalari** sifatida hisoblash- tashkiliy texnikadan tashqari aloqa vositalari – telefon, teletayp, telefaks va boshqalar ham qo'llaniladi.

Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, xozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta

bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch, energiya, xom-ashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya'ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallab bormoqda.

Axborot texnologiyalari ***industriyasi majmuini*** kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan bog'liq faoliyat sohalari tashkil qiladi. Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda saqllovchi, ratsionalallashtiruvchi, yaratuvchi turlarga ajratish mumkin.

- Birinchi turdag'i texnologiyalar mehnatni, moddiy resurslarni, vaqtini tejaydi.

- Ratsionalallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mexmonxona hisob-kitoblari tizimlari misol bo'ladi.

- Yaratuvchi (ijodiy) axborot texnologiyalari axborotni ishlab chiqaradigan, undan foydalanadigan va insonni tarkibiy qism sifatida o'z ichiga oladigan tizimlardan iborat.

Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha soxalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlanish, mamlakat fan-texnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi. Darhaqiqat, jamiyatni axborotlashtirish – inson hayotining barcha jabhalarida intellektual faoliyatning rolini oshirish bilan boglik obyektiv jarayon hisoblanaadi. Jamiyatni axborotlashtirish insonlar turmush darajasining yaxshilanishiiga, ijtimoiy extiyojlarning qondirilishiiga, iqtisodning o'sishi hamda fan-texnika taraqqiyotining jadallahishiiga xizmat qiladi.

Jamiyatni axborotlashtirish jarayonini 5 asosiy yo'nalishga ajratish mumkin:

- Mehnat, texnologik va ishlab chiqarish jarayoni vositalarini kompleks avtomatlashtirish;
- Ilmiy tadqiqotlar, loyihalash va ishlab chiqarish axborotlashtirish;
- Tashkiliy- iqtisodiy boshqarishni avtomatlashtirish;

- Aholiga xizmat ko'rsatish sohasini axborotlashtirish;
- Talim va kadrlar tayyorlash jarayonini axborotlashtirish.

O'tgan asrda olamshumul kashfiyotlarning aksariyat qismi insонning intellektual salohiyatiga asoslanib amalga oshirilgan bo'lsa, yangi ming yillikka kelib ilm-fan zamonaviy kompyuter texnologiyalari va AKT yordamida rivojlanib bormoqda. Barcha sohalar, jumladan, tibbiyot, geologiya, astronomiya, sanoat yoki qishloq xo'jaligi sohalaridagi yangi texnologiyalar, virtual ilmiy laboratoriylar va elektron kutubxonalar hamda shu kabi barcha sohalar AKT va ilm-fan integratsiyasini taqozo qiladi. Bugungi kunda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi insон uchun AKT qanchalik muhim bo'lsa, uni ilmiy boshqaruv sohasida tadbiq etish ham shu qadar dolzarb hisoblanadi.

Kimyoviy va ishlab chiqarish injeneringida kompyuterlar va kompyuterlashtirish vositalardan foydalanish o'tgan asrning 80-yillaridan keyin rivojlanishni boshladi. Bizga ma'lumki kompyuterlar biznes va ta'limning ajralmas qismi bo'lib ulgurgan bo'lib, hozirgi kunda, ushbu vositalardan kimyoviy injeneringda foydalanish ham huddi shunday mavqega ega bo'lib bormoqda. Ushbu darslik kimyoviy injeneringda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalar olishga mo'ljallangan.

## **1.2. Kimyo injeneringi uchun axborot texnologiyalari yo'nali-shining rivojlanish bosqichlari**

Moddiy balans, energiya balansi, termodinamika, oqimlar nazariyasi, issiqlik almashinish jarayonlari, modda almashinuvi jarayonlari, reaktorlarni loyihalash, kinetika kabi kimyoviy jarayonlarning asosiy o'zagi hisoblangan qonuniyatlar saqlanib qolning hamda laboratoriya olib borish imkoniyatlari mavjud bo'lmagan holatlarda maxsus dasturlar orqali tegishli jarayonlarni urganish keng tarqalib bormoqda. Ushbu sohaning ilk rivojlanish bosqichlarida ushbu jarayon ba'zi olimlar (Tom Edgars, Texas Universiteti professori hamda Amerika kimyo muhandislari Instituti asoschisi) tomonidan "*kimyo injeneringida axborot texnologiyalarini va kompyuter dasturlarini keng qo'llash va*

*ular orqali oxirgi xulosalarni qurish kimyo sanoatining rivojlanishiga olib kelmaydi” degan ma’nodagi fikrlarni ilgari surgan.*

Bunday salbiy fikrlarga qaramasdan, ko‘plab kimyo injenering kurslarida axborot texnologiyalaridan keng foydalanilgan. Misol uchun, 1997-yili Kimyo Injeneringi fakultetida Konnektikut Universiteti (Connecticut University) professori (Michael Cutlip) kimyo injeneringi muammolarini kompyuter dasturlari yordamida yechish bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil etgan. Ulardan ba’zilari quyida keltirilgan:

- Separasiyalash jarayonida moddiy balans tenglamalarini yechish;
- Tajriba natijalarini nochiziq regressiya egri chizig‘iga moslash;
- Oddiy differensial tenglamalardan boshlang‘ich qiymatlar sifatida foydalangan holda beqaror issiqlik almashinish jarayonlarini hisoblash;
- Oddiy differensial tenglamalardan chegaraviy qiymatlar sifatida foydalangan holda reaksiyon diffuziya jarayonini hisoblash;
- Ketma-ket differensial va nochiziq algebraik tenglamalardan foydalangan holda katalitik reaktorda gaz fazasidagi reaksiya jarayonini hisoblash;
- Isitiluvchi sig‘imni nazorat qilish va unig dinamikasini yechish.

Yuqorida keltirilgan muammoli masalalarni Maple, Mathcad, Mathematica, Matlab, C++, Excel, ChemLab va Aspen ONE paketi dasturlaridan foydalangan holda yechish mumkin bo‘lib, hozirgi kunda ushbu dasturlardan keng miqyosda foydalanib kelinmoqda. Foydalanuvchi o‘zining bilim va ko‘nikmalariga ko‘ra ushbu dasturlarning birini tanlashi mumkin. Keyingi boblarimizda ushbu dasturlarning imkoniyatlari va ulardan foydalanish haqida batafsil tushunchalarga ega bo‘lamiz.

Ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish 1970-yillarning o‘rtalariga borib taqaladi. Monsanto Universiteti tomonidan yaratilgan FLOWTRAN - jarayonlarni simulyasiyalash dasturi, ilk simulyator dasturlardan bo‘lib hisoblanadi. Ushbu dastur resikl (qurilmalararo qayta bog‘lanish) oqimlari mayjud bo‘lgan katta hajmdagi jarayonlar uchun qo‘llanilgan dastlabki dasturlardan biridir. Bundan tashqari ushbu dastur orqali polyar, noideal molekulalar uchun mos bo‘lgan termodinamik jarayonlarni ham modellashtirish imkoniyati mayjud bo‘lgan bo‘lib,

talabalar ushbu dasturda qurilgan modellar yordamida jarayonlarni ko'proq realistik tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'lishgan.

### **1.3. Ishlab chiqarish jarayonlarida kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish**

Kimyo sanoati zamonaviy iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Uning mahsulotlari (70 ming xildagi nomlar) keng ko'lamdag'i har-xil turdag'i iste'mol mahsulotlari, shuningdek qishloq xo'jaligi, qayta ishslash, qurilish, xizmatlar sohasi kabi iqtisodiyotning boshqa sohalarida keng qo'llaniladi. Kimyo sanoatining o'zi jami ishlab chiqarilayotgan kimyoviy moddalarning 25 foizini ishlab chiqarish uchun talab etadi. Ushbu mahsulotlarini eng ko'p talab etuvchi sohalarга avtomobil, tekstil, metallurgiya va shu kabi boshqa ishlab chiqarish sohalari kiradi. Kimyo sanoati mahsulotlarini 4 ta kategoriyaga bo'lish mumkin: asosiy kimyoviy moddalar (35-37 %), hayotiy ta'minot mahsulotlari – *lifescience* (30%), maxsus kimyoviy moddalar (20-25 %) va iste'mol mahsulotlari (10%). Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu ko'rsatkichlar ular olib keladigan foydaga ko'ra ma'lum miqdorga o'zgarib turadi, ma'lum miqdordagi kimyoviy moddalar esa import hisobiga olib kelinadi, bu esa o'z navbatida iqtisodiyotga ta'siri ni o'tkazmasdan qolmaydi.

Zamonaviy ishlab chiqarishning samaradorligi sezilarli darajada uning axborotlashtirilganligi bilan bo'qliq hisoblanadi. Yangi axborot texnologiyalari hafaqat korxonanaing eski qonun-qoidalarini o'zgartiribgina qolmasdan, balki ushbu ishlab chiqarish korxonasining istiqbolli infrastrukturasi tashkil etish va rivojlanishning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarish va bohqarishni rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish sinergetik samaradorlikka olib keladi. Axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish ishlab chiqarish korxonasi tomonidan olinayotgan foydaning oshishiga va boshqaruv yechimlarini qabul qilishda, rejalashtirish sifatini oshirishda va shu kabi jarayonlarda yuzaga keladigan iqtisodiy risklarning kamayishiga olib keladi.

Axborotlashtirishning zamonaviy bosqichlarida turli xildagi korporativ informatsion boshqarish tizimlari modellaridan foydalaniladi. Oxirgi 10 yillikda AKT bo'yicha ishlanmalar, loyihamlar va dasturiy ta'minotlar sezilarli darajada oshdi hamda ushbu ishlanma va loyihamlar kimyo sanoati va ishlab chiarishning boshqa sohalarida keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarini kompyuterlashtirish va AKT sohalaridan samarali foydalanish hamda barcha sohalarda ushbu texnologiyalar bo'yicha zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lган kadrlarni tayyorlash muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish maqsadida bir qancha qonunlar, qarorlar va buyruqlar ishlab chiqilgan bo'lib, Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlanтирish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 200-son Qarori, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari shular jumlasidan hisoblanadi.

#### **1.4. Nazorat savollari:**

1. Kimyo va kimyo injeneringi tushunchalariga izoh bering.
2. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?
3. Axborot texnologiyalarining asosiy texnik vositalarini nimalar tashkil etadi?
4. Axborot texnologiyalari industriyasi majmuiga nimalar kiradi?
5. Ishlab chiqarish jarayonlarini kompyuterlashtirish haqida gapirib bering?
6. Ishlab chiqarish va kimyo injeneringi sohalarida AKT va kompyuter dasturlaridan foydalanish haqida fikrlaringizni bayon eting.
7. Kimyo injeneringida qo'llaniladigan dasturlar haqida fikringizni bayon eting.
8. Kimyo injeneringi va boshqa ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llanilishi mumkin dasturlardan yana qaysilarini bilasiz?

## **II BOB**

### **KIMYO INJENERINGI MASALALARIDA MICROSOFT EXCEL DASTURINI QO'LLASH**

- |   |
|---|
| 2.1. MS Excel elektron jadvali haqida umumiyl tushuncha   |
| 2.1.1. MS Excel dasturida Tasma (Lenta)   |
| 2.1.2. Tasmani kichraytirish  |
| 2.1.3. Tasmada yangi menu tashkil etish   |
| 2.1.4. MS Excel dasturida Varaq (Лист, Sheet) larni boshqarish  |
| 2.1.5. MS Excel dasturida matnlarni katakchalarda joylashtirish   |
| 2.1.6. MS Excel dasturida formula va funksiyalar bilan ishlash  |
| 2.1.7. Katakchalardagi ma'lumotlardan boshqa ishchi jadvallarda foydalanish   |
| 2.1.8. Boshqa ishchi kitob katakchalaridagi ma'lumotlardan foydalanish  |
| 2.1.9. Funksiyalar bilan ishlash  |
| 2.1.10. MS Excel dasturida diagrammalar bilan ishlash   |
| 2.1.11. Diagramma elementlari bilan tanishish   |
| 2.2. MS Excel dasturida hisoblash asoslari  |
| Muhandislik masalalarini yechishda qo'llaniladigan funksiyalar  |
| 2.3. MS Excel dasturida kimyo injeneringi masalalarini yechish  |
| 2.3.1. MS Excel dasturida Поиск решения (Solver) ilovasi  |
| 2.1-Masala. MS Excelda dasturi yordamida kimyoviy reaksiya konstantasini hisoblash  |
| 2.2-Masala. Поиск решения ilovasi yordamida ishlab chiqarish masalalarini yechish. Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish misolida.     |
| 2.3-Masala. Поиск решения ilovasi yordamida ishlab chiqarish masalalarini yechish. Qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish misolida. |

## **2.1. MS Excel elektron jadvali haqida umumiyl tushuncha**


Microsoft Excel elektron jadvali Microsoft Office paketining bir qismi hisoblanib, ushbu dastur o'zida elektron jadval, ilova, funksiyalar va grafik instrumentlarini aks ettiradi. Microsoft Excel elektron jadvalining eng muhim ustunligi sanoat va ilmiy sohada keng qamrovdan foydalanilishidir. Shunday qilib bu dastur nafaqat hisoblash amallarini bajarish uchun balki, turli rejali dasturlar ta'minoti uchun ham ishlataladi. Foydalanuvchi Microsoft Excel elektron jadvalida boshqa dasturlar bilan o'zarboqliqlikda ham foydalaniishi mumkin.

Umimiy holda elektron jadvallar asosan iqtisodiy masalalarni yechishga mo'ljallangan bo'lsa-da, uning tarkibiga kiruvchi vositalar boshqa sohaga tegishli masalalarni yechishga ham masalan, formulalar bo'yicha hisoblash ishlarini olib borish, grafik va diagrammalar qurishda ham katta yordam beradi. Shuning uchun Microsoft Excel elektron jadvali dasturini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi va har bir foydalanuvchidan Microsoft Excel elektron jadvali bilan ishlay olish ko'nikmasiga ega bo'lish talab etiladi.

Inson o'z ish faoliyati davomida ko'pincha biror kerakli ma'lumot olish uchun bir xil, zerikarli, ba'zida esa murakkab bo'lgan ishlarini bajarishga majbur bo'ladi. Microsoft Excel elektron jadvali mana shu amallarni osonlashtirish va yechimini tez va oson topish uchun ishlab chiqilgan dasturiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Microsoft Excel elektron jadvali hisoblash vositasi sifatida qaralib, iqtisodiy va moliyaviy masalalarni yechishda yordam beribgina qolmay, balki har kungi xarid qilinadigan oziq-ovqatlar, uy-ro'zg'or buyumlari hamda bankdag'i hisob raqamlari hisob-kitobini olib borishda ham yordam beruvchi tayyor dasturdir. Foydalanuvchi Microsoft Excel elektron jadvali ishga tushirganda (2.1-rasm) ustun va qatorlarni ko'rishmiz mumkin. Ustunlar lotin harflar bilan, qatorlar esa sonlar

orqali ifodalangan bo‘ladi. Ularning kesishmasi katakchalar (yacheyska) deb yuritiladi.




## 2.1-rasm: Excel dasturi interfeysi

Microsoft Excel elektron jadvali bu matnlar, raqamlar, bo‘sh joylar va boshqa belgilardan iborat bo‘lgan ixtiyoriy ketma-ketlikdir.

### 2.1.1. MS Excel dasturida *Tasma* (Lenta)

Excelni ochganimizda ushbu dasturning asosiy *tasma* (lenta) qatorida *Asosiy* (*Home*, Главная) menyusini ko‘rsatadi (2.2-rasm).



## 2.2-rasm: MS Excel dasturi lentasi<sup>1</sup>

Tasmadagi quyidagi menyular mavjud:

- Fayl (File, Файл);

<sup>1</sup> Excel 2007 dagi Office tugmasini o‘rniga Excel 2010 yoki undan keyingi versiyalarida Fayl menyusi chiqadi

- Asosiy (Home, Главная);
- Kiritish (Insert, Вставка);
- Sahifa Tartibi (Page Layout, Разметка страницы);
- Formulalar (Formulas, Формулы);
- Ma'lumotlar (Data, Данные);
- Ko'rib Chiqish (Review, Рецензирование);
- Ko'rinish (View, Вид).

Asosiy (Home, Главная) menu Excelda eng ko'p ishlataladigan buyruqlarni o'z ichiga olgan bo'lib, talaba yoki foydalanuvchi ushbu boshqa menyulardagi buyruqlardan foydalanishni mustaqil ravishda o'rganishi tavsiya etiladi.


### 2.1.2. Tasmani kichraytirish

Ekranda ko'proq ishchi maydon hosil qilish uchun tasmani kichraytirish funksiyasi mavjud bo'lib, buning uchun tasmaning istalgan joyida sichqonchaning o'ng tomoni bosiladi va *Tasmani kichraytirish* (Свернуть ленту, Minimize the Ribbon)ni ustiga (yoki CTRL + F1) bosiladi (2.3-rasm).



### 2.3-rasm. MS Excel dasturida tasmani kichraytirish buyrug'ini tanlash

Natijada dasturning menu qatori 2.4-rasmdagi ko'rinishga o'tadi.




2.4-rasm. MS Excel dasturida tasmaning yashirin holatga o'tishi

### **2.1.3. Tasmada yangi menu tashkil etish**


MS Excel dasturining 2010 va keyingi versiyalarda, foydalanuvchi uchun qulay bo‘lgan buyruqlardan tashkil topgan yangi menu yaratish imkoniyati mavjud. Buning uchun quyidagi ketma-ketlikdagi amallar bajariladi:

1. Tasmaning istalgan joyida sichqonchaning o‘ng tomoni bosiladi va *Tasmani sozlash* (Настройка ленты..., Customize the Ribbon)ni tanlanadi (2.5-rasm).




### **2.5-rasm. MS Excel dasturida *Tasmani sozlash* buyrug‘ini tanlash**

2. *Yorliq yaratish* (Создать вкладку, New Tab) tugmasi bosiladi (2.6-rasm).




### **2.6-rasm. MS Excel dasturida yangi yorliqni yaratish buyrug‘ii tanlash oynasi**

3. Yangi yaratilayotgan yorliq uchun kerakli bo‘lgan buyruqlar qo‘shiladi va *Qayta nomlash* (Переименовать, *Rename*) tugmasini bosish orqali yorliq qayta nomalanadi (2.7-rasm).



## 2.7-rasm. MS Excel dasturida yangi menyuni qo‘sish va nomlash


Natijada MS Excel dasturi tasmasida yangi buyruqlarni o‘z ichiga olgan yangi yorliq paydo bo‘ladi (2.8-rasm).




## 2.8-rasm. MS Excel dasturida yangi qo‘shilgan yorliq va menyu qatori

Bunga uxshash yorliqlardan bir nechtasini qo'shish mumkin. Biroq yorliqni yashirish uchun, belgilash katakchasidan tanlash (галочка)ni olib tashlash kifoya qiladi. *Tasma* va *Tez Kirish* (Панель быстрого доступа, Quick Access Toolbar) foydalanish panelidagi barcha qo'shimcha o'zgarishlarni o'chirish uchun (Сброс, Сброс всех настроек, Reset, Reset all customizations) tugmalari bosiladi.


#### 2.1.4. MS Excel dasturida *Varaq* (Лист, Sheet) larni boshqarish

MS Excel dasturida standart holatda 3 ta bo'sh *Varaq* (Лист, Sheet) dan iborat bo'sh jadval mavjud bo'lib, ular mos holatda Лист1, Лист2, Лист3 deb nomalanadi hamda  tugmasini bosish orqali yagi varaqlarni qo'shish imkoniyati mavjud (2-9 rasm).



#### 2.9-rasm. MS Excel dasturida varaqlar

MS Excelning oxirgi versiyalarida ushbu varaqlar yorliqlarining ranglarini istalgan rangda belgilash imkoniyati mavjud bo'lib, ushbu amal 2.10-rasmda ko'rsatilgan ketma-ketlikda kontekst menyudagi buyruqlarni tanlash orqali amalga oshiriladi.



#### 2.10-rasm. MS Excel dasturida varaqlar yorliqlari rangini o'zgartirish

Bundan tashqari, kontekst menyu orqali varaqlar *nomini o'zgartirish* (Переименовать, *Rename*), o'chirish, ularni himoyalash, ketma-ketligini o'zgartirish yoki nusxa ko'chirish kabi ishlarni amalga oshirish mumkin (2.10-rasm).

### 2.1.5. MS Excel dasturida matnlarni katakchalarda joylashtirish

Kiritilayotgan ma'lumotlarimiz katakchaga sig'magan vaziyatlarda sig'may qolgan qismi ekran katakchasingning o'ng qismiga o'tkaziladi (agar u bo'sh bo'lsa). Bunday hollarda quyidagi usullardan foydalanib, katakcha kengligini va balandligini o'zgartirish mumkin.

***Ustun kengligini o'zgartirish.*** Bir yoki bir nechta ustun kengligini o'zgartirish usullarini qarab chiqamiz. Buning uchun o'zgartirish kerak bo'lган ustunlarni belgilab olish kerak. Ular bir xil uzunlikdagi «Формат Ячейки» (Katakcha formati) buyruqlarini tanlash va bayroqcha (флажок) belgisini «Переносит по словам» degan ibora ustiga joylashtirish kerak yoki buyruqlar lentasidan tugmasini bosish kerak (2.11-rasm).



**2.11-rasm: Uzun hajmdagi matnlarni katakcha kengligi bo'yicha joylashtirish**

Sichqoncha ko'rsatkichini ustunning o'ng chegara chizig'iga olib kelib, ustun kengligini keragicha uzaytirish ham mumkin. Bu ish sichqoncha tugmasi bosilgan holatda amalga oshiriladi.

«Формат»—«Столбец» (Ustun) — «Ширина» (Kenglik) buyruqlarini ketma-ket tartib bilan tanlab, «Ширина столбцов» (Ustun kengligi) muloqot oynasida parametrga kerakli qiymat beriladi va OK tugmasi bosiladi. «Формат»—«Столбец» (Ustun) «Автоподбор ширины» (Kenglikni avtomatik tanlash) buyrug'ini bajariladi. Bunda

ajratib ko'rsatilgan ustun kengligi shunday tanlanadiki, unga eng uzun ma'lumotlar qatorini kiritish mumkin bo'ladi.

Ustunning o'ng chegarasiga sichqoncha ko'rsatkichini olib kelib, sichqonchaning chap tugmasi ikki marta tez-tez bosilsa, kiritilayotgan qatorning eng uzun ma'lumoti sig'adigan ustun kengligi avtomatik ravishda tanlanadi.

***Qatorlar balandligini o'zgartirish.*** Qatorlarga ma'lumotlarni kiritish uning shriftiga, ya'ni kiritilayotgan belgilarning o'lchamiga bog'liq bo'lib, ko'pincha normal format (стиль) ishlataladi. Microsoft Excel elektron jadvali qatorlarining balandligi kiritilayotgan ma'lumotlarning qanday o'lchamdagisi shriftda yozilganiga qarab avtomatik ravishda o'zgarib boradi. Bundan tashqari qatorlar balandligini yuqoridaqgi ustunlar kengligini o'zgartirish buyruqlari orqali ham o'zgartirish mumkin. Buning uchun buyruqlardagi «Столбец» (Ustun) buyrug'i o'rniga «Строка» (Satr) buyrug'idan foydalaniladi.

***Sonlarni kiritish.*** Sonlar bir katakchaga kiritilayotgan sonlar o'zgarmaslar (konstantalar) sifatida qabul qilinadi. Microsoft Excel elektron jadvalida sonlar quyidagi 1,2,3,...9,0,Q,—,( ),G\$,%,E,e belgilari orqali kiritiladi. Tugmalarning boshqa barcha kombinatsiyalari orqali kiritilayotgan ma'lumotlar raqamli va raqamsiz belgilardan iborat bo'lib, matn sifatida qaraladi. Manfiy sonlar kiritilayotganda son oldiga «—» ishorasi quyiladi yoki son qavs ichiga olinib yoziladi. Masalan, -5 yoki -(5). Kiritilayotgan sonlar hamma vaqt katakchaning o'ng chegarasidan boshlab yoziladi. Kiritilayotgan sonli qiymatlar formatlanmagan holatda bo'ladi, boshqacha aytganda, ular oddiy raqamlar ketma-ketligidan iborat bo'ladi. Shuning uchun sonlarni formatlash zarur. Sonlarni bunday formatlashdan maqsad — katakchadagi ma'lumotlarni, ya'ni sonlarni oson o'qish imkonini yaratishdir.

Microsoft Excel elektron jadvalida sonli qiymatlar quyidagicha formatlanadi:

1. *Umumiyl;*
2. *Sonli;*
3. *Pul birlklari;*
4. *Moliyaviy;*

5. *Kun, oy (sana):*
6. *Vaqt:*
7. *Foiz;*
8. *Kasrlı;*
9. *Eksponensial;*
10. *Matnli;*
11. *Qo'shimcha (barcha formatlar).*

Agar katakchadagi belgilarni «panjara» (#####) paydo bo'lsa, tanlangan formatdagi sonlar ustun kengligiga sig'magan hisoblanadi. Bunday hollarda ustun kengligini o'zgartirish yoki boshqa sonli formatlashga o'tish kerak bo'ladi.

Agar sonli qiymatlar formatlangandan keyin katakchadagi jadval kurisorini sonli qiymatlari bilan boshqasiga o'tkazilsa, formulalar qatorida sonli qiymatlarning formatlanmagan ko'rinishi hosil bo'ladi, chunki formatlash sonli qiymatning katakchadagi ko'rinishigagina ta'sir etadi.

**Sonlar formatini o'zgartirish (formatlash).** Formatlashdan oldin kerakli katakchalarni ajratib olinadi va ushbu ajratilgan katakcha bo'yicha formatlash ishlari amalga oshiriladi.

**Uskunalar paneli yordamida formatlash.** Uskunalar panelida bir qancha formatlash tugmalari joylashgan bo'lib, ular kerakli formatlash turini tez tanlab olish va foydalanish imkonini beradi.

Katakchalar ajratilgandan keyin tanlangan tugmalarga sichqoncha ko'rsatkichini olib borib, tugmasini bosish kerak. Shundan so'ng katakchada tanlangan format asosida ish olib boriladi.

Bosh menu yordamida formatlash. Bosh menyuda formatlash buyrug'i quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

«Формат» - «Формат ячейки» (Katakcha formati) buyruqlari tanlanib, muloqot oynasidan «Число» (Son) ning kerakli parametrlari formati tanlananadi.

**Tekislash.** Matnlar katakchaga kiritilganda, ko'pincha, katakchanning chap chegarasida tekislanadi. Sonli qiymatlar esa katakchaning o'ng chegarasidan boshlab tekis holatda yoziladi. Katakchadagi yozuv chegaralarini turli tartibda o'zgartirish mumkin. Buning uchun kerakli katakchalar ajratib olinadi va uskunalar panelida joylashgan turli to-

monli formatlash piktogrammalaridan biri tanlab olinadi. Bundan tashqari gorizontal menyudagi «Формат» - «Катакча» -«Выравнивание» (Tekislash) buyruqlari orqali ham o'zgartirish, ya'ni tekislash mumkin.

Microsoft Excel elektron jadvalida tayyorlangan har bir hujjat (ma'lumotli jadval) ixtiyoriy nom va **.xls** yoki **.xlsx** kengaytmadan iborat fayl bo'ladi. Microsoft Excel elektron jadvalida odatda bunday fayl "*Ish kitobi*" (Книга, Workbook) deb yuritiladi. Microsoft Excel elektron jadvalining asosiy ish sohasi – bu "ish kitobi" bo'lib, u bir yoki bir necha ish maydonlaridan iborat. Ish maydonida sonlar, matnlar, arifmetik ifodalar joylashgan bo'ladi. Microsoft Excel elektron jadvalining buxgalter kitobidan asosiy farqi barcha hisob ishlari uning o'zida bajariladi. Lekin ma'lumotlarni kiritish foydalanuvchi tomonidan amalgalashiriladi.

### **2.1.6. MS Excel dasturida formula va funksiyalar bilan ishlash**

MS Excel dasturida har bir katakchaga son, matn yoki formula tarzidagi ma'lumotlar kiritiladi. Ustun kengligini va qator balandligini o'zgartirish ham mumkin. Jadvalning tanlangan katakchasiga o'tish uchun aniq manzil (адрес) ko'rsatilishi kerak. U qator va ustun kesishmasida, masalan A1, B4, F9, AB3 kabi ko'rsatiladi.


**Formula** - bu mavjud qiymatlar asosida yangi qiymatlarni hisoblovchi tenglamadir. Formulalar yordamida elektron jadvalda matematik va mantiqiy ifodalar ishtirokida ma'lumotlarni qayta ishslash amallarini bajarish mumkin. Elektron jadvallar formulalarsiz oddiy matn muharriiga aylanub qoladi.

Jadvalga formulani qo'yish uchun uni kerakli katakchaga kiritish kerak. Formulalarni ham boshqa ma'lumotlar singari o'zgartirish, salash, ulardan nusxa ko'chirish va o'chirish mumkin. Formuladagi arifmetik amallar sonli qiymatlarni hisoblashda, maxsus funksiyalar matnlarni qayta ishslashda hamda katakchadagi boshqa murakkab ifodalarni hisoblashda ishlataladi.

Bundan tashqari bir qator vazifalarni bajaruvchi funksiyalar mavjud. Masalan trigonometrik (*sin, cos, tan* va *boshqalar*) statistik (o'rta

qiymat, taqrifiy qiymat va boshqalar) algebraik (*sum*, *round*, *log* va *boshqalar*) logik (*if*, *false*). Kerakli funksiyadan foydalanish uchun foydalanuvchi  $f(x)$  tugmasini belgilash lozim (2.12-rasm).

**Sonlar va matnlar.** Formuladagi hisoblashlarda qatnashayotgan sonlar va matnlar boshqa katakchalarda joylashgan bo‘lishi mumkin bo‘lishiga qaramasdan, ularning ma’lumotlarini oson almashtirish mumkin. Masalan, MS Excel dasturida boshlang‘ich ma’lumotlar o‘zgartirilsa, formulalar qayta hisoblab chiqadi.



## 2.12-rasm: MS Excel dasturida funksiyalarni kiritish

Operatorlar standart matematik qoidalarga asoslanadi. Arifmetik amallarni bajarish tartibi saqlanib qoladi.

**1.1. Jadval.** Excel dasturida operatorlar va ularning vazifalari

Belgilar	Operatorlar	Bajarilish tartibi
$^$	Darajaga ko‘tarish	1
*	Ko‘paytirish	2

/	Bo'lish	2
+	Ko'shish	3
-	Ayirish	3
&	konyunksiya	4
=	Tenglik	5
>	dan katta	5
<	dan kichik	5

MS Excel dasturida formulalarni hisoblash va bajarish quyidagi tartib asosida amalga oshiriladi:

- Birinchi bo'lib qavs ichidagi ifodalar qarab chiqiladi;
- Undan keyin amallar bajarish tartibi saqlangan holda operatorlar bajariladi;
- Agar formulalarda bir xil tartibli bir necha operatorlar bo'lsa, ular ketma-ket chapdan o'ngga qarab bajariladi.

2.1-jadvalda formulalarda qo'llaniladigan operatorlarning bajari-lish tartibi ko'rsatilgan.

Agar formula katakchaga kiritilsa, unda katakchada kiritilgan formula asosidagi hisoblash natijasi ko'rindi, formulaning o'zi esa tegishli katakcha faollashtirilsa formulalar qatorida paydo bo'ladi. Formulalar har doim  $\Leftrightarrow$  belgisi bilan boshlanadi. Ushbu belgi yordamida MS Excel dasturida matn va formulalar farqlanadi.

Katakchaga formulalarni kiritishning ikkita usuli mavjud:

1. *Formulani klaviatura orqali kiritish:*  $\Leftrightarrow$  belgisi orqali formula kiritiladi. Formula kiritish vaqtida belgililar formulalar qatorida hamda faollashgan katakchada paydo bo'ladi. Formulalarni kiritishda odatdagi tahrirlash tugmalaridan foydalanish mumkin.

2. *Katakchalar manzilini ko'rsatish yo'li bilan formulalar kiritish:* Bu usulda ham formulalar klaviaturadan kiritish orqali, lekin klaviaturadan kamroq foydalangan holda amalga oshiriladi. Ushbu usulda katakchalar manzilini kiritish o'rniiga ular ko'rsatiladi, xolos. Masalan, A3 katakchaga  $=A1+A2$  formulasini kiritish uchun quyidagilarni bajarish kerak:

- jadval kursori A3 katakchaga o'tkaziladi;
- «=> belgisi kiritiladi. Formulalar qatori yonida “*kiritish*” (ввод) yozuvi paydo bo'ladi;
- sichqoncha ko'rsatkichi A1 katakchaga olib boriladi va chap tugmachasi bosiladi. Natijada katakcha ajratib ko'rsatiladi, ya'ni uning atrofida harakatlanuvchi hoshiya paydo bo'ladi. A3 katakchasi formulalar qatorida — A1 katakcha manzili ko'rindi. Holat qatorida esa 'Ko'rsating' (Укажите) yozuvi paydo bo'ladi;
- «+» belgisi kiritiladi. Natijada xarakatlanuvchi hoshiya yuqolib, yana «ввод» (Kiritish) so'zi chiqadi;
- Sichqoncha ko'rsatkichi A2 katakchaga o'tkaziladi va sichqoncha tugmachasi bosiladi. Formulaga A2 katakcha qo'shiladi;
- ENTER tugmasini bosish bilan formulani kiritish yakunlanadi.

Katakcha manzilini ko'rsatish usuli klaviatura yordamida kiritish usulidan oson va tez bajariladi.

Formulalarni boshqa ishchi jadvallar katakchalariga ham yuborish mumkin, boshqacha aytganda, formulalar bir necha joyda takrorlanishi mumkin. Hattoki, boshqa ishchi kitobdagagi ishchi jadvallarda ham ushbu holatni amalga oshirish mumkin. Buning uchun MS Excel dasturida maxsus yozuvdan foydalaniladi.

### **2.1.7. Katakchalardagi ma'lumotlardan boshqa ishchi jadvallarda foydalanish.**

Joriy ishchi kitobdagagi ma'lumotlardan boshqa ishchi kitobdagagi katakchada foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

**=Joy nomi. Katakcha manzili**

Katakcha manzili oldiga joyning nomi undov belgisi bilan qo'yiladi. Masalan, =A1\*лист!A2

Bu formulada joriy ishchi jadvaldagagi A1 katakcha qiymati A2 katakcha qiymatiga ko'paytiriladi va «Лист2» ishchi maydonida joylashadi. Agar jo'natishda ishchi jadvalning nomi bir yoki bir nechta bo'shligi o'z ichiga olsa, jadvalning nomi ‘ ‘ belgi ichiga olinib ko'rsatiladi.

### **2.1.8. Boshqa ishchi kitob katakchalaridagi ma'lumotlardan foydalanish**

Boshqa ishchi kitob katakchalariga ma'lumotlarni o'tkazish uchun quyidagi ifodadan foydalilanildi:

=**[Ishchi kitob nomi] Varaq nomi! Katakcha manzili**

Katakcha manzili oldiga ishchi kitob nomi yozilib, kvadrat qavslarga olinadi va ishchi jadval nomi undov belgisi yordamida ko'rsatiladi.

Masalan,

=**/Byudjet.xls>List1!A1**

Agar ishchi kitob nomida bir yoki bir nechta bo'shliq bo'lsa, u holda uning nomi tutuq belgisi (') ichiga olinishi kerak.

Masalan,

=**A1\* '/2018 yil uchun Byudjet/Лист1!'A1**

Agar biror manzil, ya'ni katakcha o'zgarmas holatda beriladigan bo'lsa, u holda ushbu katakchaning ustun va qator koordinatlari oldida \$ belgisi qo'yilishi kerak bo'ladi. Misol uchun, agar bizga C1=\$A\$1\*B1 shaklidagi formula berilgan bo'lsa ushbu formulani C2 va boshqa katakchalarga ko'chirilganda A1 katakchani o'zgarmas katakcha sifatida qabul qiladi, ya'ni C10 katakchadagi formula =\$A\$1\*B10 ko'rinishida bo'ladi.

### **2.1.9. Funksiyalar bilan ishlash**

Murakkab formulalarni yozish uchun funksiyalar masteri vositasidan foydalanish samarali yechimlardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu vosita formulalarni kiritishni yengillashtiradi (tanlangan funksiyaga ko'ra avtomatik ravishda tinish belgilari, qavslar va shu kabilarni chiqaradi). Havolalar qiymatlari va oraliq hisoblashlar natijalarini ko'rish imkonini beradi.

Funksiya - bu formulalarda qo'llaniladigan dastur tarkibiga kiritib qo'yilgan tayyor murakkab matematik va mantiqiy ifodalar majmui bo'lib, ular murakkab bo'lgan matematik va mantiqiy amallarni bajaradi.

Funksiyalar quyidagi ishlarni bajarish imkonini beradi.

1. Formulalarni qisqartirish;
2. Formulalar bo'yicha boshqa qilib bo'lmaydigan hisob ishlarni bajarish;
3. Ayrim muharrirlik masalalarini hal qilishni tezlashtirish.

Barcha formulalarda oddiy ( ) qavslar ishlataladi. Qavs ichidagi ma'lumotlar argumentlar deb ataladi. Funksiyalar qanday argumentlar ishlatalayotganligiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Funksiyaning turlariga qarab ular quyidagicha ishlatalishi mumkin:

- argumentsiz;
- bir argumentli;
- qayd qilingan cheklangan argumentlar soni bilan;
- noma'lum sondagi argumentlar soni bilan;
- shart bo'limgan argumentlar bilan.

Funksiyada argumentlar ishlatilmasa ham, bo'sh qavslar ko'rsatilishi lozim. Masalan, =RAND(). Agar funksiyada bittadan ortiq argument ishlatilsa, ular orasiga nuqtali vergul (;) qo'yiladi.

Funksiyalar masterini ishga tushirishning 3 xil usuli mavjud:

1. Formulalar qatoridagi  $\Sigma$  (Мастер функция) tugmasini bosish orqali;
2.  $\Sigma$  tugmasi tarkibidagi boshqa funksiyalar ("Другие функции...") buyrug'ini tanlash orqali;
3. "Вставка" menyusidagi "Функция" buyrug'ini tanlash orqali.

"Мастер функция" ni qo'llash funksiyaning yozilishi va uning hamma argumentlarini sintaktik tog'ri tartibda kiritilishini ta'minlaydi.

### **2.1.10. MS Excel dasturida diagrammalar bilan ishlash**

MS Excel dasturida berilgan ma'lumotlarni diagrammalar ko'rinishida ifodalish elektron jadvallarning ajralmas qismi bo'lib, ular grafikar deb ham yuritiladi. Ma'lumotlarni diagrammalar ko'rinishida ifodalash orqali bajarilayotgan ishni tez tushunish va hal qilish mumkin. Jumladan, diagrammalar juda katta xajmdagi sonlarni ko'rgazmali tasvirlash va ular orasidagi aloqadorlikni aniqlashda juda qulay hisoblanadi.

**Diagramma — sonli jadval ko'rinishida berilgan axborotlarni ko'r-gazmali namoyish etish usulidir.**

Diagrammalar asosan sonli qiymatlar asosida quriladi. Buning uchun ishchi jadval varag'iga bir necha son kiritiladi, so'ng diagramma tuzishga kirishiladi. Odatda, diagrammalar uchun foydalanilayotgan

ma'lumotlar bir joyda joylashgan bo'lib, bitta diagramma ma'lumotlarni ko'p sonli ishchi varaqlar va hatto ishchi kitoblardan ham olishi mumkin.

MS Excel dasturining oxirgi versiyalarida diagrammalar hosil qilish Вставка menyusi orqali amalga oshiriladi (2.13-rasm). Ushbu diagrammalarning quyidagi turlari mavjud:



Гистограмма

*Gistogramma.* Ushbu turdag'i diagramma berilgan qiymatlarni ularning kategoriyalari bo'yicha vertical ko'rinishda solishtirib, ularning to'rtburchakli, silinfrik, piramidal ko'rinishidagi shakllari mavjud.



График

Grafik. Ushbu turdag'i diagramma, qayta ishlanayotgan ma'lumotlarni xy o'qi bo'yicha (misol uchun: berilgan qiymatlarning vaqt diapozonida o'zgarishi) o'zgarish qiymatlarini ko'rish uchun foydalanimli mumkin.



Круговая

Aylana. Berilgan qiymatlarning umumiy yig'indiga nisbatan ulushini ko'rishda tasvirlash uchun foydalanimli.



Линейчатая

Chiziqli. Ushbu turdag'i diagramma berilgan qiymatlarni ularning kategoriyalari bo'yicha gorizontal ko'rinishda solishtirib, ularning to'rtburchakli, silinfrik, piramidal ko'rinishidagi shakllari mavjud.



областями

Sohali yoki yuzali. Ushbu turdag'i diagrammalar berilgan qiymatlarning vaqt diapozonida kategoriylar bo'yicha soha ko'rinishida tasvirlash uchun xizmat qiladi.



Точечная

Nuqtali. Berilgan qiymatlarni xy o'qi bo'yicha berilgan koordinatalar bo'yicha solishtiradi va ularning kesishish chiziqlarini aniqlashda foydalanimli.



Другие

Boshqa turdag'i diagrammalar. Ushbu diagrammalar o'z ichiga birja ma'lumotlari, yuzali, halqali, sharsimon ko'rinishdagi diagrammalarni qamrab oladi.



A1

Ko'rsatkich


**Toshkent kimyo-tehnologiya instituti 1-kurs talabalarining darslarga qatnashish davomati**

Toshkent kimyo-tehnologiya instituti 1-kurs talabalarining darslarga qatnashish davomati			
Guruhlar	Talabalar soni	Darsga qatnashmagan talabalar soni	Davomat ko'satkichi, %
1-17	20	1	95%
2-17	22	0	100%
3-17	19	2	89%
4-17	21	1	95%
5-17	18	0	100%
6-17	23	3	87%
7-17	21	1	95%
8-17	24	2	92%
9-17	20	0	100%

**2.13-rasm. MS Excel dasturida diagrammalar qurish oynasi.**


Excelda tuzilgan diagrammalarni joylashtirishning ikki xil usuli mavjud:

1. Qurilgan diagrammani varaqning ichki elementi sifatida bevosita varaqqa qo'yish (*joriy varaq*) (2.14-rasm);

**2.14-rasm. Diagrammalarni joriy varaqda tasvirlash**

2. Ishchi kitobning yangi, varag'ida diagramma qo'yish. Diagramma varag'i ishchi kitobning varaqidan bitta diagrammani saqlashi va

yacheykalari bo'limganligi bilan farq qiladi (*diagrammalr varagi*) (2.15-rasm).




## 2.15-rasm. Diagrammalarni alohida varaqda tasvirlash

Agar diagramma varagi faollashtirilsa, unda Excel menyusiga bilan ishlash uchun mos xolda o'zgaradi. Alohida varaqda joylashtirilgan diagrammalar butun varaqni egallaydi (2.15-rasm).

### 2.1.11. Diagramma elementlari bilan tanishish

Diagramma turli elementlardan tashkil topgan bo'lib, ularning bir nechta standart holatda diagramma qurilgan paytda mayjud bo'ladi, qolganlari esa foydalanuvchining istagiga ko'ra qo'shiladi. Diagramma elementlarini ko'rinishini o'zgartirish, bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, o'chami yoki ko'rinishini o'zgartirish mumkin. Shuningdek, kerak bo'limgan elementlarni o'chirish imkoniyatlari mavjud.



## 2.16-rasm. Diagrammalar elementlari

MS Excel dasturida diagramma odatda quyidagi elementlardan tashkil topgan bo'ladi:

1. Umumiy diagramma sohasi;
2. Diagramma nomi;
3. Berilgan ma'lumotlarning ifodalanish sohasi;
4. Kategoriylar (gorizontal) va qiymatlar (vertikal);
5. Qiymatlar;
6. Ma'lum bir qiymatlarni izohlash maydoni;
7. Diagrammadagi qiymatlar guruhlari (legenda).

## 2.2. MS Excel dasturida hisoblash asoslari

MS Excel elektron jadvalida turli xildagi hisoblashlarni formula va funksiyalar yordamida amalga oshirish jarayoni 2.17-rasmida keltirilgan. Bunda quyidagi misol matematik ifoda sifatida olingan:

The screenshot shows a Microsoft Excel spreadsheet. The formula bar displays the formula  $=5*A2^2+8*A2+5\sin(A2)+\text{LOG10}(A2)$ . The cell B2 contains the value 69,6, which is the result of the formula. The column headers are labeled 'x' and 'y'. Below the table, the formula  $y = 5x^2 + 8x + \sin(x) + \lg(x)$  is written.

### 2.17-rasm. MS Excel dasturida formula va funksiyalardan foydalanish

MS Excel dasturida bir qancha standart funksiyalardan, jumladan, trigonometrik funksiyalar ( $\sin$ ,  $\cos$ ,  $\tan$ ,  $\text{acos}$ , va boshq.), statistik funksiyalar ( $mean$ ,  $average$ ,  $t-test$ ), arifmetik funksiyalar ( $sum$ ,  $round$ ,  $log$ ,  $log10$ ), mantiqiy, ( $if$ ,  $true$ ,  $false$  va boshq.), yozuvlar, ma'lumotlar bazasi va boshqa axborot turlaridan foydalaniлади. Kerakli funksiyani to'pish va undan qanday foydalanishni o'rGANISH maqsadida, foydalanuvchi formula satrida  $f_x$  tugmasini belgilash kerak yoki muqobil ravishda formulalar menyusidan foydalanishi mumkin. Foydalanuvchi katakda

vazifani qo‘lda kiritishi yoki menyuda funksiya tugmasiga bosib misollar bilan yordam menyusiga kirishi va funksiyalardan bosqichma-bosqich foydalanishi mumkin.

### **2.2.1. Muhandislik masalalarini yechishda qo‘llaniladigan funksiyalar**

MS Excel dasturida standart holatda kiritilgan funksiyalar mavjud bo‘lib, matematik, statistik, mantiqiy, trigonometrik, logorifmik, moli-yaviy va shu kabi bir qancha funksiyalar ularga misol bo‘la oladi.

#### **Oddiy matematik va statistik funksiyalar**

##### **МИН(Min), МАКС (Max)**

Ushbu funksiya berilgan diapozon bo‘yicha ***eng katta*** yoki ***eng kichik qiymatni*** aniqlash uchun foydalaniladi. Har bir formula yozilishidan avval “=” belgisi qo‘yiladi. Ushbu funksiyaning umumiy ko‘rinishi quyidagicha yoziladi:

=МИН(1-сон; 2-сон; ... ; N-сон)

=МАКС(1-сон; 2-сон; ... ; N-сон)

E1						$\Sigma$	=МИН(A1:D2)
A	B	C	D	E	F		
1	1	3	-5	4	-5		
2	0	6	8	1			
3							

**2.18-rasm. Мин funksiyasining qo‘llanilishi**

**СРЗНАЧ (Average)** – ushbu funksiya berilgan diapozon bo‘yicha sonlarning *o‘rtacha qiymatini* hisoblaydi.

##### **СРЗНАЧ(1-сон; 2-сон; ... ; N-сон)**

**СТЕПЕНЬ (Power)** – ushbu funksiya berilgan sonni yoki ma’lum katakchadagi qiymatni *darajaga* ko‘taradi.

##### **СТЕПЕНЬ(сон; daraja)**

**СУММ (Sum)** - ushbu funksiya berilgan diapozondagi *sonlarning umumiy yig‘indisini* hisoblaydi.

=СУММ(1-аргумент; 2-аргумент; ... ; N-аргумент)

**СЧЁТ(Count)** - ushbu funksiya berilgan diapozon bo‘yicha sonli qiymatlar mavjud bo‘lgan katakchalar sonini hisoblaydi.

## СЧЁТ(1-argument; 2-argument; ... ; N-argument)

ПРОИЗВЕД (*Product*) - ushbu funksiya berilgan diapozon bo'yicha sonli qiyatlarning ko'paytmasini hisoblaydi.

## ПРОИЗВЕД(1-argument; 2-argument; ... ; N-argument)

СУММЕСЛИ (*Sumif*) - Ba'zi holatlarda shunchaki berilgan dia pozondagi qiyatlar yig'indisini hisoblabgina qolmasdan, balki berilgan ma'lum bir shartni qanoatlantiradigan qiyatlarni hisoblash talab etiladi. Bunday hollarda СУММЕСЛИ (Sumif) funksiyasidan foydalanish tavsiya etiladi.

## СУММЕСЛИ(diapozon; shart; [qo'shiluvchilar diapozoni])

Bu yerda:

- **Diapozon-** tekshirilayotgan diapozon bo'lib, har bir katakecha berilgan shart bo'yicha tekshiriladi.

- **shart-** qiyatlar yig'indisini hisoblash uchun berilgan shart. Agar taqqoslash amali kerak bo'lib qolsa, u holda "mantiqiy ifoda" chap ope randsiz ko'rsatiladi va qo'shtirnoq ichiga olib ko'rsatiladi. (masalan, ">=50" — 50 dan katta bo'lgan barcha qiyatlar yig'indisini hisoblaydi). Shuningdek, ushbu holatda matnli (masalan, "monitor" — "monitor" so'zi qatoriga tegishli barcha qiyatlar yig'indisini hisoblaydi, 2.19-rasm) va sonli (masalan, 100 — 100 qiyatiga tegishli bo'lgan qiyatlar yig'indisini hisoblaydi) qiyatlarda ham foydalanish mumkin

- **qo'shiluvchilar diapozoni-** ushbu argument qo'shiluvchilar dia pozonini berish uchun foydalaniladi.

F2				=СУММЕСЛИ(B2:C13; "monitor";C2:C13)
A	B	C	D	E
1	№	Mahsulot nomi	Narxi, ₸	
2	1	monitor	110	
3	2	sichqoncha	10	
4	3	klavatura	4	
5	4	monitor	90	
6	5	sichqoncha	3	
7	6	klavatura	4	
8	7	monitor	100	
9	8	sichqoncha	3	
10	9	klavatura	4	
11	10	monitor	110	Jami sotilgan monitor narxi, ₸
12	11	sichqoncha	3	410
13	12	klavatura	4	Jami sotilgen sichqoncha narxi, ₸

2.19-rasm. СУММЕСЛИ funksiyasining qo'llanilishi


**СЧЁТЕСЛИ (Countif)** – ushbu funksiya СУММЕСЛИ funksiyasiga o'xhash bo'lib, ushbu funksiya orqali berilgan shart bo'yicha katakchalar sonini hisoblaydi.

Agar СУММЕСЛИ(A1:A10; «>10») formulasi yozilsa, u holda berilgan diapozon bo'yicha 10 dan bo'lgan barcha qiymatlar yig'indisini hisoblaydi. Agar СЧЁТЕСЛИ(A1:A10; «>10»), u holda 10 dan katta qiymatlarga ega bo'lgan katakchalar soni hisoblanadi.

Sintaksis:

### **СЧЁТЕСЛИ (diapozon; shart)**

Ushbu ko'rsatilgan misolda "monitor" so'zi bilan boshlangan katakchalar sonini hisoblaydi. Agar shunday vaziyatlarda berilgan shart, ya'ni bizning misoimizda "monitor" so'zidan keyin qo'shimcha matnlar mavjud bo'lsa, u holda "monitor" so'zidan keyin \* belgisi qo'yiladi ("monitor\*" kabi).



A	B	C	D	E	F
1	N	Mahsulot nomi	Narxi, ₸		
2	1	monitor A	110	Jami sotilgan monitor narxi, ₸	410
3	2	sichqoncha	10	Jami sotilgan sichqoncha narxi, ₸	19
4	3	klaviatura	4	Monitor so'tib olgan haridorlar soni	4
5	4	monitor	90		
6	5	sichqoncha	3		
7	6	klaviatura	4		
8	7	monitor B	100		
9	8	sichqoncha	3		
10	9	klaviatura	4		
11	10	monitor	110		
12	11	sichqoncha	3		
13	12	klaviatura	4		

## **2.20-rasm. СЧЁТЕСЛИ funksiyasining qo'llanilishi**

### **Mantiqiy funksiyalar**

**ЕСЛИ (if)** – ushbu funksiya berilgan mantiqiy ifoda rost yoki yo'lg'on bo'lgan holatlardan hisoblashlarni amalga oshiriladi.

Sintaksis:

**ЕСЛИ(mantiqiy\_ifoda; qiymat\_agar\_rrost\_bo'lsa; qiymat\_agar\_yolg'on\_bo'lsa).**

Ushbu funksiya ishtirokida bir nechta vaziyatlarni ko'rib chiqamiz.

2.1-vaziyat: 2.20-rasmida keltirilgan mahsulotlar narxiga ko'ra \$100 dan qimmat bo'lgan mahsulotlar ro'parasiga “\$100 dan qimmat”, aks holda “\$100 dan arzon” degan xabarni chiqarish talab etilgan bo'lsin, u holda ushbu amal quyidagicha bajariladi (2.21-rasm):

=ЕСЛИ(C2>100;“\$100 dan qimmat”;“\$100 dan arzon”)

D2		=ЕСЛИ(C2>100;“\$100 dan qimmat”;“\$100 dan arzon”)				
A	B	C	D	E	F	G
1	N	Mahsulot nomi	Narxi, ₸	ЕСЛИ	Jami sotilgan monitor narxi, ₸	
2	1	monitor A	110	\$100 dan qimmat	410	
3	2	sichqoncha	10	\$100 dan arzon	19	
4	3	klaviatura	4	\$100 dan arzon		
5	4	monitor	90	\$100 dan arzon		

### 2.21-rasm. ЕСЛИ функиясининг со'зланилиши

**И (And) –** ushbu funksiya bir nechta shartlaning barchasi bir vaqtning o'zida tekshirilishini amalga oshirib, agar berilgan shartlarning barchasi bir vaqtning o'zida rost bo'lsa **ИСТИНА (TRUE)** yozuvini, aks holda **ЛОЖЬ (FALSE)** yozuvini aks ettiradi (2.22-rasm).

Sintaksis:

= И( 1-mantiqiy\_amal; 2-mantiqiy\_amal; ... ; N-mantiqiy\_amal)

D2		=И(B2="monitor A";C2>100)				
A	B	C	D	E	F	G
1	Н	Махсулот номи	Нарси, ₸	И (Истина)		
2	1	monitor A	110	ИСТИНА		
3	2	monitor B	110	ЛОЖЬ		
4	3	monitor B	105	ЛОЖЬ		
5	4	monitor A	100	ЛОЖЬ		
6	5	monitor A	90	ЛОЖЬ		
7	6	monitor B	105	ЛОЖЬ		
8	7	monitor B	100	ЛОЖЬ		
9	8	monitor A	102	ИСТИНА		
10	9	monitor A	98	ЛОЖЬ		
11	10	monitor A	109	ИСТИНА		
12	11	monitor A	99	ЛОЖЬ		
13	12	monitor A	100	ЛОЖЬ		

### 2.22-rasm. И (and) функиясининг со'зланилиши

2.22-rasmida keltirilgan misolda D ustunda \$100 dan qimmat bo‘lgan “monitor A” turidagi mahsulotlarning mavjudligi tekshirilgan.

**ИЛИ (or)** – ushbu funksiya yuqorida keltirilgan funksiyadan farqli ravishda, berilgan bir nechta shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi qanoatlantriladigan holatlar uchun “rost” (*истина*, true) yoki “yolg‘on” (*ложь*, false) xabarini chiqarish uchun xizmat qiladi.

= ИЛИ(1-mantiqiy\_amal; 2-mantiqiy\_amal;...; N-mantiqiy\_amal)  
**Logorifmik funksiyalar**

**Log** – ushbu funksiya yordamida istalgan asos bo‘yicha istalgan sonning logorifmini hisoblash imkoniyati mavjud. Ushbu funksiya umumiy holatda quyidagicha yoziladi:

= Log(*son*; *asos*)

**Log10** – ushbu funksiya yordamida 10 asos bo‘yicha istalgan sonning logorifmini hisoblash mumkin. Ushbu funksiya umumiy holatda quyidagicha yoziladi:

= Log10(*son*)

Agar **Log** funksiysida asos ko‘rsatilmasa, u holda ushbu **Log** funksiyasi avtomatik ravishda 10 asosli logorifm sifatida qabul qilinadi, ya’ni bu holatda **Log** va **Log10** funksiyalari bir xil kuchga ega bo‘ladi.

**Ln** – ushbu funksiya yordamida istalgan sonning natural logorifmini hisoblash mumkin bo‘lib, umumiy holatda quyidacha ifodalanadi:

= Ln(*son*)

**Trigonometrik funksiyalar**

MS Excel dasturida trigonometrik funksiyalar sifatida *sin*, *cos*, *tan*, *sinh* (*giperbolik sinus*), *cosh* (*giperbolik kosinus*), *tanh* (*giperbolik tangens*) kabi funksiyalardan foydalaniladi. Umumiy holatda, ushbu funksiya sintaksisi quyidagicha bo‘ladi:

= trigonometrik\_funksiya(*son*)

Bu yerda, “**trigonometrik\_funksiya**” o‘rnida istalgan trigonometrik funksiyani yozish mumkin.

MS Excel dasturida yuqorida ko‘rib o‘tilgan funksiyalardan tashqari, matnli, muhandislik, kub, moliyaviy, vaqt v asana, ma’lumotlar bazasi, veb-manzil, informatsion, muvofiqlik funksiyalari ham mavjud bo‘lib, ushbu funksiyalardan maqsadli foydalanishni talaba yoki ushbu kitobdan foydalanayotgan o‘quvchining o‘ziga havola etiladi.

## 2.3. MS Excel dasturida kimyo injeneringi masalalarini yechish

### 2.3.1. MS Excel dasturida Поиск решения (Solver) ilovasi


Bugungi kunda foydalaniolib kelinayotgan kompyuterda foydalanishga asoslangan elektron jadvallar Lotus, Excel va Quattro kabi dasturlarning barchasining tarkibiga optimallashtirish uchun mo'ljallangan maxsus ilovalar biriktirilgan. Ushbu optimallashtirish vositalari chiziqli, chiziqsiz, va butun sonli dasturlarni elektron jadvallar yordamida yechish uchun imkoniyatlar yaratib beradi. Ushbu bo'limda MS Excel dasturida mavjud, **Данные (Data)** yorlig'idagi, **Анализ (Analysis)** paneli guruhida joylashgan Поиск решения (Solver) optimallashtirish vositasi haqida boshlang'ich tushunchalar beriladi.

Agar **Данные (Data)** yorlig'ida Поиск решения (Solver) mavjud bo'lmasa, u holda **Файл** menyusi (yoki *Office tugmasi*) orqali **Параметры (Options)** buyrug'iga kiriladi. Hosil bo'lgan oynadan **Надстройки (Add-ins)** tanlanadi, ushbu amal natijasida hosil bo'lgan oynadan Поиск решения (Solver) belgilanib **Перейти (Go...)** tugmasi bosiladi (2.24-rasm) va Поиск решения (Solver) faollashtirilib **OK** tugmasi bosiladi (2.25-rasm). Faollashtirishdan keyin esa, Поиск решения (Solver) vositasiga kirish buyrug'i menu qatorida qo'shimcha ilova sifatida **Анализ (Analysis)** buyrug'ida ekranning o'ng tomonida joylashadi (2.23-rasm).




2.23-rasm: Excelda Solver joylashishi

Agar foydalanielayotgan MS Excel dasturida **Надстройки (Add-ins)** mavjud bo'lmasa MS Office paketini qaytadan to'liqligicha o'matish tavsija etiladi.



## 2.24-rasm: MS Excelda Поиск решения (*Solver*) ilovasini topish



## 2.25-rasm: MS Excelda Поиск решения (*Solver*) ilovasini faollashtirish

Optimallashtirish uchun elektron jadvali yondoshuvning afzalliklaridan biri bu ko'plab optimallashtirish modellarini tushunarli bo'lgan ko'rinishda elektron jadvalda ifodalash imkoniyatining mavjudligidir. Boshqa afzalligi esa ko'p foydalanuvchilar elektron jadvallardan foydalanish ko'nikmalariga ega. Elektron jadvallardan nusxa olish buyrug'i ko'plab o'xhash cheklovlarga ega masalalar modellarini elektron jadval muhitida yaratish va tezkorlik bilan yechish imkonini beradi.

**Chiziqli va nochiziqli masalalarni yechish.** MS Excelda Поиск решения ilovasi yordamida chiziqli dasturlarni Excelda yechish 5 ta asosiy qadamlarni bajarishni talab etadi:

1. Muammoni modellashtiruvchi elektron jadvalni yaratish;
2. Maqsad funksiyani ifodalovchi katakchani aniqlash;
3. Yechim o'zgaruvchilarini aniqlash;
4. Cheklovlarni ifodalovchi katakchalarni aniqlash;
5. Modelni yechish va optimallashtirish.

Ushbu jarayondagi har bir qadam keyingi bo'limlarda bayon qilinadi hamda mavzuga tegishli barcha rasmlar mo'ljallangan Microsoft Excel 2010 dasturiga tegishli.

Maqsad funksiya ma'lum bir *maqsad katakchada* (Оптимизировать целевую функцию, *Target Cell*) ifodalanadi. Shuni takidlash lozimki, mo'ljal katakcha bir yoki ko'proq katakchalarining tavsifiga ega bolishi lozim. Taxmin qilinayotgan yechim parametrlari yoki turlari "*O'zgaruvchan katakchalar*" (Изменяя ячейки переменных, Changing Cells) deb nomlanadi. *Cheklanmalar* (В соответствии с ограничениями, *Subject to*) dialog katakchasida ko'rsatiladi. Поиск решения ilovasi qiymatlari o'zgaruvchan katakchalaragi kamayuvchi, ko'payuvchi yoki taxmin qilinayotgan aniq qiymatga yaqin keladigan obyektiv qiymatni topadi. Поиск решения ilovasi nochiziqli optimallashtirish masalasini yechish uchun tarmoqli va bog'liqlik turidagi algoritmlar hamda chiziqli dasturlash muammolarini yechishga qaratilgan oddiy GRG2 (Generalized reduced gravity, kamayuvchi gradient) usulidan foydalanadi.

## **Yechimlarni qidirish usullari**

*Параметры поиска решения* (yechimni qidirish parametrlari) dialog oynasidan yechimlarni qidirish uchun quyidagi ko'rsatilgan istalgan algoritmlar yoki usullardan birini tanlash mumkin.

*Nochiziq umumlashgan kamayuvchi gradient usuli* (Нелинейный метод обобщенного понижающего градиента (ОПГ)) – bir tekis nochiziq masalalar uchun foydalilanadi.

*Simpleks usuli* (Симплекс-метод) - Chiziqli masalalar uchun foydalaniladi.

• *Evolutsion usul* (**Эволюционный метод**) - notejis masalalar uchun foydalilanadi.

“*Maksimal vaqt*” (Максимальное время, Max Time) va “*Iterasiyalar soni*” (Число итерации, Iterations) tahrir tugmalari Poisk resheniya ilovasining ishlash vaqtini boshqaradi. Takrorlash natijalarini ko'rsatish uchun va har bir katta takrorlashdan keyin to'xtatib turish uchun istalgan vaqtida klaviaturadan *ESC* tugmasini bosish orqali, ayni vaqtdagi takrorlashni tekshirishi va davom ettirish yoki ettirmaslikka qaror qilishi mumkin.

### **2.1-Masala. MS Excelda dasturi yordamida kimyoviy reaksiya konstantasini hisoblash**

Ushbu misolda Arrenius tenglamasidan foydalangan holda turli temperaturalarda kimyoviy reaksiya tezligi konstantasini hisoblash jayroni ko'rib chiqiladi:

$$k = k_0 \cdot e^{-E/RT}$$

Bu yerda,  $k_0$  – boshlang'ich eksponensial ko'paytma ( $k_0 = 4,802 \cdot 10^7$ );

$E$  – faollashish energiyasi, J/mol ( $E = 9,305 \cdot 10^4$  J/mol);

$R$  – gaz doimiysi,  $\frac{J}{mol \cdot K}$  ( $R = 8,314 \frac{J}{mol \cdot K}$ )

$T$  – temperatura, K (550, 560, 570, 580, 590, 600 K).

Ushbu misolini yechish ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi:

1. Excel dasturi ishga tushiriladi;
2. A1 katakchaga  $k_0$ , A2 katakchaga esa unga mos keluvchi qiymat yoziladi. B1 va C1 katakchalarga mos holatda “ $E$ ” va “ $R$ ” yoziladi,

hamda  $B_2$  va  $C_2$  katakchalarga ularning qiymatlarini kiritiladi.  $D_1$  katakchaga “ $T$ ” deb belgilanadi,  $D_2$ ,  $D_3$ ,  $D_4$ ,  $D_5$ ,  $D_6$ ,  $D_7$  katakchalarga esa mos holatda temperatura qiymatlari yoziladi,  $E_1$  katakchaga “ $k$ ” deb belgilab olinadi.

3.  $E_2$  katakchani belgilab  $=A2*EXP(-B2/(C2*D2))$  formulasi yoziladi. ENTER tugmasi bosilgandan keyin  $E_2$  katakchada 550 K temperaturadagi kimyoviy reaksiya tezligi konstantasi, ya’ni 0.069815 qiymati hosil bo’ladi (2.26-rasm).

$=A2*EXP(-B2/(C2*D2))$				
A	B	C	D	E
$k_B$	$E$	$R$	$T, K$	$k$
4,80E+07	9,31E+04	8,314	550	0,069815
			560	
			570	
			580	
			590	
			600	

### 2.26-rasm. MS Excel dasturida reaksiya tezligi konstantasini hisoblash

Ushbu formula bo'yicha temperaturaning qolgan qiymatlarida hisoblashlarni amalga oshirish uchun,  $k_0$ ,  $E$  va  $R$  qiymatlari berilgan katakchalar o'zgarmas qiymat sifatida qabul qilinadi. Buning uchun  $A_2$ ,  $B_2$  va  $C_2$  manzillarda ustun va qatorlar oldidan “\$” belgisi qo'yiladi:  $=\$A\$2*EXP(-\$B\$2/(\$C\$2*D2))$ ;

4.  $E_2$  katakchasi faol holatga o'tkaziladi va katakchaning pastki o'ng burchagida “+” belgisi paydo bo'lgandan keyin sichqonchaning chap tomonini bosib turgan holda ushbu katakchadagi formula qolgan katakchalarga joriy etiladi. Natijada  $E$  ustunda olingan qiymatlar hosil bo'ladi (2.27-rasm).

$=\$A\$2*EXP(-\$B\$2/(\$C\$2*D2))$				
A	B	C	D	E
$k_B$	$E$	$R$	$T, K$	$k$
4,80E+07	9,31E+04	8,314	550	0,069815
			560	0,100407
			570	0,142573
			580	0,200015
			590	0,277397
			600	0,380546

### 2.27-rasm. MS Excel dasturida reaksiya tezligi konstantasini hisoblash jarayoni natijalari

## **2.2-Masala. ‘Поиск решения’ ilovasi yordamida ishlab chiqarish masalalari uchun optimal yechim topish. Mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish misolida**

“Navoiy-Azot” firmasi mahalliy agrosanoat kompaniyalariga mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaradi va ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar sotiladi. Firmada haftasiga 5 kunlik ish kuni belgilangan bo‘lib, 1 smentada (8 ish soati) 10 kishi ishlaydi, ya’ni haftasiga 400 soatlik ish vaqt mavjud. Ish vaqt ikki xil turdagι texnologik jarayonlar orasida taqsimlangan bo‘lib, ushbu jarayon mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarish va ularga oxirgi ishlov berish jarayonlariga bo‘linadi. Haftalik 400 soatlik ish vaqtidan 250 soati bevosa mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarishga, 150 soati esa oxirgi ishlov berish uchun sarflanadi.

“Navoiy-Azot” 3 xil turdagι, ya’ni Kaliy xlorid-5, ammoniy nitrat va ammofos-7 markali mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqaradi.

2.2 – Jadvalda sarflanadigan vaqt va har bir turdagι mineral o‘g‘itni sotishdan tushadigan foyda miqdori keltirilgan.

2.2-Jadval

Mineral o‘g‘it turlari	Ishlab chiqarish vaqt, daqiqa	Oxirgi ishlov berish vaqt, daqiqa	Foyda, \$
Kaliy xlorid-5	30	15	45
Ammoniy nitrat	30	30	90
Ammofos-7	60	30	120

Quyidagi masala yechilsin:

Foydani eng yuqori darajada olish uchun har bir turdagι mineral o‘g‘itlardan qancha miqdordan (tonna) ishlab chiqarish kerak? Bu yerda har bir markadagi mahsulot turidan kamida 50 tonna ishlab chiqarish talab etilgan.

### **2.2-Masalaning yechilishi**

Birinchi navbatda, quyilayotgan masalaning maqsadini va maqsad funksiyaning ko‘rinishini aniqlab olamiz. Bu holatda, olinayotgan sof foydani eng yuqori qiymatga yetishini, va o‘z navbatida maqsad funksiya barcha markali mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarishdan keladigan

foydan hisoblashi kerak bo‘ladi. Ushbu masalada xarajatlar va kirimlar haqida ma’lumotlar keltirilmagan, faqat ishlab chiqarilgan har bir mineral o‘g‘itdan keladigan foyda haqida ma’lumot keltirilgan. Shuning uchun, umumiy sof foyda F ishlab chiqariladigan mineral o‘g‘itlar miqdori(kg)ga ko‘ra baholanadi.

Ushbu fikrlar bizni ishlab chiqariladigan har bir turdag'i markali mineral o‘g‘itlarning miqdori(kg) masalaning o‘zgaruvchilari sifatida tanlanishi mumkin degan xulosaga olib keladi. Demak, masalada 3 ta o‘zgaruvchi bo‘ladi, ya’ni: X1 – Kaliy xlorid-5 markali mineral o‘g‘itlar miqdori(kg), X2 – ammoniy nitrat markali mineral o‘g‘itlar miqdori(kg) va X3 – Ammofos-7 markali mineral o‘g‘itlar miqdori(kg). Bu holatda maqsad funksiya quyidagicha yoziladi:

$$F = X1 * 45 + X2 * 90 + X3 * 120 (\$)$$

Ushbu ma’lumotlarni MS Excel elektron jadvalida 2.28-rasm-dagi kabi tasvirlash mumkin. Bunda *maqsad funksiya* sifatida =СУММПРОИЗВ(E3:E5;D3:D5) ifodasi olingan bo‘lib ushbu ifoda =E3\*D3+E4\*D4+E5\*D5 ifodasi bilan teng kuchli hisoblanadi.

“Navoiy-Azot” AK					
Mineral o‘g‘itlari	Ishlab chiqarish vaqt, daqqa	Osirgi ishlod berish vaqt, daqqa	Foyda, \$	O‘sgartirishlar	
X1: Kaliy xlorid	30	15	45	50	X1: 50
X2: Ammoniy nitrat	30	30	90	100	X2: 50
X3: Ammofos	60	30	120	175	X3: 50
					Maqsad funksiya
	=СУММПРОИЗВ(E3:E5;D3:D5)	=СУММПРОИЗВ(E3:E5;D3:D5)	=СУММПРОИЗВ(E3:E5;D3:D5)	=СУММПРОИЗВ(E3:E5;D3:D5)	41
	250*60	450*60	450*60		

## 2.28-rasm. MS Excel dasturida “Navoiy-Azot” masalasining qo‘yilishi

Endi bizda ushbu masalada keltirilgan rejada berilgan eng yuqori samaradorlik yechimini topish bo‘yicha “Поиск решения” ilovasi uchun kerakli bo‘lgan boshlang‘ich ma’lumotlar mavjud, hamda *maqsad funksiya katakchasini* (ushbu vaziyatda E7 katakchani) belgilagan holda “Поиск решения” ilovasini faollashtiramiz (2.29-rasm). Bunda, maqsad funksiya eng yuqori samaradorlik bo‘lganligi uchun “Максимум” qiymatni topish varianti belgilanadi.

Оптимизировать целевую функцию:

Для:  Максимум  Минимум  Значения:

Изменять ячейки переменных:

В соответствии с ограничениями:

Сделать переменные без ограничений настартовые

Выберите метод решения: Поиск решения нелинейных задач методом ОГР

Метод решения

Для гладких нелинейных задач используйте поиск решения нелинейных задач методом ОГР, для линейных задач - поиск решения линейных задач симплекс-методом, а для негладких задач - эволюционный поиск решения.

Добавить  Изменить  Удалить  
 Сортировать  Загрузить/сохранить

Справка  Найти решение  Видеть

## 2.29-rasm. Поиск решения oynasini faollashtirish

*O'zgaruvchi qiyatlar* oynasida (Изменяя ячейки переменные) o'zgarishi mumkin bo'lgan katakchalar ko'rsatiladi (E3:E5). Bir nechta katakchalarni ko'rsatish uchun sichqonchaning chap tugmasini bosib turgan holda kerakli katakchalar belgilanadi (turli joydagi katakchalarni belgilash uchun esa klaviaturadan *Ctrl* bosib turgan holda kerakli katakchalar belgilanadi). *Cheklovlar* (Ограничения) oynasida berilgan chegaralarni berish uchun Добавить tugmasini bosish va hosil bo'lgan oynadan kerakli cheklovlarini o'rnatish talab etiladi (2.30-rasm).

## Добавление ограничения



Ссылка на ячейки:

\$B\$7:\$C\$7



<=



= \$B\$8:\$C\$8



Ограничение:

OK

Добавить

Отмена

## 2.30-rasm. Cheklovlarini kiritish

Ushbu holatda, B7 va C7 katakchalardagi qiymat mos holda B8 va C8 katakchalardagi qiymatlardan kichik yoki teng. Ushbu sozlashlardan keyingi natijaviy ilova 2.31-rasmda keltirilgan.

Параметры поиска решения


Оптимизировать целевую функцию:

До:  Максимум  Минимум  Значение:

Изменяя ячейки переменных:

В соответствии с ограничениями:

$\$B\$7:\$C\$7 \leq \$B\$8:\$C\$8$   
 $\$E\$3 \geq \$C\$3$   
 $\$E\$4 \geq \$D\$4$   
 $\$E\$5 \geq \$D\$5$

Сделать переменные без ограничений неотрицательными

Выберите метод решения: Поиск решения линейных задач симплекс-методом Параметры

Метод решения

Для гладких нелинейных задач используйте поиск решения нелинейных задач методом ОГР, для линейных задач - поиск решения линейных задач симплекс-методом, а для негладких задач - геолюционный поиск решения.

Справка Найти решение Закрыть

## 2.31-rasm. Поиск решения оynasida parametrlarni sozlash

A	B	C	D	E	F	G
		"Navoiy-Azot" AK				
1	Mineral o'g'it turi	Ishlab chiqarish vaqt, daqiqa	Oxirgi ishlov berish vaqt, daqiqa	Foyda, \$	O'zgaruvchilar	
2	KCl-5	30	15	45	50	X1 50
3	Ammoniy nitrat	30	30	90	100	X2 50
4	Ammofos 7	60	30	120	175	X3 50
5					Maqsad funksiya	
6		15000	9000		32250	a)
7	Cheklovlар	15000	9000			
8				.		

### 2.32-rasm. "Navoiy-Azot" masalasi bo'yicha natijaviy jadval

Ushbu vaziyatda, olinishi mumkin bo'lgan eng yuqori foyda miqdori, agar haftasiga 50 tonna KCl-5, 100 tonna ammoniy nitrat va 175 tonna Ammofos-7 mineral o'g'it ishlab chiqarilsa, olinadigan foyda miqdori \$32250 ni tashkil etadi hamda bu qiymat boshlang'ich masala yechimi bo'lib hisoblanadi.

#### 2.3-Masala. 'Поиск решения' ilovasi yordamida ishlab chiqarish masalalarini yechish. Qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish misolida

"Akbar-Rich" firmasi mahalliy qurilish kompaniyalariga eshiklar ishlab chiqaradi va ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar sotiladi. Firmda haftasiga 5 kunlik ish kuni belgilangan bo'lib, 1 smenada (8 ish soati) 10 kishi ishlaydi, ya'ni haftasiga 400 soatlik ish vaqt mayjud. Ish vaqt ikki xil turdag'i texnologik jarayonlar orasida taqsimlangan bo'lib, ushbu jarayon eshiklarni ishlab chiqarish va ularga oxirgi ishlov berish jarayonlariga bo'linadi. Haftalik 400 soatlik ish vaqtidan 250 soati bevosita eshiklarni ishlab chiqarishga, 150 soati esa oxirgi ishlov berish uchun sarflanadi.

"Akbar-Rich" 3 xil turdag'i, ya'ni standart, sayqallangan va o'yma naqshinkor eshiklarni ishlab chiqaradi.

2.3 – Jadvalda sarflanadigan vaqt va har bir turdag'i eshikni sotishdan tushadigan foyda miqdori keltirilgan.

### 2.3-jadval.

Eshik turlari	Ishlab chiqarish vaqt, daqiqa	Oxirgi ishlov berish vaqt, daqiqa	Foyda, \$
Standart	30	15	45
Sayqallangan	30	30	90
O'yma naqshinkor	60	30	120

Quyidagi masalalar yechilsin:

a) Foydani eng yuqori darajada olish uchun har bir turdag'i eshiklardan nechtadan ishlab chiqarish kerak?

b) Ikki xildagi texnologik jarayon orasidagi ish vaqtiga taqsimoti (ishlab chiqarish va oxirgi ishlov berish vaqtlar) eng samarador vaqt sifatida taqsimlanganmi? Agar ushbu vaqtlar taqsimotini optimallashtirilsa ishlab chiqarishdan olinadigan jami foyda qanday o'zgaradi?

c) Kelayotgan haftada "Akbar-Rich" 280 ta standart, 120 ta sayqallangan va 100 ta o'yma naqshinkor eshiklar uchun buyurtma olgan bo'lib, buyurtmani bajarish uchun "Akbar-Rich" tashqi ta'minotchilardan eshiklar uchun ma'lum miqdordagi yarim fabrikatlar sotib olishi talab etiladi. "Akbar-Rich" faqat standart va sayqallangan eshiklar uchun ushbu yarim fabrikatlardan foydalanishi mumkin, o'yma naqshinkor eshiklarda esa ushbu xom-ashyo mahsulotlaridan foydalanilmaydi. Bunda standart eshiklarni tayyorlash uchun 6 daqiqa, sayqallangan eshiklar uchun esa 30 daqiqa ishlov berish talab etiladi. Ushbu vaziyatda, standart eshik \$15, sayqallangan eshik esa \$50 foyda keltiradi. Haftasiga jami 250 soat ishlab chiqarish uchun, 150 soat esa oxirgi ishlov berishga sarflanadi deb hisoblanganda, "Akbar-Rich" firmasi yuqori samaradorlikka erishish uchun qaysi turdag'i eshiklardan nechtadan ishlab chiqarishi kerak, hamda standart va sayqallangan eshiklar uchun qancha yarim fabrikatlar sotib olishi kerak?

### 2.3-Masalaning yechilishi

a) Birinchi navbatda, quyilayotgan masalaning maqsadini va maqsad funksiyaning ko'rinishini ko'rinishini aniqlab olamiz. Bu ho-

latda, olinayotgan sof foydani eng yuqori qiymatga yetishini, va o'z navbatida maqsad funksiya barcha eshiklarni ishlab chiqarishdan keladigan foydani hisoblashi kerak bo'ladi. Ushbu masalada xarajatlar va kirimlar haqida ma'lumotlar keltirilmagan, faqat ishlab chiqarilgan har bir eshikdan keladigan foya haqida ma'lumot keltirilgan. Shuning uchun, umumiy sof foya F ishlab chiqariladigan eshiklar soniga ko'ra baholanadi.

Ushbu fikrlar bizni ishlab chiqariladigan har bir turdag'i eshiklarning soni masalaning o'zgaruvchilari sifatida tanlanishi mumkin degan xulosaga olib keladi. Demak, masalada 3 ta o'zgaruvchi bo'ladi, ya'ni: X<sub>1</sub> – standart eshiklar soni, X<sub>2</sub> – sayqallangan eshiklar soni va X<sub>3</sub> – o'yma naqshinkor eshiklar soni. Bu holatda maqsad funksiya quyidagicha yoziladi:


$$F = X_1 * 45 + X_2 * 90 + X_3 * 120 (\$)$$

Ushbu ma'lumotlarni MS Excel elektron jadvalida 2.33-rasm-dagi kabi tasvirlash mumkin. Bunda *maqsad funksiya* sifatida =СУММПРОИЗВ(E3:E5;D3:D5) ifodasi olingan bo'lib ushbu ifoda =E3\*D3+E4\*D4+E5\*D5 ifodasi bilan teng kuchli hisoblanadi.

“Akbar-Rich” firmasi					
Eshik turлari	Ishlab chiqarish vaqt, daqiqqa	Oxirgi ishllov berish vaqt, daqiqqa	Foya, \$	O'zgaruvchilar	
Standart	30	15	45	0	X <sub>1</sub>
Sayqallangan	30	30	90	0	X <sub>2</sub>
O'yma	60	30	120	0	X <sub>3</sub>
naqshinkor					Maqsad funksiya
	=СУММПРОИЗВ(\$E\$3:\$E\$5;D3:D5)	=СУММПРОИЗВ(\$E\$3:\$E\$5;G3:C5)	=СУММПРОИЗВ(E3:E5;D3:D5)		
Chekloytar	=250*60	=400*60-88			


## 2.33-rasm. MS Excel dasturida “Akbar-Rich” masalasining qo'yilishi

Endi bizda ushbu masalada keltirilgan rejada berilgan eng yuqori samaradorlik yechimini topish bo'yicha “Поиск решения” ilovasi uchun kerakli bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlar mavjud, hamda *maqsad funksiya katakhasini* (ushbu vaziyatda E7 katakchani) belgilagan holda “Поиск решения” ilovasini faollashtiramiz (2.34-rasm). Bunda, maqsad funksiya eng yuqori samaradorlik bo'lganligi uchun “Максимум” qiymatni topish varianti belgilanadi.



### 2.34-rasm. Пойс решения оynasini faollashtirish

*O'zgaruvchi qiymatlar* оynasida (Изменяя ячейки переменные) о'zgarishi mumkin bo'lган katakchalar ko'rsatiladi (E3:E5). Bir nechta katakchalarni ko'rsatish uchun sichqonchaning chap tugmasini bosib turgan holda kerakli katakchalar belgilanadi (turli joydagi katakchalarни belgilash uchun esa klaviaturadan *Ctrl* bosib turgan holda kerakli katakchalar belgilanadi). *Cheklovlar* (Ограничения) оynasida berilgan chegaralarni berish uchun Добавить tugmasini bosish va hosil bo'lgan oynadan kerakli cheklovlarni o'rnatish talab etiladi (2.35-rasm).




### 2.35-rasm. Cheklavlarni kiritish

Ushbu holatda, B7 va C7 katakchalardagi qiymat mos holda B8 va C8 katakchalardagi qiymatlardan kichik yoki teng. Ushbu sozlashlardan keyingi natijaviy ilova 2.36-rasmda keltirilgan.


Поиск решения ilovasini ishga tushirishdan oldin, Поиск решения oynasidan model turi (chiziqli, nochiziq), o'zgaruvchilar manfiy son bo'imasligi kerakligi chegaralarini ham belgilab olishimiz mumkin. Buning uchun Параметры поиска решения параметрleri sozlanadi va OK bosiladi (2.37-rasm).



### 2.36-rasm. Поиск решения оynasida parametrлarni sozlash



2.37-rasm. Поиск решения oynasida parametrlarni sozlash



2.38-rasm. Masala yechimi natijalarini ko‘rish oynasi

Haftanın решение тугмасини босиш орқали яхимга хабарни олшумиз (2.38-рasm), ва OK тугмасини босиб натижавиј юдвалга ега бо'лишимиз мумкин (2.39-rasm).

A	B	C	D	E	F
"Akbar-Rich" firmasi					
Eshik turlari	Ishlab chiqarish vaqtı, daqiqa	Oxirgi ishlov berish vaqtı,	Foyda, \$	O'zgaruvchilar	
Standart	30	15	45	0	X1
Sayqallangan O'yuma naqshinkor	30 60	30	90 120	100 200	X2 X3
	15000	9000		33000	
Cheklovlar	15000	9000			

### 2.39-rasm. "Akbar-Rich" масаласи бо'yicha натижавиј юдвал

Ушбу вазијатда, олиниси мумкин бо'лган енг ўуқори фойда мидори, agar haftasiga 100 dona sayqallangan va 200 dona o'yuma naqshinkor eshik ishlab chiqarilsa \$33000 ni tashkil etadi hamda bu qiymat boshlang'ich masala yechimi bo'lib hisoblanadi (a).

**b)** Масаланинг биринчи qismida ishlab chiqarish va oxirgi ishlov berish vaqtı mos holda 250 va 150 soat bo'лган holatni ko'rib chiqildi. Lekin ushbu taqsimot aynan optimal taqsimot ekanligi haqida faktlar keltirilmagan. Ushbu vaqt taqsimotlarini o'zgartirish uchun Пойск решения ilovasi yordamida keying bosqichni ko'rib o'tish tavsiya etiladi. Birinchi navbatda hisobotning barqarorligini tekshirish kerak bo'ladi. Buning uchun natijalarni ko'rish oynasida OK тугмасини босишдан avval Отчеты (hisobotlar) bo'limidan Устойчивость (barqarorlik) ni tanlash kerak (2.38-rasm). Ushbu amaldan keyin MS Excel da qo'shimcha Отчет по устойчивости 1 (bargarorlik hisoboti) varag'i paydo bo'ladi (2.40-rasm).

Лист: [akbar-rich.xlsx]akbar-rich

Отчет создан: 31.12.2017 8:52:18

Результат: Решение найдено. Все ограничения и условия оптимальности выполнены.

Модуль поиска решения

Модуля: Поиск решения нелинейных задач методом ОГР

Время решения: 0 секунд

Число итераций: 0 Число подзапусков: 0

#### Параметры поиска решения

Максимальное время без пределов, Число итераций Без пределов, Precision 0.000001

Сходимость 0.0001, Размер совокупности 100, Случайное начальное значение 0, Центральные производные

Максимальное число подзадач без пределов, Максимальное число целочисленных решений без пределов, Целочисленное отклонение 1%, Считать неотрицательными

#### Значение целевой функции (Максимум)

Ячейка	Имя	Исходное значение	Окончательное значение
S\$7	Maqsad funksiya	33000	33000

#### Значения переменных

Ячейка	Имя	Исходное значение	Окончательное значение	Целочисленное
S\$3:\$S\$5				
S\$3	Standart O'zgaruvchilar	0	0	Продолжить
S\$4	Sayqallangan O'zgaruvchilar	100	100	Продолжить
S\$5	O'yuma nashrikor O'zgaruvchilar	200	200	Продолжить

#### Ограничения:

Ячейка	Имя	Значение ячейки	Формула	Состояние	Допуск
S\$7	Ishlab chiqarish vaqt, deqida	15000	S\$7<=S\$8	Привязка	0
S\$7	Oxirgi ishlov berish vaqt, deoqqa	9000	S\$7<=S\$8	Привязка	0

## 2.40-rasm. Barqarorlikni tekshirish natijalari

Ushbu vaziyatda bizni Тенъ цена ustuni qiziqtiradi. Ushbu qiymatga ko'ra oxirgi ishlov berish vaqt vaqtiga nisbatan yuqori qiymatga ega bo'lib, bu esa o'z navbatida ish vaqtini ishlov berish vaqtini foydasiga qayta taqsimlanishini bildiradi. Barqarorlik hisobotini bosh-qargan holda vaqtini taqsimlash uchun kerakli qiymatni topish mumkin bo'ladi, lekin ushbu holatda masalani uzgartirish orqali kerakli natijaga erishish oson hisoblanadi. Masalani o'zgaruvchi shartlarga muvofiq shakkantirish uchun har bir bosqich uchun ish vaqtini cheklovlarni olib tashlash hamda jami ish vaqtini  $400*60$  (daqiqa)dan oshib ketmasligini belgilab qo'yilsa yetarli hisoblanadi.

Berilgan masalani shartlarini solishtirish uchun, masalaning (a) qismi yechilgan vaaraqni qoldirib, uning nusxasini yaratib olish tavsiya etiladi. Buning uchun ushbu varaq yorlig'i ustida sichqoncha o'ng tugmasini bosib *ko'chirish* (Переместить/Скопировать) buyrug'i tanganadi va hosil bo'lgan oynadan *nusxa yaratish* (Создавать копию) buyrug'i belgilanib *OK* bosiladi. quyiladi.

Berilgan shartlarni o'zgartirish uchun D7 va D8 katakchalarga mos holda =B7+C7 va =400\*60, formulalarini yoziladi. Bundan keyin esa

Нонек решения ilovasidagi berilgan masala uchun topshiriqlar o'zgartiriladi, ya'ni cheklovlар oynasidan \$B\$7:\$C\$7=>\$B\$8:\$C\$8 shart olib tashlanadi va uning o'mniga D7=>D8 sharti kiritiladi, hamda 2.41-rasmda keltirilgan yechimga ega bo'linadi.

A	B	C	D	E	F
<b>"Akbar-Rich" firmasi</b>					
Eshik turlari	Ishlab chiqarish vaqt, daqiqa	Oxirgi ishllov berish vaqt, daqiqa	Foyda, \$	O'zgaruvchilar	
Standart	30	15	45	0	X1
Sayqallangan	30	30	90	400	X2
O'yma naqshinkor	60	30	120	0	X3
				<b>Maqsad funksiya</b>	
	12000	12000	24000	36000	
Cheklovlар	15000	9000	24000		

### **2.41-rasm. "Akbar-Rich" masalasi uchun vaqt taqsimoti shartlarini o'zgartirish natijalari.**

Olingen natijalar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish va ishllov berish vaqtлари taqsimotida o'zgarish yuz berdi. Ushbu yechimga ko'ra, birinchidan olinadigan foyda \$3000 ga oshdi. Ikkinchidan esa, optimal rejaga ko'ra 400 dona sayqallangan eshik ishlab chiqarish tavsiya etiladi.

Optimallashtirish natijalariga ko'ra standart va o'yma naqshinkor eshiklardan umuman ishlab chiqarmaslik, real vaziyat uchun to'g'ri kelmasligi borasida fikrlar keltirib chiqaradi. Lekin qo'yilgan masala shartlari tegishli vaziyatdan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, qolgan eshik turlariga bo'lган talab boshqa ishlab chiqaruvchilar tomonidan qoplanishi mumkin.

Boshqa tomonidan qaralsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish turlarini qisqartirish ishlab chiqaruvchi firma uchun raqobatbardoshlilikni zaiflashtirishi mumkin, ushbu holat ayniqsa firmanın ishlab chiqarish imkoniyatlari cheklangan (ishlab chiqarish va ishllov berish uchun ketgan jami vaqt cheklangan) bo'lsa yanada o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin.

**"Akbar-Rich" firmasi**

Eshik turlari	Ishlab chiqarish vaqt, daqiqa	Oxirgi ishlov berish vaqtı, daqiqa	Foyda, \$	O'zgaruvchilar		
Standart	30	15	45	50	X1	50
Sayqallangan	30	30	90	100	X2	50
O'yma naqshinkor	60	30	120	175	X3	50
				<b>Maqsad funksiya</b>		
	15000	9000		<b>32250</b>		a)
Cheklovlар	15000	9000				

**"Akbar-Rich" firmasi**

Eshik turlari	Ishlab chiqarish vaqt, daqiqa	Oxirgi ishlov berish vaqtı, daqiqa	Foyda, \$	O'zgaruvchilar		
Standart	30	15	45	50	X1	50
Sayqallangan	30	30	90	288	X2	50
O'yma naqshinkor	60	30	120	50	X3	50
				<b>Maqsad funksiya</b>		
	13125	10875	24000	<b>34125</b>		b)
Cheklovlар	15000	9000	24000			

#### **2.42-rasm. Berilgan shartlar bo'yicha natijalarni taqqoslash**

Buning uchun, agar barcha turdag'i eshiklardan ishlab chiqarish talab etilsa nima o'zgarishini ko'rish mazmunga ega hisoblanadi. Albatta, bu yerda aniq sonlarni berish talab etiladi. Misol uchun, har bir eshik turidan kamida 50 dona ishlab chiqarish vazifa qilib berlgilangan bo'lishi mumkin. Bu vaziyatda, G3:G5 katakchalarga 50 sonini kiritiladi, hamda Понск решения оynasining cheklovlар maydonida E3:E5<=G3:G5 sharti quyiladi va 2.42-rasmida keltirilgan yangi natijalar olinadi (ushbu holatda ham tegishli varaqdan nusxa hosil qilib, natijalarni taqqoslash tavsiya etiladi).

Ushbu masalaga ko'ra, har bir berilayotgan cheklovlar jami olinayotgan foydaning qisqarishiga olib keladi. Cheklovlar qanchalik ko'p bo'lsa, olinayotgan foya boshlang'ich masala sharti (a)ga qaraganda shunchalik qisqarib borishi mumkin. Bundan tashqari (a) yechimda standart turdag'i eshiklarni ishlab chiqarish soni 0 ga teng. Agar boshlang'ich masala shartida, ya'ni (a) bandda ham har bir eshik turidan kamida 50 dona ishlab chiqarish talab etilsa, jami olinadigan foya \$33000 dan \$32250 gacha o'zgarishini ko'rish mumkin (2.42-rasm). Albatta, berilgan masalada eshiklar ishlab chiqarishning eng kichik qiymati haqida shart berilmagan, lekin ishlab chiqarish masalalarini yechishda kompyuter dasturlaridan foydalanish jarayonida u yoki bu variantlarni ham ko'rib chiqish foydadan holi bo'lmaydi.

c) c bandda berilgan shartlar masala yechimini topishni yanada murakkablashtiradi. Ushbu jarayonni hisobga olish uchun ikkita yangi o'zgaruvchi kiritish kerak bo'ladi. Ushbu o'zgaruvchilarga, tashqi ta'minotchilardan olingan yarim fabrikatlar asosida tayyorlangan standart va sayqallangan eshiklar soni kiradi (Standart Y va Sayqallangan Y o'zgaruvchilar). Bundan tashqari, buyurtma miqdorini ham hisobga olish va ularni so'zsiz bajarilishini ta'minlash kerak bo'ladi. Ushbu ma'lumotlarni MS Excel dasturida ifodalash 2.43-rasmda keltirilgan.

G3:G5 katakchalarda kar bir turdag'i eshiklarning umumiyligi sonini hisoblanadi, "Поиск решения" sozlamalarida esa natijalarni buyurtma bilan solishtiriladi. Ishlab chiqarish va ishlov berish uchun boshlang'ich holatdagidek mos holatda umumiyligi 250 va 150 soat ajratiladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan masalalardan, MS Excel dasturini yordamida muhandislik, ishlab chiqarish, moliyaviy va shunga o'shash masalalarni yechish mumkin. Ushbu dasturning qolgan imkoniyatlardan foydalanishni talaba yoki ushbu darslikdan foydalanuvchining o'ziga mustaqil vazifa sifatida tavsiya etiladi.

	A	B	C	D	E	F	G	H
	"Akbar-Rich" firmasi							
Eshik turlari	Ishlab chiqarish vaqtidaqiga	Oxirgi Ishlov berish vaqtidaqiga	Foyda, \$	O'zgaruvchilar		Ishlab chiqarilgan eshilalar soni	Buyurtma soni	
Standart	30	15	45	0	X1	260	280	
Sayqallangan	30	30	90	222	X2	222	120	
O'yma naqshnikor	60	30	120	100	X3	100	100	
Standart Y		6	15	280	X4			
Sayqallangan Y		30	50	0	X5			
				Maqsad funksiya				
	12660	11340	24000	31980				
Cheklovlar	15000	9000	24000					

## 2.43-rasm. Eshik ishlab chiqarishda buyurtma berilgan mahsulot turlari sonini kiritish

**2.4-Masala. Eng kichik kvadratlar usuli.** Ushbu masalaga ko'ra, bizga berilgan temperatura va bosimga bo'liq holda kimyoviy reaksiya konversiyasi natijalari haqida tajriba ma'lumotlari mavjud bo'lib (2.4-jadval), temperatura ko'tarilganda tegishli bosimlarda reaksiya konversiyalari bashorat qilinsin. Buning uchun eng kichik kvadratlar usulidan foydalanish tavsiya etiladi.

## 2.4-Jadval. Kimyoviy reaksiya tajriba natijalari

(P-bosim, atm.; T-temperatura, °C)

P T	3	6	9
20	0,09	0,21	0,32
40	0,12	0,26	0,35
60	0,14	0,28	0,37

Ushbu tajriba natijalariga ko'ra temperatura 80 °C bo'lganda reaksiya konversiyalarini bashorat qilish masalasi yechilsin. Buning uchun  $f(P, T)$  polinom funksiyasini tuzib olish talab etiladi:

$$z = ax^3 + by^2 + cxy + dx + ey + f$$

Bu yerda  $x$  o'zgaruvchi  $P$  ning qiymatlarini,  $y$  o'zgaruvchi  $T$  ning qiymatlarini qabul qiladi. Reaksiya konversiyasi esa  $z$  deb belgilanadi.

Masalani Excel dasturida yechish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) Boshlang'ich natijalar jadvali (A matritsa ko'rinishida) Excel dasturiga kiritib olinadi (2.44-rasm):

A	B	C	D	E
<b>Boshlang'ich ma'lumotlar</b>				
1	A	<b>X↔</b>		
2		3	6	9
3	20	0,09	0,21	0,32
4	40	0,12	0,26	0,35
5	60	0,14	0,28	0,37
6	80			

### 2.44-rasm. Boshlang'ich tajriba natijalari

2) Polinomial funksianing boshlang'ich koeffisientlariga ixtiyoriy ravishda 1 qiymat beriladi (2.45-rasm).

G	H
9	Polynomial
10	koeffisientlar:
11	a
12	b
13	c
14	d
15	e
16	f

### 2.45-rasm. Polinomial funksianing boshlang'ich koeffisientlari

3) Polinom funksiya asosida jadvalning 2-qismini (B matritsa) shakllantirib olamiz (2.46-rasm). Bunda B matritsaning 1,1 elementiga, ya'ni ko'rib o'tilayotgan vaziyatda **C12** katakchaga quyidagi formula kiritiladi va 2.46-rasmagi natijaga ega bo'linadi:

$$= \$H\$11 * C\$11^3 + \$H\$12 * \$B12^2 + \$H\$13 * C\$11 * \$B12 + \$H\$14 * C\$11 + \$H\$15 * \$B12 + \$H\$16$$

C12       $= \$H\$11 * C\$11^3 + \$H\$12 * \$B12^2 + \$H\$13 * C\$11 * \$B12 + \$H\$14 * C\$11 + \$H\$15 * \$B12 + \$H\$16$

A B C D E F G H I

8 Polinom funksiya yordamida hisoblangan natijalar:

$$z = a*x^3 + b*y^2 + c*x*y + d*x + e*y + f$$

B	x →		
3	6	9	
20	511	763	1339
40	1791	2183	2739
60	3871	4243	4939
80	6751	7183	7939

Polynomial  
koeffisientlar

a	1
b	1
c	1
d	1
e	1
f	1

## 2.46-rasm. Polinom funksiya asosida jadval yaratish

4) Tajriba natijalari (A matritsa) va polinom funksiya natijalari (B matritsa) asosida olingan jadvallar mos katakchalari orasidagi farqlar kvadratlarini o'zida aks ettiruvchi, ya'ni ko'rib o'tilayotgan vaziyatda  $(A[i,j] - B[i,j])^2$  natijalaridan iborat 3-jadval (C matritsa) hosil qilinadi (2.47-rasm).

C21       $= (C12 - C4)^2$

A B C D E

Qoldiqlarning kvadratlari

$$z = a*x^3 + b*y^2 + c*x*y + d*x + e*y + f$$

C	x →		
3	6	9	
20	261029,0281	581848,5841	1792064,142
40	3207251,174	4421515,508	7500203,823
60	14983557,14	18000673	24390066,28

## 2.47-rasm. Tajriba natijalari va polinom funksiya natijalari asosida olingan jadvallar mos katakchalari orasidagi farqlar kvadratlari natijalari

5) Bo'sh katakhada (misol uchun, **F24**) C matritsa elementlari yig'indisi hisoblanadi hamda MS Excel dasturida mavjud, Данные (*Data*) yorlig'idagi, Анализ (*Analysis*) paneli guruhida joylashgan Поиск решения (*Solver*) optimallashtirish vositasi ishga tushirilib ushbu **F24** katakcha maqsad funksiya sifatida belgilanadi va o'zgaruvchilar diapozoni ko'rsatiladi (2.48-rasm). Agar Поиск решения (*Solver*) ilovasi faollashmagan bolsa ushbu darslikning 2.3.1 bandiga qaralsin.

	F	G	H
9			
10			
11	a	1	
12	b	1	
13	c	1	
14	d	1	
15	e	1	
16	f	1	
17			
18			
19			
20			
21			
22			
23			
24	75138208,7		
25	Ushbu qymat Excel Solver yordamida minimal qymatga yaqinlashirilgan		
26			

## 2.48-rasm. Maqsad funksiya va o'zgaruvchilar chegarasini kiritish.

Ushbu rasmdan ko'rinish turibdiki, **F24** katakcha maqsad funksiyasi sifatida kiritilgan bo'lib, uning  $\theta$  ga yaqinlashishi belgilangan hamda ushbu maqsadga erishish uchun polinom funksiya koefisientlari ( $a, b, c, d, e, f$ ) joylashgan diapozondagi (**H11:H16**) mavjud qiyatlar o'zgartirilishi belgilangan.

6) Поиск решения (*Solver*) oynasidagi Найти решений (*Solve*) tugmasini bosish orqali qidirilayotgan natijaga ega bo'lish mumkin (2.49-rasm). Hisoblash natijalaridan ko'rinish turibdiki, A va B matritsalar mos elementlari ayirmalari kvadratlarining yig'indisi 0 ga yaqinlashgan, ya'ni:

$$\sum_{i=1}^n (A[i,j] - B[i,j])^2 = 0.00017781$$

A B C D E F G H  
Boshlangich ma'lumotlar

A		X →					
		3	6	9			
20	0.09		0.21		0.32		
40	0.12		0.26		0.35		
60	0.14		0.28		0.37		
80							

Polinom funksiya yordamida hisoblangan natijalar:

$$z=a*x^3+b*y^2+c*x*y+d*x+e*y+f$$

B		X →					
		3	6	9			
20	0,086		0,219		0,316		
40	0,122		0,255		0,352		
60	0,142		0,276		0,372		
80	0,146		0,279		0,376		

Polynomial  
koeffisientlar

a	-0,000112824
b	-2,06843E-05
c	9,08477E-07
d	0,051493423
e	0,003065107
f	-0,118840128

Qoldiqlarning kvadratları

$$z=a*x^3+b*y^2+c*x*y+d*x+e*y+f$$

C		X →					
		3	6	9			
20	1,87E-05		7,90E-05		1,99E-05		
40	4,89E-06		2,05E-05		4,79E-06		
60	4,84E-06		2,01E-05		5,22E-06		

0,00017781

## 2.49-rasm. Hisoblash natijalari.

Demak, hisoblashlar natijasi shuni korsatadiki, temperatura 80°C bo'lganda reaksiya konversiyasi (3, 6 va 9 atmosfera bosimlarida, mos ravishda) 0.146, 0.279 va 0.376 ulushda bo'lar ekan. Polinom koefisi-entlari esa quyidagicha bo'ladi:

$$a=-0,000112824; b=-2,06843E-05; c=9,08477E-07;$$

$$d=0,051493423; e=0,003065107; f=-0,118840128.$$

## **2.4. Nazorat savollari**

1. Elektron jadvallari qaysi maqsadlarda va sohalarda ishlataladi?
2. MS Excel elektron jadvalida ustun va qatorlar haqida ma'lumot bering.
3. MS Excel dasturida *Tasma* va menyular qatori?
4. MS Excel dasturida *Tasma* da yangi menu tashkil etish ketma-ketligini izohlang?
5. MS Excel dasturida *varaqlar* ni ko'chirish, qayta nomlash, o'chirish va ulardan nusxa ko'chirish haqida ma'lumot bering.
6. MS Excel dasturida ma'lumotlarni katakchalarda joylashtirish usullari?
7. MS Excel dasturida ma'lumotlar turlari haqida ma'lumot bering.
8. Formula deb nimaga aytildi?
9. Excelda operatorlar va ularning vazifalari.
10. MS Excelda formula kiritish va arifmetik amallarni bajarish ketma-ketligini ko'rsatib bering.
11. Funksiya deb nimaga aytildi?
12. MS Excel dasturida logorifmik va trigonometrik funksiyalar usida amallar bajaring.
13. MS Excel dasturida diagrammalar turlari haqida ma'lumot bering.
14. MS Excel dasturida diagrammalar qurish ketma-ketligini tu-shuntirib bering.
15. Diagrammadagi elementlarini o'zgartirish haqida nimalarni bilasiz?
16. MS Excel dasturida foydalanish mumkin bo'lgan funksiyalarga qaysilar kiradi?
17. Matematik va statistik funksiyalar haqida fikringizni bayon eting?
18. MS Excel dasturida berilgan diapozon bo'yicha eng katta yoki eng kichik qiymatni topish uchun qaysi funksiyalardan foydalanish mumkin?
19. MS Excel dasturida berilgan diapozon bo'yicha o'rta arifmetik qiymatni topish uchun qaysi funksiyalardan foydalanish mumkin?

20. MS Excel dasturida sonlarni darajaga ko‘tarishning qanday usullari mavjud?

21. MS Excel dasturida belgilangan diapozon bo‘yicha sonlarning yig‘indisini hisoblashning qanday usullari mavjud?

22. MS Excel dasturida belgilangan diapozon bo‘yicha sonlarning ko‘paytmasini hisoblashning qanday usullari mavjud?

23. MS Excel dasturida mantiqiy funksiyalar haqida nimalarni bilasiz?

24. MS Excel dasturida logorifmik funksiyalar haqida nimalarni bilasiz?

25. MS Excel dasturida trigonometrik funksiyalar haqida nimalarni bilasiz?

26. MS Excelda Поиск решения (Solver) ilovasi haqida tushuncha bering.

27. Поиск решения (Solver) ilovasi MS Excel menu qatorida ko‘rsatish ketma-ketligini bayon eting.

28. Excelda chiziqli va nochiziq masalalarni yechish ketma-ketligini sanab bering.

29. Поиск решения ilovasida *maqsad funksiya* nima?

30. Поиск решения ilovasida *o‘zgaruvchi qiymatlar yoki katakkhalar* nima?

31. Поиск решения ilovasida *cheklovlar* nima va ular qanday ifodalanadi?

32. Поиск решения ilovasida berilgan masalaga *optimal yechim* topish jarayonida nimalarga e’tibor berish kerak?

33. MS Excel dasturida o‘zgarmas katakkhalar diapozon bo‘ylab qanday ifodalanadi?

## **2.5. Amaliy topshiriqlar**

### ***2.5.1. Sonli va takrorlanuvchi (sikl) dasturlar***

1. 10 dan 50 gacha bo‘lgan sonlarning kvadratlarini hisoblash dasturi tuzilsin.

2. 10 dan 100 gacha sonlar berilgan bo‘lib, ular orasidan ushbu sonlarni 7 ga bo‘lganda 1, 2 yoki 5 qoldiq qoladigan sonlarni ekranga chiqarish dasturi tuzilsin.

3. 1 dan n gacha bo'lgan sonlar yig'indisini hisoblash dasturi tuzilsin. Bu yerda, n- ixtiyirov son.

4. 3 xonali sonning raqamlari ko'paytmasini hisoblash dasturi tuzilsin.

5. Berilgan natural sondagi juft raqamlar sonini topish dasturi tuzilsin.

6. Berilgan natural sonning eng katta raqamini topish dasturi tuzilsin.

7. Raqamlari yig'indisi 15 ga teng bo'lgan barcha 4 xonali sonlarni topish dasturi tuzilsin.

8. Berilgan natural son tub son ekanligini aniqlash dasturi tuzilsin.

9.  $a$  va  $N$  berilgan bo'lib,  $a^N$  ni hisoblang.

### 2.5.2. Quyidagi berilgan matematik ifodalarni Excel dasturida yeching:

No	Funksiya	Qiymatlar
1.	$y = 2 \cos\left(x - \frac{\pi}{6}\right)$	x=1.57
2.	$y = \frac{z^2}{3 - z^2 / 5}$	z=1
3.	$a = 0.5 + \sin^2 y$	y=1
4.	$a = \sqrt[3]{8 +  x-y ^2 + 1}$	x=3; y=1
5.	$b = x^2 + y^2 + 2$	x=3; y=1
6.	$a = \frac{1 + \sin^2(x+y)}{ x - \frac{2y}{1+x^2y^2} }$	x=3; y=1

7.	$b = x^{ \sin y + \cos y }$	x=3; y=1
8.	$w =  \cos x - \cos y ^{(1-2\sin^2 y)}$	x=3; y=1
9.	$y = \left(1 + z + \frac{z^2}{2} + \frac{z^3}{3} + \frac{z^4}{4}\right)$	z=1
10.	$b = \sqrt[10]{\sqrt{x} + x^{3/2}}$	x=3; y=1
11.	$a = 5x - \frac{1}{4} \cos x$	x=2
12.	$a = \sqrt[3]{e^{x-1} \sin z}$	x=3; z=1
13.	$c = \cos y - \frac{z}{(y-x)}$	x=3; y=1; z=-4
14.	$b = y^{\sqrt[3]{ x }}$	x=3; y=8
15.	$a = \frac{\sin^2 z}{\sqrt{x+y}}$	x=3; y=1; z=3.14;
16.	$a =  x  + \frac{1}{y^2+1}$	x=2; y=5
17.	$d = 2^{(y^x)} + (3^x)^y$	x=2; y=2
18.	$s = y + \sqrt[3]{x-1}$	x=3; y=3
19.	$f = (x+1)^{-1/\sin z}$	x=3; z=1.57

20.	$b = 1 + \frac{z^2}{3 + z^2 / 5}$	$z=4$
21.	$b = \cos^2(\frac{1}{z})$ .	$z=0.5$
22.	$f = 1 + \sin^2(x+y)$	$x=3; y=4$
23.	$b = x(z - e^{-(x-y)})$	$x=2; z=3$

### III BOB

## C++ DASTURLASH TILI VA ALGORITMLASH ASOSLARI

3.1. Algoritmlash asoslari. Algoritm turlari va xossalari

3.1.1. Masalalarini kompyuterda yechish bosqichlari

3.1.2. Algoritm va uning xossalari

3.1.3. Algoritm turlari va ularni ifodalash usullari

3.1.4. Chiziqli hisoblash jarayonlarini algoritmlash

3.1.5. Tarmoqlanuvchi algoritmlar

3.1.6. Takrorlanuvchi algoritmlar

3.1.7. Algoritmlarning ifodalanish usullari, turlari

3.1.7. Algoritmik tillar

3.2. C++ dasturlash tili

3.3. C++ tilida asosiy ma'lumot turlari

3.3.1. **BOOL** ma'lumot turi

3.3.2. **CHAR** ma'lumot turi

3.3.3. Butun sonli ma'lumot turlari

3.3.4. Suzuvchi nuqtali ma'lumot turlari

3.3.5. Void ma'lumot turi

3.4. C++ dasturlash tilida ifodalar va operatorlar

3.5. C++ tilida arifmetik amallar

3.6. C++ dasturlash tilida operatorlar

3.6.1. C++ dasturlash tilida tarmoqlanish konstruksiyalari. **If** shart operatori

3.6.2. Kalit bo'yicha tanlash (**switch**) operatori.

3.6.3. O'tish operatori **GO TO**

3.6.4. C++ dasturlash tilida **for** takrorlash operatori

3.6.5. C++ dasturlash tilida **while** takrorlash operatori

3.6.6. C++ dasturlash tilida **do while** takrorlash operatori

3.7. C++ dasturlash tilida mantiqiy amallar

3.7.1. Mantiqiy ko'paytirish operatori

3.7.2. Mantiqiy qoshish operatori

3.7.3. Mantiqiy inkor operatori

3.7.4. Massivlar tushunchasi. Massivlar bilan ishlash

### **3.1. Algoritmlash asoslari. Algoritm turlari va xossalari**

#### **3.1.1. Masalalarni kompyuterda yechish bosqichlari.**

Kompyuter va boshqa hisoblash mashinalari, zamonaviy til bilan aytganda gadjetlar ishlashi uchun, ya'ni ular "yashashi" uchun ularda maxsus dasturlar bo'lishi shart. Ushbu dasturlar kompyuter va boshqa hisoblash qurilmalarini ishslashga, ma'lumotlarni qabul qilishga, qayta ishslashga, saqlashga va ularni chiqarishga majbur etadi. Bir so'z bilan aytganda dasturlar kompyuterlar va boshqa gadjetlarning "yuragi" hisoblanadi. Dasturlar yordamida inson matnli xujjatlar, murakkab hisoblash amallari, katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishslash va shu kabi amallarni bajaradi.

Kompyuterdagi mavjud barcha dasturlar "**dasturiy ta'minot**" deb yuritiladi. Dasturiy ta'minotdan samarali foydalanish uchun qayta ishlanishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni bir tizimga solish va ularni qayta ishslash algortimlarini to'g'ri tanlay bilish kerak. Bundan tashqari foydalanuvchi har bir dasturning imkoniyatlarini, qachon qaysi dasturdan foydalanish kerakligini bilishi kerak.

Berilgan masalani kompyuter dasturlaridan foydalangan holda yechish bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. *Masalani qo'yish va uning matematik modelini ishlab chiqish.* Ushbu bosqichda boshlang'ich malumotlar tarkibi aniqlanadi. Masalani qo'yish odatda yechiladigan masalaning asosiy xususiyatlarini tavsiflash va masalaning matematik modelini tuzish orqali amalga oshiriladi.

2. *Yechish usulini tanlash.* Masala matematik ifodalanib bo'lin-gandan keyin uni yechish usuli tanlanadi. Bunda izlanayotgan natijalarning boshlang'ich ma'lumotlarga bog'liqligi aniqlanadi. Hozirgi zamon hisoblash matematikasi fan va texnikaga oid turli masalalarni yechish uchun ko'plab sonli usullar mavjud.

3. *Masalani yechish algoritmini ishlab chiqish.* Bu bosqichda kompyuterda masalani yechish uchun bajariladigan amallar (buyruqlar)

ketma-ketligi tavsiflanadi. Yuqorida aytib o'tilganidek bu jarayon - **algoritmlash** deb ataladi.

4. *Dasturlash*. Bunda tuzilgan algoritm biror algoritmik tilga ko'chiriladi.

5. *Dasturni kiritish va xatolarini tuzatish*. Ma'lum algortimik tilda (Pascal, Basic, C, C++ va hk.) dastur yoziladi va kompilasiya qilinadi.

6. *Masalani bevosita kompyuterda yechish va natijalarni tahlil qilish*. Bunda dasturda kerakli boshlang'ich qiymatlar berilib kompyuterda natija olinadi va tahlil qilinadi. Bu bosqichda agar kerak bo'lsa algoritm va dastur modernizatsiya qilinishi ham mumkin. Yangi olinigan ma'lumotlar asosida kerakli xulosalar ishlab chiqiladi. Bu ma'lumotlar qo'yilgan masalani turlicha tahlil qilishga, murakkab jarayonlarni tushunishga, yangicha nazariyalarning yaratilishiga xizmat qiladi. Umuman olganda "*Model-algoritm-dastur*" uchligi modellashtirishning intelektual mag'zini tashkil etadi, bunday uchliksiz kompyuterda murakkab masalalarni yechishda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

### 3.1.2. Algoritm va uning xossalari

Bundan 1000 yillar avval (780-850 yillar) buyuk matematik Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy o'zining chiziqli va kvadrat tenglamalar, arifmetik amallarni bajarish haqidagi kitoblarini yozgan. Ushbu usullardan hozirgi kunda ham foydalanib kelinmoqda. Uning nomini tarixda qoldirgan buyuk asar «Al jabr val-muqobala» risolasidir. "**Algoritm**" so'zining o'zagi *Algoritmi* bo'lib, ushbu so'z Al-Xorazmiy ismini lotinlashtirishdan kelib chiqqan. Algoritm tushunchasining ilmiy asoslarini 1930 yilda birinchilardan bo'lib A.CHerch tomonidan berib o'tilgan. Keyinchalik esa boshqa olimlar tomonidan ushbu tushunchaga tuzatishlar va aniqlashtirishlar kiritilgan. Elektron hisoblash mashinalarining vujudga kelishiga qadar algoritmgaga har xil ta'rif berib kelingan. Lekin ularning barchasi ma'no jihatdan bir-biriga juda yaqin bo'lib, bu ta'rif hozirgi kunda umumiy holatda quyidagicha talqin qilinadi:

*Algoritm deb, qo'yilgan masalani yechish uchun ma'lum qoidaga binoan bajariladigan amallarning ketma-ketligi(rejosi)ja aytildi. Har qanday algoritm oldindan belgilangan ko'rsatmalarga binoan bajariladi va bu ko'rsatmalar buyruq deb yuritiladi.*

**Har qanday** qo'yilgan masalani kompyuterda yechish uchun oldin uning yechish usulini tanlab, keyin uning algoritmini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Demak, hech bir masalani uning yechilish yo'llarini bilmasdan va algoritmini ishlab chiqmasdan turib, ushbu masalani kompyuterda yechib bo'lmaydi.

**Algoritmish deganda berilgan masalani yechish uchun algoritmi, ya'ni bajariladigan harakatlardan ketma-ketligini ishlab chiqish jarayoni tushuniladi.**

Algoritm quyidagi muhim xossalarga ega:

**Diskretlik** (lotincha, *discretus* – uzluklilik). Ushbu xossaga ko'ra har qanday algoritm qadamlar ketma-ketligi asosida tashkil etiladi. Navbatdagi qadam faqat oldingi qadam tugatilgandan keyingina amalga oshiriladi.

**Aniqlik va tushunarllilik yoki determinantlik** (lotincha, *determinate* – aniqlik, tushunarllilik). Ushbu xossaga ko'ra algoritmda ijrochiga berilayotgan ko'rsatmalar aniq mazmunda bo'lishi kerak.

**Ommaviylik.** Ushbu xossaga ko'ra har bir algoritm mazmuniga ko'ra bir turdag'i masalalarning barchasi uchun ham o'rinni bo'lishi tushuniladi.

**Natijaviylik,** ya'ni har qanday algoritmda chekli qadamlardan so'ng albatta natija bo'lishi shart.

### **3.1.3. Algoritm turlari va ularni ifodalash usullari**


Umumiy holatda algoritmlar chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi algoritmlarga farqlanadi.

Hech qanday shartsiz faqat ketma-ket bajariladigan jarayonlarga **chiziqli algoritm** deb ataladi.

Ma'lum shartlarga muvofiq bajariladigan ko'rsatmalardan tuzilgan algoritmlar **tarmoqlanuvchi algoritm** deb yuritiladi.

Biror bir shart tekshirilishi yoki biror parametrning har xil qiymatlari asosida algoritmda takrorlanish yuz beradigan algortimlarga **takrorlanuvchi algoritm** deb aytildi.

Algoritmlarni so'z, grafik, jadval va dasturiy shaklda ifodalash usullari mavjud bo'lib ushbu ifodalash usullari ham o'zining quyi pog'onaliga tarmoqlanishi mumkin (3.1-rasm).



### 3.1-rasm. Algoritmlarni ifodalash usullari

Ilk algoritmlar ish harakatning ketma-ketligini tushuntirish, ya'ni og'zaki usulda ifodalangan. Ushbu usulda tasvirlash uncha murakkab emas, lekin algoritmlarni bu shaklda ifodalashning aniq standartlari mavjud emas. Shartlarni tahlil qilish, takrorlanuvchi yoki shunga uxshash amallar mavjud bo'lgan hollarda, bunday algoritmlarni og'zaki yoki og'zaki-formulali usullar yordamida ifodalash qiyinchilik tug'diradi.


Algoritmlarni *grafik usulda* ifodalash uning tushunarligi bilan ajralib turadi.

Grafik usulda tasvirlashning bir usuli sifatida rasmi tasvirlashni olishimiz mumkin. Ushbu usuldagi algortmlarni tez tayyorlanuvchi ozuqa mahsulotlari (Rollton, Hot Lunch va hk.), maishiy texnikalardan foydalanish, texnologik qurilmalarni yig'ish ko'rsatmalari va shu kabi boshqa jarayonlarda ko'rishmiz mumkin bo'ladi (3.2-rasm). Algortimlarni *sxema* yoki *grafa* ko'rinishida berish ancha formal va qat'iy usullardan hisoblanadi. 3.3-rasmda matematik ifodalarni grafalar ko'rinishida tasvirlash namunasi keltirilgan.

### 3.2-rasm. Tez tayyorlanuvchi lapsha solinga ifodalash algoritmi



$$\begin{array}{c}
 (x_2, y_2) \\
 \boxed{\phantom{000}} \\
 (x_1, y_1)
 \end{array}
 \quad S = ((x_2 - x_1)(y_2 - y_1)) = \\
 = x_2 y_2 + x_2 y_1 - x_1 y_2 + x_1 y_1$$



### 3.3-rasm. Matematik masalalarni yechishda algoritmlarni grafa ko'rinishda ifodalash

Agar algoritmlar texnik qurilmalar, hisoblash mashinalarining ishlashini boshqarish uchun mo'ljallangan bo'lsa (misol uchun kompyuterli yoki sonli boshqarish uskunlari bo'lsa), u holda ushbu algoritmlar *dasturiy shaklda* beriladi (3.4-rasm).

```

      A   M    1.1
      *   Q    4.1          //open valve 2
      A   M    1.2
      *   Q    4.2          //open valve 3

      AN   M    1.0
      BEG

      L   MW    10          //load setpoint
      ITD
      T   MD    20          //Integer -> Double
      L   U#16#114
      /D
      T   MD    28          //load 276dez bzw. 114h
      /MD 20 / 114h
      DTR
      T   MD    32          //Double -> Real

      BE
  
```

### 3.4-rasm. Algoritmlarni dasturiy shaklda berish

Algoritmning *jadval* ko‘rinishda tasvirlanishdan ham ko‘p foydalilaniladi. Masalan, matabda qo‘llanib kelinayotgan to‘rt xonali matematik jadvallar yoki turli xil lotereyalar jadvallari. Funksiyalarning grafiklarini chizishda ham algoritmlarning qiymatlari jadvali ko‘rinishlaridan foydalaniladi.

### 3.1-Jadval. Blok-sxemalar tuzishda ishlatiladigan standart grafik obyektlar

Blok nomi	Blok shakli	Blok vazifasi
Boshlash-tamomlash bloki		Algoritmning boshlanishi va tamomlanishini ko‘rsatadi
Kiritish-chiqarish bloki		Ma’lumotlarni kiritish va chiqarishni ta’minlaydi
Yechish (shart, man-tiqiy blok)		Berilgan shartga ko‘ra algoritm yo‘nalishini aniqlaydi
Jarayon (amallar bloki)		Amallar bajarilishini ta’minlaydi
Oldingi aniqlangan jarayon		Yordamchi algoritmlardan foydalanishni ta’minlaydi

Hayotimizda algoritmlarni turli sohalarda foydalaniladi. Algoritmlar faqat matematik xarakterga ega bo‘lmasdan ularni oddiy hayot faoliyati jarayonida ham ko‘p qo‘llaniladi. Masalan, ovqat tayyorlash, choy damlash, biror berilgan ishni bajarish va hk. Bu ishlarni bajarishda ma’lum bo‘lgan aniq ko‘rsatmalarni ketma-ket bajariladi. Agar bu ko‘rsatmalar aniq bir ketma-ketlik tartibida bajarilmasa kerakli natijani olib bo‘lmaydi. Misol tariqasida matematik xarakterga ega bo‘limgan choy damlash algoritmini ko‘rib chiqaylik. Bunda boshlang‘ich berilganlar: sovuq suv, quruq choy va issiqlik. Natija: choy. Choy damlash algoritmi:

1. Idishga sovuq suv solish;
2. Issiqlik berish;
3. Quruq choy solingenan choynakka qaynagan suvni quyish.

Agar ushbu jarayonda biror bir bosqich amalga oshmasdan qolsa, u holda kutilgan natija bo‘lmaydi.

### 3.1.4. Chiziqli hisoblash jarayonlarini algoritmlash

Chiziqli hisoblash jarayonlarini algoritmlashda chiziqli algoritmlardan (strukturadan) foydalaniлади. Chiziqli algoritm (chiziqli struktura) – bunda barcha amallar ketma-ket ravishda, faqat bir martadan bajariladi. Algoritm sxemasi tepadan pastga qarab, ularning bajarilish ketma-ketligiga binoan joylashtiriladi. Boshlang‘ich va oraliq ma’lumotlar hisoblash jarayoni yo‘nalishiga ta’sir ko‘rsatmaydi.

**Misol uchun**, xonaga yopishtirish uchun ketadigan gulqog‘oz o‘rami sonini hisoblash talab etilgan bo‘lsin. Xonaning ko‘rsatkichlari: uzunligi (*a*), eni (*b*) va balandligi (*h*) hamda gulqog‘oz o‘ramining ko‘rsatkichlari: uzunligi (*l*) va eni (*d*) berilgan. Xonadagi deraza va eshik maydoni jami devor yuzasining 15 foizini tashkil etadi.

Ushbu masala uchun turli xildagi algoritmlardan, ya’ni og‘zaki-formulali, blok-sxemali va dasturiy ko‘rinishdagi algoritmlardan foydalanish mumkin bo‘ladi.

**Og‘zaki-formulali algoritmga** ko‘ra “*Gulqog‘ozni yelimlash*” algoritmi tartib raqamiga ega ketma-ketlik shaklida ifodalanadi.


#### “*Gulqog‘ozni yelimlash*” algoritmi (og‘zaki-formulali ko‘rinish)

1. Xona perimetri hisoblanadi:  $p=2*(a+b)$ ;
2. Eshik va derazalardan tashqari jami devor yuzasi hisoblanadi:  $s1=0.85*p*h$ ;
3. Bir o‘ram gulqog‘oz yuzasi hisoblanadi:  $s2=l*d$ ;
4. O‘ramlar soni hisoblanadi:  $k=\text{div}(s1/s2)+1$  (bu yerda *div* qavs ichidagi ifoda bo‘yicha olingan natijaning butun qismi);
5. Tamom.

Ushbu masala algortmini **grafik shakldagi algoritmda** ham, misol uchun **Blok-sxema ko‘rinishdagi algoritmda** ifodalash mumkin. Blok-sxema ko‘rinishdagi algoritm ham ogzaki-formulali algoritm strukturasiga uxshash bo‘lib, bunda agar ushbu algoritm dasturi kompyuterda bajarilayotga bo‘lsa ma’lumotlarni kiritish va chiqarish bloki ham hisobga olinadi. 3.5-rasmida ushbu masala algoritmining blok-sxemasi keltirilgan.

## Blok-sxemani izohlash:

- Blok-sxemadagi belgilangan 1-4 amallar og‘zaki-formulali algoritmdagi 1-4 amallarga mos keladi;
- Ma’lumotlarni kiritish va chiqarish bloklaridagi qo‘shtirnoq ichiga olingan ifodalar ekranga chiqariladigan ifodalardir;
- Algoritmni boshlash va tugatish bloklari mayjud.




3.5-rasm. Berilgan masala algoritmining blok-sxemasi

Masalalarni yechishda chiziqli algoritmlardan tashqari tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi algoritmlar ham mayjud bo‘lib, agar berilayotgan masala ma’lum bir shartga bo‘ysunsa yoki tekshirsa, u holda berilgan shartni tekshirish orqali algoritm yo‘nalishi keying qadamga o‘tadi yoki oldingi qadamga qaytariladi.

### 3.1.5. Tarmoqlanuvchi algoritmlar

Agar hisoblash jarayoni biror bir berilgan shartning bajarilishiga qarab turli tarmoqlar bo‘yicha davom ettirilsa va hisoblash jarayonida har bir tarmoq faqat bir marta bajarilsa, bunday hisoblash jarayonlariga *tarmoqlanuvchi algoritmlar* deyiladi. Tarmoqlanuvchi algoritmlar uchun ayri strukturasi ishlataladi. Tarmoqlanuvchi strukturasi berilgan shartning bajarilishiga qarab ko‘rsatilgan tarmoqdan faqat bittasining bajarilishini ta’minlaydi.




3.6-rasm. Tarmoqlanuvchi algoritmnинг umumiyo‘nini ko‘rinishi

Berilgan shart romb orqali ifodalanadi, r-berilgan shart. Agar shart bajarilsa, "Yes" tarmoq bo'yicha *A amal*, shart bajarilmasa "No" tarmoq bo'yicha *B amal* bajariladi.

Tarmoqlanuvchi algoritmga tipik misol sifatida quyidagi sodda misolni ko'rishimiz mumkin:

$$y = \begin{cases} \frac{1}{\sin(x)}, & \text{agar } x < 0 \text{ bo'lsa} \\ \cos(x), & \text{agar } x \geq 0 \text{ bo'lsa} \end{cases}$$



**3.7-rasm. Tarmoqlanuvchi algoritm bo'yicha masalani yechish algoritmi**

yig'indisi yoki ko'paytmasini hisoblash jarayonlarini qarash mumkin. Misol uchun,  $N$  ta sonning ko'paytmasini hisoblash masalasi qo'yilgan bo'lsin, umumiy holda berilgan misol quyidagicha bo'ladi:

Bu yig'indini hisoblash uchun  $i=1$  da  $P=1$  deb olamiz va  $i=i+1$  da  $P=P*i$  ni hisoblanadi. Bu yerda birinchi va ikkinchi qa-

Bunda, berilgan funksiya berilgan  $x$  ning qiymatiga bog'liq holda, agar u manfiy bo'lsa «Yes» tarmoq bo'yicha  $y=1/\sin(x)$  funksianing qiymati, aks holda  $y=\cos(x)$  funksianing qiymati hisoblanadi (3.7-rasm).

### 3.1.6. Takrorlanuvchi algoritmlar

Agar biror masalani yechish uchun tuzilgan zarur bo'lgan amallar ketma-ketligining ma'lum bir qismi biror parametrga bog'liq holda takroriy bajarilsa, bunday algoritm *takrorlanuvchi algoritm* yoki *siklik algoritmlar* deyiladi. Takrorlanuvchi algoritmlarga tipik misol sifatida odatda qatorlarning

$$P = 1 * 2 * 3 * \dots + N = \prod_{i=1}^N i$$


damlar uchun ko‘paytma hisoblanadi va keyingi qadamda  $i$  parametr yana bittaga oshiriladi va navbatdagi raqam avvalgi ko‘paytma (faktorial)  $P$  ga ko‘paytililadi va bu jarayon shu tartibda  $i=N$  shartiga qadar davom ettiriladi va natijada izlangan faktorialga ega bo‘lamiz. Ushbu amallarni quyidagi algoritm sifatida ifodalash mumkin:

Berilgan:  $N, i=1, P=1;$

Hisoblansin:  $i=i+1, P=P*i;$

$i < N$  tekshirilsin va bu shart bajarilsa, 4-satrga qaytilsin, aks holda keyingi qatorga o‘tilsin;

$P$  ning qiymati chop etilsin (3.8-rasm).



**3.8-rasm. N faktorialni hisoblash algoritmi**

Yuqorida keltirilgan algoritm va blok sxemadan ko‘rinib turib-diki amallar ketma-ketligining ma’lum qismi parametr  $i$  ga nisbatan  $N$  marta takrorlanadi.

Ushbu turdagи takrorlanuvchi (siklik) algoritmlar 2 xil, ya’ni sharti oldin berilgan va sharti keyin berilgan takrorlanuvchi algoritmlarga farqlanishi mumkin. Ushbu turdagи algoritmlar haqida nazariy bilimlar olishi talabaning o‘ziga mustaqil ish sifatida havola etiladi.

Algoritm tuzishda quyidagi **talablarga** amal qilinsa, qo‘yilgan masalaning natijasini aniq, tez va to‘g‘ri olish mumkin:

- qo‘yilgan masalanı to‘g‘ri tushinib olish, masalaning asosiy maqsadini aniq ajratish;

- ishga dahldor qiyinchiliklarni aniq ko‘rish va ortiqcha, masala yechimiga katta ta’siri bo‘laman parametrlarni qisqartirish;
- qo‘yilgan masalani bir-biriga bog‘liq bo‘laman mustaqil bo‘laklarga, ya’ni kichik tizimlarga ajrata olish va ular orasidagi bog‘liqlikni to‘g‘ri tashkil etish;
- qo‘yilgan masalaning yechimini olishda har bir bo‘lak (tizim) yechimlari to‘plamini bir butun holga keltirish;
- masala yechimini sodda va tushunarli tilda bayon etish.

Kompyuterdan foydalanib ilmiy – texnik, kimyo va oziq-ovqat sohalaridagi masalalarni yechish bir qancha bosqichlarga bo‘linadi. Maqsad - bosqichlarning qaysi birlarini mutaxassis kompyuterdan foydalanmasdan va qaysi bosqichlarini kompyuterdan foydalanib bajarishtini aniqlash hamda bosqichlarni to‘la o‘rganib chiqishdan iborat.

Ilmiy – texnik, kimyo va oziq-ovqat sohalaridagi masalalarni yechishda kompyuterdan foydalanish bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Masalaning qo‘yilishi va maqsadning aniqlanishi;
2. Masalani matematik ifodalash;
3. Masalani yechish uslubini ishlab chiqish, sonli usullarni tanlash;
4. Masalani yechish algoritmini ishlab chiqish;
5. Ma’lumotlarni tayyorlash va tarkibini aniqlash (tanlash);
6. Dasturlash;
7. Dastur matnnini va ma’lumotlarni axborot tashuvchiga o‘tkazish;
8. Dastur xatolarini tuzatish;
9. Dasturning avtomatik tarzda kompyuterda bajarilishini tekshirish;
10. Olingan natijalarni izohlash, tahlil qilish va dasturdan foydalanish uchun ko‘rsatma yozish.

### **3.1.7. Algoritmlarning ifodalanish usullari, turlari.**

Algoritmnini ishlab chiqishda asosan quyidagi 3 xil usul orqali ifodalash mumkin:

1. Algoritmnini oddiy tilda ifodalash;
2. Algoritmnini tizim ko‘rinishida ifodalash;
3. Algoritmnini maxsus (algoritmik) tilda yozish.

**Algoritmnini oddiy tilda ifodalash.** Algoritmlarni ifodalashning eng keng tarqalgan shakli - oddiy tilda so‘zlar bilan bayon qilishdir. Bu nafaqat hisoblash algoritmlarida, balki hayotiy, turmushdagi “algoritm”-larga ham tegishlidir.

Masalan, biror bir taom yoki qandolat mahsulotini tayyorlashning retsepti ham oddiy tilda tavsiflangan algoritmdir. Shaharlارaro telefon - avtomat orqali aloqa o‘rnatishning o‘ziga xos algoritmidan foydalanamiz. Do‘kondan yangi kir yuvish mashinasi yoki kompyuter sotib olinsa, ishni foydalanishning algoritmi bilan tanishishdan boshlaymiz.

Masalani kompyuterda yechishda ham, ko‘pincha matematika tilini ham o‘z ichiga olgan tabiiy tildan foydalanish mumkin. Algoritmnинг bunday tildagi yozuvi izlanayotgan natijaga olib keladigan amallar ketma-ketligi ko‘rinishida bo‘lib, odam tomonidan bir ma’noli idrok etilishi kerak. So‘zlar bilan ifodalangan har bir amal “*algoritmnинг qadami*” deb ataladi. Qadamlar tartib nomeriga ega bo‘ladi.

Algoritm ketma-ket qadamlar bo‘yicha bajarilishi kerak. Agar algoritm matnida “*N sonli qadamga o‘tilsin*” deb yozilgan bo‘lsa, bu algoritmnинг bajarilishi ko‘rsatilgan N-qadamdan davom etishini bildiradi.

Ko‘rinib turibdiki, yuqoridaq keltirilgan misollar algoritmi *oddiy tilda* bayon etilgan.

Algoritmlarni oddiy tilda ifodalab kompyuterga kiritish ma’noga ega emas, ya’ni kompyuter buni tushunmaydi. Buning uchun algoritmnı kompyuter tilida shunday bayon qilish kerakki, natijada masalani kompyuterda yechish jarayonida bu algoritm ishni avtomatik boshqarib turadigan bo‘lsin. Kompyuter tushunadigan shaklda yozilgan algoritm esa o‘z navbatifa masalani yechish dasturi bo‘lib hisoblanadi.

**Algoritmnini tizim ko‘rinishida ifodalash.** Nisbatan murakkab masalalarни yechishda ishlab chiqilgan algoritmdan muayyan kompyuter tilidagi dasturga o‘tish juda qiyin bosqich hisoblanadi. Bunday bevosita o‘tishda algoritmnинг alohida qismlari orasidagi bog‘lanish yo‘qoladi, algoritm tarkibining asosiy va muhim bo‘lmagan qismlarini farqlash qiyin bo‘lib qoladi. Bunday sharoitda keyinchalik aniqlash va to‘g‘rilash ancha vaqt talab qiladigan xatolarga osongina yo‘l qo‘yish mumkin.

Odatda algoritm bir necha marta ishlab chiqiladi, ba'zan xatolarni to'g'rilash, algoritm tarkibini aniqlashtirish va tekshirish uchun bir necha marta orqaga qaytishga to'g'ri keladi.

Algoritmnini ishlab chiqishning birinchi bosqichida algoritmnini yozishning eng qulay usuli - algoritmnini tizim ko'rinishda ifodalashdir.

*Algoritmnini tizim ko'rinishda ifodalash* - berilgan algoritmnini amalga oshirishdagi amallar ketma-ketligining oddiy tildagi tasvirlash elementlari bilan to'ldirilgan grafik tasviridir. Algoritmnining har bir qadami tizimda biror bir geometrik shakl - blok (simvoli) bilan aks ettiriladi.

Algoritmnini tizim ko'rinishda ifodalashda bajariladigan amallar turiga ko'ra turlicha bo'lган bloklarga GOST bo'yicha tasvirlanadigan turli xil geometrik shakllar - to'g'ri to'rtburchak, romb, parallelogramm, ellips, oval va hokazolar mos keladi.

Algoritm tizimlarini qurish qoidalari GOST 19. 002-80 da (xalqaro standart ISO 2636-73 ga mos keladi) qat'iy belgilab berilgan. GOST 19. 003 -80 (ISO 1028-73ga mos) algoritm va dasturlar tizimlarida qo'llaniladigan simvollar ro'yxatini, bu simvollarning shakli va o'lchamlarini, shuningdek ular bilan tasvirlanadigan funksiyalarni (amallarni) belgilaydi.

Tizim blok(simvol)lari ichida hisoblashlarning tegishli bosqichlari ko'rsatiladi. Shu erda har bir simvol bat afsil tushuntiriladi.

Har bir simvol (blok) o'z raqamiga ega bo'ladi. U tepadagi chap burchakka chiziqni uzib yozib qo'yiladi. Tizimdagi grafik simvollar hisoblash jarayonining rivojlanish yo'nalishini ko'rsatuvchi chiziqlar bilan birlashtiriladi.

Ba'zan chiziqlar oldida ushbu yo'nalish qanday sharoitda tanlanganligi yozib qo'yiladi. Axborot oqimining asosiy yo'nalishi tepadan pastga va chapdan o'ngga ketadi. Bu hollarda chiziqlarni ko'rsatmasa ham bo'ladi, boshqa hollarda albatta chiziqlarni qo'llash majburiyidir. Blokka nisbatan oqim chizig'i (potok linii) kiruvchi yoki chiquvchi bo'lishi mumkin. Blok uchun kiruvchi chiziqlar soni chegaralanmagan.

Chiquvchi chiziq esa mantiqiy bloklardan boshqa hollarda faqat bitta bo'ladi. Mantiqiy bloklar ikki va undan ortiq oqim chizig'iga ega bo'ladi.

Ulardan har biri mantiqiy shart tekshirishining mumkin bo'lgan natijalarga mos keladi.

O'zaro kesiladigan chiziqlar soni ko'p bo'lganda, chiziqlar soni haddan tashqari ko'p bo'lsa va yo'nalishlari ko'p o'zgaraversa tizim-dagi ko'rgazmalik yo'qoladi. Bunday hollarda axborot oqimi chizig'i uzishga yo'l qo'yiladi, uzilgan chiziq uchlariga "birlashtiruvchi" belgisi qo'yiladi.

Agar uzilish bitta sahifa ichida bo'lsa, O belgisi ishlatilib, ichiga ikki tarafga ham bir xil harf-raqam belgisi qo'yiladi.

Agar tizim bir necha sahifaga joylansa, bir sahifadan boshqasiga o'tish "sahifalararo bog'lanish" belgisi ishlatiladi.

Bunda axborot uzatilayotgan blokli sahifaga qaysi sahifa va blokka borishi yoziladi, qabul qilinayotgan sahifada esa qaysi sahifa va blokdan kelishi yoziladi.

***Algoritm tizimlarini qurishda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:***

- Parallel chiziqlar orasidagi masofa 3 mm dan kam bo'lmasiligi, boshqa simvollar orasidagi masofa 5 mmdan kam bo'lmasiligi kerak. Bloklarda quyidagi o'lchamlar qabul qilingan:  $a=10, 15, 20$ ;  $b=1, 5^*a$ .

- Agar tizim kattalashtiriladigan bo'lsa, a ni 5 ga karrali qilib oshiriladi. Bu talablar asosan 10-bosqichda, dasturga yo'riqnomalar yozishda rioya qilinadi. Algoritmlarni mayda-mayda bo'laklarga ajratishda hech qanday chegaralanishlar qo'yilmagan, bu dastur tuzuvchining o'ziga bog'liq.

Lekin, juda ham umumiyligi tuzilgan tizim kam axborot berib, no-qulaylik tug'dirsa, juda ham maydalashtirib yuborilgani ko'rgazmali-likka putur etkazadi.

Shuning uchun murakkab va katta algoritmlarda har xil darajadagi bir nechta tizim ishlab chiqiladi.

Algoritmning tizim tarzidagi ifodasining yana bir afzalligi undan uchinchi ko'rinish, ya'ni algoritmik tildagi ifodasi (dastur)ga o'tish ham juda oson bo'ladi. Chunki bunda har bir blok algoritmik tilning ma'lum bir operatori bilan almashtiriladi xolos.

### **3.1.8. Algoritmik tillar**

Masalani yechish algoritmi ishlab chiqilgandan so'ng ushbu algoritmgaga ko'ra dastur tuziladi.

**Dastur** - bu berilgan algoritmgaga asoslangan biror bir algoritmik tilda yozilgan ko'rsatmalar, ya'ni buyruqlar yoki operatorlar to'plamidir.

**Dasturlash** - esa bu dastur tuzish jarayoni bo'lib, u quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Dasturga bo'lgan talablarni aniqlash;
2. Qo'yilgan masala algoritmini tanlash yoki ishlab chiqish;
3. Dastur kodlarini (matnlari, buyruqlarni) yozish;
4. Dasturni to'g'rilash va tekshirish.

Hozirgi kunda juda ko'plab algoritmik tillar mavjud bo'lib, ular *dasturlash tillari* deb ataladi.

**Algoritmik til** – algoritmlarni bir xil va aniq yozish uchun ishlataladigan belgilashlar va qoidalar tizimidir.

Algoritmik til oddiy tilga yaqin bo'lib u matematik belgilarni o'z ichiga oladi. Tuzilgan algoritmlarni to'g'ridan-to'g'ri mashinaga berib bo'lmaydi, shu sababli yozilgan algoritmnini biror bir algoritmik tilga o'tkazish zarur. Har qanday algoritmik til o'z qo'llanilish sohasiga ega bo'lib, umumiy holatda dasturlash tillari ikki guruhga, ya'ni operatorli va funksional dastulash tillariga ajratiladi. Funksional dasturlash tillariga *LISP*, *PROLOG* dasturlash tillari kiradi. Operatorli tillar prosedurali va prosedurasiz guruhga bo'linadi. Prosedurali tillar o'z navbatida mashinaga yo'naltirilgan va mashinaga aloqasiz tillarga ajraladi.

Mashinaga yo'naltirilgan tillarga mashina tillari, avtokodlar, simvollki kodlash tillari, assemblerlar kiradi.

Mashinaga aloqasiz tillarga esa quyidagilar kiradi:

1. Proseduraga yo'naltirilgan (*Pascal*, *Fortran* va hk.);
2. Muammoga yo'naltirilgan (*LISP* va hk.);
3. Obyektga yo'naltirilgan (*C++*, *Visual Basic*, *Java* va boshq.).

Hozirgi kunda muxandislik hisob ishlarini bajarishda *Paskal*, *Beysik* va *Fortran*; Iqtisod masalalarini yechishda *Paskal* va *Kobel*; Mantiqiy dasturlash uchun *Prolog*; O'quv jarayonlari uchun *Beysik*, *Paskal*, *C*, *C++* va boshqalar; Web dasturlash uchun *PHP*, *JavaScript*; Zamonaviy

Android va shu kabi qurilmalar uchun *Java* tillaridan foydalaniadi. Assembler tili mashina tiliga ancha yaqin til bo‘lib o‘rta darajadagi tildir. Algoritmik til inson tillariga qancha yaqin bo‘lsa, u tilga *yuqori darajali til* deyiladi. Mashina tili esa *eng pastki darajali tildir*.

### **3.2. C++ DASTURLASH TILI**

Ushbu bo‘lim C va C++ dasturlash tillarini urganish bo‘yicha boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga mo‘ljallangan. C++ tili C tili asosida qurilgan bo‘li, C tili Dennis Ritchie tomonidan, C++ tiliga esa 1979 yilda Bell Labs kompaniyasida Bjarne Stroustrup tomonidan asos solingan va 1983 yilda C++ dasturlash tili deb nomlangan (<https://en.wikipedia.org/wiki/C%2B%2B>).

C++ tilining birinchi tijorat versiyasi 1985-yilda taqdim etilgan bo‘lib, ushbu yilda B.Stroustrupning “The C++ Programming Language” (C++ dasturlash tili) kitobi taqdim etilgan. Ushbu dasturlash tili xalqaro ISO (International Organization for Standardization) tashkiloti tomonidan standartlanadi. C++ dasturlash tili ilk bor 1998 yilda standartlangan (*ISO/IEC 14882:1998*) bo‘lib xoziргcha uning C++03, C++11, C++14 standartlari mavjud. Ushbu tilning eng oxirgi ro‘yxatga olingan standarti C++17 (2017 yil, dekabr; *ISO/IEC 14882:2017*) bo‘lib, uning imkoniyatlari va kutubxonasi kengaytirilgan.

#### **C++ dasturlash tili alfaviti va xizmatchi so‘zlar**

C++ dasturlash tili ham boshqa dasturlash tillari kabi o‘z alfavitiga va belgilariga ega bo‘lib, mavjud alfavit va leksemalar(xizmatchi so‘zlar)ga quyidagilar kiradi:

1. Katta va kichik lotin alfavitidagi harflar (a dan z gacha);
2. Raqamlar - 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9;
3. Maxsus belgilar: “ {} | [] () + - / % \ ; ‘ : ? <=>\_ ! & ~ # ^ . \*

Alfavit belgilaridan esa tilning leksemalari shakllantiriladi va ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- Identifikatorlar va kalit (xizmatchi yoki zahiralangan) so‘zlar;
- O‘zgarmaslar;
- Amallar belgilanishlari;
- Ajratuvchilar.

Ushbu tilda tuzilgan dasturlarda izohlar istalgan joyda berilishi mumkin. Ular satrli va blokli ko‘rinishlarda bo‘ladi. Satrli izohlar uchun “//”, blokli izohlar uchun “/\*”, “\*/” belgilari ishlatalidi.

- **Identifikatorlar va kalit (xizmatchi yoki zahiratlangan) so‘zlar.**

Dasturlash tillarida identifikator tushunchasi mayjud bo‘lib, dasturda ob’yektlarni nomlash uchun ishlatalidi. O‘zgarmaslarni, o‘zgaruvchilarni, belgi, protsedura va funksiyalarni belgilashda ishlataladigan nom **identifikatorlar** deyiladi. Identifikatorlar lotin alfaviti harflaridan boshlanib, qolgan belgilari harf yoki raqamlar ketma-ketligidan tashkil topgan bo‘lishi mumkin. Masalan: *axc, alfa*.

- **O‘zgarmaslar.** Dasturlash tillarida dastur bajarilishi vaqtida qiymati o‘zgarmaydigan identifikatorlar **o‘zgarmaslar** deyiladi.

O‘zgarmaslar beshta guruhga bo‘linadi – butun, haqiqiy (suzuvchi nuqtali), sanab o‘tiluvchi, belgi va satr («string», belgilardan tashkil topgan qator). **C++** tilida o‘zgarmas (**cons**) – bu fiksirlangan sonni, satrni va belgini ifodalovchi leksema hisoblanadi. Kompilyator o‘zgarmasni leksema sifatida aniqlaydi, unga xotiradan joy ajratadi, ko‘rinishi va qiymatiga (turiga) qarab mos guruhlarga bo‘ladi.

**Butun o‘zgarmaslar:** ular quyidagi formatlarda bo‘ladi - o‘nlik son; - sakkizlik son; - o‘n oltilik son.

**O‘nlik o‘zgarmas 0** raqamidan farqli raqamdan boshlanuvchi raqamlar ketma-ketligi va **0** hisoblanadi: 0; 123; 7987; 11.

**Manfiy o‘zgarmas** – bu ishorasiz o‘zgarmas bo‘lib, unga faqat ishorani o‘zgartirish amali qo‘llanilgan deb hisoblanadi.

**Sakkizlik o‘zgarmas 0** raqamidan boshlanuvchi sakkizlik sanoq sistemasi (0,1,..,7) raqamlaridan tashkil topgan raqamlar ketma-ketligi: 023; 0777; 0.

**O‘n oltilik o‘zgarmas 0x** yoki **0X** belgilardan boshlanadigan o‘n oltilik sanoq sistemasi raqamlaridan iborat ketma-ketlik hisoblanadi: 0x1A; 0X9F2D; 0x23.

Harf belgilari ixtiyoriy registrlarda berilishi mumkin.

Kompilyator sonning qiymatiga qarab unga mos turni belgilaydi. Agar tilda belgilangan turlar dastur tuzuvchini qanoatlantirmasa, u

holda oshkor ravishda turni e'lon qilish mumkin. Buning uchun butun o'zgarmas raqamlari oxiriga, probelsiz *L* yoki *L* (Long), *u* yoki *U* (unsigned) yoziladi. Zarur hollarda bitta o'zgarmas uchun bu belgilarning ikkitasini ham ishlatish mumkin: 451u, 012U, 0xA2L va hk.

**Haqiqiy o'zgarmaslar:** Haqiqiy o'zgarmaslar – suzuvchi nuqtali son bo'lib, u ikki xil formatda berilishi mumkin:

- *O'nlik fiksirlangan nuqtali formatda.* Bu ko'rinishda son nuqta orqali ajratilgan butun va kasr qismlar ko'rinishida bo'ladi. Sonning butun yoki kasr qismi bo'lmasligi mumkin, lekin nuqta albatta bo'lishi kerak. Fiksirlangan nuqtali o'zgarmaslarga misollar: 24.56; 13.0; 66.; .87;

- *Eksponensial formatda.* Eksponensial shaklda berilgan haqiqiy o'zgarmas quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

- butun qismi (o'nli butun son);
- o'nli kasr nuqta belgisi;
- kasr qismi (o'nlik ishorasiz o'zgarmas);
- eksponenta belgisi ‘e’ yoki ‘E’;
- o'n darajasi ko'rsatkichi (musbat yoki manfiy ishorali o'nli butun son);
- qo'shimcha belgisi ('F' yoki f, 'L' yoki 'l').

Eksponensial shakldagi o'zgarmas sonlarga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1E2; 5E+3; .25E4; 31.4E-1.

**Belgili o'zgarmaslar:** Belgili o'zgarmaslar apostroflar (‘,’) ichiga olingan alohida belgilardan tashkil topadi va u *char* kalit so'zi bilan aniqlanadi. Bitta belgi o'zgarmas uchun xotirada bir bayt joy ajratiladi va unda butun son ko'rinishidagi belgining *ASCII* kodi joylashadi. Misol uchun:

‘e’, ‘@’ , ‘7’ , ‘z’ , ‘w’ , ‘+’ , ‘sh’ , ‘\*’ , ‘a’ , ‘s’.

**ASCII (American Standard Code for Information Interchange – O'zaro axborot almashinuvni uchun Amerika standart kodi)** belgilari deganda kompyuterlarda qo'llaniladigan standart belgililar to'plami tushunildi.

C va C++ tili kompilyatorlarida tekstlarni formatlovchi bir nechta maxsus belgilardan foydalanilib, ushbu maxsus belgilalar axborotlarni

ekranga, faylga va boshqa chiqarish qurilmalariga chiqarishda formatlash uchun qo'llaniladi.

### 3.2-Jadval. C++ tilida escape ketma-ketliklar ro'yxati

Escape ketma-ketlik	Ma'nosi	Nomlanishi
\n	Yangi qator	newline
\t	Gorizontal tabulyatsiya (siljish)	horizontal tab
\v	Vertikal tabulyatsiya	vertical tab
\b	Kursorni bir belgi ortga qaytarish	backspace
\r	Kursorni ayni qatorning boshiga qaytarish	carriage return
\f	Sahifani o'tkazish	form feed
\a	Ogohlantiruvchi signal berish	alert
\\\	Teskari taqsimlash belgisi	backslash
? or \?	Suroq belgisi	question mark
\'	apostrof	single quote
\»	Qo'shtirnoq	double quote
\0	Nol belgisi	the null character
\ooo	Sakkizlik kodi	octal

Maxsus ‘\’ belgisi bilan boshlanuvchi belgilari to‘plami ESC (escape) ketma-ketlik deyiladi va ushbu ketma-ketlik qiymati simvolning kompyuterda qabul qilingan sonli kodiga teng bo‘ladi (3.2-Jadval).

Quyida ushbu *escape ketma-ketliklar* yordamida amallar bajarishga misollar keltirib o‘tamiz:

#### Yangi qator (\n)

```
cout<<"COMPUTER\nSCIENCE";
```

Ushbu dastur natijasiga ko‘ra, birinchi bo‘lib “COMPUTER” so‘zi yoziladi, keyin esa “\n” ketma-ketlik kursorni yangi qatorga o’tkazadi va “SCIENCE” so‘zi keyingi qatorda yoziladi:

COMPUTER  
SCIENCE

### **Tabulyatsiya (\t)**

cout<<"COMPUTER\tSCIENCE";

Ushbu dastur natijasiga ko'ra, birinchi bo'lib "COMPUTER" so'zi yoziladi, keyin esa "\t" ketma-ketlik kursov 8 ta bo'sh simvolgacha ko'chiradi va "SCIENCE" so'zi yoziladi:

COMPUTER SCIENCE

### **Ogohlantiruvchi signal (\a)**

cout<<"COMPUTER\aSCIENCE";

Ushbu dastur natijasiga ko'ra, birinchi bo'lib "COMPUTER" so'zi yoziladi, keyin esa ogohlantiruvchi qisqa signal eshitiladi va "SCIENCE" so'zi ekranda paydo bo'ladi:

COMPUTER (ogohlantiruvchi signal) SCIENCE

### **Bitta kursov oldingi simvolni o'chirish, backspace (b)**

cout<<"COMPUTER\bSCIENCE";

Ushbu dastur natijasiga ko'ra, birinchi bo'lib "COMPUTER" so'zi yoziladi, keyin esa "b" ketma-ketlik kursordan oldin turgan simvolni, "R" ni o'chiradi va "SCIENCE" so'zi yoziladi:

COMPUTERSCIENCE

### **Apostrof (\')**

cout<<"\COMPUTER SCIENCE\"";

so'zlarni apostrof ichiga olish uchun ushbu \' ketma-ketlikdan foydalaniadi:

'COMPUTER SCIENCE'

### **Qator boshiga qaytish (\r)**

cout<<"COMPUTER\rSCIENCE";

Ushbu ketma-ketlikka ko'ra, birinchi bo'lib "COMPUTER" so'zi yoziladi, keyin esa "\r" operator kursorni joriy qator boshiga ko'chiradi va "SCIENCE" so'zi "COMPUTER" so'zi ustidan yoziladi, ya'ni o'zgartiradi:

'SCIENCEER'

## Sahifani o'tkazish (\f)

cout<<"COMPUTER\fSCIENCE";

Ushbu ketma-ketlikka natojasiga ko'ra, birinchi bo'lib "COMPUTER" so'zi yoziladi, keyin esa bo'sh sahifa qo'shilafi va "SCIENCE" so'zi yoziladi.

• **O'zgarmas turlar (konstantalar).** O'zgarmas turdag'i qiymatlar xuddi o'zgaruvchilardek ishlataladi va boshlang'ich qiymat berilgandan keyin ularning qiymatini o'zgartirib bo'lmaydi. Ushbu o'zgarmaslar **const** kalit so'zi bilan e'lon qilinadi, undan keyin o'zgarmas turi va albatta boshlang'ich qiymat berilgan qismi bo'lishi kerak.

Misol uchun o'zgarmas qiymatli tulardan foydalangan holda berilgan radius bo'yicha aylana yuzasini hisoblaydigan dasturni ko'rib o'tamiz.

```
#include <iostream.h>
int main (){
    const double pi=3.1415;
    const int radius=5;
    double yuza=0;
    yuza=pi*radius*radius;
    cout<<yuza<<'\n';
    return 0;
}
```

Ushbu dasturga muvofiq, dasturning boshlanishida ikkita – *pi* va *radius* o'zgarmaslari e'lon qilingan. Aylana yuzasini aniqlovchi *yuza* o'zgarmas deb e'lon qilinmagan, chunki u dastur bajarilishida o'zgardi. Aylana radiusini dastur ishlashida o'zgartirish mo'ljallanmagan, shu sababli u o'zgarmas sifatida e'lon qilingan.

• **Sanab o'tiluvchi tur:** Ko'p miqdordagi, mantiqan bog'langan o'zgarmaslardan foydalanganda sanab o'tiluvchi turdan foydalinish mumkin bo'ladi. Sanab o'tiluvchi turlar **enum** kalit so'zi bilan aniqlanadi. Mazmuni bo'yicha bu turlar oddiy butun sonlardir. Sanab o'tiluvchi turlarga C++ standarti bo'yicha butun turdag'i o'zgarmaslar hisoblanadi. Har bir o'zgarmasga (songa) mazmunli nom beriladi va bu identifikatorni dasturning boshqa joylarida nomlash uchun ishlatalishi mumkin emas. Sanab o'tiluvchi tur quyidagi ko'rinishga ega:

```
enum <Sanab o'tiladigan tur nomi> { <nom1> =<qiymat1>, <nom2> = <qiymat2>, ... <nom3>=<qiymat3> } ;
```

bu yerda,

**enum** – kalit so‘z (inglizcha *enumerate* – sanamoq);

**<Sanab o'tiladigan tur nomi>** – o‘zgarmaslar ro‘yxatining nomi;

**<nom>** – butun qiymatli konstantalarning nomlari;

**<qiymati>** – shart bo‘lmagan boshlang‘ich qiymat.

Dasturlash tillarida dastur bajarilishi paytida qandaydir berilganlarni saqlab turish uchun o‘zgaruvchilar va o‘zgarmaslardan foydalaniadi. O‘zgaruvchi-dastur obyekti bo‘lib, xotiradagi bir nechta yacheykalar ni egallaydi va berilganlarni saqlash uchun xizmat qiladi. O‘zgaruvchi nomga, o‘lchamga va boshqa atributlarga – ko‘rinish sohasi, amal qiliш vaqt va boshqa xususiyatlarga ega bo‘ladi. O‘zgaruvchilarni ishlash uchun ular albatta e’lon qilinishi kerak. E’lon natijasida o‘zgaruvchi uchun xotiradan qandaydir soha zahiralanadi, soha o‘lchami esa o‘zgaruvchining aniq turiga bog‘liq bo‘ladi. Shuni qayd etish zarurki, bitta turga turli apparat platformalarda turlicha joy ajratilishi mumkin.

C++ tilida o‘zgaruvchini e’lon qilish uning turini aniqlovchi kalit so‘z bilan boshlanadi va ‘=’ belgisi orqali boshlang‘ich qiymat berilishi mumkin. Bitta kalit so‘z bilan bir nechta o‘zgaruvchilarni e’lon qilish mumkin. Buning uchun o‘zgaruvchilar bir-biridan ‘,’ belgisi bilan ajratiladi. E’lonlar ‘;’ belgisi bilan tugaydi. O‘zgaruvchi nomi 255 belgidan oshmasligi kerak. O‘zgaruvchilarni e’lon qilish dastur matnining istalgan joyida amalgalash mumkin.

Dasturlash tillarida kalit so‘zlar mavjud bo‘lib ulardan boshqa maqsadlarda foydalanilmaydi. Quyida C++ tilining standart kalit so‘zlari keltirib o‘tilgan.

**asm, auto, break, case, catch, char, class, const, continue, default, delete, do, double, else, enum, explicit, extern, float, for, friend, goto, if, inline, int, long, mutable, new, operator, private, protected, public, register, return, short, signed, sizeof, static, struct, switch, template, this, throw, try, typedef, typename, union, unsigned, virtual, void, volatile, while.**

Protsessor registrlarini belgilash uchun quyidagi so'zlar ishlataladi:  
 \_AH, \_AL, \_AX, \_EAX, \_BN, \_BL, \_BX, \_EVX, \_CL, \_CN, \_CX,  
 \_ESX, \_DN, \_DL, \_DX, \_EDX, \_CS, \_ESR, EBP, \_FS, \_GS, \_DI,  
 \_EDI, \_SI, \_ESI, \_BP, SP, DS, \_ES, SS, \_FLAGS.

Bulardan tashqari «\_\_» (ikkita tag chiziq) belgilalaridan boshlangan identifikatorlar kutubxonalar uchun zahiralangan bo'lib, shuning uchun '\_\_' va «\_\_» belgilarni identifikatorning birinchi belgisi sifatida ishlatmagan ma'qul. Identifikator belgilari orasida bo'sh joy belgisi (probel) ishlatish mumkin emas, zarur bo'lganda uning o'rniiga '\_\_' ishlatish mumkin.

Misol uchun: *reaksiya\_tezligi, aylana\_diametri* va hk.

### **3.3. C++ tilida asosiy ma'lumot turlari**

Ushbu bo'limda C++ dasturlash tilidagi asosiy ma'lumot turlari bilan tanishib o'tiladi. Ushbu ma'lumot turlari standart holatda C++ dasturlash tilida avvaldan mavjud bo'lgan ma'lumot turlari ham deb yuritiladi. Bundan tashqari, C++ tilida qo'shimcha ma'lumot turlarini ham kiritish imkoniyati mavjud. Shuning uchun C++ tilida juda katta miqdordagi ma'lumot turlari mavjud bo'lib biz quyida ularning asosiy-lari bilan tanishib utamiz (3.3-Jadval).

3.3-jadvalda C++ dasturlash tilidagi mavjud asosiy ma'lumot turlari keltirilgan bo'lib, ushbu jadval 3 ta ustundan iborat. Birinchi ustunda har bir turni aniqlovchi kalit so'z keltirilgan, ikkinchi ustunda esa ushbu turga mos keluvchi baytlar soni va uchunchi ustunda esa ushbu turga mos keluvchi qiymatlar diapozoni ko'rsatilgan. Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumot turlari qatorlar bo'yicha o'sib borish tartibida joylashtirilgan.

3.3-Jadval — C++ da ma'lumot turlari

Tur	bayt	Qabul qilinuvchi qiymatlar diapozoni
<i><b>Butun sonli (mantiqiy) ma'lumot turi</b></i>		
bool	1	0 / 255
<i><b>Butun sonli (simvolli) ma'lumot turi</b></i>		
char	1	0 / 255

### 3.3-Jadval — C++ da ma'lumot turlari

Tur	bayt	Qabul qilinuvchi qiymatlar diapozoni
<i>Butun sonli ma'lumot turi</i>		
short int	2	-32 768 / 32 767
unsigned short int	2	0 / 65 535
int	4	-2 147 483 648 / 2 147 483 647
unsigned int	4	0 / 4 294 967 295
long int	4	-2 147 483 648 / 2 147 483 647
unsigned long int	4	0 / 4 294 967 295
<i>Suzuvchi nuqtali ma'lumot turi</i>		
float	4	-2 147 483 648.0 / 2 147 483 647.0
long float	8	-9 223 372 036 854 775 808.0 / 9 223 372 036 854 775 807.0
double	8	-9 223 372 036 854 775 808.0 / 9 223 372 036 854 775 807.0

#### 3.3.1. BOOL ma'lumot turi

Ushbu ma'lumot turi 0 dan 255 gacha diapozondagi qiymatlarni qabul qilivchi, shuningdek mantiqiy rost va mantiqiy yolg'on (true, false) qiymatlarni qabul qiluvchi tur sifatida ham qo'llaniladi. Ushbu holatda mantiqiy yolg'on (false) qiymat sifatida 0 qabul qilinsa, mantiqiy rost qiymat sifatida 1 dan 255 gacha bo'lgan sonlar qabul qilinadi. **bool** turidagi ma'lumotlarning qo'llanilishi bo'yicha kichik dasturni ko'rib o'tamiz:

```

1 // data_type.cpp: konsolli ilova uchun kirish
2 nuqtasini aniqlaydi
3 #include "stdafx.h"
4 #include <iostream>
5 using namespace std;
6 int main(int argc, char* argv[])
{
7     bool boolean = 25; // boolean nomli bool tu-
8     ridagi o'zgaruvchi
9     if (boolean) // if operatori sharti
10        cout << "true = " << boolean << endl; //
11        shart rost bo'lganda bajariladigan amal
12    else
13        cout << "false = " << boolean << endl; //
14        shart yolg'on bo'lganda bajariladigan amal
15        system("pause");
16        return 0;
17 }

```

Ushbu dastur kodiga ko'ra, 9-qatorda boshlang'ich qiymati 25 ga teng bo'lgan **bool** turidagi o'zgaruvchi e'lon qilingan. Yuqorida qayd etib o'tilganidek 1 dan 255 bo'lgan qiymat mantiqiy rost (true) natijani, 0 qiymat esa mantiqiy yolg'on (false) natijani beradi. Ushbu dastur natijasiga ko'ra ekranda **true** (rost) natijasi hosil bo'ladi (3.9-rasm).

true =

```

true = 1
Press any key to continue...

```

1 Для продолжения нажмите любую клавишу . . .

### 3.9-rasm. bool turidagi ma'lumotlar

#### 3.3.2. CHAR ma'lumot turi

Belgi turidagi o'zgaruvchilar **char** kalit so'zi bilan beriladi va ular o'zida belgining ASCII kodini saqlaydi. Belgi turidagi qiymatlar nisbatan murakkab bo'lgan tuzilmalar – satrlar, belgilarni massivlari va hokazolarni hosil qilishda ishlataladi. Quyida **char** turidagi ma'lumotlar bo'yicha dasturni ko'rib o'tamiz:

```

1 // symbols.cpp: konsolli ilova uchun kirish nuqtasini aniqlaydi.
2 #include "stdafx.h"
3 #include <iostream>
4 using namespace std;
5 int main(int argc, char* argv[])
6 {
7     char symbol = 'a'; //boshlang'ich qiymu 'a' bo'lgan char tu-
8     ridagi ma'lumotlarni e'lon qilish
9     cout << "symbol = " << symbol << endl; //symbol o'zgaruv-
10    chisini tashkil etuvchi belgini ekranga chiqarish
11    char string[] = "tkti.uz"; //belgilil massiv(qator)ni e'lon qilish
12    cout << "string=" << string << endl; //qatorni ekranga chiqar-
13    ish
14    system("pause");
15 }

```

Ushbu dasturga ko'ra, 9-qatorda **symbol** nomi belgilangan o'zgaruvchi e'lon qilingan va boshlang'ich qiymat sifatida 'a' qiymati berilgan. 11-qatorda **cout** operatori **symbol** o'zgaruvchisida mavjud belgini ekranga chiqaradi. 13-qatorda **string** nomi bilan berilgan qatorli massiv e'lon qilingan o'lib, ushbu massivda "**tkti.uz**" yozuvi saqlangan. Dastur natijasi 3.10-rasmda keltirilgan.

```

true = symbol = a
string = tkti.uz
Press any key to continue...

```

### 3.10-rasm. char turidagi ma'lumotlar

#### 3.3.3. Butun sonli ma'lumot turlari

Butun sonli ma'lumot turlari sonlarni e'lon qilishda ishlataladi. 3.3-jadvalda 6 turdag'i (*short int, unsigned short int, int, unsigned int, long int, unsigned long int*) butun sonli ma'lumot turlari keltirilgan bo'lib, ularning barchasi xotiradan egallaydigan joyi va qabul qiluvchi qiymatlar diapozoniga ko'ra farqlanadi. Kompilyatorga bog'liq holda egallanadigan xotira hajmi va qabul qilinuvchi qiymatlar diapozoni

o‘zgarishi mumkin. 3.3-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar MVS2010 kompilyatoriga muvofiq keltirilgan. Qabul qilinuvchi qiymatlar diapozoni u yoki bu holatda egallanadigan xotira hajmiga ham bog‘liq bo‘ladi. Qancha katta xotira hajmini talab etsa shuncha katta qiymatdag‘i qiymatlar diapozonini qabul qiladi. Shuningdek, qabul qilinuvchi qiymatlar diapozonini ma’lumot turlarining prefikslariga ko‘ra ham o‘zgardi. Misol uchun, *unsigned* (belgisiz) prefiksi belgili qiymatlarni qabul qilmaydi, ya’ni musbat belgili qiymatlar diapozonini ikki baravar ortadi.

### **Butun sonli ma’lumot turlari prefikslari:**

*short* — ushbu prefiks egallanadigan xotira hajmini qisqartirish hisobiga foydalanilayotgan ma’lumot turlari diapozonini qisqartiradi;

*long* — ushbu prefiks egallanadigan xotira hajmini kengaytirish hisobiga foydalanilayotgan ma’lumot turlari diapozonini ham kengaytiradi;

*unsigned* (belgisiz) — ushbu prefiks musbat qiymatlar diapozonini ikki baravarga kengaytirib, manfiy qiymatlanri o‘zida saqlamaydi.

### **3.3.4. Suzuvchi nuqtali ma’lumot turlari**

C++ tilida ikki turdag‘i suzuvchi nuqtali m’alumot turlari mavjud bo‘lib, ularga float va double kiradi. Ushbu turdag‘i ma’lumotlar suzuvchi nuqtali sonlarni saqlash uchun mo‘ljallangan va ular tarkibiga suzuvchi nuqtali manfiy va musbat sonlar diapozonini qabul qilingan. Float turidagi ma’lumotlarning egallaydigan xotira hajmi double turidagi ma’lumotlarga qaraganda ikki baravar kichik. Demak, ularning qabul qilishi mumkin bo‘lgan qiymatlar diapozonini ham kichik. Agar float turidagi ma’lumotlar long prefiksi bilan e’lon qilinsa, uning qabul qilishi mumkin bo‘lgan qiymatlar diapozonini double qabul qilishi mumkin bo‘lgan qiymatlar diapozoniga tenglashadi. Suzuvchi nuqtali ma’lumot turlari bilan asosan yuqori aniqlikda yechilishi talab etiladigan masalalar yechiladi. Ushbu sanab o‘tilgan ma’lumot turlarining ba’zilariga tegishli bo‘lgan dasturlarga misollarni quyida ko‘rib o‘tamiz, qolgan amallarni bajarishni esa foydalanuvchining o‘ziga havola etamiz.

```

1 // data_types.cpp: konsolli ilova uchun kirish
2 nuqtasini aniqlaydi.
3
4 #include "stdafx.h"
5 #include <iostream>
6 // kiritish/chiqarish kutubxonasini boshqaradi
7 #include <iomanip>
8 // matematik funksiyaning sarlavha fayli
9 #include <cmath>
10 using namespace std;
11
12 int main(int argc, char* argv[])
13 {
14     cout << " data type " << "byte" << "
15 " << "max value " << endl // ustunlar sarlavha-
16 si
17 << "bool = " << sizeof(bool) << " " << fixed
18 << setprecision(2)
19 /*bool turidagi ma'lumotlar uchun maksimal qiy-
20 matni hisoblash*/
21 << (pow(2,sizeof(bool) * 8.0) - 1) << endl
22 << "char= " << sizeof(char) << " " << fixed <<
23 setprecision(2)
24 /* char turidagi ma'lumotlar uchun maksimal qiy-
25 matni
26 hisoblash */ << (pow(2,sizeof(char) * 8.0) - 1)
27 << endl
28 << "short int= " << sizeof(short int) << " " <<
29 fixed << setprecision(2)
30 /* int turidagi ma'lumotlar uchun maksimal qiy-
31 matni
32 hisoblash */ << (pow(2,sizeof(short int) * 8.0 -
33 1) - 1) << endl
34 << "unsigned short int = " << sizeof(un-
35 signed short int) << " " << fixed << setpreci-
36 sion(2)

```

```
/*unsigned short int turidagi ma'lumotlar uchun
maksimal qiymatni
hisoblash */
<< (pow(2,sizeof(unsigned short int)
* 8.0) - 1) << endl
<< "int = " << sizeof(int) << " " << fixed <<
setprecision(2)
/*int turidagi ma'lumotlar uchun maksimal qiymat-
ni
hisoblash */
<< (pow(2,sizeof(int) * 8.0 - 1) - 1)<< endl
<< "unsigned int = "
<< sizeof(unsigned int) << " " << fixed << set-
precision(2)
/*unsigned int turidagi ma'lumotlar uchun maksimal
qiymatni
hisoblash */
<< (pow(2,sizeof(unsigned int) * 8.0) - 1) <<
endl
<< "long int = " << sizeof(long int) << " "
<< fixed << setprecision(2)
/*long int turidagi ma'lumotlar uchun maksimal
qiymatni
hisoblash */
<< (pow(2,sizeof(long int) * 8.0 - 1) - 1) <<
endl
<< "unsigned long int = " << sizeof(un-
signed long int)
<< " " << fixed << setprecision(2)
/*unsigned long int turidagi ma'lumotlar uchun
maksimal qiymatni
hisoblash */
<< (pow(2,sizeof(unsigned long int) * 8.0) - 1)
<< endl
<< "float = " << sizeof(float)<< " " << fixed <<
setprecision(2)
/*float turidagi ma'lumotlar uchun maksimal qiymatni
```

```
hisoblash */
<< (pow(2,sizeof(float) * 8.0 - 1) - 1)
<< endl
<< "double = " << sizeof(double) << " " << fixed
<< setprecision(2)
/*double turidagi ma'lumotlar uchun maksimal qiy-
matni
hisoblash */
<< (pow(2,sizeof(double) * 8.0 - 1) - 1)    <<
endl;
system("pause");
return 0;
}
```

Ushbu dastur yuqorida sanab o'tilgan ma'lumot turlari haqida bevosita ma'lumot olish uchun tuzilgan bo'lib, quyida dasturga tegishli ba'zi operator va buyruqlar bilan qisqacha tanishib chiqamiz:

- **sizeof()** operatori ma'lumot yoki o'zgaruvchilar turlariga tegishli baytlarni hisoblaydi;

- **pow(x,y)** funksiyasi  $y$  ning  $x$ -darajasi qiymatini hisoblashga mo'ljallangan bo'lib, ushbu funksiya <cmath> sarlavha fayli orqali e'lon qilinadi;

- **fixed** va **setprecision()** boshqaruvchi buyruqlari (manipulyatorlari)<iomanip> sarlavha faylidagi mavjud bo'lib, **fixed** buyrug'i chiquvchi qiymatlarni o'zgarmas shaklga o'tkazadi, **setprecision(n)** buyrug'i esa verguldan keyin  $n$  ta qiymatni namoyish etadi.

Ba'zi ma'lumot turlarining maksimal qiymati quyidagicha hisoblanishi mumkin:

```
max_val_type = 2^(b * 8 - 1) - 1;
// manfiy va musbat sonli ma'lumot turlari uchun
// bu yerda, b - xotiradan egallanadigan bayt-
lar miqdori
// 8 ga ko'paytiriladi, chunki 1 bayt 8 bit
// qavs ichida 1 ni ayiramiz, chunki qiymatlar
diapozoni musbat va manfiy qiymatlar uchun 2 ga
ajratilishi kerak
// oxirida 1 ni ayiramiz, chunki sonlar diapo-
zoni 0 dan boshlanadi
// unsigned prefiksli ma'lumot turlari
max_val_type = 2^(b * 8 ) - 1; // faqat musbat
sonli ma'lumot turlari uchun
// formula sharhi yuqoridagi sharh bilan bir
xil bo'lib, faqat qavs ichida 1 ayrilmaydi
```

Ushbu dastur natijasini 3.11-rasmida ko'rish mumkin bo'lib, unga ko'ra 1-ustunda C++ tilida mavjud asosiy ma'lumot turlari, 2-ustunda egallashi mumkin bo'lgan xotira hajmi, 3-ustunda esa ushbu tur qabul qilishi mumkin bo'lgan maksimal qiymat keltirilgan. Ushbu turlarning qabul qilishi mumkin bo'lgan eng kichik qiymati uning qabul qilishi mumkin bo'lgan eng katta qiymati orqali topilishi mumkin bo'lib, **un-**

**signed** prefiksli ma'lumot turlarining qabul qilishi mumkin bo'lgan eng kichik qiymati esa 0 ga teng.

true =

```
data type byte max value
bool = 1 255.00
char = 1 255.00
short int = 2 32767.00
unsigned short int = 2 65535.00
int = 4 2147483647.00
unsigned int = 4 4294967295.00
long int = 4 2147483647.00
unsigned long int = 4 4294967295.00
float = 4 2147483647.00
double = 8 9223372036854775808.00
Press any key to continue...
```

### 3.11-rasm. C++ tilida asosiy ma'lumot turlari.

Agar, misol uchun **short int** turidagi o'zgaruvchi qiymati 33000 bo'lsa, u holda razryadlar setkasining to'lishi hodisasi ko'zatiladi, chunki **short int** turidagi o'zgaruvchilar 32767 gacha bo'lgan qiymatlarni qabul qiladi. Ya'ni ushbu turidagi o'zgaruvchilar turlari boshqa qiymat, aksariyat hollarda manfiy qiymatlar bilan saqlanadi. Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki **short int** turidagi ma'lumotlarni e'lon qilishda **int** kalit so'zini yozmasdan, shunchaki **short** (*long, unsigned*) kalit so'zi orqali ham o'zgaruvchilarini e'lon qilish mumkin. Misol uchun:

```
// int ma'lumot turining qisqartirilgan shaklda
berilishi
short a1; // short int bilan bir xil kuchga ega
bo'lgan amal
long a1; // long int bilan bir xil kuchga ega
bo'lgan amal
unsigned a1; // unsigned int bilan bir xil kuchga
ega bo'lgan amal
unsigned short a1; // unsigned short int bilan
bir xil kuchga ega bo'lgan amal
```

### 3.3.5. Void ma'lumot turi

C++ tilida **void** turi aniqlangan bo'lib bu turdag'i dastur obyekti hech qanday qiymatga ega bo'lmaydi va bu turdan qurilmaning til sintaksisiiga mos kelishini ta'minlash uchun ishlataladi. Masalan, C++ tili sintaksi funksiya qiymati qaytarilishini talab qiladi. Agar funksiya qiymati qaytarilmaydigan bo'lsa, u holda **void** kalit so'zi bilan e'lon qilinadi.

Misol uchun:

```
int a=0 A=1; float abc=17.5;
double Qiymat;
bool ok=true;
char HARFLAR='z';
Void mening_funksiyam(); /*qaytariladigan
qiymat hisobga olinmaydi*/
```

**Turni boshqa turga keltirish:** C++ tilida bir turni boshqa turga keltirishning oshkor va oshkormas yo'llari mavjud. Umuman olganda, turni boshqa turga oshkormas keltirish ifodada har xil turdag'i o'zgaruvchilar qatnashgan hollarda amal qiladi. Ayrim hollarda, xususan tayanch turlar bilan bog'liq turga keltirish amallarida xatoliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, hisoblash natijasining xotiradan vaqtincha egallagan joyi uzunligi, uni o'zlashtiradigan o'zgaruvchi uchun ajratilgan joy uzunligidan katta bo'lsa, qiymatga ega razryadlarni yo'qotish holati yuz beradi.

Oshkor ravishda turga keltirishda, o'zgaruvchi oldiga qavs ichida boshqa tur nomi yoziladi.

Misol uchun:

```

1 #include <iostream.h>
2 int main()
{
3 int integer1=54;
4 int integer2;
5 float floating=15.854;
6 integer1=(int) floating; // oshkor ravishda kelt-
7 integer2=(int) floating // oshkormas ravishda
8 keltirish;
9 cout<<' integer (oshkor ravishda): '<<inte-
10 ger1<<'\n';
11 cout<<' integer (oshkormas ravishda): '<<inte-
12 ger2<<'\n';
13 return 0;
14 }
```

Dastur natijasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi (3.12-rasm):

rue =

```

integer (oshkor ravishda):15
integer (oshkormas ravishda):15
Press any key to continue...
```

### 3.12-rasm. Turni boshqa turga keltirish.

**Misol uchun**, ma'lum bir belgining ASCII kodi chop etilishi uchun vazifa berilgan bo'lsin. Masala belgi turidagi qiymatni oshkor ravishda butun son turiga keltirib chop qilish orqali yechiladi:

```

1 #include <iostream.h>
2 int main()
3 {
4 Unsigned char A;
5 Cout<<'belgi kiritilsin:'';
6 Cin>>A;
7 Cout<<'\''<<A<<'''-belgi ASCII kodi=''(int)A<<'\n';
8 Return 0;
9 }
```

Dasturning belgini kiriting so'roviga  
A belgisi kiritilib ENTER bosilsa, ekranda 'A'-belgi ASCII kodi=65 yozuvi paydo bo'ladi (3.13-rasm).

```
belgi kiritilsin:  
A  
'A'-belgi ASCII kodi=65  
Press any key to continue...
```

### 3.13-rasm. Belgining ASCII kodini chiqarish oynasi.

#### 3.4. C++ dasturlash tilida ifodalar va operatorlar

C++ tilining asosiy tushunchalaridan biri nomlangan xotira qismi – ob’yekt tushunchasidir. Obyektning xususiy holi bu o’zgaruvchidir. O’zgaruvchiga qiymat berilganda unga ajratilgan xotira qismiga shu qiymat kodi yoziladi. O’zgaruvchi qiymatiga nomi orqali murojaat qilish mumkin, xotira qismiga esa faqat uning manzili orqali murojaat qilinadi. O’zgaruvchi nomi bu erkin kiritiladigan identifikator bo’lib, o’zgaruvchi nomi sifatida xizmatchi so’zlarni ishlatish mumkin emas.

Har qanday dastur funksiyalar ketma -ketligidan iborat bo'ladi. Funksiyalar sarlavha va funksiya tanasidan iborat bo'ladi. Funksiya sarlavhasiga *void main()* ifoda misol bo'la oladi. Funksiya tanasi obyektlar ta'riflari va operatorlardan iborat bo'ladi.

Har qanday operator (:) nuqtali vergul belgisi bilan tugashi lozim. Quyidagi X=0, yoki i++ ifodalar, agar ulardan keyin nuqtali vergul kelsa, operatororga aylanadi:

$$X = 0; i++;$$

Operatorlar bajariluvchi va bajarilmaydigan operatorlarga ajratiladi. Bajarilmaydigan operator bu izoh operatoridir.

Izoh operatori /\* belgisi bilan boshlanib \*/ belgisi bilan tugaydi. Bu ikki simvol orasida ixtiyoriy jumla yozish mumkin. Kompilyatsiya bu jumlanı tekshirib o'tirmaydi. Izoh operatoridan dasturni tushunarli qilish maqsadida izohlar kiritish uchun foydalilanadi.

Bajariluvchi operatorlar o'z navbatida ma'lumotlarni o'zgartiruvchi va boshqaruvchi operatorlarga ajratiladi.

## Ifoda.

C++ tilida ifodalar biror bir hisoblash natijasini qaytaruvchi boshqa ifodalar ketma-ketligini boshqaradi yoki hech nima qilmaydi (nol ifodalar).

C++ tilida barcha ifodalar nuqtali vergul bilan yakunlanadi. Ifoda ga misol qilib o'zlashtirish amalini olish mumkin.

$$x=a+b;$$

Algebraidan farqli ravishda bu ifoda  $x = a + b$  ga teng ekanligini anglatmaydi. Bu ifodani quyidagicha tushinish kerak:

$a$  va  $b$  o'zgaruvchilarni qiymatlarini yig'ib natijasini  $x$  o'zgaruvchiga beramiz yoki  $x$  o'zgaruvchiga  $a+b$  qiymatni o'zlashtiramiz. Bu ifoda birdaniga ikkita amalni bajaradi, yig'indini hisoblaydi va natijani o'zlashtiradi. Ifodadan so'ng nuqtali vergul qo'yiladi. (=) operatori o'zidan chap tomondagi operandga o'ng tomondagi operandlar ustida bajarilgan amallar natijasini o'zlashtiradi.

**Bo'sh joy (probel) belgisi.** Bo'sh joy belgilari nafaqat probel, balki yangi satrga o'tish va tabulyatsiya belgilari ham kiradi. Yuqorida keltirilgan ifodani quyidagicha ham yozish mumkin:

$$\begin{aligned} x &= a \\ &+ b ; \end{aligned}$$

Bu variantda keltirilgan ifoda ko'rinishi jihatdan to'g'ri shakllantirilmagan va tushunarsiz bolsa ham to'g'ridir.

Bo'sh joy belgilari dasturning o'qilishini ta'minlaydi.

## Bloklar va kompleks ifodalar.

Ba'zan dastur tushunarli bo'lishi uchun o'zaro mantiqiy bog'langan ifodalarni blok deb ataluvchi komplekslarga birlashtirish qulaydir. Blok ochiluvchi figurali qavs (/) bilan boshlanadi va yopiluvchi figurali qavs (/) bilan tugaydi. Blok ochilganda va yopilganda nuqtali vergul qo'yilmaydi.

```
1 #include <iostream.h>
2 int main()
3 {
4     temp= a;
5     a = b;
6     b = temp;
7 }
```

Bu blok xuddi bir ifodadek bajariladi, u  $a$  va  $b$  o'zgaruvchilar qiyatlarini almashtiradi.

**Amallar.** Bajarilishi natijasida biror bir qiymat qabul qiladigan barcha ifodalar C++ tilida amallar deyiladi. Amallar albatta biror bir qiymat qaytaradi. Masalan,  $3+2$  amali 5 qiymatni hosil qiladi.

**Operatorlar.** Operator - bu qandaydir amalni bajarish tug'risida kompilyatorga uzatiladigan literaldir. Operatorlar operandlarga ta'sir qiladi. C++ da operandlar deb alohida literallar va butun ifodalar tushuniladi.

C++ tilida ikki ko'rinishdagi operatorlar bor:

- o'zlashtirish operatorlari
- matematik operatorlar

**O'zlashtirish operatori.** O'zlashtirish operatori ( $=$ ) o'zidan chap tomonda turgan operand qiymatini tenglik belgisidan o'ng tomondagilarni hisoblangan qiymatiga almashtiradi. Masalan,

$$x = a+b;$$

ifodasi x operandga  $a$  va  $b$  o'zgaruvchilarni qiymatlarini qo'shishdan hosil bo'lgan natijani o'zlashtiradi.

O'zlashtirish operatoridan chapda joylashgan operand adresli operand yoki  $l$ -qiymat (chap so'zidan olingan) deyiladi. O'zlashtirish operatoridan o'ngda joylashgan operand operatsion operand yoki  $r$ -qiymat deyiladi.

O'zgarmaslar faqatgina  $r$ -qiymat bo'lishi mumkin va hech qachon adresli operand bo'la olmaydi, chunki dasturning bajarilishi jarayonida o'zgarmas qiymatini o'zgartirib bo'lmaydi.

$$35 = x // noto'g'ri!$$

$l$ -qiymat esa  $r$ -qiymat bo'lishi mumkin.

**Matematik operatorlar.** C++ tilida 5 ta asosiy matematik operatorlar qo'llaniladi: qo'shish (+), ayirish (-), ko'paytirish (\*), butun son-ga bo'lish (/) va modul bo'yicha bo'lish (%) (qoldiqni olish).

Oddiy matematik amallarga misol sifatida quyidagi dastur kodini ko'rib o'tishimiz mumkin:

```
1 # include < iostream.h >
2 int main()
3 {
4     unsigned int ayirma
5     unsigned int kattaSon = 100;
6     unsigned int kichikSon = 50;
7     ayirma = kattaSon - kichikSon;
8     cout << "Ayirma":<< ayirma<< " ga teng\n";
9     ayirma = kichikSon - kattaSon ;
10    cout << "Ayirma":<< ayirma<< " ga teng\n";
11    endl;
12    return 0;
13 }
```

HATIJA:

```
Ayirma: 50 ga teng
Press any key to continue...
```

### 3.5. C++ tilida arifmetik amallar

Ko'p dasturlar ijro davomida arifmetik amallarni bajaradi. C++ dagi amallar quyidagi jadvalda berilgan. Ular ikkita operand bilan ishlataldi.

No	C++ dagi amal	Arifmetik operator	Algebraik ifoda	C++ dagi ifodasi
1	Qo'shish	+	a+b	a+b
2	Ayirish	-	a-b	a-b
3	Ko'paytirish	*	Ab	a*b
4	Bo'lish	/	a/b	a/b
5	Modul olish	%	a mod b	a%b

Bularning ba'zi birlarining hususiyatlarini ko'rib chiqaylik. Butun sonli bo'lishda, yani bo'luchchi ham, bo'linuvchi ham butun son

bo‘lganda, javob butun son bo‘ladi. Javob yahlitlanmaydi, kasr qismi tashlanib yuborilib, butun qismining o‘zi qoladi.

Modul operatori (%) butun songa bo‘lishdan kelib chiqadigan qoldiqni beradi.  $x \% y$  ifodasi  $x$  ni  $y$  ga bo‘lgandan keyin chiqadigan qoldiqni beradi. Demak,  $7\%4$  bizga 3 javobini beradi. % operatori faqat butun sonlar bilan ishlaydi. Vergulli (real) sonlar bilan ishlash uchun “math.h” kutubhonasiidagi **fmod** funksiyasini qo‘llash kerak.

C++ da qavslarning ma’nosi huiddi algebradagidekdir. Undan tash-qari boshqa boshqa algebraik ifodalarning ketma-ketligi ham odad-dagidek. Oldin ko‘paytirish, bo‘lish va modul olish operatorlari ijro ko‘radi. Agar bir necha operator ketma-ket kelsa, ular chapdan o‘nga qarab ishlanadi. Bu operatorlardan keyin esa qo‘sish va ayirish ijro etiladi.

Masalan:

$$k = m * 5 + 7 \% n / (9 + x);$$

Birinchi bo‘lib  $m * 5$  hisoblanadi. Keyin  $7 \% n$  topiladi va qoldiq  $(9 + x)$  ga bo‘linadi. Chiqqan javob esa  $m * 5$  ning javobiga qo‘sildi. Umuman olganda, amallar matematikadagi kabi. Lekin biz o‘qishni osonlashtirish uchun va hato qilish ehtimolini kamaytirish maqsadida qavslarni kengroq ishlatishimiz mumkin. Yuqoridaq misolimiz quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

$$k = (m * 5) + ((7 \% n) / (9 + x));$$

**Arifmetik amallar.** Amallar odatda unar (bitta operandga qo‘llaniladigan) va binar (ikki operandga qo‘llaniladigan) amallarga ajratiladi.

– Binar. amallar additiv ya’ni + qo‘suv va – ayirish amallariga , hamda multiplikativ ya’ni \* kupaytirish, / bulish va % modul olish amallariga ajratiladi.

Amallar jadvali

<i>Arifmetik amallar</i>	<i>Razryadli amallar</i>	<i>Nisbat amallari</i>	<i>Mantiqiy amallar</i>
+ qo‘sish	& va	= = teng	&& va
- bo‘lish	yoki	!= teng emas	yoki
* ko‘paytirish	^ inkor	> kata	! inkor

/ bo'lish	<< chapga surish	>= katta yoki teng	
% modul olish	>> o'ngga surish	< kichik	
- unar minus	~ inkor	<= kichik yoki teng	
+ unar plus			
++ oshirish			
-- kamaytirish			

Additiv amallarining ustivorligi multiplikativ amallarining ustivorligidan pastroqdir.

Butun sonni butun songa bo'lganda natija butun songacha yaxlitlanadi. Misol uchun:

$$20/3=6; (-20)/3=-6; 20/(-3)=-6.$$

Modul amali butun sonni butun songa bo'lishdan hosil bo'ladigan qoldiqqa tengdir. Agar modul amali musbat operandlarga qo'llanilsa, natija ham musbat bo'ladi, aks holda natija ishorasi kompilyatorga bog'liqdir.

Binar arifmetik amallar bajarilganda tiplarni keltirish quyidagi qoidalari asosida amalga oshiriladi:

**short** va **char** tiplari **int** tipiga keltiriladi;

Agar operandlar biri **long** tipiga tegishli bo'lsa ikkinchi operand ham **long** tipiga keltiriladi va natija ham **long** tipiga tegishli buladi;

Agar operandlar biri **float** tipiga tegishli bo'lsa ikkinchi operand ham **float** tipiga keltiriladi va natija ham **float** tipiga tegishli buladi;

Agar operandlar biri **double** tipiga tegishli bo'lsa ikkinchi operand ham **double** tipiga keltiriladi va natija ham **double** tipiga tegishli buladi;

Agar operandlar biri **long double** tipiga tegishli bo'lsa ikkinchi operand ham **long double** tipiga keltiriladi va natija ham **long double** tipiga tegishli bo'ladi;

Unar amallarga ishorani o'zgartiruvchi unar (-) va unar (+) amallari kiradi.

Bundan tashqari ++ va -- amallari ham unar amallarga kiradi.

++ unar amali qiymatni 1 ga oshirishni ko'rsatadi. Amalni prefiks ya'ni ++i ko'rinishda ishlatish oldin o'zgaruvchi qiymatini oshirib so'ngra foydalanish lozimligini, postfiks ya'ni i++ ko'rinishda ishlatish oldin o'zgaruvchi qiymatidan foydalanib so'ngra oshirish kerakligini ko'rsatadi. Misol uchun i qiymati 2 ga teng bo'lzin, u holda 3+(++)i ifoda qiymati 6 ga, 3+i++ ifoda qiymati 5 ga teng bo'ladi. Ikkala holda ham i qiymati 3 ga teng bo'ladi.

-- unar amali qiymatni 1 ga kamaytirishni ko'rsatadi. Bu amal ham prefiks va postfiks ko'rinishda ishlatilishi mumkin. Bu ikki amalni faqat o'zgaruvchilarga qo'llash mumkindir.

Unar amallarning ustivorligi binar amallardan yuqoridir.

**Razryadli amallar.** Razryadli amallar natijasi butun sonlarni ikkilik ko'rinishlarining har bir razryadiga mos mantikiy amallarni qo'llashdan hosil bo'ladi.

Razryadli surish amallarining ustivorligi o'zaro teng, razryadli inkor amalidan past, qolgan razryadli amallardan yuqoridir. Razryadli inkor amali unar qolgan amallar binar amallarga kiradi.

**Nisbat amallari.** Nisbat amallari qiymatlari 1 ga teng agar nisbat bajarilsa va aksincha 0 ga tengdir. Nisbat amallari arifmetik tipdag'i operandlarga yoki ko'rsatkichlarga qo'llaniladi.

Misollar:

**1!=0** qiymati 1 ga teng;

**1==0** qiymati 0 ga teng;

Katta >, kichik <, katta eki teng >=, kichik eki teng <= amallarining ustivorligi bir hildir.

Teng == va teng emas != amallarining ustivorligi uzaro teng va qolgan amallardan pastdir.

**Mantiqiy amallar.** C ++ tilida mantiqiy tip yukdir. Shuning uchun mantiqiy amallarni butun sonlarga qo'llanadi. Bu amallarning natijalari qo'yidagicha aniqlanadi:

**x||y** amali 1 ga teng agar **x>0** eki **y>0** bo'lsa, aksincha 0 ga teng Inkor ! amali unar qolganlari binar amallardir.

Bu amallardan tashqari quyidagi amallar ham mavjuddir:

**Qiymat berish amali.** Qiymat berish amali = binar amal bo'lib chap

operandi odatda o‘zgaruvchi o‘ng operandi odatda ifodaga teng bo‘ladi. Misol uchun  $Z=4.7+3.34$  qiymati 8.04 ga teng ifodadir. Bu qiymat Z o‘zgaruvchiga ham beriladi.

**Shartli amal.** Shartli amal ternar amal deyiladi va uchta operanddan iborat bo‘ladi:

**<1-ifoda>?<2-ifoda>:<3-ifoda>**

Shartli amal bajarilganda avval 1- ifoda hisoblanadi. Agar 1-ifoda qiymati 0 dan farqli bo‘lsa 2- ifoda hisoblanadi va qiymati natija sifatida qabul qilinadi, aks holda 3ifoda hisoblanadi va qiymati natija sifatida qabul qilinadi.

**Tiplar bilan ishlovchi amallar.** Tiplarni o‘zgartirish amali quyidagi ko‘rinishga ega:

(*tip\_nomi*) operand; Bu amal operandlar qiymatini ko‘rsatilgan tipga keltirish uchun ishlataladi. Operand sifatida kostanta, o‘zgaruvchi yoki qavslarga olingan ifoda kelishi mumkin. Misol uchun (long) amali konstanta qiymatini o‘zgartirmagan holda operativ hotirada egallagan baytlar sonini oshiradi. Bu misolda konstanta tipi o‘zgarmagan bo‘lsa, (double) eki (float) amali konstanta ichki ko‘rinishini ham o‘zgartiradi. Katta butun sonlar hakikiy tipga keltirilganda sonning aniqligi yo‘qolishi mumkin.

**sizeof amali:** Har xil turdagи o‘zgaruvchilar kompyuter xotirasida turli sondagi baytlarni egallyaydi. Bunda, hattoki bir turdagи o‘zgaruvchilar ham qaysi kompyuterda yoki qaysi operatsion sistemada amal qilinishiga qarab turli o‘lchamdagи xotirani band qilishi mumkin. **Sizeof amali** operand sifatida ko‘rsatilgan obyektning baytlarda hotiradagi hajmini hisoblash uchun ishlataladi.

```
...
int main()
{
    cout<<"int turining o'lchami: "<<sizeof (int)“\n”
    cout<<"float turining o'lchami: "<<sizeof (float)“\n”;
    cout<<"double turining o'lchami: "<<sizeof (double)“\n”;
    cout<<"char turining o'lchami: "<<sizeof (char)“\n”;
    return 0;
}{}{}
```

## Amallar ustivorligi

<i>Nº</i>	<i>Amallar</i>
1	() [] -> :: .
2	! ~ + - ++ -- & * (tip) sizeof new delete tip()
3	* -> *
4	* / % (multiplikativ binar amallar)
5	+ - (additiv binar amallar)
6	<< >>
7	<<= >= >
8	= !=
9	&
10	^
11	
12	&&
13	
14	?:(shartli amal)
15	= *= /= %= += -= &= ^=  = <<= >= =
16	, (vergul amali)

## C++ dasturlash tilida operatorlar.

Birinchi elektron hisoblash mashinalari paydo bo'lishi bilan dasturlash tillari evolyutsiyasi boshlanadi. Dastlabki kompyuterlar ikkinchi jahon urushi vaqtida artilleriya snaryadlarining harakat traektoriyasini hisob-kitob qilish maqsadida qurilgan edi. Oldin dasturchilar eng sodda mashina tilini o'zida ifodalovchi kompyuter komandalarini bilan ishlaganlar. Bu komandalar nol va birlardan tashkil topgan uzun qatorlardan iborat bo'lar edi. Keyinchalik, insonlar uchun tushunarli bo'lgan mashina komandalarini o'zida saqlovchi (masalan, ADD va MOV komandalarini) assembler tili yaratildi. Shu vaqtarda BASIC va COBOL singari yuqori sathli tillar ham paydo bo'ldiki, bu tillar tufayli so'z va gaplarning mantiqiy konstruktsiyasidan foydalanib dasturlash imkoniyati yaratildi. Bu komandalarni mashina tiliga interpretatorlar va kompilyatorlar ko'chirar edi. Interpretator dasturni o'qish jarayonida uning komandalarini ketma - ket mashina tiliga o'tkazadi. Kompilyator esa yaxlit programma kodini biror bir oraliq forma - obyekt fayliga o'tka-

zadi. Bu bosqich kompilyatsiya bosqichi deyiladi. Bundan so'ng kompilyator obyektlı faylnı bajariluvchi faylga aylantiradigan kompanovka dasturini chaqiradi.

Interpretatorlar bilan ishslash osonroq, chunki dastur komandalari qanday ketma - ketlikda yozilgan bo'lsa shu tarzda bajariladi. Bu esa dastur bajarilishini nazorat qilishni osonlashtiradi. Faqatgina kompilyatsiya qilingan fayl tezroq bajariladi, chunki bundagi komandalar kompilyatsiya jarayonida mashina tiliga o'tkazilgan bo'ladi.

C++ kabi kompilyatsiya qiluvchi dasturlash tillarini yana bir afzalligi hosil bo'lgan dastur kompyuterda kompilyatorsiz ham bajarilaveradi. Interpretatsiya qiluvchi tillarda esa tayyor dasturni ishlatish uchun albatta mos interpretator dasturi talab qilinadi.

Ayrim tillarda (masalan, VISUAL BASIC) interpretator rolini dinamik kutibxonalar bajaradi. Java tilining interpretatori esa virtual mashinalidir (Virtual Machine, yoki VM). Virtual mashinalar sifatida odatda brouzer (Internet Explorer yoki Netscape) lar qo'llaniladi.

Ko'p yillar davomida dasturlarning asosiy imkoniyati uning qisqaligi va tez bajarilishi bilan belgilanar edi. Dasturni kichikroq qilishiga intilish kompyuter xotirasini juda qimmatligi bilan bog'liq bo'lsa, uning tez bajarilishiga qiziqish protsessor vaqtining qimmatbaholigiga bog'liq edi. Lekin kompyuterlarning narxi tushishi bilan dastur imkoniyatini baholash mezoni o'zgardi. Ekspluatatsiyaning oddiyligi, konkret masalani yechish bilan bog'liq bo'lgan talabni ozroq o'zgarishiga, dasturni ortiqcha chiqimlarsiz oson moslashtirish bilan izohlanadi.

### **C++ dasturlash tilida tarmoqlanish konstruksiyalari. If shart operatori**

Dasturlash jarayonlarida shunday vaziyatlar bo'ladiki, dastur algoritmi qaysidir shartga ko'ra ma'lum bir tarmoqni tanlashi kerak bo'ladi.

Misol uchun, klaviatura orqali ma'lum bir sonni kiritilsa, agar ushbu son 10 dan katta bo'lsa bir amalni, aksincha bo'lsa boshqa bir amalni bajarishi talab etilsin. Ushbu algoritmi C++ dasturlash tili yordamida quyidagicha bajarish mumkin.

Tarmoqlanish operatoridan foydalanishga misol:

```

1 #include <iostream>
2 using namespace std;
3
4 int main()
5 {
6     setlocale(0, "");
7     double num;
8
9     cout << "Istalgan sonni kirititing: ";
10    cin >> num;
11
12    if (num < 10) { // agar kiritilgan son 10 dan
13        kichik bo'lsa.
14        cout << "Ushbu son 10 dan kichik." << endl;
15    } else { // aksincha
16        cout << "Ushbu son 10 dan katta yoki teng." <<
17        endl;
18    }
19
20    return 0;
21 }
```

Agar ushbu dasturni kompilyatsiya qilib istalgan son kiritilsa tegishli javob olinadi.

**If** operatori biror bir shart bilan beriladigan amallar uchun foydalilanadi. C++ dasturida ushbu operatorning shartli konstruksiyasi har doim **if** operatoridan keyin qavs ichida yoziladi. Figurali qavs ichida esa shartning tanasi ko'rsatiladi. Agar shart bajarilsa figurali qavs ichidagi barcha buyruqlarni bajarishni amalga oshirish boshlanadi.

Shart operatorlari ikki ko'rinishda ishlatalishi mumkin:

```

1 If (ifoda)
2 1- operator
3 else
4 2- operator
```

Shart operatori bajarilganda avval ifoda hisoblanadi, agar qiymat rost bo'lsa (misol uchun 0 dan farqli bo'lsa) 1- operator bajariladi. Agar qiymat yolg'on bo'lsa (misol uchun 0 ga teng bo'lsa) va **else** ishlatalisa 2-operator bajariladi. **else** qism har doim eng yaqin **if** ga mos qo'yiladi.

```
1 #include <iostream.h>
2 int main()
3 {
4     if( n>0) {
5         if(a>b)
6             z=a;
7     }
8     else
9         z=b;
10 }
```

Agar **else** qismni yuqori **i** ga mos qo'yish lozim bo'lsa,figurali qavslar ishlatalish lozim.

Misol tariqasida uchta berilgan sonning eng kattasini aniqlash das-turini ko'ramiz:

```
1 #include <iostream.h>
2 void( )
3 {
4     float a,b,c,max;
5     Cout <<"\n a="; Cin>>a;
6     Cout <<"\n b="; Cin>>b;
7     Cout <<"\n c="; Cin>>c;
8     if (a>b)
9         if (a>c) max=a else max=c;
10    else
11        if b>c then max=b else max=c;
12 }
```

Yuqorida ko'rib o'tilgan 10 dan katta yoki kichik sonni aniqlash masalasini **if** shart opeartoridan foydalangan holda murakkabroq das-turlash, ya'ni 10 ga teng bo'lganda xabar berish misolini ko'rib o'tamiz:

```

1 #include <iostream>
2 using namespace std;
3
4 int main()
5 {
6     setlocale(0, "");
7     double num;
8     cout << "Istalgan sonni kiriting: ";
9     cin >> num;
10
11    if (num < 10) { // agar kiritilgan son 10 dan kichik bo'lsa.
12        cout << "Ushbu son 10 dan kichik." << endl;
13    } else if (num == 10) { //agar kiritilgan son 10 ga teng bo'lsa
14        cout << "Ushbu son 10 ga teng" << endl;
15    } else { // aksincha
16        cout << " Ushbu son 10 dan katta." << endl;
17    }
18    return 0;
19 }
```

Bu yerda 3 ta shart tekshiriladi:

- Birinchisi — kiritilgan son 10 dan kichik bo'lsa
- Ikkinchisi — kiritilgan son 10 ga teng bolsa
- Uchinchisi — kiritilgan son 10 dan katta bo'lsa

E'tibor bergen bo'lsangiz ikkinchi shart, ya'ni tenglik tekshirilishi-da o'zlashtirish (=) operatoridan emas, balki tenglik (==) operatoridan foydalilaniladi, chunki shart tekshirilayotgan paytda o'zgaruvchining qiymati o'zgarmaydi. Agar shartni tekshirish paytida o'zlashtirish operatoridan foydalanilsa, shart tekshirilayotganda o'zgaruvchi qiymati o'zgaradi, keyin esa shart bajariladi.

Har bir **if** operatoriga faqat bitta **else** operatori mos keladi. **Else if** operatorlari majmui agar avvalgi shart bajarilmasa keying shartni bajar ma'nosini beradi. Agar hech bir shart to'g'ri bo'lmasa, u holda **else** operatoriga mos keluvchi amal bajariladi.

Agar **if**, **else** yoki ularning birlashishidan hosil bo'lgan **else if** operatorlaridan keyin faqat bitta buyruq bajarilsa, u holda figurali qavs

qo'yilish shart emas. Bu holatda yuqorida ko'rib o'tilgan masalaning dasturini quyidagicha yozish mumkin:

```
1 #include <iostream>
2 using namespace std;
3
4 int main()
5 {
6     setlocale(0, "");
7     double num;
8
9     cout << "Istalgan sonni kirititing: ";
10    cin >> num;
11
12    if (num < 10) // Agar kiritilgan son 10 dan kichik bo'lsa.
13        cout << "Ushbu son 10 dan kichik" << endl;
14    else if (num == 10)
15        cout << "Ushbu son 10 ga teng" << endl;
16    else // aksincha
17        cout << "Ushbu son 10 dan katta" << endl;
18
19 }
```

Ushbu usuldan foydalanish ancha soddarоq ko'rindi. Agar shartni bajarish jarayonida bittadan ko'proq buyruqni bajarish talab etilsa, u holda figurali qavsdan foydalaniladi.

Masalan:

```

1 #include <iostream>
2 using namespace std;
3
4 int main()
5 {
6     setlocale(0, "");
7     double num;
8     int k;
9     cout << " Istalgan sonni kirititing: ";
10    cin >> num;
11
12    if (num < 10) { //Agar kiritilgan son 10dan kichik bo'lsa
13        cout << " Ushbu son 10 dan kichik" << endl;
14        k = 1;
15    } else if (num == 10) {
16        cout << " Ushbu son 10 ga teng" << endl;
17        k = 2;
18    } else { // aksincha
19        cout << " Ushbu son 10 dan katta" << endl;
20        k = 3;
21    }
22    cout << "k = " << k << endl;
23    return 0;
24 }
```

Ushbu dastur **num** o'zgaruvchining qiymatini tekshiradi. Agar kiritilgan sonning iymati **10** dan kichik bo'lsa, u holda **k** o'zgaruvchi **1** ni o'zlashtiradi. Agar kiritilgan son **10** ga teng bo'lsa **k** o'zgaruvchi **2** ni o'zlashtiradi. Boshqa holatlarda esa **k** o'zgaruvchi **3** ni o'zlashtiradi. Tarmoqlanish dasturi bajarilib bo'lingandan keyin ekranga k o'zgaruvchi qiymati chiqariladi.

### **3.5.1. Kalit bo'yicha tanlash (switch) operatori.**

**if-else-if** yordami bilan bir necha shartni test qilishimiz mumkin. Lekin bunday yozuv nisbatan o'qishga qiyin va ko'rinishi murakkab bo'ladi. Agar shart ifoda butun son tipida bo'lsa yoki bu tipga keltirilishi mumkin bo'lsa, biz **switch** operatorlarini ishlata olamiz.

**switch** strukturasi bir necha case belgilaridan (**label**) va majburiy bo‘limgan default etiketidan iboratdir. Belgi bu bir nom bo‘lib, u dasturnig bir nuqtasidaga qo‘yiladi. Dasturning boshqa yeridan ushbu belgiga o‘tishni bajarish mumkin. O‘tish yoki sakrash **goto** bilan amalga oshiriladi, **switch** blokida ham qo‘llaniladi.

**switch** ga kirgan o‘zgaruvchi (yuqorigi misolda baho) har bir **case** belgilarining qiymatlari bilan solishtirilib chiqiladi. Solishtirish yuqoridan pastga bajariladi. Sharfdagi qiymat belgidagi qiymat bilan teng bo‘lib chiqqanda ushbu **case** ga tegishli ifoda yoki ifodalar bloki bajariladi. So‘ng **break** sakrash buyrug‘i bilan **switch** ning tanasidan chiqiladi. Agar **break** qo‘yilmasa, keyingi belgilar qiymatlari bilan solishtirish bajarilmasdan ularga tegishli ifodalar bajarilaveradi.

Umuman olganda kalit bo‘yicha o‘tish switch operatorining umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

```
1  Switch(<ifoda>){  
2      Case <1-qiymat>:<1-operator>  
3          ...  
4          break;  
5          ...  
6      default: <operator>  
7          ...  
8      case: <n-operator>;  
9  }
```

Oldin qavs ichidagi butun ifoda hisoblanadi va uning qiymati hamma variantlar bilan solishtiriladi. Biror variantga qiymat mos kelsa shu variantda ko‘rsatilgan operator bajariladi. Agar biror variant mos kelmasa default orqali ko‘rsatilgan operator bajariladi. Break operatori ishlatalmasa shartga mos kelgan variantdan tashqari keyingi variantdagi operatorlar ham avtomatik bajariladi. Default; break va belgilangan variantlar ixtiyoriy tartibda kelishi mumkin. Default yoki break operatorlarini ishlatish shart emas. Belgilangan operatorlar bo‘sh bo‘lishi ham mumkin.

Misol tariqasida bahoni son miqdoriga qarab aniqlash dasturini ko'ramiz:

```
1  Include <iostream.h>
2  Int baho;
3  Cin>> baho;
4  Switch(baho)
5  {case 2:Cout <<"\n emon";break;
6  case 3:Cout <<"\n o`rta";break;
7  case 4:Cout <<"\n yaxshi";break;
8  case 5:Cout <<"\n a`lo";break;
9  default: Cout <<"\n baho noto`g`ri kiritilgan";
10 };
11 }
```

Keyingi misolimizda kiritilgan simvol unli harf ekanligi aniqlanadi:

```
1  Include <iostream.h>
2  Int baho; Char c; Cin >> c;
3  Switch(c)
4  {case 'a':
5  case 'u':
6  case 'o':
7  case 'i':
8  Cout <<"\n Kiritilgan simvol unli harf";break;
9  default: Cout <<"\n Kiritilgan simvol unli harf
10 emas";
11 };
```

**Break operatori.** Ba'zi hollarda sikl bajarilishini ixtiyoriy joyda to'xtatishga to'g'ri keladi. Bu vazifani break operatori bajarishga imkon beradi. Bu operator darhol sikl bajarilishini to'xtatadi va boshqaruvni sikldan keyingi operatorlarga uzatadi.

Misol uchun  $n$  ta ishlab chiqilgan mahsulotning sifatiga ko'ra korxonaning o'rtacha ishlab chiqarish sifatini aniqlovchi dasturini ko'ramiz. Buning uchun dasturda mahsulotning minimal sifati aniqlanadi:

```

1 # include <iostream.h>
2     void main()
3     {
4         int i,n,min,p;
5     while (1)
6         {Cout<<"Mahsulot soni="; Cin>>n;};
7     if (n>0) break;
8     Cout<<("Hato! n>0 bulishi lozim ! \n");
9     for (i=1,min=5; i<=n; i++)
10    { cin>>p;
11    if (p<2)|| (p>5) {min=0; break};
12    if (min>p) min=p;
13    }
14    if (p<2)|| (p>5) cout break;
15    switch(min)
16    case 0:cout<<"Sifat ko'rsatkichi noto g'ri kiritilgan";break;
17    case 2:cout<<"Mahsulot sifati yomon";break;
18    case 3:cout<<" Mahsulot sifati o'rtacha";break;
19    case 4:cout<<" Mahsulot sifati yaxshi";break;
20    case 5:cout<<" Mahsulot sifati a`lo";break;
21    }

```

Biz misolda xato kiritilgan  $n$  qiymatdan saqlanish uchun while(1) sikl kiritilgan. Agar  $n>0$  bo'lsa Break operatori siklni tuxtatadi va das-tur bajarilishi davom etadi. Agar kiritilayotgan baholar chegarada yot-masa  $min$  ga 0 qiymat berilib darhol sikldan chiqiladi.

### **3.5.2. O'tish operatori GO TO.**

C++ dasturlash tilida o'tish operatorining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

Go to <identifikator>

Bu operator identifikator bilan belgilangan operator orga o'tish kerak-ligini ko'rsatadi.

Misol uchun:

goto A1;...;A1:y=5;

Strukturali dasturlashda *Go to* operatoridan foydalanmaslik maslahat beriladi. Lekin ba'zi hollarda o'tish operatoridan foydalanish das-turlashni osonlashtiradi.

Misol uchun bir necha sikldan birdan chiqish kerak bo‘lib qolgan-da, to‘g‘ridan-to‘g‘ri break operatorini qo‘llab bo‘lmaydi, chunki u faqat eng ichki sikldan chiqishga imkon beradi.

Quyidagi misolda  $n$  ta qatorga  $n$  tadan musbat son kiritiladi. Agar  $n$  yoki sonlardan biri manfiy bo‘lsa, kiritish qaytariladi:

```
1 # include <iostream.h>
2         int n, I, j, k;
3         M1: Cout<<"\n n="; Cin>>n;
4         If (n<=0) { Cout<<"\n xato! n>0 bo'lishi kerak";
5             Go to M1; } ;
6         M: Cout<<"x sonlarni kiriting \n";
7             For (I=1; I<=10; I++) {Cout<<"\n I="<< i;
8                 For (j=1 ; j<=10; j++) {Cin>> k;
9                 if (k<=0) goto M; }
10            }
```

Bu masalani GOTO operatorisiz hal qilish uchun qo‘srimcha o‘zgaruvchi kiritish lozimdir:

```
1 # include <iostream.h>
2         int n, I, j, k;
3         while 1 {
4             Cout<<"\n n="; Cin>>n;
5             if (n>0) break;
6             Cout<<"\n hato! n>0 bo'lishi kerak";
7             } ;
8         int M=0;
9         While M
10        { M=0;
11            Cout<<"x sonlarni kiriting \n";
12                For (I=1; I<=10; I++) {
13                    If (M) break;
14                    Cout<<("\n I=%, i);
15                        For (j=1 ; j<=10; j++) {Cin>>("%f", k);
16                    if (k<=0) {M=1;break; }
17                }
```

### 3.6.4. C++ dasturlash tilida for takrorlash operatori

Boshqa dasturlash tillaridagi kabi for strukturasi sanovchi (counter) bilan bajariladigan takrorlashni bajaradi. Boshqa takrorlash operatorlaridan (**while**, **do/while**) foydalangan holda takrorlanish dasturlarini amalga oshirish mumkin, bunday holatlarda takrorlanish sonini oldindan bilish hamda boshqa bir shartning bajarilish bajarilmasligini boshqarish mumkin. Ikkinchi holda ehtimol miqdori katta bo'radi. Masalan qo'llanuvchi belgilangan sonni kiritmaguncha takrorlashni bajarish kerak bo'lsa biz **while** operatori ishtiroy etgan ifodalarni ishlatalamiz. **for** operatorida esa sanovchi ifodaning qiymati oshirilib (kamaytirilib) borilaveradi va chegaraviy qiymatni olganda takrorlanish tugatiladi. **for** ifodasidan keyingi bitta ifoda qaytariladi. Agar bir necha ifoda takrorlanishi kerak bo'lsa, ifodalar bloki {} qavs ichiga olinadi.

Demak bundan kelib chiqadiki, agar bizga takrorlanishlarning aniq soni berilgan bo'lsa, u holda **for** sikl operatoridan foydalanamiz. Ushbu operatorordan foydalanishning umumiy sintaksisi quyidagi ko'rinishga ega:

```
1  for (sikl boshlanguncha bo'lgan amallar;
2      siklning davom etish shartlari;
3      har-bir sikl iterasiyasi oxiridagi amal) {
4      sikl instruksiyasi;
5      sikl instruksiyasi 2;
6      sikl instruksiyasi N;
7  }
```

*Siklning bir marta tugallanishi siklning iterasiyasi deb ataladi.*

Ushbu vaziyatning xususiy holatlari mavjud bo'lib, quyida ularga misol keltirilgan:

```
1  for (hisoblagich = qiymat; hisoblagich < qiymat; sikl qadani) {
2      sikl tanasi;
3  }
```

*Siklning hisoblagichi – bu ushbu siklning o'tishlari sonini bildiruvchi o'zgaruvchilardir.*

#### Sintaksisning umumiy tavsifi

1. Birinchi navbarda hisoblagichning boshlang'ich qiymati o'zlashtiriladi, undan keyin esa nuqtali vergul quyiladi;

2. Sikl hisoblagichining oxirgi qiymati beriladi. Hisoblagichning qiymati belgilangan chegaraga yetgandan keyin esa sikl tugallanadi. Bundan keyin ham nuqtali vergul quyiladi;

3. Sikl qadami beriladi. Sikl qadami – bu sikl hisoblagichi har bir marta tugallanganda ortadigan yoki kamayadigan qiymat.

### Dasturga misol

1 dan 1000 gacha bo'lgan sonlar yig'indisini hisoblash dasturini tuzamiz:

```
1 #include <iostream>
2 using namespace std;
3 int main()
4 {
5     int i; // sikl hisoblagichi
6     int sum = 0; //1 dan 1000 gacha bo'lgan sonlar yig`indisi.
7     setlocale(0, "");
8     for (i = 1; i <= 1000; i++) // boshlang'ich-1,
9         oxirgi-1000, sikl qadamini berish - 1.
10    {
11        sum = sum + i;
12    }
13    cout << "1 dan 1000 gacha bo'lgan sonlar
14    yig`indisi = " << sum << endl;
15    return 0;
16 }
```

Agar ushbu kodni kompilyatsiya qilib dasturni ishga tushirsak ekranda quyidagi natija hosil bo'ladi:

```
1 dan 1000 gacha bo'lgan sonlar yig`indisi = 500500
Press any key to continue...
```

Demak, 1 dan 1000 gacha bo'lgan sonlar yig'indisi 500500 ga teng ekan. Agar ushbu misolni qo'lda hisobasak, buning uchun ko'p vaqt ketgan bo'lar edi.

Ushbu dasturga e'tibor beradigan bo'lsak, oxirgi chegarani berish uchun ( $\leq$ ) kichik yoki teng belgisidan foydalanilgan, bo'lib agar ( $<$ ) belgisining o'zidan foydalanilganda sikl 999 iterasiyada tugallangan bo'lar edi.

Siklning tanasida dastur har tugallanganda **sum** o‘zgaruvchi i qiyematga ortadi. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, dastur boshlani-shida **sum** o‘zgaruvchining qiymati 0 ga teng deb belgilangan. Agar boshlang‘ich qiymat berilmasa, u holda dastur ushbu qiymatni “mavjud emaslik” deb hisoblaydi umuman mavjud bo‘lmagan qiymatga hech qanday qiymat qo‘sib bo‘lmaydi hamda dastur xatolik belgisi ko‘rsatadi.

Umumiyl holatda **for** strukturasi uch qismdan iborat bo‘lib, ular nuqtali vergul bilan bir-biridan ajratiladi:

```
for( 1- qism ; 2- qism; 3-qism )
{
    takror etiladigan blok
}
```

Bu yerda,

1-qism: e’lon va initsializatsiya;

2-qism: shartni tekshirish (o‘zgaruvchini chegaraviy qiymat bilan solishtirish);

3-qism: o‘zgaruvchining qiymatini bajarilish ketma-ketligi quyidagichadir:

1-qism bajariladi (faqat bir marta), keyin

2-qismdagi shart tekshiriladi va agar u rost (true) bo‘lsa takrorlani-sh bloki ishga tushadi;

3-qismda o‘zgaruvchilar o‘zgartiriladi, keyin yana ikkinchi qismliga o‘tiladi.

Endi **for** opearatoridan foydalanilgan siklni tashkil etuvchi uchta qismning har birini alohida ko‘rib chiqilsa, bunda birinchi qismda asosan takrorlashni boshqaradigan sanovchi (*counter*) o‘zgaruvchilar e’lon qilinadi va ularga boshlang‘ich qiymatlar beriladi (*initsializatsiya*). Yuqorida dastur misolida buni int **i=0** holatida berilgan. Ushbu qismda bir necha o‘zgaruvchilarni e’lon qilishimiz mumkin, ular vergul bilan ajratiladi. Ayni shu kabi uchinchi qismda ham bir nechta o‘zgaruvchilarning qiymatini o‘zgartirish mumkin. Undan tashqari birinchi qismda **for** operatoridan oldin e’lon qilingan o‘zgaruvchilardan foydalanilsa bo‘ladi.

Masalan:

```
1 int k = 10;
2 int l;
3 for (int m = 2, l = 0 ; k <= 30 ; k++, l++, ++m) {
4 cout<< k + m + l;
5 }
```

Ba’zi hollarda **for** operatori qo’llanilgan siklning qismlari tushrib qoldirilishi mumkin.

Masalan:

```
for(;;){}
```

ifodasi cheksiz marta qaytariladi. Ushbu for siklidan chiqish uchun **break** operatoridan foydalilanadi. Agar sanovchi sonni takrorlanish bloki ichida o’zgartirsak, for operatori qo’llanilgan siklning 3- qismi kerak emas.

Masalan:

```
1 for(int g = 0; g < 10; ){
2 cout<< g;
3 g++;
4 }
```

### 3.6.5. C++ dasturlash tilida while takrorlash operatori

Agar bizga siklning nechta iterasiya bajarishi ma’lum bo’lsa, u hol-da bizga **while** yoki **do...while** sikli kerak bo’ladi. C++ dasturida **while** siklining umumiyo ko’rinishi quyidagi ko’rinishda bo’ladi:

```
while( shart )
{
Sikl tanasi
}
```

Ushbu sikl qavs ichidagi shart rost bo’lguncha takrorlanadi. **For** sikl operatori yordamida yechilgan masalani **while** operatorida yechib ko’ramiz. Bu yerda siklning iterasiyalari soni bizga avvaldan ma’lum bo’lib, ba’zi hollarda ushbu qiymat noma’lum bo’ladi.

Quyida 1 dan 1000 gacha bo‘gan sonlar yig‘indisini hisoblash masalasini **while** sikl operatori orqali yechish dasturi keltirilgan.

```

1 #include <iostream>
2 using namespace std;
3
4 int main()
5 {
6     setlocale(0, "");
7     int i = 0; // sikl hisoblagichini ishga tushirish.
8     int sum = 0; // yig`indi hisoblagichini ishga tushirish.
9     while (i < 1000)
10    {
11        i++;
12        sum += i;
13    }
14    cout << "1 dan 1000 gacha bo'lgan sonlar"
15    yig`indisi = " << sum << endl;
16    return 0;
17 }
```

Dasturni kompilyatsiya qilib ishga tushirgandan keyin ushbu masalaning for sikl operatorida yechilgani kabi natija hosil bo'ladi. Bu yerda ba'zi jihatlarni izohlab o'tish kerak bo'ladi, ya'ni shartni berish jarayonida chegaraga qat'iy ravishda kichik (<) belgisi qo'yilgan, **i** hisoblagichning boshlang'ich qiymati **0** deb belgilangan bo'lib, bunga ko'ra while sikl operatori bitta iterasiya ko'p bajaradi. Chunki ushbu sikl operatoridan foydalanilganda iterasiya belgilangan shartni to'liq qanoatlantirguncha davom etadi. Agar ushbu holatda kichik yoki teng (**<=**) belgisi qo'yilganda u holda iterasiya 1001 qiymatgacha hisoblashni davom etar edi, ya'ni bu holatda iterasiyalar soni bittaga ko'proq bo'lar edi.

Quyida ushbu dastur kodining bajarilish tartibini ko'rib o'tamiz. Birinchi navbatda sikl hisoblagichi va sonlar yig`indisini saqlovchi o'zgaruvchining boshlang'ich qiymatini berib olamiz.

Ushbu holatda, sikl hisoblagichiga qandaydir qiymat o'zlashtirilishi kerak bo'lib, **for** sikl operatoridan foydalanilganda ushbu qiymat siklning ichida o'zlashtirilgan edi.

Keying qadamda siklning sharti beriladi, ya’ni — “**i o’zgaruvchi 1000 dan kichik bo’lsa siklni bajar**”. Siklning har bir iterasiyasida i hisoblagich o’zgaruvchisi qiymati sikl ichida bir birlikka ortadi.

For sikl operatoridan foydalanilganda, qachonki 1000 ta sikl iterasiyasi amalga oshirilsa, hisoblagich 999 ga teng bo‘ladi va keying iterasiya amalga oshirilmaydi, chunki 1000 soni 1000 dan kichik emas. **sum += i** ifodasi **sum = sum + i** ifodasining qisqartirilgan shakli hisoblanadi.

### 3.6.6. C++ dasturlash tilida do while takrorlash operatori

**do while** sikl operatori **while** operatoriga juda o’xshash bo‘lib, birgina farqi do while sikli amalga oshirilayotganda siklning bir o’tishi shartga bog‘liq bo‘lmagan holda amalga oshiriladi. 1 dan 1000 gacha bo‘lgan sonlar yig‘indisini hisoblash masalasini **do while** siklidan foydalangan holda yechish dasturini ko‘rib o’tamiz.

```
1 #include <iostream>
2 using namespace std;
3 int main ()
4 {
5     setlocale(0, "");
6     int i = 0; // sikl hisoblagichini ishga tushirish.
7     int sum = 0; // yig‘indi hisoblagichini ishga tushirish.
8     do { // siklni bajarish.
9         i++;
10        sum += i;
11    } while (i < 1000); // shart bajarilishini tekshirish.
12    cout << "1 dan 1000 gacha bo‘lgan sonlar
13 yig‘indisi = " << sum << endl;
14 }
```

Umuman olganda ushbu operatorlar orasida sezilarli farq mavjud emas, lekin **i** o’zgaruvchiga **1000** dan kattaroq qiymat berilsa, u holda sikl hech bo‘lmaganda bir o’tishni amalga oshiradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek **do while** ifodasi **while** strukturasiga o’xshashdir. Bitta farqi shundaki while da shart boshiga tekshiriladi. **Do while** da esa takrorlanish tanasi eng kamida bir marta ijro ko‘radi va shart strukturaning so‘ngida test qilinadi. Shart true bo‘lsa blok yana

takrorlanadi. Shart false bo'lsa **do while** ifodasidan chiqiladi. Agar **do while** ichida qaytarilishi kerak bo'lgan ifoda bir dona bo'lsa {} qavslarning keragi yo'qdir. Quyidagicha bo'ladi:

```
do  
ifoda;  
while (shart);
```

Lekin {} qavslarning yo'qligi dasturchini adashtirishi mumkin. Chunki qavssiz **do while** oddiy **while** ning boshlanishiga o'xshaydi. Buni oldini olish uchun {} qavslarni qo'yishni tavsiya etiladi.

```
1 int k = 1;  
2 do {  
3     k = k * 5;  
4 } while ( !(k>1000) );
```

Ushbu dasturda 1000 dan kichik yoki teng bo'lgan eng katta 5 ga karrali son topilmoqda. Bunga ko'ra **while** shartini ozroq o'zgartirib berilgan bo'lib, bunda ! (not - inkor) operatorining ishlatalishi misol sifatida keltirilgan. Agar ushbu dasturni oddiy qilib yozadigan bo'lsak, **while** shartining ko'rinishi quyidagicha bo'lar edi:

```
1 int k = 1;  
2 do {  
3     k = k * 5;  
4 } while (k<=1000);
```

Quyida **for**, **while**, **do while** sikl operatorlarini qo'llagan holda misollarni ko'rib o'tamiz.

```
1 for (int i = 0; i < 10 ; i++)  
2 cout<< «Salom!»<<endl;
```

Ushbu dastur natijasiga ko'ra ekranga 10 marta **Salom!** so'zi bosib chiqariladi. **i** o'zgaruvchisi 0 dan 9 gacha o'zgaradi. **i=10** bo'lganda esa **i<10** sharti noto'g'ri (**false**) bo'lib chiqadi va for strukturasi nihoyasiga yetadi. Buni **while** operatoridan foydalangan holda dasturlansa quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

```

1 int i = 0;
2 while ( i<10 ){
3 cout<< «Salom!» << endl;
4 i++;
5 }

```

### 3.6. C++ dasturlash tilida mantiqiy amallar

C++ da 3 xil mantiqiy amallar toifasi mavjud:

1. Mantiqiy VA (И, AND) amali **&&**;
2. Mantiqiy YOKI (ИЛИ, OR) amali **||**;
3. Mantiqiy YO'Q (HE, NOT) ! yoki mantiqiy inkor amali.

C++ dasturlash tilida mantiqiy amallar

Amal-lar	Belgilan-ishni	Sharti	Izoh
VA	<b>&amp;&amp;</b>	$a == 3 \&\& b > 4$	Agar har ikkala oddiy shart rost bo'lsa, u holda mantiqiy amal rost bo'ladi
YOKI	<b>  </b>	$a == 3    b > 4$	Ikkita shartdan bittasi rost bo'lsa ham mantiqiy amal rost hisoblanadi
Inkor	<b>!</b>	<b>!( a == 3 )</b>	Agar a 3 ga teng bolmasa mantiqiy ifoda rost bo'ladi

Mantiqiy amallar bir nechta oddiy shartlardan bitta murakkab shart hosil qiladi. Ushbu amallar dastur kodi strukturasini bir necha marta ga qisqartiradi. Yuqorida jadvalda C++ dasturlash tilidagi mantiqiy amallar va ularning vazifalari keltirib o'tilgan.

#### 3.6.1. Mantiqiy ko'paytirish operatori

Mantiqiy ko'paytirish operatori ikkita yoki undan ortiq ifodani hisoblaydi, agar barcha ifoda ifoda rost (true) qiymat qabul qilsa **VA** operatori orqali hisoblanuvchi ifoda ham rost qiymat qabul qiladi.

Masalan,

**if(x==10)&&(y==10)**

mantiqiy ifodasi agarda **x** va **y** o'zgaruvchilarning har ikkalasining ham qiymatlari 10 ga teng bo'lsagina rost qiymat qabul qiladi. Bu ifoda agarda o'zgaruvchilardan birortasi 10 ga teng bo'lmagan qiymat qabul qilsa yolg'on (**false**) qiymatini qabul qiladi. Mantiqiy ko'paytirish operatori **&&** belgi orqali belgilanadi.

### **3.6.2. Mantiqiy qo'shish operatori**

Mantiqiy qo'shish operatori ham ikki yoki undan ortiq ifoda orqali hisoblanadi. Agarda ulardan birortasi rost bo'lsa mantiqiy qo'shish operatori rost qiymat qabul qiladi.

Masalan,

**if(x==10)||(y==10)**

bu yerda, **x** yoki **y** o'zgaruvchidan istalgan birining qiymati, yoki ikkala o'zgaruvchining qiymati ham 10 ga teng bo'lsa rost qiymat qabul qiladi.

### **3.6.3. Mantiqiy inkor operatori**

Mantiqiy inkor operatori tekshirilayotgan ifoda yolg'on bo'lsa rost qiymat qabul qiladi. Agarda tekshirilayotgan ifoda rost bo'lsa inkor operatori yolg'on qiymat qabul qiladi.

Masalan,

**(if!(x==10))**

ifodasining qiymati, agarda **x** o'zgaruvchisi 10 ga teng bo'lmasa rost qiymat qabul qiladi. Bu ifodani quyidagi holatda ham yozish mumkin:

**if(x!=5)**

### **3.7. Massivlar tushunchasi. Massivlar bilan ishlash.**

C++ dasturlash tilida ma'lumot strukturalari tushunchasi mavjud bo'lib, ikki asosiy tur ma'lumot strukturalari, ya'ni statik va dinamik ma'lumot strukturalari mavjud. Statik ma'lumot strukturasi deganda hotirada egallagan joyi o'zgarmas strukturalar nazarda tutiladi. Dinamik ma'lumot turlari esa dastur davomida o'z hajmini, egallagan hotirasini o'zgartirishi mumkin.

Agar struktura bir hil kattalikdagi tiplardan tuzilgan bo'lsa, uning nomi massiv (**array**) deyiladi. Massivlar dasturlashda eng ko'p qo'laniladigan ma'lumot tiplaridir.

**Massivlar hotirada ketma-ker joylashgan, bir tipdagi o'zgaruvchilar guruhidir.**

Alovida bir o'zgaruvchini ko'rsatish uchun massiv nomi va kerakli o'zgaruvchi indeksi yoziladi. C/C++ dagi massivlardagi elementlar indeksi har doim noldan boshlanadi. Misol uchun, 4 ta elementdan tashkil topgan **char** tipidagi **m** nomli massiv quyidagicha yoziladi:

```
m[0] -> 4  
m[1] -> -44  
m[2] -> 109  
m[3] -> 2370
```

### **Massivlarni e'lon qilish**

C++ dasturlash tilida massivni e'lon qilish uchun, massiv elementlari turlari va o'lchami aniqlab olinishi kerak:

```
type massivNomi [massiv_O'lchami];
```

Ushbu massiv bir o'lchamli massiv deb nomланади. **Massiv\_O'lchami** 0 dan katta butun o'zgarmas son bo'lishi kerak, tipi (**type**) esa C++ da ,avjud istalgan tip bo'lishi mumkin. Misol uchun, **balance** deb nomланagan **10** ta elementdan tashkil topgan **double** tipidagi massivni e'lon qilish quyidagicha amalga oshhiriladi:

```
double balance[10];
```

### **Massivlarni o'zlashtirish**

C++ da massiv elementlari bittama-bittalab yoki massivni e'lon qilish paytida ifoda shaklida kiritilishi mumkin:

```
double balance[5] = {1000.0, 2.0, 3.4, 17.0, 50.0};
```

Figurali qavs {} ichidagi qiymatlar soni massivni e'lon qilish paytidaqan kvadrat qavs ichida berilgan qiymatdan katta bo'lmasligi kerak.

Agar bu yerda massiv o'lchami kiritilmasa, u holda massiv o'lchami cheksiz o'lchamli sifatida qabul qilinadi va bunday holatlarda massiv elementlari e'lon qilinishi kerak bo'ladi:

```
double balance[] = {1000.0, 2.0, 3.4, 17.0, 50.0};
```

ushbu misolda yuqorida keltirilgan massiv bilan bir xil bo'lgan massiv ko'rsatilgan.

```
balance[4] = 50.0;
```

Yuqorida keltirilgan ifodada massivning 5-elementi 50.0 qiymatga ega, ya'ni massivning 4-elementi aslida uning 5-elementi hisoblanadi, ya'ni massivlar 0-elementdan boshlanadi va ushbu element boshlang'ich element deb ham yuritiladi. Quyida massivning grafik shaklda ifodalanishi keltirilgan.

	0	1	2	3	4
balance	1000.0	2.0	3.4	7.0	50.0

### Massiv elementlariga murojaat qilish

Massiv nomini chaqirish va kvadrat qavs ichida element tartib raqamini berish orqali massiv elementlariga murojaat etiladi. Misol uchun:

double maosh = balance[9];

Ushbu ifodada berilgan massivning 10-elementiga murojaat etadi va **maosh** deb nomlanuvchi o'zgaruvchiga qiymat beradi. Quyida massivlarni e'lon qilish, o'zlashtirish va elementlariga murojaat qilish ustida misol ko'rib o'tiladi:

```
#include <iostream>
using namespace std;
#include <iomanip>
using std::setw;
int main () {
    int n[ 10 ]; // 10 ta butun sonlardan tashkil topgan massiv
    // massiv elementlarini o'zlashtirish
    for ( int i = 0; i < 10; i++ ) {
        n[ i ] = i + 100; // i dan i+100 gacha tartibdagi elementlarni berish
    }
    cout << "Element" << setw( 13 ) << "Qiymat" << endl;
    // har bir element qiymatini chigarish
    for ( int j = 0; j < 10; j++ ) {
        cout << setw( 7 ) << j << setw( 13 ) << n[ j ] << endl;
    }
    return 0;
}
```

Ushbu dasturda **setw()** funksiyasidan foydalanish tartibi keltirilgan bo‘lib, dastur kodi ishga tushirilganda quyidagi natija olinadi:

Element	Qiymat
0	100
1	101
2	102
3	103
4	104
5	105
6	106
7	107
8	108
9	109

Press any key to continue...

C++ dasturlash tilida ham ko‘p o‘lchamli massivlar bilan ishlash imkoniyati mavjud bo‘lib uning umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

```
type name[size1][size2]...[sizeN];
```

Masalan, quyidagi misolda uch o‘lchamli (5, 10, 4) butun sonli massivni kiritish keltirib o‘tilgan:

```
int threedim[5][10][4];
```

### **Ikki o‘lchamli massivlar**

Ko‘p o‘lchamli massivlarga misol sifatida ikki o‘lchamli massivni keltirish mumkin. Ikki o‘lchamli massivlarni bir nechta qatorda joylashgan bir o‘lchamli massiv sifatida qarash mumkin. **x,y** o‘lchamli ikki o‘lchovli massivni e’lon qilish uchun quyidagicha dastur tuzilishi mumkin:

```
type massivNomi [ x ][ y ];
```

Bu yerda, **type** istalgan C++ dagi ma’lumot turlaridan biri bo‘lishi mumkin, **massivNomi** esa C++ da qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan nomlardan biri bo‘lishi mumkin. Ikki o‘lchamli massiv **x** sondagi qatorlar va **y** sondagi ustunlardan tashkil topgan jadval sifatida qaralishi mumkin. Uchta qator va to‘rtta ustundan iborat **a** massiv quyidagcha bo‘ladi:

	<i>Ustun 0</i>	<i>Ustun 1</i>	<i>Ustun 2</i>	<i>Ustun 3</i>
<i>Qator 0</i>	<b>a [0][0]</b>	<b>a [0][1]</b>	<b>a [0][2]</b>	<b>a [0][3]</b>
<i>Qator 1</i>	<b>a [1][0]</b>	<b>a [1][1]</b>	<b>a [1][2]</b>	<b>a [1][3]</b>
<i>Qator 2</i>	<b>a [2][0]</b>	<b>a [2][1]</b>	<b>a [2][2]</b>	<b>a [2][3]</b>

Shunday qilib, massivdagi har bir element **a[ i ][ j ]** shaklida nomlanib, bu yerda **a** massiv nomi, **i** va **j** mos ravishda qator va ustun indekslari.

### **Ikki o'lchamli massivlarni kiritish**

Ko'p o'lchamli massivlar har bir qatordagi qiymatlari qavslarga olgan holda kiritilish mumkin. Quyidagi misolda 3 ta qator va 4 ta ustundan iborat massivning e'lon qilinishi ko'rsatib o'tilgan:

```
int a[3][4] = {
    {0, 1, 2, 3} , /* 0-qatorni kiritish */
    {4, 5, 6, 7} , /* 1-qatorni kiritish */
    {8, 9, 10, 11} /* 2-qatorni kiritish */};
```

Yoki quyidagi holatda ham kiritilish mumkin:

```
int a[3][4] = {0,1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11};
```

### **Ikki o'lchamli massiv elementlariga murojaat qilish**

Ikki o'lchamli massiv elementlariga massivning qator va ustun tarib raqamlari orqali murojaat qilinadi. Masalan:

```
int val = a[2][3];
```

ushbu ifodada massivning 3-qatoridagi 4-elementga murojaat etilgan.

Keyingi misolda ko'p o'lchamli massivlar ustida soda misolni ko'rib o'tamiz.

```
#include <iostream>
using namespace std;
int main () {
    // 5 qator va 2 ta ustundan iborat massiv.
    int a[5][2] = { {0,0}, {1,2}, {2,4}, {3,6}, {4,8} };
    // har bir massiv elementi qiymatini chiqarish
    for ( int i = 0; i < 5; i++ )
```

```
for ( int j = 0; j < 2; j++ ) {  
    cout << "a[" << i << "][" << j << "]: ";  
    cout << a[i][j] << endl;  
}  
return 0;  
}
```

Ushbu dastur ishga tushirilganda quyidagi natija hosil bo‘ladi:

```
a[0][0]: 0  
a[0][1]: 0  
a[1][0]: 1  
a[1][1]: 2  
a[2][0]: 2  
a[2][1]: 4  
a[3][0]: 3  
a[3][1]: 6  
a[4][0]: 4  
a[4][1]: 8  
Press any key to continue...
```

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek C++ da istalgan o‘lchamdagи mas-sivlarni e’lon qilish mumkin.

### C++ dasturlash tilida ko‘p o‘lchamli massivlar

Ushbu bo‘limda C++ dasturlash tilida ko‘p o‘lchamli massivlar va ulardan foydalanish, e’lon qilish, murojaat qilish ustida boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalarga ega bolamiz. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan bo‘limlarda C++ da qator va ustunlardan tashkil topgan ko‘p o‘lchamli mas-sivlarni kiritish va ulardan foydalanish ustida boshlang‘ich nazariy biliqlarga ega bo‘lindi. Misol uchun:

```
int x[3][4];
```

Bu yerda, x 2 o‘lchamli massiv bo‘lib, ushbu massiv ko‘pi bilan 12 ta elementdan iborat bo‘lishi mumkin. Ushbu massivni quyidagi ko‘ri-nishga ega bo‘lgan 3 ta qator va 4 ta ustundan iborat jadval sifatida faraz qilsa bo‘ladi:

	<i>Ustun 1</i>	<i>Ustun 2</i>	<i>Ustun 3</i>	<i>Ustun 4</i>
<i>Qator 1</i>	<b>x[0][0]</b>	<b>x[0][1]</b>	<b>x[0][2]</b>	<b>x[0][3]</b>
<i>Qator 2</i>	<b>x[1][0]</b>	<b>x[1][1]</b>	<b>x[1][2]</b>	<b>x[1][3]</b>
<i>Qator 3</i>	<b>x[2][0]</b>	<b>x[2][1]</b>	<b>x[2][2]</b>	<b>x[2][3]</b>

Uch o‘lchamli massivlar ham shunga uxshash yo‘l bilan kiritiladi. Masalan:

```
float x[2][4][3];
```

Ushbu **x** massiv ko‘pi bilan 24 elementni qabul qiladi. Ushbu massivni 2 elementdan har biri 4 ta elementni saqlaydigan 8 elementdan tashkil topgan va ushbu 8 elementning har biri 3 tadan elementni saqlaydi deb tasavvur qilish mumkin. Demak, ushbu massivning jami elementlari soni 24 tadan iborat.

### **Ko‘p o‘lchamli massivlarni kiritish**

Ko‘p o‘lchamli massivlarni turli usullar bilan e’lon qilish mumkin.

### **Ikki o‘lchamli massivlarni kiritish**

```
int test[2][3] = {2, 4, -5, 9, 0, 9};
```

Yoki qulay va tushunarli yo‘llardan biri har bir qatorni alohida qavslarga olib yozishdir:

```
int test[2][3] = { {2, 4, 5}, {9, 0 0} };
```

### **Uch o‘lchamli massivlarni kiritish**

```
int test[2][3][4] = {3, 4, 2, 3, 0, -3, 9, 11, 23, 12, 23,
2, 13, 4, 56, 3, 5, 9, 3, 5, 5, 1, 4, 9};
```

Yoki quyidagicha:

```
int test[2][3][4] = {
{ {3, 4, 2, 3}, {0, -3, 9, 11}, {23, 12, 23, 2} },
{ {13, 4, 56, 3}, {5, 9, 3, 5}, {3, 1, 4, 9} }
};
```

Quyida ko‘p o‘lchamli massivlar ustida misollar ko‘rib o‘tamiz.

**3.8.1-misol.** C++ dasturlash tilida kiritilgan **ikki o‘lchamli massiv** elementlarini ekranga chiqarish dasturi tuzilsin.

```
#include <iostream>
```

```
using namespace std;
```

```

int main()
{
    int test[3][2] =
    {{PSEP}{2, -5},
     {4, 0},
     {9, 1}
    };

    // 2 o'lchamli massivga murojaat qilish
    for(int i = 0; i < 3; ++i)
    {
        for(int j = 0; j < 2; ++j)
        {
            cout<< "test[" << i << "][" << j << "] = " << test[i][j] << endl;
        }
    }

    return 0;
}

```

Ushbu dastur ishga tushirilganda quyidagi natija hosil bo'ladi:

```

test[0][0] = 2
test[0][1] = -5
test[1][0] = 4
test[1][1] = 0
test[2][0] = 9
test[2][1] = 1

```

**Press any key to continue...**

**3.8.2-misol. Ikki o'lchamli massiv.** C++ dasturlash tilida ikkita turli shaharlar uchun bir haftalik harorat o'zgarishini saqlash va ekraniga chiqarish dasturi tuzilsin.

```
#include <iostream>
using namespace std;

const int SHAHAR = 2;
const int HAFTA = 7;

int main()
{
    int xarorat[SHAHAR][HAFTA];

    cout << "Bir haftalik haroratni birinchi va ikkinchi shahar uchun
kiring. \n";

    // harorat massivi uchun qiymatlarni kiritish
    for (int i = 0; i < SHAHAR; ++i)
    {
        for(int j = 0; j < HAFTA; ++j)
        {
            cout << "Shahar " << i + 1 << ", Kun " << j + 1 << " : ";
            cin >> xarorat[i][j];
        }
    }
    cout << "\n\nQiymatlarni ekranga chiqarish:\n";
    // harorat massividagi qiymatlatga murojaat qilish
    for (int i = 0; i < SHAHAR; ++i)
    {
        for(int j = 0; j < HAFTA; ++j)
        {
            cout << "SHAHAR " << i + 1 << ", KUN " << j + 1 << " = " <<
temperature[i][j] << endl;
        }
    }
    return 0;
}
```

Dasturni kompilyatsiya qilib ishga tushirilganda quyidagi natija hosil bo‘ladi:

**Bir haftalik xaroratni birinchi va ikkinchi shahar uchun kriting.**

Shahar 1, Kun 1 : 32  
Shahar 1, Kun 2 : 33  
Shahar 1, Kun 3 : 32  
Shahar 1, Kun 4 : 34  
Shahar 1, Kun 5 : 35  
Shahar 1, Kun 6 : 36  
Shahar 1, Kun 7 : 38  
Shahar 2, Kun 1 : 23  
Shahar 2, Kun 2 : 24  
Shahar 2, Kun 3 : 26  
Shahar 2, Kun 4 : 22  
Shahar 2, Kun 5 : 29  
Shahar 2, Kun 6 : 27  
Shahar 2, Kun 7 : 23

**Qiymatlarni ekranga chiqarish:**

Shahar 1, Kun 1 = 32  
Shahar 1, Kun 2 = 33  
Shahar 1, Kun 3 = 32  
Shahar 1, Kun 4 = 34  
Shahar 1, Kun 5 = 35  
Shahar 1, Kun 6 = 36  
Shahar 1, Kun 7 = 38  
Shahar 2, Kun 1 = 23  
Shahar 2, Kun 2 = 24  
Shahar 2, Kun 3 = 26  
Shahar 2, Kun 4 = 22  
Shahar 2, Kun 5 = 29  
Shahar 2, Kun 6 = 27  
Shahar 2, Kun 7 = 23

**Press any key to continue...**

**3.8.3-misol. Uch o‘lchamli massiv.** C++ dasturlash tilida uch o‘lchamli massivga foydalanuvchi tomonidan qiymatlar kiritish va ularni ekranga chiqarish dasturi tuzilsin.

```

#include <iostream>
using namespace std;
int main()
{
    // Ushbu massiv 12 tagacha elementni saqlay oladi (2x3x2)
    int test[2][3][2];

    cout << "12 ta qiymatni kirit: \n";

    // Qiymatlarni test massiviga kiritish
    for(int i = 0; i < 2; ++i)
    {
        for (int j = 0; j < 3; ++j)
        {
            for(int k = 0; k < 2; ++k )
            {
                cin >> test[i][j][k];
            }
        }
    }

    cout<<"\nSaqlangan qiymatlarni ekranga chiqarish:"<<endl;

    // Tegishli indeksdagi qiymatlarni ekranga chiqarish.
    for(int i = 0; i < 2; ++i)
    {
        for (int j = 0; j < 3; ++j)
        {
            for(int k = 0; k < 2; ++k)
            {
                cout << "test[" << i << "][" << j << "][" << k << "] = " << test[i]
[j][k] << endl;
            }
        }
    }
}

```

```
}
```

```
return 0;
```

```
}
```

Dasturni kompilyatsiya qilib ishga tushirilganda quyidagi natija hosil bo‘ladi:

12 ta qiymatni kiriting: 1

2  
3  
4  
5  
6  
7  
8  
9  
10  
11  
12

Saqlangan qiymatlarni ekranga chiqarish:

```
test[0][0][0] = 1
test[0][0][1] = 2
test[0][1][0] = 3
test[0][1][1] = 4
test[0][2][0] = 5
test[0][2][1] = 6
test[1][0][0] = 7
test[1][0][1] = 8
test[1][1][0] = 9
test[1][1][1] = 10
test[1][2][0] = 11
test[1][2][1] = 12
```

Massivlar bilan ishlashda o‘lcham ortib borishi bilan, uning murakkabligi ham ortib boradi.

**3.8.4-misol.** C++ dasturlash tilida ko‘p o‘lchamli matritsalardan foydalanib ikkita matrisa yig‘indisini hisoblash

*Ushbu dasturda **r\*c** o‘lchamli ikkita matritsa olingan va ikki o‘lchamli massivga saqlangan. Keyin esa ushbu ikkita matritsa qo‘silgan va ekranga chiqarilgan. Bunda qator (**r**) va ustun (**c**) qiymatlarini kiritish foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu dasturga ko‘ra, **r** va **c** qiymatlari 100 dan kichik bo‘lishi hamda foydalanuvchi tomonidan (**r\*c** o‘lchamli) ikkita matritsaning elementlari kiritilishi kerak. Keyin esa dastur ushbu ikkita matritsa yig‘indisini hisoblaydi, yig‘indini boshqa matritsaga (ikki o‘lchamli massivga) saqlaydi va ekranga chiqariladi.*

Dastur kodi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

```
#include <iostream>
using namespace std;
```

```
int main()
```

```
{
```

```
    int r, c, a[100][100], b[100][100], sum[100][100], i, j;
```

```
    cout << “Qatorlar sonini kriting(1 dan 100 gacha): “;
    cin >> r;
```

```
    cout << “ Ustunlar sonini kriting(1 dan 100 gacha): “;
    cin >> c;
```

```
    cout << endl << “1-matritsa elementlarini kriting: “ << endl;
```

//foydalanuvchi tomonidan kiritilgan 1-matritsa elementlarini saqlash.

```
    for(i = 0; i < r; ++i)
```

```
        for(j = 0; j < c; ++j)
```

```
{
```

```
        cout <<”matritsa a:”<< i+1 << j+1 <<” : “;
        cin >> a[i][j];
```

```

}

// foydalanuvchi tomonidan kiritilgan 2-matritsa elementlarini
saqlash.

cout << endl << "2-matritsa elementlarini kriting: " << endl;
for(i = 0; i < r; ++i)
for(j = 0; j < c; ++j)
{
    cout <<" matritsa b:" << i+1 << j + 1 <<" : ";
    cin >> b[i][j];
}

// Ikkita matritsani qo'shish
for(i = 0; i < r; ++i)
for(j = 0; j < c; ++j)
sum[i][j] = a[i][j] + b[i][j];

// Natijaviy sum matritsani ekranga chiqarish.
cout << endl << "Ikkita matritsa yigindisi: " << endl;
for(i = 0; i < r; ++i)
for(j = 0; j < c; ++j)
{
    cout << sum[i][j] << " ";
    if(j == c - 1)
        cout << endl;
}

return 0;
}

```

Dasturni kompilyatsiya qilib ishga tushirilganda quyidagi natija hosil bo'ladi:

Qatorlar sonini kriting(1 dan 100 gacha): 2

Ustunlar sonini kriting(1 dan 100 gacha): 2

1-matritsa elementlarini kriting:

matritsa a11: -4  
matritsa a12: 5  
matritsa a21: 6  
matritsa a22: 8

2-matritsa elementlarini kriting:

matritsa b11: 3  
matritsa b12: -9  
matritsa b21: 7  
matritsa b22: 2

Ikkita matritsa yigindisi:

-1 -4  
13 6

**3.8.4-misol.** C++ dasturlash tilida ko‘p o‘lchamli matritsalardan foydalanib ikkita matrisa ko‘paytmasini hisoblash.

*Ushbu dasturda  $r1*c1$  va  $r2*c2$  o‘lchamli matritsalarni ko‘paytirish (agar imkonи bo‘lsa) hamda natijani ekranga chiqarish masalasi ko‘rib o‘tilgan.*

Qoidaga ko‘ra, ikkita matritsaning ustunlari soni 1-matritsaning qatorlari soniga teng bo‘lishi kerak. Ushbu dasturga ko‘ra, agar 1-matritsaning ustunlari soni 2-matritsaning qatorlari soniga teng bo‘lmasa xatolik habarini ekranga chiqaradi.

Dastur kodi quyidagi ko‘rinishga ega:

```
#include <iostream>
using namespace std;
```

```
int main()
{
    int a[10][10], b[10][10], mult[10][10], r1, c1, r2, c2, i, j, k;
```

```
cout << “1-matritsaning qatorlari va ustunlari sonini kriting: “;
```

```

cin >> r1 >> c1;
cout << "2-matritsaning qatorlari va ustunlari sonini kirititing: ";
cin >> r2 >> c2;
// Agar 1-matritsaning ustunlari soni 2-matritsaning qatorlari so-
niga teng bo'limasa, foydalanuvchidan matritsa o'lchamlarini qaytadan
kiritishni so'rash *//
while (c1!=r2)
{
    cout << "Xatolik! 1-matritsaning ustunlari soni 2-matritsaning
qatorlari soniga teng emas.";
}

cout << "1-matritsaning qatorlari va ustunlari sonini kirititing:";
cin >> r1 >> c1;

cout << "2-matritsaning qatorlari va ustunlari sonini kirititing: ";
cin >> r2 >> c2;
}

// 1-matritsa elementlarini saqlash.
cout << endl << "1-matritsa elementlarini kirititing:" << endl;
for(i = 0; i < r1; ++i)
for(j = 0; j < c1; ++j)
{
    cout << "Kiritilsin: element a" << i + 1 << j + 1 << " : ";
    cin >> a[i][j];
}
// Storing elements of second matrix.
cout << endl << "2-matritsa elementlarini kirititing:" << endl;
for(i = 0; i < r2; ++i)
for(j = 0; j < c2; ++j)
{
    cout << " Kiritilsin: element b" << i + 1 << j + 1 << " : ";
    cin >> b[i][j];
}
// mult matritsa elementlariga 0 qiymat berish.

```

```

for(i = 0; i < r1; ++i)
for(j = 0; j < c2; ++j)
{
mult[i][j]=0;
}
// a va b matritsalarni ko'paytirish va mult matritsaga saqlash.
for(i = 0; i < r1; ++i)
for(j = 0; j < c2; ++j)
for(k = 0; k < c1; ++k)
{
mult[i][j] += a[i][k] * b[k][j];
}
// Ikkita matritsa ko'paytmasini chiqarish.
cout << endl << "Natijaviy matritsa: " << endl;
for(i = 0; i < r1; ++i)
for(j = 0; j < c2; ++j)
{
cout << " " << mult[i][j];
if(j == c2-1)
cout << endl;
}
return 0;
}

```

Ushbu dastur ishga tushiriganda quyidagicha natija ekranga chiqadi:

1-matritsaning qatorlari va ustunlari sonini kiriting: 3

2

2-matritsaning qatorlari va ustunlari sonini kiriting: 3

2

Xatolik! 1-matritsaning ustunlari soni 2-matritsaning qatorlari soniga teng emas.

1-matritsaning qatorlari va ustunlari sonini kiriting: 2

3

2-matritsaning qatorlari va ustunlari sonini kriting: 3

2

1-matritsa elementlarini kriting:

Kiritilsin: element a11: 3

Kiritilsin: element a12: -2

Kiritilsin: element a13: 5

Kiritilsin: element a21: 3

Kiritilsin: element a22: 0

Kiritilsin: element a23: 4

2-matritsa elementlarini kriting:

Kiritilsin: element b11: 2

Kiritilsin: element b12: 3

Kiritilsin: element b21: -9

Kiritilsin: element b22: 0

Kiritilsin: element b31: 0

Kiritilsin: element b32: 4

Natijaviy matritsa:

24 29

6 25

Ushbu dasturga ko'ra, birinchi navbatda foydalanuvchidan matritsa o'lchamlarini kiritish so'raladi. Ikkita matritsaning bir-biriga ko'paytirish uchun 1-matritsa ustunlari 2-matritsa qatorlari soniga teng bo'lishi kerak. Agar ushbu qoida qanoatlantirilmasa, u holda matritsa o'lchamlarini qaytadan kiritish so'raladi, buning uchun **while** sikl operatoridan foydalaniladi.

Keyin esa, foydalanuvchidan ikkita matritsa elementlarini kiritish so'raladi va matritsalar ko'paytmasi ekranga chiqariladi.

Bundan tashqari, ushbu dasturni funksiyalardan foydalanib ham yechish mumkin bo'lib, ushbu dasturni tuzishni foydalanuvchi va talabarning o'ziga havola etiladi.

### **3.9. Nazorat savollari**

1. Dasturiy ta'minot deb nimaga aytildi?
2. "Algoritm" va "algoritmlash" deb nimaga aytildi?
3. Algoritm xossalalarini sanab bering.
4. Algoritm turlari haqida ma'lumot bering.
5. Chiziqli algoritmlarga tavsif bering.
6. Tarmoqlanuvchi algortimlarga tavsif bering.
7. Takrorlanuvchi algortimlarga tavsif bering.
8. Algoritmni ifodalash usullari haqida ma'lumot bering.
9. C++ dasturlash tili alfaviti va xizmatchi so'zlar.
10. C++ tilida asosiy ma'lumot turlari.
11. C++ tilida BOOL ma'lumot turi.
12. C++ tilida CHAR ma'lumot turi.
13. C++ tilida butun sonli ma'lumot turlari.
14. Suzuvchi nuqtali ma'lumot turlari.
15. C++ tilida Void ma'lumot turi.
16. C++ dasturlash tilida ifodalar va operatorlar.
17. C++ tilida arifmetik amallar
18. C++ tilida sizeof amali.
19. C++ dasturlash tilida tarmoqlanish konstruksiyalari.
20. If shart operatori.
21. Kalit bo'yicha tanlash (switch) operatori.
22. GO TO o'tish operatori.
23. C++ dasturlash tilida for takrorlash operatori.
24. C++ dasturlash tilida while takrorlash operatori.
25. C++ dasturlash tilida do while takrorlash operatori.
26. C++ dasturlash tilida mantiqiy amallar

### **3.10. C++ dasturlash tili bo'yicha amaliy topshiriqlar**

#### **3.10.1. Sonli va takrorlanuvchi (sikl) dasturlar**

10. 10 dan 50 gacha bo'lgan sonlarning kvadratlarini ekranga chiqarish dasturi tuzilsin.
11. 10 dan 100 gacha sonlar berilgan bo'lib, ular orasidan ushbu sonlarni 7 ga bo'lganda 1, 2 yoki 5 qoldiq qoladigan sonlarni ekranga chiqarish dasturi tuzilsin.

12. I dan n gacha bo‘lgan sonlar yig‘indisini hisoblash dasturi tuzilsin. Bu yerda, n- ixtiyirov son.
13. 3 xonali sonning raqamlari ko‘paytmasini hisoblash dasturi tuzilsin.
14. Berilgan natural sondagi juft raqamlar sonini topish dasturi tuzilsin.
15. Berilgan natural sonning eng katta raqamini topish dasturi tuzilsin.
16. Raqamlari yig‘indisi 15 ga teng bo‘lgan barcha 4 xonali sonlarni topish dasturi tuzilsin.
17. Berilgan natural son tub son ekanligini aniqlash dasturi tuzilsin.
18. C++ dasturlash tili yordamida berilgan natural sonning barcha buluvchilarini toping.
19.  $a$  va  $N$  berilgan bo‘lib logorofim yoki eksponentsiyal ifodadan foydalanmagan holda  $a^N$  ni hisoblang.

### ***3.10.2. Bir o‘lchamli massivlar***

1. Massivda 2 martadan ko‘p takrorlanuvchi sonlarni o‘chirish dasturi tuzilsin.
2. Bir o‘lchamli, butun sonlardan tashkil topgan massivni kiritish va eng katta toq elementni topish dasturi tuzilsin.
3. Berilgan massivning manfiy elementlari yig‘indisini hisoblash dasturi tuzilsin.
4. Berilgan massivning toq tartibida joylashgan elementlari ko‘paytmasini topish dasturi tuzilsin.
5. Massiv elementlaridan birinchi ikkita nollar orasida joylashgan elementlar yig‘indisini hisoblash dasturi tuzilsin. Agar ikkita nol mavjud bo‘lmasa, u holda ekranga 0 qiymat chiqarilsin.
6. Massivning eng katta elementini topish dasturi tuzilsin.
7. Massivning eng kichik juft elementini topish dasturi tuzilsin. Agar bunday element mavjud bo‘lmasa, u holda birinchi element ekraniga chiqarilsin.
8. Berilgan massivni birinchi 0 elementlar, keyin esa barcha qolgan elementlari joylashishi tartibida ekranga chiqarish dasturi tuzilsin.

9. Massivning eng katta va eng kichik elementlari yig'indisini hisoblash dasturi tuzilsin.

10. Massivning modul bo'yicha eng kichik elementini topish dasturi tuzilsin.

### **3.10.3. Qatorlar**

1. Berilgan qatorni vergullar orqali 3 marta ekranga chiqarish va jami simvollar sonini ekranga chiqarish dasturi tuzilsin.

2. Berilgan qator elementlarini birinchi, oxirgi va uchinchi elementi ketma-ketligi tartibida ek ranga chiqarish dasturi tuzilsin.

3. Qator berilgan bo'lib, agar ushbu qatorning elementlari soni 5 tadan ortiq bo'lsa, birinchi va oxirgi uchta simvollarini ekranga chiqarish, agar qator elementlari soni 5 tadan kam bo'lsa qator elementlarini uning birinchi elementi bilan almashtirish dasturi tuzilsin.

4. Berilgan qatordagi barcha juft tartibda joylashgan simvollarni "a" harfi bilan o'zgartirish dasturi tuzilsin.

5. Berilgan qatordagi mavjud raqamlar sonini hisoblash dasturi tuzilsin.

6. **absdef** ko'rinishidagi qator berilgan bo'lib, bu yerda a,b,c,d,e,f 0 dan 9 gacha raqamlarni qabul qiladi.  $\text{abs} \neq \text{def}$  va  $a+b+s \neq d+e+f$  shartlarni qabul qiluvchi kombinatsiyalar sonini hisoblash dasturi tuzilsin.

7. Berilgan raqamli qatorni oxiridan boshlab 3 xonali bo'lak-larga ajratish dasturi tuzilsin har bir 3 xonali bo'lak orasiga bo'shliq (пробель) belgisi qo'yilsin.

8. Lotin alfaviti harflaridan iborat qator berilgan bo'lib, ushbu qatordagi mavjud **a** va **b** harflari sonini sanash dasturi tuzilsin.

9. Lotin harflaridan iborat qator berilgan bo'lib, agar ushbu qator **abc** harflaridan boshlansa ushbu 3ta harfni **www** harflari bilan almashtirish, aksincha bo'lsa oxirgi uchta simvolni **zzz** simvollari bilan almashtirish dasturi tuzilsin.

10. Harf va raqamlardan iborat qator berilgan bo'lib qatordagi mavjud barcha raqamlarni o'chirish dasturi tuzilsin.

**3.10.4. Quyidagi berilgan matematik ifodalarni C++ dasturlash tilida yeching:**

No	Funksiya	Qiymatlar
24.	$y = 2 \cos\left(x - \frac{\pi}{6}\right)$	x=1.57
25.	$y = \frac{z^2}{3 - z^2 / 5}$	z=1
26.	$a = 0.5 + \sin^2 y$	y=1
27.	$a = \sqrt[3]{8 +  x-y ^2 + 1}$	x=3; y=1
28.	$b = x^2 + y^2 + 2$	x=3; y=1
29.	$a = \frac{1 + \sin^2(x+y)}{ x - \frac{2y}{1+x^2y^2} }$	x=3; y=1
30.	$b = x^{ \sin y + \cos y }$	x=3; y=1
31.	$w =  \cos x - \cos y ^{[1+2 \sin^2 y]}$	x=3; y=1
32.	$y = \left(1 + z + \frac{z^2}{2} + \frac{z^3}{3} + \frac{z^4}{4}\right)$	z=1
33.	$b = \sqrt{10(\sqrt{x} + x^{5/2})}$	x=3; y=1
34.	$a = 5x - \frac{1}{4} \cos x$	x=2

## **IV BOB**

### **KIMYOVII INJENERING MASALALARINI YECHISHDA MATHCAD AMALIY DASTURIY PAKETIDAN FOYDALANISH**

- 4.1. MathCAD haqida umumiyl tushuncha
- 4.2. MathCAD muhitida tasvir, grafiklar va dasturlash operatorlari
- 4.3. Kimyo injenering masalalarini yechishda MathCad dasturidan foydalanish
- 4.4. MathCAD dasturida shart operatorlaridan foydalanish
- 4.5. MathCAD dasturida takrorlash (sikl) opreratorlari
- 4.6. MathCAD va boshqa dasturiy ta'minotlar bilan o'zaro bog'liqligi

#### **4.1. MathCAD haqida umumiyl tushuncha.**

MathCAD amaliy dasturiy paketi muhandislik va hisob ishlarini bajarish uchun dasturiy vosita bo'lib, u professional matematiklar, texnologlar, muhandislar uchun mo'ljalangan. Ushbu dastur yordamida o'zgaruvchi va o'zgarmas parametrla algebraik va differentsiyal tenglamalarni yechish, funksiyalarni tahlil qilish va ularning ekstremumini qiymatlarini izlash, topilgan yechimlarni tahlil qilish uchun jadvallar, grafiklar qurish va boshqa shunga oh'shash vazifalarni bajarish mumkin. MathCAD murakkab masalalarini yechish uchun o'z dasturlash tiliga ham ega.

Darslikga ushbu bo'limning kiritilishidan maqsad kimyo injenering masalalarini yechish uchun, Windows operatsion tizimida ishlaydigan va zamon talablariga javob bera oladigan MathCAD amaliy dasturi to'g'risida yetarli darajada ma'lumot berishdan iborat.

MathCad paketida tenglamalar va tenglamalar tizimini simvolli va sonli ko'rinishda yechish mumkin.


Ushbu bo'limda MathCad dasturiy paketining MathCAD15 versiyasidan foydalanilgan bo'lib, dastur interfeysi Windowsning barcha ofis dasturlari interfeysiga o'xshash va u ishga tushurilgandan keyin oynada bosh menu va uchta paneldan tashkil topgan uskunalar satri namoyon bo'ladi. Bular quyidagilar:

- **Standart** (Standart) vositalar paneli bir necha fayllar bilan ishlash uchun buyruqlar to'plamini o'z ichiga oladi;

- **Formatting** (Formatlash) formula va matnlarni formatlash bo'yicha bir necha buyruqlarni o'z ichiga oladi;

- **Math** (Matematika) matematik ifodalarni tuzish va ular yordamida simvollar va operatorlarni ishchi varaqqa joylashtirish uchun qo'llaniladi.

MathCAD ishga tushganda avtomatik ravishda uning ishchi hujjat fayli ochiladi va unga ish varag'i deyiladi. MathCAD da masalalarini yozish va yechishni yengillashtirish uchun 9 ta amaliy panellardan foydalanishni taklif etadi (4.1 – rasm). Ularni chaqirish uchun mos ravishda ularning piktogrammalaridan foydalaniladi.



#### **4.1–rasm: MathCAD amaliy dasturiy paketi oynasi va panellari.**

Bu yerda:

1. Символные- kalit so‘zlar orqali simvolik o‘zgartirishlar va simvolik belgililar ustida ishlash uchun operatorlar paneli;
2. Греческий– grek harflari paneli;
3. Программирования – dastur tuzish uchun kerakli modullar yaratish operatorlari paneli;
4. Вычисления – boshlang‘ich qiymatlarni kiritish va natijalarni chiqarish operatorlari paneli;
5. Граф – grafiklar paneli;
6. Математический анализ – differentialsallash, integrallash, summa va ko‘paytimalarni hisoblash operatorlari paneli;
7. Калькулятор – asosiy matematik operatsiyalar paneli;
8. Булева алгебра – mantiqiy operatorlar paneli;
- 9.

Файл Правка Вид Вставка Формат Инструменты Символы и операции Окно Справка

Normal Аналитика 10

Мой рабочий

### Ифодани хисоблаш

Арифметик амаллар	Стандарт функциялар
$x := 5 \quad y := 3 \quad a := 10$	$\sin(x) = -0.959 \quad \cos(x) = 0.284$
$5 + 3 = 8 \quad x + y = 8$	$\tan(x) = -3.381 \quad \cot(x) = -0.296$
$5 - 3 = 2 \quad x - y = 2$	$\operatorname{atan}(x) = 1.373 \quad \operatorname{acot}(x) = 0.197$
$5 \cdot 3 = 15 \quad x \cdot y = 15$	$\ln(x) = 1.609 \quad \ln\left(\frac{x-a}{y}\right) = 2.813$
$\frac{5}{3} = 1.667 \quad \frac{x}{y} = 1.667$	$\int_1^2 x \cdot \frac{a}{y} dx = 5 \quad \int_1^2 x \cdot \frac{a}{y} dy = 34.657 \quad \int_1^2 x \cdot \frac{a}{y} da = 2.5$
Харифларга бриктирилган үзармаслар	
$e = 2.718$	
$\pi = 3.142$	
Айланын узунлиги	
$2 \pi x = 31.416$	



#### 4.2-rasm: Oddiy matematik ifodalarni hisoblash.

Matematik ifodalarni va injenering hisoblarini qo‘ozda qay tartibda amalga oshirilsa, MathCAD amalliy paketida shu tartibda bajariladi. Birinchi bo‘lib o‘zgaruvchilarning nomini (masalan:  $x, y, a$ ) tanlanadi, so‘ngra boshlang‘ich qiymatlarni (masalan:  $x=5, y=3, a=10$ ) kiritiladi. O‘zlashtirish operatori sifatida barobar(=) belgisi ishlatiladi. Matematik ifodalar, injenering hisoblari ishchi varaqqa kiritilib so‘ng (=) belgisini o‘rnatilsa natija olinadi. Trigonometrik, standart funsiyalarga, darajaga ko‘tarish amallariga murojaat qilinganida (Kalkulyator panelidan foydalaniladi) funksiyaning argumentini qavs ichiga olishi zarur. Integral, yig‘indi va ko‘paytmalarini hisoblashda “Математический анализ” panelidan foydalilaniladi. 4.2-rasmida arifmetik, algebraik, trigonometrik va integral hisoblash amallarining natijasi keltirilgan. Bundan tashqari ba’zi bir grek harflariga (masalan  $e, \pi$ ) o‘zgarmas qiymatlar briktirilgan.

MathCAD dasturiy ta’minoti tarkibida 700 dan ortiq yaratilgan funksiyalari mavjud bo‘lib, ular 37 ta matematik kategoriyalarga (yo‘nalish-

larga) bo'lingan, ularni matematik ifodalarida ishlatalish uchun menyular qatoridan Вставка →  $f(x)$  Функция yoki instrumentlar qatoridagi  $f(x)$  tugmasiga bog'langan muloqot oynasidan foydalaniladi (4.3.-rasm). Yangi ochilgan "Вставка функции" (Funksiyalarni qo'yish) mu-loqot oynasida kategoriyalarning nomlari keltirilgan bo'lib ulardan biri tanlanganda mos ravishda shu kategoriyyaga ta'luiqli funksiyalarning nomi, uning yozilishi va bajaradigan vazifasi keltirilgan. Shu mu-loqat oynadagi Вставка tugmasini tanlash orqali bu funksiya kursov(+) turgan yerga o'rnatiladi.

MathCADda foydalanuvchi o'zining funksiyasini tuzishda yaratilgan funksiyalardan foydalanishi hisoblash jarayonini tezlatishi mumkin. Funksiyaning nomi tanlanadi so'ng argumenti qavs ichiga yoziladi undan keyin o'zlashtirish operatori := o'matiladi va hisoblanadigan ifoda yoziladi. Ifoda da ishlataladigan argument funksiya nomidan keyin qavs ichida yoziladi (4.4-rasm). Ifodaning qiymatini hisoblash uchun funksiya nomini yozib, so'ngra = belgisini o'rnatilganda natija ishchi varaqda namoyon bo'ladi.



**4.3-rasm: Funksiyani qo'yish**

Фойдаланувчанинг функциясини яратиш

Аргументлар номини ва бошлангич кўйматларини киритамиш

$x := 5 \quad a := 2.36 \quad z := 2$

Фойдаланувчанинг функциялари

$$F(x, a) := \sin(x) + \cos(x^2)$$

$$F_1(a) := \int_0^1 F(x, a) dx \quad \frac{d}{da} F(x, a) = -12.325$$

$$F(x, a) = -0.158 \quad F_1(a) = 1.376 \quad \frac{d^2}{da^2} F(x, a) = 2.017 \times 10^{-5}$$

#### 4.4-rasm: Hisoblashlarda foydalanuvchi funksiyasini tuzish.

**Foydalanuvchi funksiyasini yaratish.** Foydalanuvchi funksiyasini yarataish misoli sifatida quyidagi masala berilgan:

Neft maxsulotlarini tashish uchun temir bochkalar tayyorlash lozim bo‘lib, berilgan topshiriq, bochkaning radiusi bilan balandligini qanday tanlash kerak degan savolga javob topishdan iborat. Bochkaga quyildaigan nefting hajmi- $V$  quyidagi formula bilan o‘lchanadi (4.5-rasm):

$$V=\pi * r^2 * h$$

bu yerda:- bochka radiusi;  $h$ -bochka balandligi.

Bochkaning balandligi har 5 smga yoki radiusi 3 smga o‘zgarganda bochkaning hajmi-  $V$  qanday o‘zgarib boradi?

MathCAD da o‘zgarish sohasi quyidagicha kiritiladi: o‘zgaruvchining nomi, masalan-**h** tanlanadi keyin esa tenglik belgisi (=) bosilib boshlang‘ich qiymat kiritiladi, so‘ng verguldan keyin ikkinchi qiymat kiritiladi, nuqtali vergul bosiladi natijada gorizontal ikki nuqta hosil bo‘ladi va oxirgi qiymat kiritiladi. Birinchi va ikkinchi qiymatlar orasidagi farq qadam hisoblanadi. Misolda balandlik **h** uchun qadam 5 ga va radius **r** uchun 3ga teng (4.5-rasm). Agar ikkinchi qiymat kiritilmasa u holda qadam 1 ga teng deb hisoblanadi.


Shartlarga asoslanib bochka balandligini **h:=10,15..200**, radiusini **r:=15,18..50** deb va hajm formulasi bochka balandligi va radiusiga

bog'liq bo'lganligi uchun  $V(h,r) := \pi * r^2 * h$  ko'rinishida ishchi varaqqa kiritiladi. Ma'lumotlar to'g'ri kiritilganligiga ishonch hosil qilish uchun qiymatlarni ishchi varaqqa  $h :=$  va  $r :=$  orqali chiqariladi. Bochka balandligini  $h=70$  deb radiusiga nisbatan o'zgarishlarni ( $V(70,r) := \pi * r^2 * h$ ) orqali va radiusni  $r=30$  deb balandlikkaga nisbatan o'zgarishlarni ( $V(h,30) := \pi * r^2 * h$ ) orqali hisoblab natijalar olinadi.

$V(70,r) :=$  va  $V(h,30) :=$  oraqa-  
li esa ishchi varaqqa natijalar  
chiqariladi.

**Tenglamaning ildizini topish.** Bir argumentli funksiyaning, masalan  $f(x)=0$  tenglamasining ildizini  $[a,b]$  intervalda topish uchun **root** funksiyasidan foydalanish mumkin. Uning konstruksiyasi  $\text{root}(f(x),x,a,b)$  dan iborat bo'lib, unga barobar belgisini berilsa natija ko'rindi, faqat  $f(x)$  funksiyasining chegaraviy nuqtalardagi qiymatlari har hil ishoraga ega bo'lishi lozim.

**Chiziqli tenglamalar tizimining ildizlarini topish.** Chiziqli tenglamalar tizimining ildizlarini topish uchun o'zgaruvchilarning boshlang'ich qiymatlari kiritiladi va tenglamalar tizimi **Given**(berilganlar) so'zidan so'ng yoziladi va natijada tenglamalar tizimining ildizlari topiladi. Barobar belgisi "**Булева алгебра**" panelidan yoki **Ctrl+=** buyrug'i orqali o'matiladi. Tengsizliklar tizimini yechishda esa tenglamadagi barobar belgisi tengsizliklar  $<$ ,  $>$ ,  $\leq$ ,  $\geq$  belgilaridan biriga



### 3.5-rasm. MathCad dasturida ma'lumotlarni berish

almashtiriladi. Ularni ekranga chiqarish uchun biror o‘zgaruvchiga (masalan **m**) **Find** yoki **Minerr** funksiyalardan birini briktiladi (**m:=Find** yoki **m:=Minerr**), so‘ngra o‘zgaruvchiga o‘zlashtirish operatori yuklanadi (**m:=**) va natijada vektor ko‘rinishda ildizlar qiymati ko‘rinadi. 4.6-rasmda barcha o‘zgaruvchilarga boshlang‘ich qiymat 0 berilgan bo‘lib **m(h)** funksiyasining ildizi va ikkita tenglamalar tizimining yechimlari keltirilgan.

The screenshot shows a Mathcad document window with the following content:

```

 $b := 0 \quad x := 0 \quad y := 0 \quad z := 0 \quad x1 := 0 \quad x2 := 0 \quad x3 := 0 \quad x4 := 0 \quad x5 := 0 \quad x6 := 0 \quad x7 := 0$ 
 $m(h) := h^3 + 5h - 25 \quad \text{root}(m(h), h, -1..10) = 2.363 \quad \text{Демак илдизлар}$ 
 $h = 2.363$ 

Given
 $x^2 + y^2 + z^2 = 136$ 
 $x + y + z = 8$ 
 $15x^3 + y^3 + 5z = -123 \quad m := \text{Minerr}(x, y, z) \quad m = \begin{cases} 11.377 \\ -2.346 \\ -1.03 \end{cases} \quad \text{Демак илдизлар}$ 
 $x = 11.377$ 
 $y = 2.346$ 
 $z = -1.03$ 

Given
 $5x1 + 3x2 - 7x3 + 4x4 - 5x5 + x6 - 5x7 = 5$ 
 $2x1 + 3x2 - 3x3 - 3x4 + 1x5 + 2x6 - 2x7 = 10$ 
 $2x1 + 3x2 - 7x3 - 3x4 - 2x5 - 4x6 - 3x7 = -2$ 
 $3x1 + 5x2 - 7x3 + 2x4 + 5x5 + 3x6 - 2x7 = -10$ 
 $2x1 + 3x2 + 5x3 + 2x4 - 15x5 + 2x6 - 4x7 = -12$ 
 $-5x1 + 3x2 - 2x3 + 7x4 + 8x5 + -3x6 - 2x7 = -5$ 
 $3x1 + 2x2 - 5x3 + 6x4 + 3x5 - 2x6 - 3x7 = 8 \quad g = \begin{cases} 4.381 \\ 1.623 \\ 6.589 \\ -3.071 \\ 1.489 \\ -1.872 \\ -7.39 \end{cases}$ 
 $g := \text{Find}(x1, x2, x3, x4, x5, x6, x7)$ 
Демак илдизлар
 $x1=4.381, \quad x2=1.623$ 
 $x3=6.589, \quad x4=1.071$ 
 $x5=1.489, \quad x6=-1.872$ 
 $x7=-7.39$ 


```

**4.6-rasm: Chiziqli tenglamalar tizimining ildizlarini topish.**

### **Eslatmalar:**

- MathCad dasturida hisoblashlar olib borilganda, barcha o‘zgaruvchilar va funksiyalar ingliz alifbosida yozilishi kerak;
- avval o‘zgaruvchilar keyin esa funksiyalar tavsiflanadi;
- Katta va kichik harflar farqlanadi;
- + belgisi cursor vazifasini o‘taydi;

- formulalarda qizil rangdagi yozuv ko'rinsa hatolik borligini bildiradi;
- xabar berish oynasi xatoliklarning turini ko'rsatadi;
- ko'k chiziqli to'g'ri burchak ifoda elementlari ustida tahrirlash, kiritish, belgilash, o'chirish amallarini bajarilishini bildiradi;
- matematikadagi  $\sin^2 x$  kabi ifodalar MathCAD da  $(\sin(x))^2$  kabi yoziladi.



#### 4.7-rasm: Ko'phad-polinomlarning ildizini topish.

*Ko'phad-polinomlarning ildizini topish.* 4.6-rasmda  $m(h)$  funksiyasining faqat bitta ildizi topilgan bo'lib qolgan ikkitasini topish uchun, shu ildizlar yotgan intervalni ko'rsatish lozim, lekin bu intervallarni aniqlash uchun funksiyaning grafigini chizib, undan interval chegaralarini aniqlash mumkin, bu esa ancha vaqtini oladi. Shu munosabati bilan ko'phad-polinomlarning ildizini topishda polyroots funksiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan bizga 5-darajali  $y(x)$  polinomining (4.6-rasm) ildizlarini topish kerak bo'lsin. Albatta  $y(x)$  polinomi 5 ta ildizga ega va ularni topish uchun biror o'zgaruvchi tanlanadi (masalan  $ky-y(x)$  funksiyaning koefisientlari misolida) va polinom

koeffisientlarini ozod haddan boshlab, daraja ko'rsatkichlari o'sib borish tartibida kiritib boriladi, agar biror darajadagi had bo'lmasa uning koeffisienti **0** ga teng deb, vektor ko'rinishda kiritiladi. Buning uchun biror o'zgaruvchi tanlanadi(masalan ***ky***), matritsa panelidan "Матрица или вектор" belgisini tanlaymiz, natijada "Вставка матрицы" oynasi ochiladi, ustunlar soni koeffisientlar sondek (bizning misolimizda 6ga teng), satrlar sonini **1**ga teng deb olinadi va ma'lumotlar kiritiladi. Ildizlar nafaqat haqiqiy, balki kompleks sonlar ham bo'lishi mumkin (bizning misolimizda 2- va 3- ildizlar kompleks sonlardir). 4.7-rasmda keltirilgan dasturda ***m(h)*** funksiyasining qolgan ildizlari ham topilgan (***km***-funksiya koeffisientlari).

#### 4.2. MathCAD muhitida tasvir, grafiklar va dasturlash operatorlari.

MathCAD da funksiyaning tasviri va grafigini yaratish quyidagi ketma ketlikda bajariladi:


1. Grafik (Graph) panelidan> Grafik X-Y buyrug'i yoki Вставка menyusidan GrafikX-Y buyrug'i tanlanadi. Natijada funksiyaning grafigini yaratish shabloni keltiriladi;
2. Keltirilgan shablonga funksiya argumentining nomini (masalan **x**) gorizonal koordinatadagi to'ldirgichga (o'qning o'rtasida) yoziladi va funksiya ko'rinishini (masalan ***x*<sup>2</sup>** vertikal koordinataning o'rtasidagi to'ldirgichga kiritiladi);
3. Sichqonchaning chap tomonini shablon tashqarisida bosilsa funksiyaning grafigi chiziladi.



1-funksiyaning yuqori chegarasi; 2-funksiya yoziladigan to'ldirgich; 3-funksiyaning quyi chegarasi; 4-argumentning quyi chegarasi; 5-argument yoziladigan to'ldirgich; 6-argumentning yuqori chegarasi

Grafiklar bilan ishlash jarayonida MathCad dasturi quyidagi xususiyatlarga ega:

- agar argumentning o'zgarish sohasi berilmasa, u holda argumentning o'zgarish sohasini avtomatik ravishda -10 dan +10 gacha deb tanlaydi;
- argumentning chegaraviy nuqtalardagi funksiyaning qiymatlari ni hisoblab absissa o'qida chegaraviy qiymatlari o'rnatadi;



#### 4.8-rasm. Funksiya grafigini yaratish

- agar argument va funksiyaning chegaraviy qiymatlarini o'zgartirish kerak bo'lsa o'qlardagi to'ldirgichga yangi chegaraviy qiymatlar kiritiladi.;
- bitta shablonda bir nechta funksiyalarning grafigini yaratish imkonи bor. Buning uchun funksiya (masalan  $x^2$ ) kiritilgandan so'ng vergul qo'yib ikkinchi (masalan  $\sin(x)$ ) funksiyani, yana vergul qo'yib uchunchi(masalan  $\cos(x)$ ) kiritiladi (4.8-rasm) (funksiyaning o'zgarish sohasi -5dan +5gacha o'zgartirilgan);
- har bir grafik uchun chiziq turi va rangi avtomatik tarzda tanlanadi;
- grafik o'lchamlarini markerlar orqali o'zgartirish mumkin.

#### 4.3. Kimyo injenering masalalarini yechishda MathCad dasturidan foydalanish

Jadval 4.1 da  $pH$  1 dan 6 gacha bir qadam bilan o'zgarib borgandagi hisoblashlar keltirilgan. Chumoli kislotasining berilgan (1;6) oraliqdagi taqsimot diagrammasini qurish hamda chumoli kislotasining hosil bo'lish grafigi bilan dissotsiatsiya grafigining kesishgan nuqtasini topish talab etilgan bo'lsin.

Jadval 4.1.


$pH$	HCOOH	HCOO
1.00	100	0

2.00	98	2
3.00	85	15
4.00	36	64
5.00	5	95
6.00	0	100

*Yechish:* **i**, **pHi**, **HCOOH<sub>i</sub>** va **HCOO<sub>i</sub>** o‘zgaruvchilarni kiritib ularga jadval 4.1. asosida qiymatlarini vektor ko‘rinishda kiritamiz (4.9-rasm). Berilganlarni kiritib bo‘lgach ularning grafigini chizaylik. Grafik panelidan grafik shablonini chaqiramiz va funksiyalarini (**HCOOH<sub>i</sub>** va **HCOO<sub>i</sub>**) hamda argumentni (**pHi**) shablonga kiritamiz. Natijada ikkita grafik hosil bo‘lib bir shablonda joylashadi (3.9-rasm). Bu grafiklar chumoli kislotasining hosil bo‘lish bilan dissotsiatsiya taqsimoti diagrammalaridir.

Endi grafiklarning tutashgan nuqtasini topaylik. Rasmdan ko‘rib turibdiki grafiklar siniq chiziqlar brikmasidan iborat va grafiklarning tutashgan nuqtasi  $pH_i=4$  nuqtasi atrofida. Bu holatda grafiklarning tutashgan nuqtasini topib bo‘lmaydi, chunki funksiyalar faqat diskret nuqtalar 1,2,3,4 va 5 larda aniqlangan. Masalani yechish uchun qadami kichikroq bo‘lgan va berilgan nuqtalardan o‘tuvchi interpolatsion funksiya yaratishimiz kerak. Buning uchun o‘zgaruvchi (masalan  $x$ ) tanlab qadami 0,01 bo‘lgan qiymatlarni kiritamiz, ya’ni:

$$x := \min(ph), \min(ph) + 0.001..max(ph)$$



**4.9- rasm:** Interpolyatsion funksiya «interp» yordamida chumoli kislotasining hosil bo‘lish grafigi bilan dissotsiatsiya grafigining kesishgan nuqtasini aniqlash.

Berilgan nuqtalardan ( $pH$ ,  $HCOOH$ ) va ( $pH$ ,  $HCOO$ )lardan o‘tuvchi interpolyatsion funksiyani yaratishning MathCADda 6ta usuli mavjud. Bularidan birini chiziqli (*Ispline*)ni tanlaymiz va  $w1$  o‘zgaruvchisini ( $pH$ ,  $HCOOH$ ) berilganlar uchun,  $w2$  o‘zgaruvchisini ( $pH$ ,  $HCOO$ ) berilganlar uchun aniqlaymiz. Keyin esa ushbu o‘zgaruvchilar asosida interpolyatsion funksiyalar  $z1(x)$  va  $z2(x)$  larni yaratiladi va ularning grafigini berilganlar bilan birgalikda chiziladi (3.9-rasm). Grafiklarning kesishgan nuqtasini topish uchun *root* funksiyasidan foydalanamiz. Grafiklar (3,4) intervalda kesishgani uchun  $z1(x)-z2(x)=0$  tenglamasi yechimini  $root(z1(x)-z2(x),x,3,4)$  ko‘rinishida yozib ildizini topamiz. Natija 3.73 ga teng bo‘lib, chumoli kislotasining hosil bo‘lish grafigi bilan dissotsiatsiya grafigining kesishgan nuqtasi  $pH=3.73$  bo‘lganda ro‘y berar ekan. Olingan natijani tekshirish uchun  $z1(x)$  va  $z2(x)$  funksiyalarni  $pH=3.73$  nuqtada hisoblab solishtiramiz:  $z1(3.73)=50.158$  va  $z2(3.73)=50.148$  bo‘lib ***farq=0.01*** ni tashkil etadi (4.9-rasm:).


***MathCadda Dasturlash.*** Takrorlanuvchi (siklik), iteratsion, rekrusiya vas hu kabi boshqa murakkab algoritmlar Mathcadda dasturlash orqali yechiladi. Mathcad muhitida dasturlash asosiy o‘rin tutib, ko‘p pog‘analı konteynerlar orqali yaratiladi. Dasturni boshqarish uchun dasturlash operatorlari kiritilgan. Bu operatorlar quyida keltirilgan:

Operatorning yozilishi	Mazmuni	Operatorning yozilishi	Mazmuni
if	agar	<b>otherwise</b>	Aks holda
for	uchun	<b>while</b>	U holda
break	to‘xtatish	<b>continue</b>	Davom ettirish
return	qaytarish	<b>on error</b>	Xatolik bo‘yicha

Dasturlash davomida xatoliklardan chetlab o‘tish uchun “Программирования” panelidagi operatorlardan foydalanish tavsiya etiladi.

***Dastur satrlarini yaratish.*** Dastur tuzish uchun konteynerdag‘i satrlarni operatorlar bilan to‘ldirish kerak bo‘ladi. Bu quyida keltirilgan ketma-ketlikda bajariladi:

1. Matematik ifodaning nomini ishchi varaqqa kiritish;
2. O'zlashtirish operatorini ( $:=$ ) kiritish;
3. "Программирования" panelidan **Add Line** (Dastur satrini qo'shish) operatorini yuklash natijasida ikki satrli (to'ldirgichli) konteyner () hosil bo'ladi;
4. Konteynerdagи to'ldirgichlarga kerakli operatorlarni kiritilib, ortiqcha to'ldirgichlarni olib tashlanadi;



#### 4.10-rasm: Oddiy chiziqli dasturlar tuzish.

Satrning oldiga yoki ortiga yangi to'ldirgich qo'shish uchun ko'k burchakli kursorni mos ravishda satrning boshidagi yoki oxiridagi elementni belgilab, bo'shliq tugmasi (пробел) orqali mos ravishda yoki xolatga o'tkazilib, **Add Line** tugmasini bosish kerak .

**Misol sifatida** quyidagi matematik ifodani hisoblash dasturini ko'rib chiqamiz:

$$y(x)=ax^5+\ln(b)\sin(x)$$

Buning uchun, ishchi varaqqa o'zgaruvchi  $x$  ning boshlang'ich qiymatini kiritamiz ( $x=3$ ) va matematik ifodaning nomini ( $y(x)$ ) yozib o'zlashtirish operatorini ( $:=$ ) yuklaymiz, so'ngra **Add Line** operatorini qo'llaymiz. Natijada quyidagi ko'rinish hosil bo'ladi:

To'ldirgichlarga ifodadagi o'zgarmaslarni (**a,b**) kiritib ularga ( $\leftarrow$ ) operatori orqali boshlang'ich qiymalarini kiritamiz va oxirgi satrga ifo-

dani yozamiz. Natijani ko'rish uchun  $y(x)$  dan keyin tenglik (=) belgisini o'rnatish kerak (4.10-rasm).

#### 4.4. MathCAD dasturida shart operatorlaridan foydalanish.

**If shart operatori.** MathCAD dasturida shartli o'tish operatori ( if ) ning umumiy konstruksiyasi quyidagicha:

$$x \text{ if } y$$

bo'lib, mantiqiy ifoda  $y$  ning qimati 0 dan farqli (**true**) bo'lsa  $x$  ifo\_dani hisoblaydi, aks holda keyingi buyruqni bajarishga o'tadi.



#### 4.11-rasm: MathCad dasturida tarmoqlanuvchi funksiya dasturi oynasi

Shart operatori yordamida berilgan masalani dasturlash uchun "Программирования" panelidan if operatori tugmasi bosiladi. Dasturda ikkita to'ldirgichlarga ega bo'lgan operator shabloni (■ if ■) paydo bo'ladi. If operatoriga nisbatan chap to'ldirgichga ifoda (x) va o'ng to'ldirgichga mantiqiy ifoda (y) yoziladi. Mantiqiy ifodalarni tuzishda "Булева алгебра" panelidan foydalanish mumkin. Berilgan tarmoqlanuvchi funksiyaning dasturini yaratish uchun argumentning nomi va boshlag'ich qiymati kiritiladi, so'ngra funksiyaning nominini (y) ishchi varaqqa yozib tenglik belgisi qo'yiladi va **Add Line** operatori yuklanadi (4.11-rasm). To'ldirgichlar sonini uchtaga yetkaziladi va

mos ravishda ifodalar yoziladi, so‘ng **if** operatori o‘rnatilib mantiqiy ifodalar kiritiladi. Tenglik belgisi “Булева алгебра” panelidan olinadi.

Masalaning yechishning ikkinchi usuli *Excel* muhitidagi ЕСЛИ operatori bilan mos keladi va quyidagi dastur bilan natija olish mumkin:

$$y1:=\text{if}(x < 5, \sin(x), \text{if}(x = 5, \cos(x), \tan(x)))$$

yoki “Булева алгебра” panelidan foydalanib hisoblash mumkin:

$$y2:=[\sin(x)(x < 5) + \cos(x)(x = 5) + \tan(x)(x > 5)]$$

**Otherwise operatori.** MathCAD dasturida **Otherwise** (aks holda) operatori mantiqiy ifodalarning birortasi bajarilmagan hollarda ishlatalishi mumkin. Masalan oldingi misol dasturini quyidagicha yozish mumkin:

#### 4.5. MathCAD dasturida takrorlash (sikl) opreratorlari

Mathcadda asosan ikkita **FOR** va **WHILE** sikl operatorlari qo‘llaniladi. Agar siklda takrorlanish soni oldindan ma’lum bo‘lsa, u holda **FOR** operatori ishlatalidi. Agar sikl ma’lum shartning bajarilishigacha takrorlanishi lozim bo‘lsa, u holda **WHILE** operatori ishlatalidi.

**FOR operatori.** For sikl operatorini ishlatish takrorlanishlar soni oldindan aniq bo‘lganda maqsadga muvofiqdir. “Программирования” panelidan **For** operatori tanlanganda uning shakldagi konstruksiysiysi hosil bo‘ladi. Birinchi to‘ldirgichga o‘zgaruvchi parametr nomi, ikkinchisiga takrorlanish sohasi va uchinchi to‘ldirgichga matematik ifoda kiritiladi (4.12-rasm).

The screenshot shows a Mathcad document window. On the left, there is a code block:

```
z :=  
m := 1  
for s in 1..12..3  
    z_m := sqrt(s+1)  
    m := m + 1  
z
```

On the right, there is a table with 12 rows, labeled 'z =' at the top. The table contains two columns: the first column is labeled 's' and the second column is labeled 'z'. The data is as follows:

s	z
0	0
1	1.414
2	1.483
3	1.548
4	1.612
5	1.673
6	1.732
7	1.789
8	1.844
9	1.897
10	1.949
11	2

**WHILE operatori.** “Программирования” panelidan “while” operatori tanlanganda uning shakldagi konstruksiysiysi hosil bo‘ladi.


Birinchi to‘ldirgichga mantiqiy, ikkinchisiga takrorlash parametrini o‘zgartirish ifodasi yoziladi. Mantiqiy ifoda rost (true) qiymatni olsa matematik ifoda hisoblanadi, aks holda hisoblanmaydi. Tak-

**4.12-rasm: Mathcad dasturida for takrorlash operatoridan foydalanish**

rorlash jarayoni mantiqiy ifoda yolg‘on (false) qiymatga ega bo‘lgunga qadar davom etadi va oxirgi to‘ldiruvchiga yozilgan o‘zgaruvchining qiymatini natija sifatida qaytaradi.

MathCAD dasturi amaliy ko‘nikmalar hosil qilish uchun navbatdagi masalani ko‘rib o‘tamiz:

**4.5.1-misol.**  $n$ -natural sonlar ketma-ketligi bo‘lsa,  $(1/n) < 0.015$  tengsizlik  $n$  ning qaysi qiymatlaridan boshlab bajariladi?



**4.13-rasm: Mathcad dasturida *while* takrorlanish operatoridan foydalanish**

Masalani yechish uchun biror o‘zgaruvchi ( $y$ ) tanlanadi va o‘zlashtrish operatori qo‘llaniladi, so‘ngra **Add Line** operatori orqali konteyner o‘rnatilib birinchi to‘ldirgichga  $n$  ni, ikkinchi to‘ldirgichga “**while**” chaqiriladi va uning birinchi to‘ldirgichga  $1/n > 0.015$  ifodani ikkinchi to‘ldirgichga  $n+1$ , keyin  $n$  o‘zgaruvchini natijani qaytarish uchun kiritamiz. Yangi hisoblash ifodani  $n$  ning o‘rniga kiritiladi. E’tibor bering dasturga kiritilgan barcha o‘zgaruvchilar ( $y, u, t, n, m, x$ ) oldindan tavsiflanmasdan lokal o‘zgaruvchilar sifatida kiritilmoqda, shuning uchun ularning qiymatini bilish uchun oxirgi to‘ldirgichga kiritish lozim (4.13-rasm).

4.5.2-misol. O'zgaruvchi  $s \in [1;3]$  oraliqda  $h=0.2$  qadam bilan o'zgarganda  $x=(s+1)/2$  funksiyaning qiymatlarini topish dasturi tuzilsin.

Ma'lumki funksiyaning qiymatlari 11 ta bo'lib, ularning barchasini hisoblab chiqarish kerak. Dastur yaratish o'zgaruvchi ( $s$ )ni tanlash va o'zlashtirish operatorini o'rnatib, **Add Line** operatori orqali konteyner o'rnatiladi, birinchi to'ldirgichga **m1**ni, ikkinchi to'ldirgichga "for" operatorini chiqariladi va uning birinchi to'ldirgichiga o'zgaruvchining nomini, ya'ni  $s$  ni, ikkinchi to'ldirgichiga  $s=1,1.2..3$  ni va uchinchi to'ldirgichiga vektor  $x$  ifoda kiritiladi (4.13-rasm). Funksiyaning qiymatlari mos ravishda vektorning elementlari bo'lish uchun vektor indeksi **m+1** orqali o'zgartirishimiz lozim. Natijani olish uchun oxirgi to'ldirgichga vektor  $x$  ni kiritamiz. Vektorlar elementlarining indeksi **0** dan boshlanganligi uchun birinchi element qiymati **0** teng.

Agar takrorlash jarayoni tugamasdan dasturdan chiqish va keyingi qadamga o'tish kerak bo'lib qolsa u holda **break** va **continue** operatorlaridan foydalanish mumkin.

#### 4.6. MathCAD va boshqa dasturiy ta'minotlar bilan o'zaro bog'liqligi.

MathCAD dasturidagi ma'lumotlardan boshqa dasturlar bilan ushbu bo'limda MathCAD dasturining boshqa dasturiy vositalar, jumladan Microsoft Word va Excel bilan ma'lumot almashinish usullarini korib o'tamiz.

**MathCAD va Microsoft Word.** MathCAD dasturidan biror ma'lumotni Microsoft Word ga ko'chirish uchun matematik va izohli sohani belgilab **Edit/Copy** tanglang yoki **Ctrl+C** buyrug'i tanlanadi hamda Microsoft Word dasturidagi kerakli joyga nusxa kochiriladi (Вставит yoki **Ctrl+V**).

**MathCAD va Microsoft Excel.** Berilganlarni MS Exceldan MathCADga o'tkazishning bir necha turlari mavjud. Ma'lumotlarni MS Exceldan o'tkazishdan avval har doim MS Exceldagи faylni saqlab olish tavsiya etiladi.

Скриншот Microsoft Excel с таблицей из 36 строк. Таблица имеет три столбца: А (дни), В (температура) и С (влажность). Данные показывают повторяющийся цикл из 18 дней, с перерывом в 2 дня между циклами. Формула в строке формул: =A1:A36.

	A	B	C
1	кун айларни (саатларда)	жаво тэмператураси	жаво босим
2	0	2,2	77,6
3	2	3,1	77,4
4	4	5,6	77,2
5	6	9	77
6	8	12,3	76,8
7	10	14,8	76,7
8	12	15,7	76,5
9	14	14,8	76,6
10	16	12,3	76,7
11	18	9	77
12	20	5,6	77,2
13	22	3,1	77,40
14	24	2,2	77,6
15	26	3,70	77,5
16	28	8,00	76,9
17	30	13,9	76,4
18	32	19,7	76,4
19	34	24	76,2
20	36	25,6	76,1
21			

#### 4.14- rasm: Ma'lumotlarni MS Exceldan MathCADga o'tkazish.

Masalan bizlarga bir yarim kun davomida xavoning harorati va bosimi vaqt davomida berilgan va MS Excelga kiritilgan bo'lsin. Ish-dan maqsad, ma'lumotlarni Exceldan MathCADga ko'chirish. Buning uchun quyidagilar bajariladi:

- Barcha ma'lumotlarni birgalikda belgilab nusxa olinadi;
- MathCADda biror o'zgaruvchini tanlanadi(masalan  $t$ ) va unga o'zlashtirish operatori (=) qo'llanadi, natijada hosil bo'ladi va Вставка buyrug'ini yoki **Ctrl+V** orqali ma'lumotlarning nusxasi ko'chiriladi va natijada  $t$  nomli vektor yoki matritsa yaratiladi (4.14-rasm)

### Eslatma:

- matritsa elementlarining tartib raqami 0 dan boshlanadi;
- kasrli sonlar qo'shtirnoq ichida ko'rsatiladi.

Matritsa elementlariga murojaat qilish uchun matritsa panelidagi Xn belgisi yoki [ ni matritsa nomidan keyin qo'yib indeks hosil qilamiz va matritsa elementini aniqlaymiz.


MathCADdan MS Excelga ko'chirish. Endi avval bajargan misolimizni teskarisini bajaraylik. MathCADda t matritsa berilgan bo'lsin:

vektor yoki matritsa belgilanadi va nusxa olinadi(4.15-rasm);

ВставкаНастройка→Данные→Таблица buyrug'i tanlanganda oyna ochiladi va jadvalga nom beriladi (masalan s) va 0 chi satr va ustun belgilab turib sichqonchaning o'ng tugmasini bosib "Вставить таблицы" buyrug'i tanlanadi (4.16- rasm).

Jadvalning markerlari yordamida barcha ma'lumotlarni ko'rindigan qilib olamiz (jadvalda satirlar va ustunlarning raqamlari 0 dan boshlanadi, 4.17-rasm);

c :=		
	0	1
0		0
1		



A screenshot of Microsoft Excel showing a table with data. The table has columns labeled 't' and 'x'. The data rows are as follows:

t	x
0	12,2°
2	3,1°
4	5,6°
6	9
8	12,3°
10	14,8°
12	15,7°
14	14,8°
16	12,3°
18	9
20	5,6°
22	3,1°
24	12,2°
26	13,7°
28	18,9°
30	13,9°
32	19,7°
34	24
36	25,6°

4.15- rasm:

MathCADda  
matritsaning ko'rinishi

4.16-rasm: MathCADda t matritsani shablonga o'tkazish.

- Jadvalning kerakli yoki bar-  
cha ma'lumotlarini belgilaymiz,  
sichqonchaning o'ng tugmasini  
bosib "Копировать выделенное"  
buyrug'i orqali nusxa olamiz.

MS Excel muhitini ochib matritsa ustunlar soniniga teng ravishda katakchalarini belgilaymiz va *Ctrl+V* orqali ma'lumotlar nusxasini o'rnatamiz. Natijada ma'lumotlar MS Excel muhitiga o'tadi(4.17- rasm:).

#### *Eslatma:*

- ba'zi bir katakchalar formatimos kelmasligi mumkin, bu holda "Формат ячейки" oynasi orqali "Общий" formatga o'tkazish kerak.

Eng sodda usuli:

- matritsa elementlarini belgilab nusxa olamiz;
- MS Excelga *Ctrl+V* orqali joylashtiramiz.

	0	1	2
0	0	"2,2"	"77,6"
1	2	"3,1"	"77,4"
2	4	"5,6"	"77,2"
3	6	9	77
4	8	"12,3"	"76,8"
5	10	"14,8"	"76,7"
6	12	"15,7"	"76,5"
7	14	"14,8"	"76,6"
8	16	"12,3"	"76,7"
9	18	9	77
10	20	"5,6"	"77,2"
11	22	"3,1"	"77,40"
12	24	"2,2"	"77,6"
13	26	"3,70"	"77,5"
14	28	"8,00"	"76,9"
15	30	"13,9"	"76,4"
16	32	"19,7"	"76,4"
17	34	24	"76,2"
18	36	"25,6"	"76,1"

#### **4.16-rasm: Markerlar orqali kengaytirilgan shablon.**

код	номер	имя	цена	штук	бюджет
1					
2	0	2,2	77,6		
3	2	3,1	77,4		
4	4	5,6	77,2		
5	6	9	77		
6	8	12,3	76,8		
7	10	14,8	76,7		
8	12	15,7	76,5		
9	14	14,8	76,6		
10	16	12,3	76,7		
11	18	9	77		
12	20	5,6	77,2		
13	22	3,1	77,40		
14	24	2,2	77,6		
15	26	3,70	77,5		
16	28	8,00	76,9		
17	30	13,9	76,4		
18	32	19,7	76,2		
19	34	24	76,1		
20	36	25,6	76,3		

#### **4.17- rasm: Belgilangan ma'lumotlarni MathCADdan MS Excelga o'tkazish.**

#### **4.7. Nazorat savollari.**

1. MathCAD dasturi haqida ma'lumot bering.
2. MathCAD dasturi oynasi va uskunalar panellari haqida ma'lumot bering.
3. MathCAD dasturida funksiyalardan foydalanish.
4. MathCAD dasturida tenglamalar ildizlarini topish.
5. MathCAD muhitida tasvir, grafiklar va dasturlash operatorlari.
6. MathCAD muhitida funksiya grafigini qurish.
7. MathCAD muhitida dasturlash imkoniyatlari.
8. MathCAD dasturida shart operatorlaridan foydalanish.
9. MathCAD dasturida takrorlash (sikl) opreratorlari.
10. MathCAD va boshqa dasturiy ta'minotlar bilan o'zaro bog'liqligi.

#### **4.8. Quyidagi berilgan matematik ifodalarni MathCAD dasturida yeching:**

Nº	Funksiya	Qiymatlar
1.	$y = 2 \cos\left(x - \frac{\pi}{6}\right)$	$x=1.57$
2.	$y = \frac{z^3}{3-z^2/5}$	$z=1$
3.	$a = 0.5 + \sin^2 y$	$y=1$
4.	$a = \sqrt[3]{8 +  x - y ^2 + 1}$	$x=3; y=1$
5.	$b = x^2 + y^2 + 2$	$x=3; y=1$
6.	$a = \frac{1 + \sin^2(x + y)}{\left  \frac{2y}{1 + x^2 y^2} \right }$	$x=3; y=1$
7.	$b = x^{  \sin y + \cos y  }$	$x=3; y=1$
8.	$w =  \cos x - \cos y ^{(1+2 \sin z )}$	$x=3; y=1$
9.	$y = \left( 1 + z + \frac{z^2}{2} + \frac{z^3}{3} + \frac{z^4}{4} \right)$	$z=1$

10.	$b = \sqrt{10(\sqrt{x} + x^{1/2})}$	x=3; y=1
11.	$a = 5x - \frac{1}{4} \cos x$	x=2
12.	$a = \sqrt[3]{e^{x-1} \sin z}$	x=3; z=1
13.	$c = \cos y - \frac{z}{(y-x)}$	x=3; y=1; z=-4
14.	$b = y^{\sqrt{ x }}$	x=3; y=8
15.	$a = \frac{\sin^2 z}{\sqrt{x+y}}$	x=3; y=1; z=3.14;
16.	$a =  x  + \frac{1}{y^2+1}$	x=2, y=5
17.	$d = 2^{(y^x)} + (3^x)^y$	x=2; y=2
18.	$s = y + \sqrt[3]{x-1}$	x=3; y=3
19.	$f = (x+1)^{-1/\sin z}$	x=3; z=1.57
20.	$b = 1 + \frac{z^2}{3+z^2/5}$	z=4
21.	$b = \cos^2(\frac{1}{z})$	z=0.5
22.	$f = 1 + \sin^2(x+y)$	x=3; y=4
23.	$b = x(z - e^{(x-y)})$	x=2; z=3

## **V BOB**

### **MUHANDISLIK JARAYONLARIDA MATLAB DASTURIDAN FOYDALANISH**

5.1.	MATLAB dasturi haqida asosiy tushuncha
5.2.	Matlab dasturining asosiy xususiyatlari
5.3.	MATLAB dasturidan muhandislik hisoblashlarida foydalanish
5.3.1.	MATLABda elementar algebraik funksiyalar
5.3.2.	MATLAB da matematik ifodalar ustida shakl almashtirishlar
5.3.3.	MATLAB tizimida massiv, matritsalar bilan ishlash
5.4.	MATLAB tizimida dasturlash imkoniyatlari. M-fayllar bilan ishlash
5.5.	MATLAB da grafiklar bilan ishlash
5.5.1.	Funksiyalarning ikki o'lchamli grafiklarini qurish.
5.6.	MATLAB dasturining Simulink paketi bilan tanishish
5.7.	Kimyo injeneringida Matlab dasturidan foydalanish
5.7.1.	Kimyo texnologiyasida teskari tomonlama masalalarni yechish
5.8.	Amaliy mashg'ulotni bajarish uchun topshiriq variantlari

## **5.1. MATLAB dasturi haqida asosiy tushuncha**

MATLAB tizimi – kompyuterda turli yo‘nalishdagi: matematika, fizika, mexanika, texnologik jarayonlar boshqaruvi va muhandislik masalalarini yechish, turli xil energetik, mexanik va dinamik tizimlarni modellashtirish, loyihalash, tavsiflash va tahlil qilish masalalarining aniq, tez va samarali hal etish uchun mo‘ljallangan tizim va turli xil soha foydalanuvchilarga mo‘ljallangan dasturlash tilidir.

MATLAB tizimi dasturlash tili sifatida 1970-yillarning oxirida professor Kliv Mouler (Clive Mouler) tomonidan yaratilgan. Tez orada bu til amaliy matematika sohasidagi olimlar tomonidan iliq kutib olinib, ommalashib ketdi. Internet yaratilguncha, MATLAB dasturining versiyalari Fortranda yozilgan bo‘lib, ochiq kodga ega edi. The MathWorks firmasi tashkil etilganidan C dasturlash tilida kutubxonalar rivojlanтирildi. MATLAB atamasi inglizcha Matrix Laboratory so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, matriksa laboratoriysi degan ma’noni anglatadi. MATLABda matematik hisoblashlar va modellash algoritmlarini yaratish, ma’lumotlarni tahlil, tadqiq qilish hamda vizuallashtirish, ilmiy va muhandislik grafikasi va ilovalarni loyihalash va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin.

MATLAB yordamida aniq masalalarni yechish boshqa skalyar dasturlash tillaridagiga (masalan, C++) nisbatan bir necha marta tez bajariadi. MATLABning boshqa dasturlash tillaridan farq qiluvchi xususiyati shuki, u o‘z ishida ma’lumotlarni matriksalar shaklida tashkil etish usulidan foydalaniladi.

MATLAB tizimi ikkita katta qismlardan tashkil topgan: MATLAB yadrosi va qo‘srimcha kutubxonalar (yoki “toolboxes” – “asboblar majmualari”). MATLAB yadrosi asosiy funksiyalarni va umummo‘ljallangan amallarni ta’minlaydi. Kutubxonalar esa maxsus ixtisoslashgan funksiyalarni saqlaydi va bu ixtisoslashgan funksiyalar foydalanuvchilarga qatiy aniqlangan sohada hisoblashlarni va ma’lumotlarni qayta

**ishlash** imkoniyatini beradi. MATLAB Toolboxlari funksiyalarning **ma'lum** maqsadga ko'ra yig'ilgan tizimli majmuasi bo'lib xususiy masalalarni yechish uchun xizmat qiladi.

Keyingi yillarda loyihachilar matematik tizimlarning integratsiyalashuviga va ulardan birgalikda foydalanishga katta e'tibor bermoq-dalar. Murakkab matematik masalalarni bir necha tizimlar yordamida yechish eng yaxshi va mos vositalarni tanlash imkoniyatini beradi, shuningdek, olinadigan natijalarning ishonchliligini orttiradi.

Foydalilanuvchi tizimning hisoblash tarkibi M-fayl matnli formatiga ega bo'lganligi sababli unga har qanday yangi buyruqni, operatorni yoki funksiyani kiritishi mumkin. Keyin undan biriktirilgan funksiya yoki operator kabi foydalana oladi. Bunda Basic, C yoki Paskal das-turlash tillaridan farqli ravishda yangi funksiyalarni e'lon qilish shart emas. Bu jihatdan MATLAB Logo va Fortran tillariga o'xshash, lekin MATLABda yangi ma'lumotlar fayl ko'rinishida diskda saqlanishi sababli operator va funksiyalar soni amalda chegaralanmagan. MATLAB muhitida ishlaganda foydalananuvchi avvalroq yaratilgan va diskda saqlab qo'yilgan ma'lumotlarni (o'zgaruvchilarni), hamda joriy seansda diskdagи fayllarda yaratilgan ma'lumotlar yozuvlarini ishchi oynaga yuklash imkoniyatiga egadir. Tizimning tayanch so'zlar to'plamiga maxsus belgilar arifmetik ishoralar va mantiqiy amallar, arifmetik, algebralik, trigonometrik va boshqa maxsus funksiyalar, Furening tezkor o'zgartirish funksiyalari va filtrlash, vektor va matritsaviy funksiyalar, kompleks sonlar bilan ishlash uchun vositalar, Dekart va qutbli koordinatalar tizimlarida grafiklar qurish uchun operatorlar, uch o'Ichamli sirtlar va boshqalar kiradi. Umuman olganda, MATLAB tayyor vositalarning katta to'plamini taqdim etadi (ularning katta qismini – m-fayllar ko'rinishidagi tashqi kengaytmalar tashkil etadi).

Asosiy tushuncha "bajarish orqali o'rghanish" hisoblanadi. Shu sababli o'rghanishning eng yaxshi yo'li foydalananuvchining o'zi harakat qilishidir. MATLAB buyruqlarining o'rGANISHiga asosiy yo'l bu missollar orqali o'rghanish hisoblanadi. Ushbu mavzuda MATLAB qayda-rajada tenglamalar va matematik hisoblashlarning boshqarilishi yoki bajarilishi mumkinligi to'g'risida aytib o'tilgan.

MATLAB yuqori darajali dasturlash sifatida uchta asosiy konsepsiyasini ilgari suradi:

- protsedura funksiya modullarini yaratishga asoslangan protsedurali modulli dasturlash;
- obyektga yo‘naltirilgan dasturlash;
- Foydalanuvchi grafikli interfeys yaratish uchun mo‘ljallangan vizual yo‘naltirilgan dasturlash.

Texnikaviy muammolarni yechishda MATLAB dasturi boshqa odatiy kompyuter dasturlari bilan qiyoslaganda juda ko‘p ustunligi mavjuddir. Bu amaliy dasturiy paket 1984-yildan beri ishlatalib, hozirda u ko‘pgina ilmiy tadqiqot muassasalar va oliy o‘quv yurtlarda standart vosita hisoblanadi.


**Tizimning so‘nggi versiyalari matematik immitatsion modellashtirish natijalarini tezkorlik bilan olish uchun 64 razryadli va ko‘p yadroli mikroprotsessorrarni talab qiladi.**

## 5.2. MATLAB dasturining asosiy xususiyatlari

MATLAB tizimi bilan keng tarqalgan matematik tizimlar (Mathcad, Maple va Mathematica) bilan integrallashuvi mumkin. Matematik hisoblash tizimlarni zamonaviy matnli protsessorlar bilan birlashtirishga intilish ham mavjud. Masalan, MATLAB yangi versiyalarining vositasi – matn protsessorlarida tayyorlanayotgan hujjatning kerakli joylariga MATLAB hujjatlari va sonli, jadval yoki grafik ko‘rinishdagi hisoblash natijalarini qo‘yish imkoniyatini beradi. Natijada “jonli” elektron kitoblarni tayyorlash mumkin. Ularda namoyish qilinayotgan misollarni operativ tarzda o‘zgartirish imkoniyati mavjud. Masalan, boshlang‘ich shartlarni o‘zgartirib, masalani yechish natijalarining o‘zgarishini kuzatish mumkin. MATLAB da grafiklarni Microsoft PowerPoint-slaydlariga eksport qilishning takomillashgan vositalari ham ko‘zda tutilgan.

MATLAB da tizimni kengaytirish masalalari maxsus kengaytirish paketlari - *Toolbox* asboblar to‘plami yordamida hal qilinadi. Ularning ko‘plari boshqa dasturlar bilan integratsiyalashuv uchun maxsus vositalarga ega. MATLAB tizimi bloklar ko‘rinishida berilgan, dinamik tizim va qurilmalarni modellash uchun yaratilgan Simulink dasturiy

tizimi bilan ham integratsiyalashgan. Vizual-yo'naltirilgan dasturlash prinsiplariga asoslangan Simulink murakkab tizimlarni yuqori aniqlikda modellash imkoniyatini beradi.



**5.1-rasm. Matlab dasturi asosiy oynasi**

**MATLABni ishga tushirish.** MATLAB dasturi o'rnatilgandan so'ng, kompyuter ishchi stoli oynasidan MATLAB belgisi ustiga ikki marta bosiladi. MATLABni ishga tushirganda, yangi oyna ochiladi. Kompyuter ish stoli oynasida boshqa dasturlarning oynalari joylashadi. Dastur ish stolining asosiy ish qurollari quyidagilar:

- *Command Window* (buyruq oynasi);
- *Command History* (buyruqlar tarixi);
- *Workspace* (ishchi oyna);
- *Current Directory* (joriy papka joylashuvi);
- *Help Browser* (yordam brauzeri);
- *Start button* (start tugmasi);

Dastlabki holatda, MATLAB ishga tushirilganda, muloqot oynasi 4.1-rasmdagi kabi bo'ladi. MATLAB ish oynasining boshqa ko'rinishlari ham mavjud. Oynalar joylashishi va o'lchamini ixtiyoriy ravishda o'zgartirish imkoniyati mavjud.

MATLAB tizimining asosiy oynasi quyidagicha ko'rinishda bo'lib, quyidagi bo'limlardan iborat:

1. Sarlavha satri;
2. Asosiy menyular satri;
3. Uskunalar paneli;
4. Ishchi oyna;
5. Buyruqlar oynasi;
6. Buyruqlar tarixi oynasi;

Dasturning asosiy menyular satri quyidagi menyulardan iborat:

- File (Fayl)
- Edit (Tahrirlash)
- Debug
- Parallel
- Desktop
- Window
- Help

MATLAB ning asosiy ishchi varag'i asosan uch qismga bo'linadi:

1. Buyruqlarni oynasi - buyruqlar satridan tashkil topgan. Har bir buyruq satri >> belgisi (bu belgi avtomatik tarzda buyruqlar satrining boshida bo'ladi va uni yozish shart emas) bilan boshlanadi;
2. Natijani chiqarish maydoni - kiritilgan buyruqlarni qayta ishlanganidan so'ng hosil bo'lgan ma'lumotlar (analitik ifodalar, natijalar va xabarlar) ni o'z ichiga oladi;
3. Matnli izohlar maydoni- ro'y bergan xatoliklar yoki bajarilgan buyruqlarga izohlar, turli xarakterdagi xabarlar.


MATLAB dasturining buyruqlar satrida buyruqlar Enter tugmasini bosish (bir marta) orqali amalga oshiriladi.

*Toolboxlar* muayyan sohaning masalalarini yechishga mo'ljallangan tizim qismi bo'lib, dastur versiyasiga qarab to'ldirilib borilgan (4.2-rasm).

Foydalanuvchi tomonidan MATLAB dasturini besh qismga ajratgan holda o'rGANilishi mumkin:

1. MATLAB dasturlash tili;
2. MATLAB muhiti;

3. boshqariluvchi grafika;
4. matematik funksiyalar kutubxonasi;
5. dasturiy interfeys;



## 5.2-rasm. MATLAB tizimining Toolboxlari.

**MATLAB dasturlash tili.** MATLAB dasturlash tilida boshqa turda-  
gi dasturlash tillari kabi lotin alifbosining barcha katta va kichik harf-  
lari, 0 dan 9 gacha arab raqamlaridan foydalaniлади. Katta va kichik  
harflar, xuddi C++ dasturlash tilidagidek, ham o'zgaruvchi sifatida,  
ham o'zgarmas sifatida bir-biridan farq qiladi. Lotin alifbosi harflari-  
dan tashqari, klaviaturadagi barcha maxsus belgilardan foydalaniлади.

O'zgaruvchi nomi nechta va qaysi turdagи belgi yoki belgilardan  
iborat bo'lishidan qat'iy nazar, lotin harflaridan boshlanib, 63 ta bel-  
gidan oshmasligi shart. Katta va kichik harflar bir-biridan farq qiladi.  
Agar buyruqlar satrida o'zgaruvchi nomi yozilmay bajarilsa, buyruq  
natijasi maxsus *ans* (inglizcha *answer-javob*) o'zgaruvchisi orqali beri-

ladi. Ishchi oynadagi o'zgaruvchilar haqidagi ma'lumotlarni *who* yoki *whos* buyruqlari orqali ko'rish mumkin.

MATLAB da barcha ma'lumotlar matritsa yoki massiv ko'rinishida ("MATLAB" so'zi inglizcha "Matrix Laboratory", ya'ni "Matritsali Laboratoriya" so'zlarining qisqartirilgan ifodasidir) tasvirlanadi. Hattoki, skalyar o'zgaruvchilarni umumiyl holda  $1 \times 1$  o'lchovli massiv(matritsa) deb qarash qabul qilingan. Shuning uchun ham massiv va matritsalar ustida ishlash, MATLAB da samarali ishslashda muhim ahamiyatga ega.

**Massiv** – bir turdag'i ma'lumotlarning raqamlangan va tartiblangan to'plamidir. O'zgaruvchilar to'plangan massivning nomi bo'lishi shart. Massivlar o'lchovi yoki o'lchami bilan (bir o'lchovli, ikki o'lchovli, ko'p o'lchovli) bir-biridan farq qiladi. Massiv elementlariga murojaat qilish indekslar orqali amalga oshriladi. MATLAB da massiv elementlarini raqamlash birdan (1) boshlangani uchun indekslari birga teng yoki katta bo'ladi.

**Oddiy arifmetik amallar.** MATLAB da arifmetik amallar yetarli-cha kengaytirilgan, hamda matritsaviy va arifmetik amallarni o'z ichiga oladi. Quyida arifmetik va matritsaviy amallar keltirilgan:

### 1) O'zgarmaslar:

T.r.	O'zgarmaslar	O'zgarmaslarning nomlanishi
	<b>Pi</b>	$\pi$ soni
	<i>i</i> yoki <i>j</i>	kompleks son
	<b>Inf</b>	cheksizlik
	<b>NaN</b>	$\frac{0}{0}$ ko'rinishdagi aniqmaslik
	<b>True</b>	mantiqiy rost
	<b>False</b>	mantiqiy yolg'on

## 2) Arifmetik amallar:

T.r.	Arifmetik amal belgilari	Arifmetik amallarning nomlanishi
	+	Qo'shish (skalyar yoki matritsaviy)
	-	Ayirish (skalyar yoki matritsaviy)
	*	Ko'paytirish (skalyar yoki matritsaviy)
	/	Bo'lish (skalyar)
	^	Darajaga ko'tarish (skalyar yoki matritsaviy)
	.*	Massiv mos elementlari bo'yicha ko'paytirish
	./	O'chovlari bir xil massiv mos elementlari bo'yicha bo'lish
	.^	Massiv mos elementlari bo'yicha darajaga ko'tarish
	\	Matritsaviy chapdan o'ngga bo'lish
	.\	Massiv mos elementlari bo'yicha chapdan o'ngga bo'lish
	'	Qo'shma matritsani hisoblash
	.'	Transponerlash

MATLAB da matematik ifodalar ma'lum bir bajarilish tartibiga asosan bajariladi. Avval mantiqiy amallar, so'ngra arifmetik amallar: avval daraja, keyin ko'paytirish va bo'lish, undan keyin esa qo'shish va ayirish bajariladi. Agar ifodada qavslar bo'lsa, avval qavs ichidagi ifoda yuqoridagi tartibda bajariladi.

## 3) Munosabat amallari:

T.r.	Operator (sintaksis)	Amal belgilari nomlanishi
	=; (x==y)	Teng
	~ =; (x~=y)	Teng emas
	<; (x<y)	Kichik
	>; (x>y)	Katta
	<=; (x<=y)	Kichik yoki teng
	>=; (x>=y)	Katta yoki teng

#### 4) Mantiqiy amallar:

T.r.	Operator (sintaksis)	Amal belgilari nomlanishi
	<b>&amp;; and (and(a,b))</b>	va
	<b> ; or (or(a,b))</b>	yoki
	<b>~ ; not (not(a,b))</b>	inkor
	<b>xor (xor(a,b))</b>	
	<b>any (any(a))</b>	
	<b>all (all(a))</b>	

MATLAB dasturida qaydni osonlashtirish uchun >> ko'rsatkichini, garchi MATLAB versiyasi ta'lif maqsadlarida bo'lishiga qaramasdan standart ko'rsatkich sifatida ishlatalidi.

### 5.3. MATLAB dasturidan muhandislik hisoblashlarida foydalanish

#### 5.3.1. MATLABda elementar algebraik funksiyalar

MATLAB bir nechta mustaqil sohaviy hisoblashlarga ixtisoslashgan bo'limlardan tuzilgan yaxlit tizim sifatida ishlatalganligi sababli, matriksaviy hisoblashlar dinamik tizimlar va obyektlarning holat tenglamalarini avtomatik ravishda tuzish va yechishning asosi bo'lib hisoblanadi. Bunga MATLABning kengaytmasi Simulink misol bo'lishi mumkin. MATLAB tizimining vazifasi har xil turdag'i masalalarni yechishda foydalanuvchilarni an'anaviy dasturlash tillariga nisbatan afzalliklarga ega bo'lgan va imkoniyatlari keng modellash vositalari bilan ta'minlashdir. MATLAB ochiq axitekturaga ega bo'lganligi sababli mavjud funksiyalarni o'zgartirish va yaratilgan xususiy funksiyalarni qo'shish mumkin.

5.1-jadval

Elementar funksiya	Tavsifi
<b>sqrt(x)</b>	Kvadrat ildizni hisoblash
<b>exp(x)</b>	e sonini x darajaga ko'tarish
<b>pow2(x)</b>	2 ning x darajasini hisoblash
<b>log(x)</b>	natural logarifmni hisoblash
<b>log10(x)</b>	o'nli logarifmni hisoblash

<b>log2(x)</b>	2 asosga ko‘ra logarifmni hisoblash
<b>sin(x)</b>	$x$ radian burchakning sinusini hisoblash
<b>cos(x)</b>	$x$ radian burchakning kosinusini hisoblash
<b>tan(x)</b>	$x$ radian burchakning tangensini hisoblash
<b>cott(x)</b>	$x$ radian burchakning kotangensini hisoblash
<b>asin(x)</b>	arcsin(x)
<b>acos(x)</b>	arccos(x)
<b>atan(x)</b>	arctg(x)
<b>Pi</b>	pi soni
<b>round(x)</b>	yaqin butun songa yaxlitlash
<b>fix(x)</b>	sonning butun qismini hisoblash
<b>floor(x)</b>	sonning quyi butun qismigacha yaxlitlash
<b>ceil(x)</b>	sonning yuqori butun qismigacha yaxlitlash
<b>mod(x,y)</b>	$x$ sonini $y$ ga bo‘lingandagi qoldiqni hisoblash
<b>factor(x)</b>	sonni tub ko‘paytuvchilarga ajratish
<b>isprime(x)</b>	agar tub son bo‘lsa, rost qiymat sifatida ko‘rsatish
<b>rand</b>	teng taqsimlanish qonunni bo‘yicha tasodifiy sonni generatsiyalash
<b>randn</b>	normal taqsimlanish qonunni bo‘yicha tasodifiy sonni generatsiyalash
<b>abs(x)</b>	sonning modulini hisoblash

MATLAB dasturiy tizimining buyruqlar oynasida foydalanuvchi murojaat qilishda standart buyruqlardan foydalanadi. Dasturda standart buyruqlarining umumiy ko‘rinishi quidagicha:

***buyruq (p1, p2.....);***

bu yerda, *buyruq* - buyruqning nomi, *p1, p2, ....* –buyruqning parametrлари.

Buyruq yozilgach natijani olish uchun (odatda MATLAB da buyruq oxirida nuqta vergul yoki ikki nuqta kabi belgilar qo‘yilmaydi) *Enter* tugmasini bosish (bir marta) yetarli. Har bir buyruq oxirida (;) belgisi bo‘lishi, buyruq bajarilsada, natijani ekranda namoyon etilmaslikni anglatadi va *Enter* tugmasi bosilganda jumlak qoidasiga asosan buyruq bajarilib, keyingi buyruqqa o‘tiladi. Bunda natija kompyuter xotirasida qoladi.

MATLAB dasturi avtomatik tarzda, hisob natijasini **ans** nomli argumentga tenglaydi, bu answer inglizcha yechim (javob) degan manoni bildiradi. Shuni e'tiborga olish kerakki **ans** argumenti faqat oxirgi nomsiz hisobning natijasini saqlaydi. Natija o'chib ketmasligi uchun, boshqa argument nom berishimiz mumkin. Misol uchun,

```
>> x=1+2*3
```

```
>> x=
```

7

Buyruqlarda (%) - foiz belgisi izohlarni yozish uchun xizmat qiladi. Agar buyruqlar qisqa bo'lsa, ularni bir qatorga vergul bilan ajratgan holda yozib bajariladi.

Agar kiritilayotgan buyruq yetarlicha uzun bo'lsa, u holda uch nuqta (...) qo'yilib, *Enter* ni bir marta bosish orqali keyingi qatordan davom ettiriladi.

MATLAB dasturi buyruqlarni *help <buyruq nomi>* buyrug'i bilan chaqirib olinishi mumkin. MATLAB ning asosiy amaliy buyruqlari maxsus kengaytirilgan paketlarida (kutubxonalar), ya'ni *Toolboxlarida* joylashgan bo'ladi.

**>>help rand**

MATLAB tizimi ma'lumotnomasida barcha Toolboxlar, ularning buyruqlari va ularni ishlatishga doir ayrim ko'rsatma hamda namunaviy misollar berilgan bo'lib, foydalanuvchini o'ziga kerakli bilimlarni mustaqil egallashida muhim ahamiyatga ega.

### **5.3.2. MATLAB da matematik ifodalar ustida shakl almashtirishlar**

MATLAB tizimi matematik standart funksiyalarni hisoblash bilan bir qatorda shakl almashtirishlarni ham amalga oshirish imkonini beradi. MATLAB da matematik ifodalar ustida shakl almashtirish jarayonida quyidagi amallarni bajarish mumkin:

- ❖ O'xshash hadlarni ixchamlash;
- ❖ Ko'paytuvchilarga ajratish;
- ❖ Qavslarni ochish;
- ❖ Ratsional kasrlarni qisqartirish va hokazo.

Bu turdag'i belgili hisoblashlarni bajarishdan oldin ifodadagi o'zgaruvchilar *syms* yordamchi buyrug'i (*syms* inglizcha "symbols", ya'ni "belgilari" so'zining qisqa ifodasi) orqali e'lon qilinadi. Masalan:

```
>> syms m n p q;
```

Ifodalarda qavslarni ochib, ularning hadlarini ixchamlash *expand(<ifoda>)* buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Masalan trigonometrik ifodalar uchun quyidagicha soddalashtirishni amalga oshirish mumkin:

```
>> syms x y
```

```
>> expand(cos(x + y))
```

```
>> ans =
```

$$\cos(x)\cos(y) - \sin(x)\sin(y)$$

Belgili ifodalarni ixchamlash uchun buyruqlar qatoriga quyidagicha kiritiladi:

```
>> syms x
```

```
>> p = (x - 2)*(x - 4);
```

```
>> expand(p)
```

```
>> ans =
```

$$x^2 - 6x + 8$$

Vektorli ko'rinishda berilgan ifodalar ixchamlanganda tizimning bergan javobi ham vektorli ko'rinishda bo'ladi.

```
>> syms t
```

```
>> V = [sin(2*t), cos(2*t)];
```

```
>> expand(V)
```

```
>> ans =
```

$$[ 2\cos(t)\sin(t), 2\cos(t)^2 - 1 ]$$

Ko'phadlarni ko'paytuvchilarga ajratish uchun esa *factor(<ifoda>)* buyrug'iidan foydalaniladi. Masalan:

```
>> syms x
```

```
>> F = factor(x^6 - 1)
```

```
>> F =
```

$$[ x - 1, x + 1, x^2 + x + 1, x^2 - x + 1 ]$$

Ifodalarni soddalashtirish *simplify(<ifoda>)* yoki *simple(<ifoda>)* buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Masalan:

```

>> syms x a b c
>> simplify(sin(x)^2 + cos(x)^2)
>> simplify(exp(c*log(sqrt(a+b))))
>> ans =
1
>> ans =
(a + b)^(c/2)

```

Ifodalar ustida shakl almashtirishlarda zarur bo'ladigan *collect*, *numden*, *horner*, *subexpr*, *subs* kabi bir qator buyruqlari mavjud.

Agar tenglama noto'g'ri kiritilsa, MATLAB xatolik xabarini chiqaradi. Misol uchun, quyidagida, ko'paytirish belgisi tushirib qoldirilsa, quyidagi tenglamada xatolik haqida tizim xatolik e'lonini namoyon etadi.

```

>> x = 10;
>> 20x
??? 20x

```

Error: Unexpected MATLAB expression.

Yuzaga kelgan xatolikni to'g'rilab kiritish uchun, tenglamani qaytadan kiritish mumkin. Agar tenglama uzun bo'lsa, foydalanuvchiga qiyinchilik tug'dirmasligi uchun oldingi kiritilgan tenglama yoki buyruq yuqoriga o'tish tugmasi  $\uparrow$  orqali chaqirilishi mumkin.

### **5.3.3. MATLAB tizimida massiv, matritsalar bilan ishlash**

MATLABda barcha ma'lumotlar matritsa yoki massiv ko'rinishida tasvirlanganligi uchun skalyar o'zgaruvchilarni umumiyl holda  $1 \times 1$  o'lchovli massiv (matritsa) deb qarash qabul qilingan. Massiv va matritsalar ustida ishlash, MATLAB da samarali ishlashda muhim ahamiyatga ega.

MATLAB tizimida massivlarning ustun-vektor, qator-vektor va matritsa ko'rinishlaridan foydalilanildi. Massivlarni kiritishda elementlar guruhi kvadrat qavslarga olinib yoziladi. Ustun-vektorning har bir elementi, ya'ni har bir qatori nuqtali vergul bilan ajratiladi.

Vektor - qatorning har bir elementi, ya'ni har bir ustuni vergul yoki bo'sh joy(probel) bilan ajratiladi. Ustun-vektorning har bir elementi, ya'ni har bir qatori nuqtali vergul bilan ajratiladi.

```
>> p=[1; 0; 8; 3]
```

```
a =  
1  
0  
8  
3
```

Qator-vektorning har bir elementi, ya’ni har bir ustuni vergul yoki bo‘sh joy (probel) bilan ajratiladi.

```
>> q=[1 2 3]
```

```
q =  
1 2 3
```

MATLAB dasturiga **nxn** o‘lchamli matritsanı kiritish uchun har bir qator tugaganida nuqtali vergul (;) qo‘yiladi.

```
>> d=[2 2 1; 5 2 1; 7 5 3]
```

```
d =  
2 2 1  
5 2 1  
7 5 3
```

Maxsus ko‘rinishdagi massivlarni quyida berilgan tartibda shakllantiriladi.

- ZEROS – nolli massiv shakllantirish. Bunda massiv elementlari 0 dan iborat bo‘ladi.
- ONES – elementlari 1 dan iborat bo‘lgan massiv shakllantirish.
- EYE – Birlik matritsanı shakllantirish;
- RAND – teng taqsimlanish qonuni bo‘yicha massiv elementlari ni shakllantirish;
- RANDN – normal taqsimlanish qonuni bo‘yicha massiv elementlarini shakllantirish;
- CROSS – vektor ko‘paytma;
- DIAG – matritsaning diagonali elementlarini ajratish;
- ROT90 – matritsanı 90 gradusga burish;
- RESHAPE – matritsa o‘lchamlarini almashtirish uchun foydalaniadi.

Kiritilgan massiv elementlariga murojaat qilish massiv nomi kiri-

tilgan indekslar orqali amalga oshriladi. Masalan:

```
>> m= [4; 3; 7];
```

```
>> m(2)
```

```
ans =
```

```
3
```

MATLAB da  $n \times n$  o'lchamli matritsaning determinantini hisoblash uchun **det** buyrug'iidan foydalilaniladi. Masalan:

```
>> f= [2 3; 4 7]
```

```
f =
```

```
2 3
```

```
4 7
```

```
>> det(f)
```

```
ans =
```

```
2
```

MATLAB da kvadrat ( $n \times n$ ) matritsalarning teskari matritsalarini hisoblash uchun **inv** buyrug'i ishlataladi. Masalan:

```
>> inv(f)
```

```
ans =
```

```
3.5000 -1.5000
```

```
-2.0000 1.0000
```


#### 5.4. MATLAB tizimida dasturlash imkoniyatlari. M-fayllar bilan ishlash

MATLAB dasturida dasturlash imkoniyatlarini amalga oshirishda dastur kodi tahrirlagichi sifatida tizim tarkibida bo'lgan M-fayl tahrirlagichdan foydalilaniladi. Buyruqlar oynasida murakkab bo'lgan hisoblashlarni amalga oshirishda qiyinchiliklar yuzaga kelishini inobatga olib, hisoblash dasturining alohida tahrirlagichda kiritilishi foydalanuvchiga qulaylik yaratadi.

MATLABda ikki turdag'i fayllar (kengaytirilgan \*.mat va \*.m) muhim ahamiyatga ega. Birinchisi binar (qo'sh) turdag'i fayllar bo'lib, ularda o'zgaruvchilarning qiymatlari saqlanadi. Ikkinchisi fayl o'zida matn fayllarini saqlab, ularda funksiya tizimi va buyruqlarni aniqlaydigan tashqi dasturlar mavjud. MATLAB yadrosini tashkil etgan asosiy

funksiya va buyruqlarning katta qismi aynan shu kengaytmaga tegishlidir.

Ko‘p darchali tahrirlagich – bo‘sh oynada *m-faylni* tahrirlash uchun buyruqlar qatoridan **Edit** buyrug‘ini yoki buyruqlar menyusidan **File > New > M-file** tanlanadi.



### 5.3-rasm. M – fayl tahrirlagich oynasi.

Shundan keyin tahrirlagich darchasida o‘z faylini yaratish mumkin, hamda o‘chirish va sozlash vositasidan foydalaniladi. Faylni o‘chirishdan oldin uni menu qatoridagi **File** menyusining **Save as** buyrug‘i orqali diskka yoziladi.


M-fayl tahrirlagichda tuzilayotgan dastur kodi uchun sintaktik tekrishish ishlataliladi. Bunda quyidagi rangli ajratishlar ishlataliladi:

- ❖ dasturlash tilidagi kalit so‘zlar – ko‘k rang;
- ❖ operatorlar, o‘zgarmas va o‘zgaruvchilar – qora rang;
- ❖ % belgidan keyingi sharh – yashil rang;
- ❖ belgili o‘zgaruvchilar (apostrofdagi) – jigar rang;
- ❖ sintaktik xatoliklar – qizil rang.

Dasturlash mobaynida rangli ajratish hisobiga sintaksis xatoliklar ehtimolligi keskin kamayadi.

M-fayl tahrirlagich orqali yaratilgan M-fayllar uch sinfga ajratiladi: kirish parametrlariga ega bo‘lmagan ssenariylar fayli, kirish parametri funksiyalar fayli va klass fayli. Ssenariylar fayli *script-fayl* deb nomlanib, buyruqlar qatorining chiqish va kirish parametrlarisiz yozuv bilan nomlanadi. Ssenariylar fayllar quyidagi strukturaga ega:

*% asosiy sharh*  
*% qo ‘shimcha sharh*



```
Editor - Untitled*
```

```
File Edit Text Cell Tools Debug Desktop Window Help
```

```
script
```

```
1 % Plot pardamida qizil rangli grafik chiqarish
2 % grafik ketaiki bo‘lib, (xmin va xmax) oraliqda chiqadi
3 x=xmin:0.1:xmax;
4 plot(x,sin(x), 'r');
5 grid on
```

```
Ln 5 Col 8 OVR
```

#### 5.4-rasm. MATLABda ssenariy- fayl yaratish.

Ssenari – fayllarining asosiy xossalari sifatida quyidagilarni kelтирish mumkin:

- ❖ u kirish va chiqish argumentlariga ega emas;
- ❖ ishchi maydondagi ma’lumotlar bilan ishlaydi;
- ❖ bajarish jarayonida kompilyatsiya qilinmaydi;
- ❖ Joriy sessiyada ishtirok etayotgan to‘la o‘xshash amallar ketma- ketligini fayl ko‘rinishida ifodalaydi.

M-funksiyalar MATLAB Toolboxlarida mavjud bo‘lmagan biror funksiyani yaratish, tizim imkoniyatlarini kengaytirish va foydalanuvchi uchun qulay hisoblash funksiya buyruqlari kutubxonasini shaklantirish uchun tuziladi. M-funksiyalarda ssenariy fayllardan farqli ravishda funksiya nomi kiritiladi. Masalan,

function y=almashtirish(n)

% funksiya radiandan gradusga almashtiradi.

k=n\*180/pi;

y=k;

end

Ushbu funksiyani saqlab, buyruqlar qatorida funksiyaga murojaat qilish mumkin.

MATLABda mavjud bo‘lmagan funksiya yoki hisoblash algoritmlarni foydalanuvchi o‘zi tuzib, ularni mos Toolbox larga yoki yangi papkaga yig‘ib, yangi dasturlar kutubxonasini yaratishi tizim imkoniyatlarini yanada oshishini bildiradi. MATLAB ning so‘nggi versiyalarda obyektga yo‘naltirilgan dasturlash uchun **klasslardan** foydalaniлади.

Har bir klass *m-script* va *m-function* kabi alohida faylga saqlanadi. Dastlab, klass uchun aniq nomdag'i nom berilishi zarur. Klasslarda tuzilayotgan dastur xususiyatlari (maydoni, o‘zgaruvchilar - properties), usullari (funksiya - methods) va hodisalar (events) kiritiladi.

```
classdef yangiklass
```

```
    properties % xususiyatlar – obyekt maydoni-klasslar soni
```

```
    end
```

```
    events % hodisalar – ushbu klassda sodir bo‘ladigan hodisalar  
    soni
```

```
    end
```

```
    methods % usullar – klassni ifodalaydigan funksiyalar
```

```
    end
```

Yaratilayotgan klass faylda kiritiladigan xususiyat, hodisa va usullar soni cheklanmaganligi sababli foydalanuvchi tomonidan istalgan miqdorda klass fayl kengaytirilishi mumkin.

**MATLAB dasturlash tilining operatorlari.** MATLAB dasturlash tilining operatorlari sifatida kiritish-chiqarish, o‘zlashtirish, **if-else** tarmoqlanish shart operatori, switch tanlash operatori, takrorlanish operatorlaridan foydalaniлади.

**Kiritish va chiqarish operatorlari.** Kiritish chiqarish operatorlari tuzilgan dasturda boshlang‘ich qiymatlarni kiritish va hisoblangan qiymat chiqarish uchun foydalaniлади.

Operator	Sintaksis	Mazmuni
INPUT	$x = \text{input}(' <\text{taklif}> ')$	Berilganlarni klaviaturna bilan kiritish
DISP	$\text{disp}(<\text{o'zgaruvchi eki apostrofda-}\text{gi matn}>)$	Displayga chiqarish

**Tarmoqlanish operatorlari.** Tarmoqlanish hisoblash jarayonlarini hosil qilish uchun shart operatorlaridan foydalilanadi. Shart operatorlarining umumiy konstruksiyasi quyidagicha:

```
if <shart>
    <operator 1>
    else
        <operator 2>
    end
```

Ushbu operator berilgan shart rost bo'lsa, tarmoqlanishdagi hisoblashlarni amalga oshiradi. Agar shart yolg'on bo'lsa, keyingi tarmoqlanish bo'limini tekshirib hisoblaydi.

Masalan,

```
function tarmoqlanish
x=input('x=');
if x>0
    disp(1); % agar x>0 bo'lsa bajariladi
elseif x<0
    disp(-1); % agar x<0 bo'lsa bajariladi
else
    disp(0); % agar x=0 bo'lsa bajariladi
end
```

**Switch tanlash operatori.** Yechimi aniqlanishi zarur bo'lgan ko'p tanlovlvi hisoblashlar uchun dastur tuzishda MATLAB dasturida tanlash operatoridan foydalilanadi. Tanlash operatori sintaksisining umumiy konstruksiyasi quyidagicha:

```
switch <ifoda>
```

```

% ifoda skalyar yoki qator ko'rnishida bo'lishi zarur
case <qiymat1>
<hisoblash>
% agar ifoda qiymat1 ni qabul qilsa, hisoblash bajariladi
case <qiymat2>
<hisoblash>
% agar ifoda qiymat2 ni qabul qilsa, hisoblash bajariladi
case <qiymat3>
<hisoblash>
% agar ifoda qiymat3 ni qabul qilsa, hisoblash bajariladi
otherwise
<hisoblash>
% ifoda hech qaysi qiymatni qabul qilmasa, hisoblash bajariladi
end

```

Tanlash operatori foydalanilgan ushbu misolni misol sifatida ko'rsatish mumkin.

```

function tanlash
x=input('Laboratoriya ishi raqami (1,4):');
switch x
    case 1
        disp('MATLAB da arifmetik amallar bajarish');
    case 2
        disp('Massivlar bilan ishlash');
    case 3
        disp('MATLAB da dasturlash esoslari');
    case 4
        disp('SIMULINK paketida sxemalar qurish');

otherwise disp('Laboratoriya ishi mavjud emas');
end

```

**Takrorlanish operatori.** MATLAB dasturida takrorlanish operatorlari berilayotgan shart va takrorlanishlar soniga qarab ikki turga bo'linadi:

1. Amallar soni noaniq bo'lgan takrorlanish operatori (*while... end*);

## 2. Amallar soni aniq bo‘lgan takrorlanish operatori (*for...end*).

MATLAB tizimida bajariladigan amallar soni noaniq bo‘lgan takrorlanish operatori hisoblanuvchi ifodani berilgan shartdan oldin kiritish zarur bo‘lganida ishlatalish mumkin. *while...end* operatori sintaksisi

```
while <ifoda>
```

```
<hisoblash>
```

```
end
```

Misol: 1 dan N gacha bo‘lgan natural sonlarning yig‘indisi hisoblansin.

```
function yigindi
```

```
N=input('N=');
```

```
S=0;
```

```
i=1;
```

```
while i<=N
```

```
S=S+i;
```

```
i=i+1;
```

```
end
```

```
disp(S);
```

```
end
```

*while...end* takrorlanish operatoridan chiqish uchun *break* operatoridan foydalanish mumkin.

Bajariladigan amallar soni aniq bo‘lgan takrorlanish operatorlari (*for...end*) hisoblanish jarayonida takrorlanishlar shartlari oldindan berish talab etilganida va parametrli takrorlanishlarda ishlataladi. Ushbu operatorning umumiy sintaktik konstruksiyasi quyidagicha ifodalanadi:

for <takrorlanish o‘zgaruvchisi> = <boshlang‘ich qiymat>:<qadam>: <oxirgi qiymat> <hisoblash>

```
end
```

Mazkur takrorlash operatorining amaliy tadbiqini ushbu misolda ko‘rish mumkin. Misol: Takrorlash operatoridan foydalaniib, 1 dan K gacha bo‘lgan natural sonlarning ko‘paytmasi hisoblansin:

```
function faktor
```

```
K=input('K=');
```

```

P=1;
i=1;
while i<=K
P=P*i;
i=i+1;
end
disp(P);
end


```

MATLAB dasturida foydalanuvchi grafikli interfeys bilan vizual dasturlash uchun maxsus GUIDE ilovasi mavjud. Bu dasturlash muhiti bilan ishlash yetarlicha oddiy bo'lib, boshqarish elementlari (tugmalar, belgilar, ro'yxatlar) ilova formasiga joylashtirilib, foydalanuvchi tomonidan dasturlanadi. Boshqarish elementlari, menu qatorlari, grafik elementlar va matnli ma'lumotlar tahrirlash oynasida xususiyatlar bo'limi va dastur kodida o'zgartiriladi.

Foydalanuvchi grafik interfeysida dastur ilovalar yaratish uchun ikki usuldan foydalaniladi:

- Buyruqlar oynasida *guide* buyrug'ini kiritish orqali;
- File menyusi orqali GUI yaratish orqali.

Ikki holatda ham GUI yaratish uchun muloqot oynasi ochiladi.




**5.5-rasm. GUIDE-ilova yaratish oynasi**


GUIDE bilan ishlash mobaynida GUI komponentlari GUIDE asboblar palitrasidan ishchi sohaga joylashtiriladi. GUIDE da GUI ikki fayl ko'rinishda (\*.fig va \*.m) saqlanadi. Ilova kodi esa m-fayl ko'rinishda avtomatik tarzda shakllanadi. Foydalanuvchi tomonidan dastur boshqarushi algoritmni m-fayl tahrirlagichda kiritiladi.

GUI tahrirlash oynasi menu, asboblar paneli, mavjud komponentlar to'plamlari, ishchi maydondan (Layout Area) iborat.

Komponent xususiyatini o'zgartirish uchun manipulyator yordamida o'lchami va joylashuvi o'zgartiriladi. Object Browser (obyektlar brauzeri) yordamida zaruriy obyekt tanlanib, obyekt inspektori (Object Inspector) chaqiriladi. **Property Inspector** yordamida komponentlar xususiyatlari (shrift, o'lcham, oraliq masofa, rang) tahrirlanadi.



5.6-rasm. GUI ilovasini tahrirlash



### 5.7-rasm. GUI tahrirlash oynasi

Har bir komponent alohida muayyan funksional vazifani bajaradi. Quyidagi jadvalda asosiy ishlataladigan komponentlar va ularning tavsifi berilgan.

5.3-jadval

### MATLAB da GUIDE komponentlari

<b>№</b>	<b>Komponent</b>	<b>Tavsifi</b>
1.	Push Button	Tugma. Tugmani bosish natijasida unga biriktirilgan harakat bajariladi.
2.	Toggle Button	O'chirish-yoqish tugmasi. Ushbu tugma bosilganida unga biriktirilgan vazifalardan biri amalga oshadi.
3.	Check Box	Mustaqil pereklyuchatel. Ushbu komponent ustida biror harakat amalga oshirilganida maxsus belgi paydo bo'лади. Mustaqil pereklyuchatelga biror harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligi о'rnatiladi.

4.	Radio Button	Nomustaql pereklyuchtel. Ikki yoki undan ortiq tanlovli harakatlardan birini tanlash zaruriyati mavjud hollarda foydalaniladi.
5.	Edit Text	Matn tahrirlagichi. Matnlarni kiritish va tahrirlash uchun foydalaniladi.
6.	Static Text	Statik matn. Tuzilayotgan ilovaga yozuv, belgi va nom-lanish kiritish uchun foydalaniladi.
7.	Slider	Qo‘zg‘aluvchi surgich. Surgich yordamida berilgan qiymatlarga tenglashtirish uchun berilgan diapozon oralig‘ida surilishini ta’minlaydi. Berilgan qiymat Static Text komponenti yordamida tuziladi.
8.	ListBox	Ro‘yxatlar to‘plami.
9.	Pop-Up Menu	Ishchi sohada joydan unumli foydalanish maqsadida foydalanilib, unga biriktirilgan harakat bajarilganida, ro‘yxatlar to‘plami ochiladi.
10.	Axes	Koordinatalar o‘qi. GUI ilovada grafiklar tuzishda foydalaniladi.
11.	Panel	Panel. Bir yoki bir nechta komponentlarni guruhlash uchun ishlataladi.
12.	Button Group	Tugmalar guruhi.

## 5.5. MATLAB da grafiklar bilan ishslash.

### 5.5.1. Funksiyalarning ikki o‘lchamli grafiklarini qurish.

MATLAB tizimida yirik o‘lchamdag‘i massivlarni tahlil qilish uchun hisoblashlarda grafik vizuallashtirish ishni osonlashtirishga xizmat qiladi. MATLAB tizimining grafik imkoniyatlari kengligi bilan boshqa amaliy dasturiy paketlaridan ustun turadi. Grafikni aniq ko‘rinishda shakllantirish foydalanuvchiga qiyinchilik tug‘dirmaydi. Masalan, o‘zgaruvchilar e‘lon qilishi va matematik kutubxonalar chaqirilishi kabi bosqichlarni bajarmasdan grafiklarni yuqori anqlikda tasvirlash mumkin.


```
x=0:0.01:2;
```

```
y=sin(x);
```

Ushbu buyruqlar berilgan argumentlar guruhi uchun sin funksiyasi yordamida massivni hisoblaydi.

```
plot(x,y);
```

Ushbu buyruq orqali kiritilgan va hisoblangan massiv elementlari guruhi orqali funksiyaning grafigi shakllanadi.



### 5.8-rasm. MATLABda shakllangan funksiya grafigi

MATLAB da grafik obyektlar Figure deb nomlangan maxsus grafik oynada akslantiriladi. Bir vaqtning o'zida bitta oynada bir yoki bir nechta grafiklarni ustma ust joylashtirish uchun plot buyrug'iiga barcha funksiyalarning shakllangan massivlari joylashtiriladi.

```
x=0:0.01:2;
```

```
y1=sin(x);
```

```
y2=cos(x);
```

```
plot(x,y1,x,y2);
```


Yuqorida keltirilgan grafiklarni bitta grafik oynada tasvirlashda funksiya va uning argumentlari diapozoni, massivi o'chami bir xil bo'lishi talab etiladi. Agar bir oynada koordinata o'qlarining turli diapozonlarida va massivning turli o'chamlarida ifodalash talab qilinsa, subplot maxsus buyrug'i orqali butun oynani qismlarga ajratishga to'g'ri keladi. Bu buyruq yordamida grafik ma'lumotni ajratilgan soha ga joylashtirish mumkin.

Misol uchun, sin, cos va exp funksiyalar yordamida grafiklarni subplot buyrug'i bilan alohida sohalarga ajratib, joylashtirishni ko'rib chiqish mumkin.

```
subplot(1,2,1); plot(x,y,x,z)
```

```
subplot(1,2,2); plot(x,w)
```

Keltirilgan buyruqlarni kiritish natijasida quyidagi ko'rinishdagi grafik oyna shakllanadi:



**5.9-rasm. Subplot buyrug'i  
yordamida grafiklarni sohalarga ajratish**


Ajratilgan sohalarning koordinata o'qlarida o'zgaruvchilarning o'zgarish diapozoni bir biriga bog'liq emas. **Subplot** buyrug'i uch sonli argumentlarni qabul qilib, birinchi son sohalar qatorining sonini ifodalaydi. Ikkinci son sohalarning ustunlari sonini, uchinchi son esa sohalar sonini belgilaydi. Agar o'zgaruvchilarning koordinata o'qlaridagi bog'liqligi nisbati keskin farq qilsa, grafikni semilogx, semilogy va loglog buyruqlari bilan logarifmik mashtabga o'tkazgan holda amalga oshirish mumkin. Shakllangan funksiyaning grafigini tahrir qilish (chiziqlar rangi va ko'rinishini o'zgartirish) uchun grafik chiqarish buyrug'iga ba'zi qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish zarur. Masalan,

$x=0:0.1:3;$

$y=\sin(x);$

$\text{plot}(x,y, 'r-', x, y, 'ko')$

Bu buyruq kiritilganidan so'ng diskret joylashtirilgan aylanachalardan iborat bo'lgan qizil uzluksiz chiziqli grafik shakllanadi.



5.10-rasm. MATLAB da shakllangan funksia grafigi..

Buyruqlarni kiritish mobaynida qo'llaniladigan grafik xususiyatlar belgilanishlari ushbu ro'yxatda batafsil ko'rsatilgan.

Rang beruvchi markerlar	
c	Havorang ( <b>cyan</b> )
m	Binafsharang ( <b>magenta</b> )
y	Sariq ( <b>yellow</b> )
r	Qizil ( <b>red</b> )
g	Yashil ( <b>green</b> )
b	Ko'k ( <b>blue</b> )
w	Oq ( <b>white</b> )
k	Qora ( <b>black</b> )
Chiziq turi bo'yicha	
-	Uzluksiz
--	Shtrix
:	Punktir
-.	Shtrix – punktir
Diskret nuqta turi	
.	Nuqta
+	Plyus
*	Yulduzcha
O	Aylana
X	Krestik

Ikki o'zgaruvchili funksiyalarning tekislik qismidagi grafigini qurishda uch o'lchamli grafiklar qurishga mo'ljallangan maxsus buyruqlardan foydalilanildi. MATLAB da uch o'lchovli grafiklarni chizishda asosan bar3, plot3, mesh, surf, sphere, cylinder, bar3h, contour, meshgrid, fill3, ellipsoid, logo kabi buyruqlardan foydalilanildi. Odatta ko'p o'zgaruvchili funksiya grafiklarini chizishda mesh buyrug'i va uning turli xil ko'rinishlaridan foydalilanildi.

$u=-2:0.1:2$


$v=-1:0.1:1$

$[X, Y] = \text{meshgrid}(u, v)$

$Z = \exp(-X.^2 - Y.^2)$

$\text{plot3}(X, Y, Z);$

Natijada berilgan oraliqdagi eksponensial funksiyaning uch o'lchamli grafikli oynadagi ko'rinishi shakllanadi.



### 5.11-rasm. MATLAB da uch o'lchamli grafik qurish

Uch o'lchovli grafikning ko'rinishini gradiyent rang bilan qoplan-gan yuza sifatida ko'rsatish uchun surf, surfl kabi buyruqlardan foydalilanildi.

Grafik oynada koordinata o'qlari bo'yicha chiziqlari o'tkazilgan katakchalarni joylashtirish uchun grid on buyrug'i ishlataladi.

## 5.6. MATLAB dasturining Simulink paketi bilan tanishish

Simulink paketi MATLAB dasturining tarkibida bo'lgan qism bo'lib, foydalanuvchilarga standart bloklar kutubxonasi yordamida vizual dasturlash imkonini beradi. Vizual dasturlash prinsipi foydalanuvchi uchun dasturlash tillari va sonli hisoblashlarni chuqur o'rganishni talab etmaydi. Simulink paketi MATLAB dasturining boshqa paketlari va Toolboxlaridan mustaqil ish yuritish imkoniyati bilan farqlanadi. Boshqa tomonдан MATLAB va uning paketlari funksiyalari bilan bog'lanish mavjudligi uchun ushbu funksiyalarni SIMULINK da ham ishlatish mumkin.



5.12-rasm. Simulink kutubxonasi oynasi

Masalan, Simulink da tuzilgan model yordamida MATLAB paketlari (misol uchun LTI-Viewer va Control System Toolbox (boshqarish tizimlarini tadqiq qilish uchun mo'ljallangan paket)) aloqadorligini o'rnatib foydalanish mumkin. Simulink da ishlash mobaynida foydaluvchi bloklar kutubxonasini yaratish, yangi bloklar qo'shish imkoniyatiga ega.

Simulink yo'naltirilgan grafik simulyatsiya muhiti bo'lib, grafiklar qurish, dinamik modellar, diskret, uzluksiz va gibrild, nochiziqli tizimini modelini yaratish uchun qo'llanadi.

Yangi Simulink modelini yaratish uchun, instrumentlar panelida "*Create a new model*" tugmasi bosiladi.

Bloklar vazifalariga mos holda signallar manbalari, qabul qilgichlar, diskret, uzluksiz, chiziqli bo'lmagan, matematik funksiyalar va jadvallar, signallar va tizimlar kabi guruhlarga bo'lingan. Biriktirilgan va foydalaniuvchi bloklarning funksionalligini sozlashdan tashqari, belgi va dialoglardan foydalanib foydalaniuvchi interfeysi hosil qilish ham mumkin, Maxsus mexanik, elektr va dasturiy komponentlarning (motorlar, o'zgartkichlar, servo-klapanlar, ta'minlash manbalari) ishlashini modellashtiruvchi bloklar yaratish mumkin.

MATLAB dasturining asosiy oynasi ishga tushgandan keyin Simulink paketi ham ishlaydi. Bu esa uchta usulni bittasi bilan amalga oshiriladi:

1. MATLAB dasturining asosiy oynasida instrumentlar panelida (*Simulink*) tanlash bosish orqali;
2. MATLAB dasturining asosiy oynasida *Simulink* so'zini terib, Enter tugmasini bosish orqali;
3. **File** menyusida **Open...** buyrug'ini bajarish va modelning faylini (mdl - fayl) ochish yo'li bilan.

SIMULINK paketida foydaluvchiga namoyon bo'luvchi oyna quyidagi elementlardan tuzilgan:

1. Nomi – **Simulink Library Browser**.
2. Menyular qatori, **File**, **Edit**, **View**, **Help**-buyruqlari.
3. Instrumentlar paneli
4. Tanlangan blok haqidagi izoh kiritish oynasi.

5. Kutubxona bo'limlari ro'yxati.

6. Mavjud kutubxona bo'limlari oynasi.

Foydalanuvchilar tomonidan eng ko'p ishlataladigan bloklar guruhi brauzerning Simulink kutubxonasi joylashgan. Simulink kutubxona-si quyidagi asosiy bo'limlardan tuzilgan:

**1. Continuous**— chiziqli (uzluksiz xarakterli) bloklar guruhi;

**2. Discrete**— diskret bloklar guruhi;

**3. User-Defined Functions**— foydalanuvchi tomonidan ishlataladi-gan aniq maqsadli funksiyalar va jadvalli ma'lumot bloklari guruhi;

**4. Math Operations**— matematik amallar bloklari guruhi;

**5. Discontinuities** — nochiziqli (uzlukli xarakterli) bloklar guruhi;

**6. Signals Attribute, Signals Routing**— signallar xususiyatlari va signal bog'lanishlarni ifodalovchi bloklar guruhi;

**7. Sinks** – ekranga chiqaruvchi va ro'yxatga oluvchi bloklar guruhi;

**8. Sources** —signallar va ta'sirlar manbalari bloklari guruhi;

**9. Ports & Subsystems** – ost tizimlar bloki.

SIMULINK muhitida model yaratish uchun *File/New/Model* buyruq'i bajariladi. Model oynasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

– Sarlavha – **Untitled** nomi beriladi;

– **File** – model fayllari bilan ishlash;

– **Edit** – modelni o'zgartirish va bloklarni izlash;

– **View** – interfeys elementlarini ko'rsatish;

– **Simulation** – modellash va hisoblash jarayonini boshqarish parametrлari sozlamalarini berish;

– **Format** – bloklar va modelning tashqi ko'rinishini o'zgartirish;

– **Tools** – model bilan ishlash uchun maxsus vositalarni qo'llash;

– **Help** – yordam tizimin oynasini chaqirish;

MATLAB dasturi va SIMULINK paketida eng oddiy fizik, oziq-ovqat, kimyo muhandisligi va matematik masalalarni yechish bo'yicha boshlang'ich yo'riqnomasi ushbu namunada keltirilgan.

Quyida berilgan masala uchun Simulink dasturida yechim aniqlansin.


**Masala.** Aralashtirgichda  $m_1$  massali  $t_1$  haroratli A modda bilan  $m_2$  massali  $t_2$  haroratli B modda uzluksiz aralashtirilmoqda. Aralashtirish

natijasida hosil bo‘ladigan muddaning haroratini Simulink paketida aniqlang.

**Yechish:** Aralashmaning harorati har bir muddaning mos massa va haroratlarining ko‘paytmasining umumiyligini yig‘indisini aralashmaning massasiga bo‘lish orqali aniqlanadi:

Simulinkda yechimni aniqlash modelini quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Yangi model yaratish oynasida zaruriy bloklar yig‘ib olinadi (Constant, Add, Product, Divide va Display);
2. Har bir bloklar yechimni aniqlash formulasiga binoan bog‘lab chiqiladi;
3. Yechimni qiymatini topish uchun *Start simulation* tugmasini bosiladi.



**5.13-rasm. Simulink paketida berilgan masalani yechish modeli.**

Simulink kutubxonasida mavjud guruhlangan bloklar yordamida jarayonlarning modellarini tadqiq qilish, virtual qurilmalar yordamida simulyatsion rejimda ishlatish mumkin.

## 5.7. Kimyo injeneringida Matlab dasturidan foydalanish

### 5.7.1. Kimyo texnologiyasida teskari tomonlama masalalarni yechish

Teskari tomonlama yechiladigan masalalar deganda matematik ifodani tashkil etuvchi noma'lum parametrлarni tajriba ma'lumotlariga ko'ra aniqlash tushuniladi.

Masalaning qo'yilishi: Kirish o'zgaruvchilarining berilgan o'zgarish soxasidan  $f_{opt}$  optimallahtirish funksiyasi keltirilgan aniqlik darajasidagi eng kichik qiymatni qabul qiluvchi natijani topish kerak bo'lsin. Ushbu funksianing umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$f_{opt}(x(i)) = \sum_{j=1}^n |ye(j) - yr(j)|,$$

bu yerda,  $i$ -izlanayotgan o'zgaruvchilar soni;  $j$ -tajriba natijalari soni;  $ye(j)$  va  $yr(j)$ -chiquvchilariga muvofiq tajribaviy va hisobiy o'zgaruvchilar. Bir o'zgaruvchili funksianing minimumini topish uchun MatLABda  $fminbnd()$  funksiyasidan foydalanish mumkin. Ko'p o'zgaruvchili funksianing minimumini topish uchun esa  $fminsearch()$  funksiyasidan foydalanish mumkin.

**5.10-Masala.** Kimyoviy reaksiya tezligi konstantasi  $k$  quyidagicha hisoblanadi:

$A \xrightarrow{k} B$  tajriba ma'lumotlariga ko'ra reaksiya vaqtida  $A$  modda konsentratsiyasining o'zgarishi.

Boshlang'ich ma'lumotlar:

5.9-jadval

Vaqt, min	0	1	2	3	4	5
A komponent konsentratsiyasi, mol/l	1	0.65	0.4	0.29	0.14	0.118

Ushbu reaksiyaning kinetikasi quyidagi differensial tenglama orqali ifodalanadi:

$$\frac{dCa}{d\tau} = -kCa.$$

Ushbu masalani yechish dasturi 3 ta blokdan tashkil topgan:

- *Script\_masala-10*-kirish ma'lumotlarini kiritish, tajribaviy va hisobiy ma'lumotlari grafik taqqoslash va topilgan tezlik konstantasini chiqarish bloki;
- *Masala-10- fopt* optimallashtirish funksiyasini shakllantirish bloki;
- *fdr1*- reaksiya kinetikasini ifodalaydigan differensial tenglama-larni yechish bloki.


Ushbu masalaning MatLAB dasturidagi matni qu-yida keltirilgan:

```
%Skript_Masala-10
ye=[1;0.65;0.4;0.29;0.14;0.118];
tspan=[0:1:5];y0=1;
k0=[0.18 10];
[km fopt1]=fminbnd('masala-10',k0,[],ye,t-
span); disp('Minimum km=');disp(km);
disp('fopt1=');disp(fopt1);
[t,yr]=ode15s(@fdr1,tspan,y0,[],km); disp('*
*****');
disp('Solishtirish eksperimenti va hisob ki-
tob ma'lumotlari'); disp(' ye yr ye-yr');
disp([ye yr ye-yr]);
disp('Summa abs(ye-yr) = ');
disp(abs(sum(abs(ye-yr)))); 
plot(t,yr);grid on;
xlabel('Tau,c');ylabel('Ca o'zgartirish');
hold on;
plot(t,ye,'*');
function f2=masala-10(k,ye,tspan);
% k ni izlash
disp(k);
y0=1;
[t,yr]=ode15s(@fdr,tspan,y0,[],k);
dy=ye-yr;
```

```

f2=sum(abs(dy));
function df=fdr1(t,y,k);
df(1,1)=-k*y(1,1);
% end fdr
Natija: Minimum km=0.43
Fopt1=0.008

```



**5.30- rasm: Solishtirish eksperimenti  
(\*) va hisob-kitob ma'lumotlari**

### Solishtirish eksperimenti va hisob-kitob ma'lumotlari

ye	yr	ye-yr
1.00	1.00	0
0.65	0.65	0.00
0.40	0.42	-0.02
0.29	0.27	0.02
0.14	0.18	-0.04
0.12	0.12	0.00

Summa abs(ye-yr) = 0.08

### 5.11-Masala.

Differensial tenglamalar uchun reaktor (i:1) hisobini Matlab dasturi yordamida bajarish:

$$\text{Reactor}=\text{Reac}(w,x)$$

Natijalarni olish uchun Subplot operatori yordamida aniqlaymiz.

$$\text{Subplot}(n, m, x)$$

Bu erda n-sonlar qatorining qiymati, m-sonlarning ustun qiymati, x-manzili.

#### **M file: Reactor SO<sub>2</sub>:**

```
[a,b]=ode15s ('Reac' , [0 20] , [0,750,202650]) ;
plot(a,b(:,1))
xlabel('W (kg)')
ylabel('X')
Figure
plot(a,b(:,2))
xlabel('W')
ylabel('T (K)')
Figure
plot(a,b(:,3))
xlabel('W')
ylabel('P (Pa)')
```

#### **M file: Reac:**

```
function Reactor=Reac(w,x)
```

```

X=x(1);
T=x(2);
Presion=x(3);
k=9.8692e-3*exp(-176008/(1.8*(T-
273.15)+491.67))-110.1*log((1.8*
(T-273.15)+491.67))+912.8;
Kp=0.0031415*exp(42311/(1.987*(1.8*(T-
273.15)+491.67))-11.24);
Ta=700;
Pto=202650;
ySO2o=0.10;
yO2o=0.11;
yN2o=0.79;
PhiO2=yO2o/ySO2o;
PSO2o=Pto*ySO2o;
Fto=0.02153;
Fao=Fto*ySO2o;
epsilon=-0.05;
G=0.433;
ph=0.45;
rhoo=0.866;
Dp=0.00457;
visc=3.72e-5;
Ac=0.0016;
rhob=542;
To=770;
sumCp=300.85-0.0402*T+0.00018*T^2-9.071e-
8*T^3;
dCp=-21.535+0.0789*T-7.112*10^(-
5)*T^2+2.447e-8*T^3;
deltaHr=-98480-21.535*(T-298)+0.0395*(T^2-
298^2)-2.371*10^(-5)*(T^3-298^3)+6.117*10^(-
9)*(T^4-298^4);
Ucorreg=9.3;

```

```

if X<0.05;
ra=-k*((1-0.05)/0.05)^0.5*(PSO2o*((Phi02-
0.5*X)/(1+epsilon*0.05))* (Presion/Pto)-(0.05/
(Kp*(1-0.05)))^2);
else
ra=-k*((1-X)/X)^0.5*(PSO2o*((Phi02-0.5*X)/
(1+epsilon*X))* (Presion/Pto)-(X/(Kp*(1-X)))^2);
end
Reactor(1,1)=-ra/Fao;
Reactactor(2,1)=(Ucorr* (-Ta-T)+(-ra)*(-deltaHr))/(Fao*(sumCp+X*dCp));
Reactor(3,1)=-G*(1-ph)*(1+epsilon*X-)
)*Pto*T*(150*(1-ph) *visc/Dp+1.75*G)/
(rhob*Ac*rhoo*Dp*ph^3*To*Presion);

```

**Izoh:** Matlabda bundan tashqari turli-tuman maxsus funksiyalarni qiymatlarini hisoblash uchun mo'ljallangan buyruqlar ham mavjud. Bu buyruqlarni hisoblashda MAPLE tizimining maxsus funkiyalari dan (MAPLE tizim yadrosida mavjud) foydalilaniladi. Bu buyruqlarni **>>help elfin** va **>> help mfunlist** kabi buyruqlarini berish orqali batafsil ko'rish mumkin.

## 5.8. Amaliy mashg'ulotni bajarish uchun topshiriq variantlari

### 5.1- topshiriq.

1 ekvivalent gazning n.sh. da egallagan hajmi shu gazning ekvivalent hajmi deyiladi. Gazning ekvivalent hajmini topish uchun gazlarning molyar hajmini ekvivalentiga ko'paytirib, nisbiy molekulyar massasiga bo'lish kerak:

Bunda kislород uchun molyar massa  $M_r=32$ , berilgan massa esa  $E_H=8$ ;


$$V_{ekv}^H = \frac{\frac{26.4}{mol} \cdot E_H}{M_r(H_2)} = \frac{26.4 \frac{l}{mol} \cdot 8}{32} = \frac{26.4 \frac{l}{mol}}{8} = 5.6 \frac{l}{mol}$$

Shunda matlab da shu asalani yechish uchun quyidagi buyruq kiritiladi:

```
>> V0=26.4, Mr=32, Eh=8;  
>> Ve=V0*Eh/Mr  
Ve =  
5.6
```


### Simulink uchun model yaratish:

Yangi model yaratish uchun Simulink dasturini chaqiramiz va shu dasturni yuklaymiz. Buning uchun tugmasini bosish orqali yoki, buyruq oynasiga >> Simulink buyrug'i kiritiladi. Simulink kutubxonasining oynasi ochiladi.



5.31-Rasm: Simulink paketi kutubxonasi brauzeri

Yangi model yaratish tugamsini bosamiz yoki, CTRL+N tugma kombinatsiyasi orqali yangi model yaratish oynasi ochiladi. Shu oynada kerakli model yaratamiz.



### 5.32 – rasm: Yangi model yaratish oynasi

Yuqoridagi masala asosida quyidagi elementlarni olamiz.

**Source** dan **constant bloki**;

**Sinkdan** >> **Scope** va **Display bloki**;

**Commonly Used Blocks** dan >> **Mux bloki**;

**User-defined Functions** dan >> **FNC bloki** olinadi.

Shunda quyidagi to‘plam paydo bo‘ladi

$$V_{\text{ekv}}^H = \frac{\frac{26.4}{\text{mol}} \cdot E_H}{M_r(H_2)} = \frac{26.4 \frac{l}{\text{mol}} \cdot 8}{32} = \frac{26.4 \frac{l}{\text{mol}}}{8} = 5.6 \text{ l/mol}$$

Bloklarni o‘zaro ulab nomlarini formula asosida qaytadan nomlasak va kerakli formulani kirmsak bo‘ladi.

; formulani quyidagicha tarkilanadi:

$V$  - nomalum son;


$V_0 = 26.4$ ;

$Eh = 8$ ;

$M = 32$ ;


$$V = V_0 * Eh / M = u(1) * u(2) / u(3)$$

shunda model quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:




### 5.33 – rasm: Simulink paketida yangi oynada bloklarni yig‘ish

Modelning elementlarni xususiyatini chaqirish uchun uning ustiga sichqoncha bilan ikki marta bosing, shunda tanlangan element uchun xususiyat ochiladi. Misol uchun fen uchun quyidagicha:



5.34-rasm: Simulink modeli ko‘rinishi



5.35-rasm: Funksiya bloki parametrlarini kiritish oynasi


Modelni ishga tushirish uchun tugamasini bosish kerak.

## 5.2-topshiriq.

Asitelen bilan 2 mol bromning tasiri natijasida qaysi modda va qancha miqdorda paydo bo'ladi?

Yechim:

1) reaksiya tenglamasi:



Reaksiya tenglamasi bo'yicha 2 mol brom tasirida 1 mol tetrabrometan hosil bo'ladi.

$$2) Mr = 2 \cdot 12 + 1 \cdot 2 + 80 \cdot 4 = 24 + 2 + 320 = 346 \text{ g/mol}$$

Shuni matlabda yechish uchun quyidagi buyruqni kriting:

$$>> Mr = 2 \cdot 12 + 1 \cdot 2 + 80 \cdot 4 = 24 + 2 + 320$$

$$Mr =$$

$$346$$

## Simulink uchun model yaratish:

Yuqoridagi masala asosida quyidagi elementlarni olamiz.


*Source* dan >> *constant*

*Sinkdan* >> *Scop* va *Display*

*Commonly Used Blocks* >> *Mux*

*User-defined Functions* dan >> *FNC* olinadi

Shunda quyidagi to'plam paydo bo'ladi



5.36-rasm: Berilgan masala uchun dastur oynasi

Ularni o'zaro ulab nomlarini formula asosida qaytadan nomlasak va kerakli formulani kiritsak bo'ladi.

$$Mr = 2 \cdot 12 + 1 \cdot 2 + 80 \cdot 4 = 24 + 2 + 320;$$

Bu yerda,

$Mr$  - nominalum son;

$$M1 = 12;$$

$$M2 = 2;$$

$$M3 = 80;$$

$$Mr = M1 \cdot 2 + 1 \cdot M2 + 4 \cdot M3 = u(1) \cdot 2 + 1 \cdot u(2) + 4 \cdot u(3)$$

### 5.3-topshiriq

200 ml 20% li bariy xlorid eritmasini taylorlash uchun suv va  $\text{BaCl}_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$  kristallagidratidan qancha olish kerak?

**Yechish:** Jadvaldan 20% li eritmaning zichligi topiladi, u 1,2 ga teng. 200 ml 20% li eritmaning massasi ( $200 \times 1,20$ ) 249 gramga teng. Demak, eritmagan bariy xlorid miqdori

$$M = \frac{240 \cdot 20}{100} = 28 \text{ gram} \text{ bo'lishi kerak}$$

48 gram  $\text{BaCl}_2$  ga to'g'ri keladigan kristallagidrat miqdori aniqlanadi:

$$22,4 \text{ gram } \text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O} : 208 \text{ g } \text{BaCl}_2 = x : 48 \text{ g } \text{BaCl}_2$$

$$x = \frac{244 \cdot 48}{208} = 56,3 \text{ g } \text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$$

Demak, 56,3 g  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  va  $(240 - 56,3) = 183,7$  gram suv olish kerak.

Matlabdagi yechimi:

$$>> m=(240*20)/100; x=(244*48)/208, y=240-x$$

$$x =$$

$$56,3077$$

$$y =$$

$$183,6923$$

### 5.4-topshiriq.

0.25 molarli sionit kislota HCN dagi kislotaning dissotsiyalanish darajasini aniqlang.

$$K_{\text{HCN}} = 7,9 \cdot 10^{-10}$$

**Yechish:** HCN kuchsiz elektrolit bo'lgani uchun quyidagi formula qo'yiladi:

$$K_{AB} = \alpha^2 C_0$$

$$\text{Shunda } \alpha^2 = \frac{K_{HCN}}{C_0} \quad \alpha^2 = \frac{K_{HCN}}{C_0} \quad \alpha = \sqrt{\frac{K_{HCN}}{C_0}} \quad \alpha = \sqrt{\frac{K_{HCN}}{C_0}}$$

$$\alpha = \sqrt{K_{HCN}/C} = \sqrt{7.9 \times 10^{-10} / 0.25} = \sqrt{31.6 \times 10^{-10}} = 5.62 \times 10^{-5}$$

Yoki foizda  $5.62 \times 10^{-5}\%$ .

Matlabdag'i yechimi:

>> a=sqrt((7.9e-10)/0.25)

a =

5.6214e-005

### 5.5- topshiriq.


150 litr suvda konsentratsiyasi 7% li tuzli suv hosil qilinish uchun necha kg osh tuzini qo'shish kerak. Shu tuzning konsentratsiyasining o'shish grafigini tuzung. Yetish uchun esa vaqt 25 minutni tashkil etadi.

**Yechish:** 150 litr suv bu 150 kg tuz bo'lgani uchun uning hisobining foizdag'i ulushi 100-7= 93% bo'ladi,

$$\frac{150\text{kg} - 93\%}{x - 7\%}$$

Bu proporsiyani yechimi uchun  $x = \frac{150\text{kg} \times 7\%}{53\%} = 11.3\text{kg}$  shu miqdirdagi tuz qo'shsak biz kerakli konsentratsiyali tuz o'lamiz.

**Matlabdag'i yechimi:**



**5.37-rasm: Berilgan topshiriq grafigi**

```
>> x=(150*7)/(100-7) ;
```

Endi konsentratsiya uchun erish konsentratsiyasini oshis tartibin tu-zamiz solinish tartibi 10 gramdan xe= shuda buyruq oynasiga

```
>> xe=(0:0.01:x)
```

Ko'plab son olinadi va shunda son oxiridagi sonni olamiz:

*Columns 1128 through 1130*

*11.2700 11.2800 11.2900*

Bunda 1130-malumot uchun 11,29% ga teng ekan, vaqt miqdorini topish uchun butun soniyani 1129 ga bo'lamiz, undan keyin oxirgi soniyani quramiz, Shunda sekundga o'girsak  $t=25*60=1500$  sek

```
>> ts=25*60
```

```
>> t=(0:(ts/1129):ts)
```

```
>> plot(t, xe)
```

### Nazorat savollari:

1. MATLAB dasturining qo'llanilish sohalarini sanab bering.
2. MATLAB dasturining boshqa amaliy dasturlardan asosiy farqi nimalardan iborat?
3. MATLAB dasturining asosiy paketlari va kengaytmalari haqida ma'lumot bering.
4. MATLAB dasturida asosiy ma'lumot turlarini keltirib o'ting.
5. MATLAB da asosiy arifmetik va mantiqiy amallarni bajarish tartibi qanday amalga oshiriladi?
6. MATLAB tizimida elementar matematik funksiyalardan foydalanish
7. Vektor-qator, vektor-ustun va matritsalarni shakllantirish tartibi qanday?
8. MATLAB tizimida asosiy standart matritsa turlari va ular ustida amallar qanday bajariladi?
9. MATLAB dasturida ikki va uch o'chovli grafika qanday quriladi?
10. M-fayllarning turlari, ularning strukturalari va xususiyatlari.
11. M-fayl tahrirlagichida m-fayllar qay tartibda tahrirlanadi?

12. MATLAB dasturida hisoblashlarni amalga oshirishda sharhlar qanday kiritiladi?
13. MATLAB tizimida tarmoqlanish jarayonlarini dasturlash tartibi qanday?
14. MATLAB tizimida takrorlanish jarayonlarini dasturlash tartibi qanday?
15. Takrorlanish operatorlarining konstruksiyasini tushuntirib bering.
16. MATLAB tizimida tanlash operatoridan foydalanish tartibini tushuntiring.
17. GUIDE muhitida ilovalarni yaratish, ishga tushirish va ishlatis qay tarzda amalga oshiriladi?
18. Grafik interfeysning standart obyektlarini sanab bering.
19. Grafik interfeysning standart elementlari qanday tahrirlanadi?
20. SIMULINK paketida yangi model yaratish va tahrirlash qanday amalga oshiriladi?
21. SIMULINK kutubxonalar brauzerdan foydalanish haqida ma'lumot bering.

### **Amaliy ish uchun topshiriqlar\***

- MATLABda ko'phadni ko'paytuvchilarga ajrating.
  - $6x^2 + xy - 2y$
  - $(8a^3 - 27b^3) - 2a(4a^2 - 9b^2)$
  - $(a + b)^2 + b^3 + a^3$
  - $5b(16a^2 - 25b^2) + 64a^3 + 125b^3$
  - $x^4 + x^3 + x + 1$
- Quyidagi misollar takrorlanish operatori yordamida yechilsin. Berilgan haqiqiy  $x$  soni uchun  $y$  hisoblansin.

$$a. \quad y = \begin{cases} 5x^3 + 6x^2 - 2x, & |x| \leq 1; \\ \frac{x+3}{|x|}, & x > 1; \\ 0, & x < -1. \end{cases} \quad d. \quad y = \begin{cases} x^2, & -2 \leq x < 2; \\ x^2 + 4x + 5, & x < -2; \\ 2 - x, & x \geq 2. \end{cases}$$

a.  $y = \begin{cases} 5x^3 + 6x^2 - 2x, & |x| \leq 1; \\ \frac{x+3}{|x|}, & x > 1; \\ 0, & x < -1. \end{cases}$

d.  $y = \begin{cases} x^2, & -2 \leq x < 2; \\ x^2 + 4x + 5, & x < -2; \\ 2 - x, & x \geq 2. \end{cases}$

b.  $y = \begin{cases} 0, & x \leq 0; \\ x, & 0 < x \leq 1; \\ x^4, & x > 1. \end{cases}$

e.  $y = \begin{cases} -\frac{1}{x^2}, & x \leq -1; \\ x^2, & -1 < x \leq 2; \\ 4, & x > 2. \end{cases}$

$a = 2,8; b = -0,3; c = 4;$

c.  $y = \begin{cases} ax^2 + bx + c, & x < 1,2; \\ a/x + \sqrt{x^2 - 1}, & x = 1,2; \\ (a+bx)/\sqrt{x^2 + 1}, & x > 1,2. \end{cases}$

f.  $y = \begin{cases} 1,5 \sin^2 x, & x < 1; \\ (x-2)^2 + 6, & 1 \leq x \leq 3; \\ 3 \operatorname{tg} x, & x > 3. \end{cases}$

3. M-fayl tahrirlagichda berilgan funksiyalarning qiymatini hisoblaydigan m-funksiya dasturini tuzing.

- a.  $y = \cos 3x + \sin x$
- b.  $y = 2 \sin^2 x + \cos 3x$
- c.  $y = 4x^4 + 2x^2 + 5x + 3$
- d.  $y = 2x^3 + \sin 5x$

4. Quyidagi jadvalda berilgan funksiyaning grafigini *plot* buyrug'i yordamida chiqaring.

No	Funksiyaning berilishi	Argument o'zgarishi	Argument o'zgarish qadami	O'zgarmaslar qiymati
	$y = ax^2 \cdot e^{-x} \cdot \sin bx + c$	$1 \leq x \leq 3$	0,1	$a=1,7; b=2; c=0,5$
	$y = b \cdot \sin(ax \cdot \cos x) - c$	$0 \leq x \leq \frac{\pi}{2}$	$\frac{\pi}{16}$	$a=0,7; b=3; c=0,5$
	$y = 4x + 5 - e^{-2} + 4ab$	$1 \leq x \leq 10$	0,6	$a=5; b=3$
	$y = 4(x-1) + 2x - axb$	$0 \leq x \leq 8$	0,4	$a=4; b=3$
	$y = (x+2)^2 - 5(x-ac) + b^2$	$0 \leq x \leq 5$	0,5	$a=2; b=2; c=4$

Nº	Funksiyaning berilishi	Argument o'zgarishi	Argument o'zgarish qadami	O'zgarmaslar qiymati
	$y = x - 2a + a^2 x(b - c^2)$	$0 \leq x \leq 7$	0,5	a=3; b=0,5; c=2
	$y = 2(a - 2x) + 2e^x \ln(b + x)$	$1 \leq x \leq 2$	0,1	a=10; b=3
	$y = e^{-bx} \cdot \sin(ax + b) - 2x$	$0 \leq x \leq 1$	0,1	a=0,5; b=-0,1
	$y = a \cdot \ln x + \log_4 x \cdot b^2$	$1 \leq x \leq 10$	0,6	a=2; b=5
	$y = e^{ax} \cdot (x + \sqrt{x + b})$	$1 \leq x \leq 5$	0,25	a=2; b=15

\*-ushbu amaliy topshiriqlar talabalarning kichik guruhchalari uchun taqsimlab beriladi.

## **VI-BOB**

### **MUHANDISLIK MASALALARIDA ASPEN PLUS DASTURIDAN FOYDALANISH**

- |   |
|---|
| 6.1. Aspen Plus modellashtirish dasturi haqida umumiy tushuncha                       |
| 6.2. Kompyuterda modellashtirish dasturlarining ahamiyati                             |
| 6.3. Aspen Plus dasturida jarayonlarni modellashtirish                                |
| 6.4. Aspen Plus dasturida modelni tashkil etish                                       |
| 6.5. Aspen Plus dasturining asosiy oynasi   |
| 6.6. Modellashtirish jarayonidagi kimyoviy moddalar va termodinamik usullarni tanlash |
| 6.7. Modellashtirish jarayonidagi obyektlarni tanlash                                 |
| 6.8. Aspen Plus dasturini kimyo injeneringida qo'llash                                |

## **6.1. Aspen Plus modellashtirish dasturi haqida umumiy tushuncha**

Avvalgi boblarda ko'rib o'tilgan kimyo injeneringida qo'llanadigan amaliy dasturiy paketlardan tashqari hozirgi kunda jarayonlarni kompyuterda modellashtirish hamda simulyator sifatida foydalaniadi-gan dasturlar mayjud bo'lib, shulardan biri Aspen ONE paketidir. Aspen ONE paketi o'z ichiga Aspen Custom Modeler, Aspen Dynamics, Aspen Polymer, Aspen Properties, Aspen Hysys, Aspen Plus va shu kabi bir qancha modellashtirish dasturlarini oladi.

Aspen Plus dasturi texnologik jarayonlarni oson modellashtirish va ular haqida yetarlicha tushunchalarni hosil qilish uchun mo'ljallangan dasturlardan biridir.

Ushbu bob texnika va texnologiya yo'nalishlarida tahsil olayot-gan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, Aspen ONE paketi tarkibiga kiruvchi Aspen Plus modellashtirish dasturi haqida boshlang'ich tush-uncha va ko'nikmalarni hosil qilish uchun yordam beradi.

## **6.2. Kompyuterda modellashtirish dasturlarining ahamiyati**

Jarayonlarni kompyuterda modellashtirish bizga boshlang'ich muhandislik bilimlariga ko'ra jarayonning umumiy xususiyatlarini oldindan taxmin qilishni, shuningdek massa va energiya balansi, faza va kimyoviy muvozanat hisoblarini aniqlash imkonini beradi. Beril-gan termodinamik ma'lumotlar, jarayonning haqiqiy borish sharoitlari, mavjud termodinamik ususlar asosida ishlab chiqarish jarayonlari-ning tegishli modelini yaratishimiz mumkin. Jarayonlarni kompyuterda modellashtirish bizga ko'plab "Agar ushbu parametr berilsa" kabi tahlillarni amalga oshirishni hamda sezgirlik hisoblashlari va optimal vaziyatni aniqlash imkoniyatlarni beradi. Modellashtirish yordamida mavjud ishlab chiqarish jarayonining optimal sharoitlarini tahlil qilib, uning umumдорлиги ошришимиз мумкин.

### **6.3. Aspen Plus dasturida jarayonlarni modellashtirish**

Ishlab chiqarish jarayonlari qurilmalar ishlashi orqali aralashuvchi, ajratiluvchi, isitiluvchi, sovutiluvchi va kimyoviy reaksiyaga kirishib boshqa bir moddaga aylanuvchi kimyoviy komponentlardan tashkil topgan bo‘ladi. Ushbu komponentlar qurilmadan qurilmaga ma’lum bir o’tkazuvchilar yoki oqimlar (**stream**) yordamida uzatiladi.

Haqiqiy ishlab chiqarish jarayonini Aspen Plus dasturida o’rganish uchun quyidagi ketma-ketlik amalga oshiriladi:

**1.** Jarayondagi kimyoviy komponentlarni tanlash. Ushbu komponentlar Aspen Plus ma’lumotlar bazasidan olinishi yoki foydalanuvchi tomonidan kirirtilishi mumkin.

**2.** Jarayondagi komponent va aralashmalarning fizik xususiyatlari nomoyon etuvchi termodinamik usul yoki modelni tanlash. Ushbu modellar Aspen Plus dasturi tarkibida mavjud bo‘lib, modellashtirish jarayonida ularni tanlashning o‘zi kifoya qiladi.

**3.** Jarayonni dasturda izohlash yoki modellashtirish. Buning uchun quyidagi amallar bajaraladi:

- Jarayondagi qurilmalarni tanlab olish;

- Qurilmadan qurilmaga berilayotgan oqimlarni tanlab olish;

**4.** Aspen Plus Model kutubxonasidan har bir qurilmaning ishslash xususiyatlarini tavsiflovchi modellarni tanlab olish va ularni modelga kiritish;

**5.** Belgilangan oqimlarni modelga kiritish va tegishli qurilmalarga ulash.

**6.** Komponent kirishlari qiymatini va termodinamik holatlarini (temperatura, bosim va hk.) aniqlash.

- 7.** Qurilmalar modellarining ishslash sharoitlarini aniqlash.

Aspen Plus yordamida jarayon loyihasini, qurilmalarning ishslash sharoitlari va oqim kompozisiyalarini o‘zgartirish orqali yangi vaziyatlarini urGANISHIMIZ va muqobil jarayonlarni tahlil qilishimiz mumkin.

Jarayonlarni modellashtirishdan tashqari Aspen Plus bizga ko‘plab boshqa, jumladan fizik xossalarni oldindan bilish va regressiyalash, grafik va jadval ko‘rinishdagi natijalarni olish, haqiqiy ishlab chiqarish

va modellashtirish natijalarini taqqoslash va moslash, jarayonni optimallashtirish hamda natijalarni elektron jadvallar bilan bog'lash kabi imkoniyatlarni taqdim etadi.

#### **6.4. Aspen Plus dasturida modelni tashkil etish**

Ushbu bo'lim bizga Aspen Plus dasturida modelni tashkil etish, ma'lumotlarni kiritish, modelni ishga tushirish va natijalarni tahlil qilish ko'nikmalarni beradi.

#### **Aspen Plus dasturini ishga tushirish**

Asosiy menudan **Programs/AspenTech/Process Modeling/Aspen Plus** ketma-ketligini tanlanadi.

Natijada dasturda ishni boshlash imkonini beruvchi **Start Using Aspen Plus** oynasi ko'rsatilgan **Aspen Plus** dasturining asosiy oynasi hosil bo'ladi.

#### **Start Using Aspen Plus** oynasi

**Start Using Aspen Plus** oynasi modelni tashkil etish va ishga tushirish uchun quyidagi usullarni taqdim etadi:


- New va Open File (Faylni ochish va tashkil etish) - yangi modelni tashkil etish yoki mavjud modelni ochish uchun xizmat qiladi.
- Recent Models (Oxirgi modellar) - eng oxirgi foydalanilgan modellarni taqdim etadi.

#### **Fayllarni ochish va saqlash**

Aspen Plus dasturida fayllarni ochish va saqlash amallari boshqa dasturlardagi kabi **File** menusida amalga oshiriladi. Bundan avvalgi ma'ruzalarda urganilgani kabi fayllarni ochish, tashkil etish, saqlash amallarini bajarish haqida bat afsil to'xtalib o'tirmasdan buni foydaluvchining o'ziga mustaqil ravishda amalga oshirishn taqdim etamiz. Bu haqda ko'proq amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish uchun C:\Program Files\AspenTech\Aspen Plus\GUI\Examples manzilidan istalgan modelni ishga tushirib ko'ring. Misol uchun, **GSG\_Process** papkasidan **flash.bkp** faylini tanlang va oching. Bu holatda standart modellarni o'zgartirmaslik uchun ushbu faylni boshqa ishchi manzilga ko'chirib olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Hosil bo'lgan oynadan **Simulation** yorlig'ini bosing va modellashtirish muhitini tanlang.

## 6.5. Aspen Plus dasturining asosiy oynasi

Aspen Plus dasturini ishga tushirganda uning asosiy oynasi hosil bo'ladi (6.1-rasm).



### 6.1-rasm. Aspen Plus dasturining asosiy oynasi.

Aspen Plus modellashtirish jarayonidagi qurilmalar yoki oqimlarga tegishli asosiy habarlar maxsus Xabarlar Panelida (**Message Panel**) aks ettiriladi. Zaruriyat tug'ilganda yoki asosiy yo'rqnomalarni olish uchun ushbu panelni oynada ko'rsatish uchun **View** menusidan **Message Panel**ni ishga tushiriladi.

- **Quick Access Toolbar** (*Tezkor kirishga ruxsat beruvchi uskunalar paneli*) - Ushbu panel asosiy oynaning chap tomonida hosil bo'ladi. Ushbu panelga boshqa tez-tez foydalilaniladigan komandalarni ham qo'shish imkoniyati mavjud.

- **Ribbon** (Lenta yorliqlari) - tegishli buyruqlarni bajarish uchun ushbu qatordagi istalgan yorliqdan foydalaning. Ushbu buyruqlar maxsus nomlangan guruxlarga ajratilgan, misol uchun **Home** yorlig'iда **Run** (Bajarish), **Units** (Birliklar), **Summary** (Xulosa), **Analysis** (Tahlil), **Plot** (Grafik) buyruqlari mavjud.

- **Navigation Pane** (Navigasiya oynasi) - Ushbu panel barcha ochiq modeldag'i qiymatlar, oqimlar, qurilmalar va tegishli formlarning boshqarish parametrlari va ularning xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Shuningdek ushbu paneldag'i **Properties** (Xususiyatlar) va

**Simulation** (modellashtirish) yorliqlarini bosish orqali kerakli bo‘lgan muhitni tanlash mumkin.

- Ishchi oynadagi tablo oynalari - formalar, model oynasi, Nazorat paneli, grafiklar va boshqa oynalaning ishchi muhitda alohida ajratilgan holatdagi ko‘rinishidir.

- **Properties** (Xususiyatlar) va **Simulation** (modellashtirish) muhitlari - Aspen Plus ikkita alohida ajratilgan **Properties** va **Simulation** muhitlariga ega.

- **Status messages** (Holat xabarlari) – asosiy holat xabarlari (misol uchun, *Talab etilgan qiymatlar to‘liq kiritilgan* (*Required Properties Input Complete*) yoki *Natijalarni ko‘rish mumkin* (*Results Available*) kabi xabarlar) modelni oxirgi ishga tushirish natijasi holati va istalgan hatolik yoki ogohlantirish xabarlariga tezkor o‘tishni ta’minlovchi **Check Status** (Holatlarni tekshirish) tugmasi bilan birgalikda asosiy oynaning chap pastki chap tomonida namoyon bo‘ladi.


- Oynani kattalashtiruvchi va kichiklashtiruvchi lupa - Oynadagi model, grafik, jadvallarni kattalshtirib ko‘rish uchun asosiy oynaning o‘ng tomonidagi maxsus tugmadan foydalaniladi.

## **6.6. Modellashtirish jarayonidagi kimyoviy moddalar va termodinamik usullarni tanlash**


Aspen plus dasturida kimyoviy texnologik jarayonlarda foydalanish mumkin bo‘lgan barcha turdagи moddalar mavjud bo‘lib ushbu moddalar **Aspen Properties** bo‘limidan **Components** (*komponentlar*) qismi orqali amalga oshiriladi. Termodinamik usullar esa **Methods** (*usullar*) qismini sozlash orqali amalga oshiriladi.

## **6.7. Modellashtirish jarayonidagi obyektlarni tanlash**

Aspen Plus dasturida texnologik jarayonlarda foydalaniladigan asosiy qurilmalar modellari mavjud bo‘lib, ulardan foydalanish uchun Aspen plus dasturida *Simulation (Modellashtirish)* muhitiga kiriladi hamda kerakli bo‘lgan qurilma tanlanadi va modellashtirish oynasiga qo‘yiladi. Quyida Metilsiklogeksan-Toluol aralashmasidan Fenol yordamida Metilsiklogeksanni ekstraksiyalash jarayonining Aspen Plus dasturidagi modeli ko‘rsatilgan (6.3-rasm).




## 6.2-rasm. Aspen plus dasturida komponentlarni tanlash



## 6.3-rasm. Aspen plus dasturida termodinamik usullarni tanlash

6.4-rasmda keltirilgan modelidan ko'rinib turibdiki ushbu modelni qurish uchun bitta ekstraktor (RADFRAC) dan foydalanilgan. Ushbu ekstraktorda metilsiklogeksan va toluol (MCHFEED) aralashmasi va fenol (PHENOL) oqimlarini ifodalovchi 2 ta kirish hamda distillatsiya sifatida ajratib olingan metilsiklogeksan mahsuloti (MCHPROD) va fenol, toluol aralashmasi (MCHPHNTL) chiqadigan 2 ta chiqish oqimlari mayjud.



**6.4-rasm. Aspen plusda metilsiklogeksanni ajratib olish uchun ekstraktor modeli**

Shu va shunga uxshash jarayonlarni modellashtirishda temperatura, bosim, miqdor, kompozisiya kabi kirish parametrlari tanlashni darslikdan foydalanuvchi va talabaning o'ziga amaliyot darslarida yoki mustaqil ravishda sinab ko'rishni tavsiya etamiz.


### **Modellashtirish natijalarini olish**

Aspen plus dasturida natijalarini olish kerakli obyekt, oqim ustida sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosish orqali yoki *Navigasition* panelidan *Results Summary/Streams(Custom)* buyrug'ini tanlash orqali amalga oshiriladi (5.5-rasm):

From		MCHFEED	MCHPHNTL	MCHPROD	PHENOL
To		EXT	EXT	EXT	
Substream: MIXED		Liquid	Liquid	Liquid	Liquid
Phase:					
Component Mole Flow					
TOLUENE	LEMOL/HR	200	194.773	5.22652	3
PHENOL	LEMOL/HR	0	1196.74	0.261905	1200
MCH	LEMOL/HR	200	5.48883	184.511	3
Component Mole Fraction					
TOLUENE		0.5	0.139124	0.0261346	3
PHENOL		0	0.856556	0.00130952	1
MCH		0.5	0.00592059	0.972556	0
Mole Flow	LBMOLE/HR	400	1400	200	1200

## 6.5-rasm. Aspen plus dasturida modellashtirish natijalarini olish Aspen plus dasturida yordam olish

Aspen plus dasturida yordam olish jarayoni Recourses/Help buyrug'ini tanlash orqali amalga oshiriladi (6.6-rasm):




## 6.6-rasm. Aspen plus dasturida yordam olish oynasi.

## 6.8. Aspen Plus dasturini kimyo injeneringida qo'llash

Aspen Plus dasturida jarayonlarning modelini qurish haqida amaliy ko'nikmalarini hosil qilish uchun etanol-suv aralashmasini ajratish misolini ko'rib o'tamiz.

### 1. Qurilmalar va oqimlarni o'rnatish

Birinchi navbatda ushbu model uchun kerakli bo'lgan usul va qurilmani tanlab olish kerak bo'ladi (kolonna, reaktor va boshq.). Bizning misolimizda spirt va suv aralashmasini ajratish uchun distillatsion kolonnadan foydalanamiz, buning uchun model kutubxonasidan (Model library) DSTWU distillatsion kolonnani tanlaymiz (6.7-rasm).




### 6.7-rasm. Kolonna va oqimlar menusi

**Birinchi qadam:** Etanol-spirt aralashmasi uchun kolonna turini tanlab olinadi. *Columns* (kolonnalar) yorlig'i tanlanadi. Bunda asosan ikki xil kolonnadan foydalilanadi: 'DSTWU' – ko'p komponentli moddalar uchun tezkor distillasiya usuli hamda 'RadFrac' – bat afsil distillasiya uchun distillatsion kolonna.

Etanol+suv aralashmasi uchun tezkor distillatsion modellashtirish usuli unchalik mos kelmaydi, chunki uchbu aralashma azeotrop xususuiyatga ega. Demak, 'RadFrac' distillatsion kolonnani tanlaymiz va modellashtirish oy-nasining qu'lay bo'lgan joyiga quyamiz.

**Ikkinchi qadam:** Tanlangan distillatsion kolonnaga kirish va chiqish oqimlarini o'rnatib olamiz. Buning uchun oqimlar (STREAMS) belgisini tanlaymiz va kirish va chi-




### 6.8-rasm. Talab etilgan va yana o'rnatilishi mumkin bo'lgan oqimlar

qish oqimlarini tegishli joylarga o'rnatamiz. (6.7-rasmida ko'rsatilgan). Sichqoncha yordamida material oqimlari (Material stream) tanlanganda modelda ishtirok etayotgan qurilmada ushbu oqimlar o'rnatilishi kerak bo'lган joy qizil bilan ko'rsatiladi (6.8-rasm)


**Uchinchi qadam:** Yuqorida qayd etilgan amallar bajarilib bo'lingandan keyin kirish oqimi (Feed stream) parametrlarini va kolonnaning boshlang'ich parametrlari: pog'onalar soni, bosim, kirish pog'onasini tanlab olishimiz kerak bo'ladi. Aspen plus dasturida keying bosqichga o'tish uchun uskunalar panelidan (Next) tugmasini yoki klaviaturadan F4 tugasini bosamiz. Har ikkala usul ham *Data Browser* (Ma'lumotlar oynasi) ochilishi uchun xizmat qiladi.

## 2. Qurilma parametrlarini sozlash

*Data Browser* oynasida keltirilgan yarim qizil doira bo'limlar, bu ma'lumotlar bilan to'ldirilishi kerak bo'lган bo'limlar ekanligini anglatadi. Ushbu bo'limlar to'ldirilib boilgandan keyin qizil yarim doira aylanalar ko'k belgilangan aylana shakliga kiradi. Ushbu bo'limlar orqali istalgan qurilmalar parametrlarini o'zgartirish mumkin bo'ladi (6.10-rasm).




## 6.9-rasm. Material oqimlari o'rnilib bo'ilngandan keying kolonnanning ko'rinishi



6.10-rasm. Data Browser oynasi

Ushbu oynadan biror-bir bo'limni tanlash orqali o'zgartirilishi mumkin bo'lган parametrlarni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Qurilma yoki oqimning nomini o'zgartirish uchun ushbu oqim yoki qurilma nomi ustida sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosamiz yoki o'ng tugmani bosim *Rename* (*qayta nomlash*) yorlig'ini tanlaymiz.

Aspen plus dasturida modellashtirish jarayonida natijalarni ko'rish jarayonida ba'zan *mol* yoki *mass* qiymatlarda ko'rish uchun *Setup/Report options/Stream* ketma ketligini quyidagi ko'rsatilgandek tanlaymiz (6.11-rasm).




## 6.11-rasm. Oqimlar sarfini og'irlik va mol qiymatlarda namoyish etish uchun sozlash.

### *Komponentlarni aniqlash*


Modellashtirish jarayonida ishtiroy etayotgan komponentlarni tanlash uchun Aspen plus dasturida Properties bo'limiga o'tamiz va *Components/Specifications* bo'limi orqali kerakli komponentlarni tanlab olamiz. Buning uchun *Components/Specifications* bolimini tanlaganda hosil bo'lган qynaning *Component ID* (Komponent tartib raqami) ustuniga kerakli moddalar nomini yozamiz (6.12-rasm).

Agar ushbu tanlangan nom Aspen Plus dasturi ma'lumotlar bazasida berilgan nom bilan bir xil bo'lsa u avtomatik ravishda ushbu moddani tanlaydi, agar aksincha bo'lsa *Component name* (Komponent nomi) ustuniga komponent nomi yoki formulasini yozamiz. Ushbu ho-

latda tanlanayotgan komponentning boshqa izotoplari mavjud bo'lsa, u holda **FIND** (IZLASH) tugmasini bosib model kutubxonasiga kiriladi va kerakli komponent tanlanadi va **OK** tugmasi bosiladi (6.13-rasm).



**6.12-rasm.** Aspen plus dasturida kimyoviy moddalarni tanlash




**6.13-rasm.** Ma'lumotlar bazasidan kimyoviy moddalarni qidirish

## **Termodinamik usulni tanlash**

Aspen plus dasturi model uchun mos bo'lgan termodinamik usulni tanlash uchun maxsus "Property Method Selection Assistant" (Usul-larni tanlash yordamchisi) ilovasiga ega. Ushbu ilova orqali kerakli bo'lgan termodinamik usul tanlanadi. Buning uchun **Properties** muhitida Navigasiya oynasidan **Methods/Specifications** yoki **Home/Methods** buyrug'i tanlanadi (6.14-rasm). Ushbu holatda qaysi usulni tnlash haqidagi ma'lumot olmoqchi bo'lsangiz **Home/Methods Assistant** buyrug'ini tanlash orqali kerakli ma'lumotlarni olishimiz mumkin bo'ladi.

Biz ko'rib chiqayorgan model uchun UNIQUAC termodinamik usuli mos keladi. Ushbu usulni tanlaymiz va tugmasini bosamiz hosil bo'lgan oynadan **OK** tugmasini bosamiz. Ushbu metod noideal ko'pkomponentli aralashmalar uchun mos keladi.



### **6.14-rasm. Termodinamik usulni tanlash.**

Termodinamik tanlanib uskunalar panelidan tugmasi bosilsa ushbu usul uchun komponentlarning xaroratga bog'liq holdagi parametrlari ekranga chiqadi (6.15-rasm).

Termodinamik usul tanlab bo'lingandna keyin Aspen Plus dasturida Simulation muhitiga o'tamiz va modeldag'i kirish parametrlari va qurilmaning boshlang'ich parametrlarini sozlaymiz.

### **Oqim va Blok (Distillation column) ma'lumotlarini to'ldirish**

Kirish oqimi parametrlarini sozlash uchun ushbu oqim ustida sich-qoncha chap tugmasini ikki marta yoki (F4) tugmasini bosamiz va

hosil bo‘lgan oynada kerakli ma’lumotlarni kiritamiz. Bunda, tanlangan komponentlar sarfi, bosim, xarorat kiritilishi kerak bo‘ladi. Biz ko‘rib o’tayotgan model uchun quyidagi ma’lumotlar kritilishi kerak:

Bosim – 1 atm;

Harorat – 25 °C;

Etanol sarfi – 20 kmol/soat;

Suv sarfi – 980 kmol/soat.

The screenshot shows the 'Properties Parameters Binary Interaction UNIQ-1 (T DEPENDENT) - Data Browser' window. The left sidebar contains a tree view of project components: Moisture Comp., UNIFAC Groups, Comp.-Groups, Corro-Lists, Polymers, Attr-Scaling, Properties, Specifications, Property Methods, Estimation, Molecular Structure, and Parameters. Under Parameters, 'Pure Component' and 'Binary Interaction' are expanded, with 'UNIQ-1' selected under Binary Interaction. The main area has tabs for 'Input' and 'Databanks'. The 'Input' tab is active, showing a table for 'Temperature-dependent binary parameters' with rows for Component i (ETHAN-01), Component j (WATER), Temperature units (F), Source (VLE-IG), and various parameters like AII, BII, CII, DII, EII, FII, GII, HII, III, JII, KII, LII, MII, NII, OII, PII, QII, RII, SII, TII, UII, VII, WII, XII, YII, ZII, and Property units. A checkbox at the bottom left says 'Estimate all missing parameters by UNIFAC'.

Component i	ETHAN-01
Component j	WATER
Temperature units	F
Source	VLE-IG
AII	0.04693302
BII	2.493660000
CII	132.2346888
DII	1.022362043
EII	0.0
FII	0.0
GII	0.0
HII	0.0
III	0.0
JII	0.0
KII	0.0
LII	0.0
MII	0.0
NII	0.0
OII	0.0
PII	0.0
QII	0.0
RII	0.0
SII	0.0
TII	0.0
UII	0.0
VII	0.0
WII	0.0
XII	0.0
YII	0.0
ZII	0.0
Property units	

**6.15-rasm. Etanol-suv aralashmasi uchun UNIQUAC termodinamik usuli xaroratga bog‘liq parametrlari**

Main Flowsheet KIRISH (MATERIAL) KIRISH (MATERIAL) - Input +

Mixed Solid NC Soln Flash Options EO Options Costing Information

Specifications

Flash Type	Temperature	Pressure
State variables		
Temperature	25	C
Pressure	1	atm
Vapor fraction		
Total flow basis	Mole	
Total flow rate	kmol/hr	
Solvent		
Reference Temperature		
Volume flow reference temperature		
Component concentration reference temperature		

Composition

Mole Flow	kmol/hr
Component	Value
ETHANOL	20
WATER	980
Total	1000

### 6.16-rasm. Oqimlar parametrlarini kiritish oynasi

Ushbu holatda, agar kiruvchi mahsulotning aniq kompozisiyası (mass %, mol %) berilgan bo'lsa, u holda ushbu parametrlar hosil bo'lgan oynadan *Compositions (Kompozisiya)*, *Total flow rate (Jami oqim sarfi)* bo'limlari orqali kiritiladi.

Oqimlar parametrlari kiritib bo'lingandan keyin tugmasini bosamiz yoki Distillatsion kolonna (DK) ustida sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosamiz. Natijada distillatsion kolonna parametrlarini kiritish oynasi hosil bo'ladi (6.16, 6.17, 6.18-rasmlar). Bizga berilgan misolda distillatsion kolonna quyidagi parametrlarga ega:

Pog'onalar soni – 33;

Sovutgich – To'liq;

Qaynatgich – Kettle;

Distillasiya tezligi – 23 kmol/soat;

Qaynash tezligi – 1500 kmol/soat;

Kirish pog'onasi – 17;

Bosim – 1 atm.

<input type="radio"/> Configuration	<input type="radio"/> Streams	<input type="radio"/> Pressure	<input type="radio"/> Condenser	<input type="radio"/> Reboiler	3-Phase	Information
Setup options:						
Calculation type	Equilibrium			<input type="button" value="Stage Wizard"/>		
Number of stages	33			<input type="button" value=""/>		
Condenser	Total			<input type="button" value=""/>		
Reboiler	Kettle			<input type="button" value=""/>		
Valid phases	Vapor-Liquid			<input type="button" value=""/>		
Convergence	Standard			<input type="button" value=""/>		
Operating specifications:						
Distillate rate	Mole	23	kmol/hr	<input type="button" value=""/>		
Boilup rate	Mole	1500	kmol/hr	<input type="button" value=""/>		
Fresh water reflux ratio	0	Feed Ratio				

## 6.16-rasm. Blok (distillatsion kolonna) parametrlarini kiritish

Main Flowsheet	KIRISH (MATERIAL)	KIRISH (MATERIAL) - Input	DK (Radfrac)	+/-		
<input type="radio"/> Configuration	<input type="radio"/> Streams	<input type="radio"/> Pressure	<input type="radio"/> Condenser	<input type="radio"/> Reboiler	3-Phase	Information
Feed streams:						
Name	Stage	Convention				
KIRISH	22	Above Stage				

## 6.17-rasm. Blok (distillatsion kolonna) kirish pog'onasini belgilash

Main Flowsheet	KIRISH (MATERIAL)	KIRISH (MATERIAL) - Input	DK (Radfrac)	+/-		
<input type="radio"/> Configuration	<input type="radio"/> Streams	<input type="radio"/> Pressure	<input type="radio"/> Condenser	<input type="radio"/> Reboiler	3-Phase	Information
View	Top / Bottom	<input type="button" value=""/>				
Top stage / Condenser pressure:						
Stage 1 / Condenser pressure	1	atm	<input type="button" value=""/>			
Stage 2 pressure (optional):						
<input checked="" type="radio"/> Stage 2 pressure:	bar		<input type="button" value=""/>			
<input type="radio"/> Condenser pressure drop	bar		<input type="button" value=""/>			
Pressure drop for rest of column (optional):						
<input checked="" type="radio"/> Stage pressure drop	bar		<input type="button" value=""/>			
<input type="radio"/> Column pressure drop	bar		<input type="button" value=""/>			

## 6.18-rasm. Blok (distillatsion kolonna) bosimini tanlash.

## **Modelni ishga tushirish va natijalarini olish**

Barcha ma'lumotlar kiritib bo'lingandan keyin yoki tugmasini bosamiz va modelni ishga tushiramiz. Aspen Plus dasturining ba'zi versiyalarida modelni ishga tushirganda qo'shimcha xabar oynasi paydo bo'lishi mumkin, uchbu holatda **OK** tugmasi bosiladi.

### **Natijalarini ko'rish**

Natijalarini ko'rish uchun tegishli oqim (Distillyat yoki Quyi oqim) ustida sichqocha ko'rsatikichini ikki marta bosiladi. Yoki Navigasiya panelidan *Results Summary/Streams (Custom)* buyrug'i tanlanadi (6.19-rasm).

Distillatsion kolonna natijalarini ko'rish uchun chap tomondagি Navigasiya panelidan **Blocks/DK/Results** buyrug'ini tanlaymiz. Bu yerda DK-Distillatsion kolonna bo'lib, ushbu nom modelni tuzuvchi tomonidan belgilanadi va boshqacha nomalsh ham mumkin.

		Units	KIRISH	DIST	QUYI
			DK	DK	DK
From					
To			DK		
Substream: MDXED					
Phaser:		Liquid	Liquid	Liquid	
Component Mole Flow					
ETHANOL	KMOL/HR	20	20	1,0907e-14	
WATER	KMOL/HR	980	3	977	
Component Mole Fraction					
ETHANOL		0.02	0.869565	1.1164e-17	
WATER		0.98	0.130435	1	
Component Mass Flow					
ETHANOL	KG/HR	921,381	921,381	5,0248e-13	
WATER	KG/HR	17655	54,0458	17600,9	

**6.19-rasm. Chiqish natijalari**

All Items

- Blocks
- DK
  - Specifications
  - Configuration
  - Sizing and Rating
  - Rate-Based Modeling
  - Analysis
  - Convergence
  - Dynamics
  - EO Modeling
    - Results
    - Profiles
    - Stream Results
    - Stream Results (Custom)
    - Summary
  - Utilities
  - Reactions
  - Convergence
  - Flowsheeting Options
  - Model Analysis Tools
  - EO Configuration
  - Results Summary
  - Run Status
  - Streams
  - Convergence
  - Operating Costs
  - CO<sub>2</sub> Emissions
  - Streams (Custom)
  - Models

Properties

Main Flowsheet > DK (BadFract) -> Results

Summary	Balance	Split Fraction	Reboiler	Utilities	Stage Utilized	...
Basis: Mole						
Condenser / Top stage performance						
Name	Value	Units				
Temperature	78.1752	C				
Subcooled temperature						
Heat duty	-13,3805	Gcal/hr				
Subcooled duty						
Distillate rate	23	kmol/hr				
Reflux rate	1379.41	kmol/hr				
Reflux ratio	59.9744					
Free water distillate rate						
Reboiler / Bottom stage performance						
Name	Value	Units				
Temperature	100.018	C				
Heat duty	14,579	Gcal/hr				
Bottoms rate	977	kmol/hr				
Boilup rate	3500	kmol/hr				
Boilup ratio	1,53581					
Bottoms to feed ratio						

## 6.20-rasm. Distillatsion kolonna natijalarini ko‘rish oynasi.

Ushbu natijalardan ko‘rish mumkinki, distillatsion kolonna qaynatgichidagi xarorat 100.018 C bo‘lib, 14.579 Gcal issiqlik energiyasi sarflaydi. Distillyat va quyi qism mahsuloti sifatida mos ravishda sof holatdagi spirt va suv ajratib olinadi (6.21-rasm).

All Items

- Blocks
- DK
  - Specifications
  - Configuration
  - Sizing and Rating
  - Rate-Based Modeling
  - Analysis
  - Convergence
  - Dynamics
  - EO Modeling
    - Results
    - Profiles
    - Stream Results
    - Stream Results (Custom)
    - Summary
  - Utilities
  - Reactions
  - Convergence
  - Flowsheeting Options
  - Model Analysis Tools
  - EO Configuration
  - Results Summary
  - Run Status
  - Streams
  - Convergence
  - Operating Costs
  - CO<sub>2</sub> Emissions
  - Streams (Custom)
  - Models

Main Flowsheet > DK (BadFract) -> Results

Summary	Balance	Split Fraction	Reboiler	Utilities	Stage Utilized	...
Component	DIST	QUYI				
ETHANOL	1	0				
WATER	0.00306122	0.896938				

## 6.20-rasm. Distillatsion kolonna chiqish natijalarini ko‘rish

Distillatsion kolonna haqida batafsil ma'lumotlarni olish uchun navigasiya panelidan Blocks/DK/Profiles buyrug'ini tanlaymiz. Bunda pog'onalar bo'ylab xarorat, bosim, kompozisiyalar o'zgarishi haqidagi natijalar batafsil namoyon bo'ladi (6.21-rasm).

Bundan tashqari kolonna bo'ylab xarorat va kompozisiyalar o'zgarishini grafik holatda tasvirlash imkoniyati ham mavjud bo'lib, buning uchun distillatsion kolonna parametrlari oynasiga kiriladi. Natijada ekranning o'ng tepa qismida joylashgan uskunalar panelida maxsus grafiklar (*plot*) paneli hosil bo'ladi (6.22-rasm).


Basic Mode											
Index	Temperature	Pressure	Heat duty	Liquid flow (Mole)	Vapor flow (Mole)	Liquid feed (Mole)	Vapor feed (Mole)	Mixed feed (Mole)	Liquid product (Mole)	Vapor product (Mole)	Time
	C	bar	W	kmole/hr	kmole/hr	kmole/hr	kmole/hr	kmole/hr	kmole/hr	kmole/hr	hrs
1	99.5586	1.01325	0	1390.42	1392.68	0	0	0	0	0	-66.5
2	99.5962	1.01325	0	2475.25	1393.42	1000	0	0	9	0	-66.5
3	99.5932	1.01325	0	2476.79	1398.25	0	0	0	0	0	-66.5
4	99.6112	1.01325	0	2476.97	1496.76	0	0	0	0	0	-66.5
5	100.0112	1.01325	0	2477	1499.97	0	0	0	0	0	-66.5
6	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
7	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
8	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
9	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
10	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
11	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
12	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
13	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
14	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
15	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
16	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
17	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
18	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
19	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
20	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
21	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
22	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
23	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
24	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
25	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
26	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
27	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
28	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
29	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
30	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
31	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
32	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5
33	100.0118	1.01325	0	2477	1500	0	0	0	0	0	-66.5

6.21-rasm. Pog'onalar bo'ylab natijalarning o'zgarishi




6.22-rasm. Aspen plus dasturida distillatsion kolonna uchun grafiklar hosil qilish paneli

Misol uchun, pog'onalar bo'ylab komponentlar kompozisiyasining o'zgarishini ko'zatmoqchi bo'lsak, u holda Composition (Kompozisiya) grafik buyrug'ini tanlaymiz va hozsil bo'lgan oynada kerakli fazalarni (bug', suyuq) va komponentlarni tanlaymiz hamda OK tugmasini bosamiz (6.23-rasm). Natijada biz ko'rmoqchi bo'lgan ma'lumotlar grafik ko'rinishda hosil bo'ladi (6.24-rasm).



**6.23-rasm. Parametrlarini tanlash**



**6.24-rasm. Kolonnada pog'onalar bo'ylab moddalar kompozisiyasining o'zgarishi**

Ushbu grafikdan ko'rinib turibdiki, bu yerda 33 pog'onali distillation kolonna uchun keragidan ko'proq haydash pog'onalar mavjud, ya'ni 19-pog'onadan keyin sezilarli bo'lgan o'zgarishlar mavjud emas. Ko'tilganidek, kolonnaning tepe qismida aralashma azeotrop xususi-

yatga ega. Bunda ushbu kolonna tepadan boshlab raqamlangan bo'lib, odatda 1-pog' onada sovutgich joylashgan bo'ladi.

Bundan tashqari, ushbu grafiklar paneli orqali xarorat (*Temperature*), bosim (*Pressure*), nisbiy uchuvchanlik (*Relative volatility*) va shu kabi boshqa o'zgarishlarni namoyish etish mumkin.

### **6.9. Nazorat savollari**

1. Jarayonlarni modellashtiruvchi kompyuter dasturlari yoki simulator dasturlar haqida tushuncha bering.

2. Kompyuterda modellashtirish dasturlarining ahamiyati haqida so'zlab bering.

3. Aspen Plus dasturi haqida nimani bilasiz?

4. Aspen Plus dasturining ishchi oynasini ta'riflab bering.

5. Aspen Plus dasturida modelni tashkil qilish qanday amalga oshiriladi?

6. Aspen Plus dasturi yordamida modellashtirish jarayonidagi kimyoviy moddalar va termodinamik usullarni tanlash ketma-ketligi bayon eting.

7. Aspen Plus dasturi yordamida modellashtirish jarayonidagi qurilmalar yoki obyektlarni tanlash va ularni sozlash haqida bayon eting.

8. Aspen Plus dasturida modellashtirish natijalarini olish haqida bayon eting.

9. Aspen Plus dasturida faylni saqlash usullari, ularni ochish haqida bayon eting.

10. Aspen Plus dasturida yordam olish usullarini bayon eting.

### **6.10. Amaliy ish uchun topshiriqlar\***

1. Aspen Plus dasturida issqlik almashinish jarayonlarini modellashtiring.

2. Aspen Plus dasturida kimyoviy reaksiya jarayonlarini modellashtiring.

3. Aspen Plus dasturida suyuq aralashmalarni ajratish jararayonini modellashtiring.

4. Aspen Plus dasturida gazlarni compressor yordamida haydash yoki suyultirish jarayonini modellashtiring.
5. Aspen Plus dasturida gazlar aralashmasini ajratish jarayonini modellashtiring.

*\*-ushbu amaliy topshiriqlar talabalarning kichik guruhchalari uchun taqsimlab beriladi.*

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Aspen Plus. Getting Started Building and Running a Process Model, Aspentech TM, 2013.
2. Trine Witzøe. Simulation of Pilot Data with Aspen Plus, Chemical Engineering and Biotechnology, 2015.
3. Ralph Schefflan. Teach Yourself the Basics of Aspen Plus. John Wiley & Sons, 2011.
4. Design and Optimize Chemical Processes with Aspen Plus®. Aspentech TM, 2013.
5. An Introduction to spreadsheet optimization using MS Excel Solver. Lancaster university, <http://www.meiss.com/en/publications/>
6. Aspen Plus. Getting Started Building and Running a Process Model, Aspentech TM, 2013;
7. Bjarne Stroustrup. The C++ Programming Language / Language programming C++. Addison-Wesley. England, London. Professional; 4 edition (May 19, 2013);
8. Chris Hartmann, Anji Seberino, Roger Yeh. Programming with Mathcad Prime.USA. 2011;
9. Constantinides, A., and Mostoufi, N., Numerical Methods for Chemical Engineers with MATLAB Applications, 1st ed., Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 2013;
10. Dadajonov T. "MATLAB asoslari". Darslik, FarPI, 2011;
11. Design and Optimize Chemical Processes with Aspen Plus®. Aspentech TM, 2013;
12. Introduction to MATLAB for engineering students. David Houque Northwestern University, 2005);
13. Introduction to Software for Chemical engineers. Mariano Martín Martín. CRC Press is an imprint of the Taylor & Francis Group, an information business. London, New York. 2010;

14. Introduction to Software for Chemical engineers. Mariano Martín Martín. CRC Press is an imprint of the Taylor & Francis Group, an information business. London, New York. 2010.
15. Mathcad User's Guide MathSoft, Inc. 101 Main Street Cambridge;
16. MATHCAD's program function and application in teaching of math. de ting wu Depart of Math Morehouse College Atlanta, GA.30314, USA;
17. MATLAB help files. Mathworks Inc, 2011;
18. Problem Solving in Chemical and Biochemical Engineering with POLYMATH, Excel, and MATLAB. Michael B, Cutlib Mordechai Shacham;
19. Ralph Schefflan. Teach Yourself the Basics of Aspen Plus. John Wiley & Sons, 2011;
20. S.S. G'ulomov, B.A.Begalov. Informatika va axborot texnologiyalari. Fan, T: 2010. 686 b.;
21. Trine Witzøe. Simulation of Pilot Data with Aspen Plus, Chemical Engineering and Biotechnology, 2015;
22. W. H., Teukolsky, S. A., Vetterling, W. T., and Flannery, B. P., Numerical Recipes in C++: The Art of Scientific Computing, 2nd ed., Cambridge, England: Cambridge;
23. Edgar, T.F., "Process Engineering in the 21<sup>st</sup> Century: The Impact of Information Technology", Philips Lecture, Oklahoma State University, 1999;
24. Edward M.Rosen, Allen C.Pauls, Computer aided chemical process design: the flowtran system, Computers & Chemical Engineering, 1977, 11-21;

## MUNDARIJA

<b>SO'Z BOSHI</b>	<b>3</b>
<b>1-BOB KIMYO INJENERINGIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIGA KIRISH</b>	<b>5</b>
1.1 Kirish. Kimyo injeneringi uchun axborot texnologiyalari tushunchasi va uning mohiyati	6
1.2 Kimyo injeneringi uchun axborot texnologiyalari yo'naliشining rivojlanish bosqichlari	8
1.3 Ishlab chiqarish jarayonlarida kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish	10
<b>2-BOB KIMYO INJENERING MASALARIDA MICRO-SOFT EXCEL DASTURINI QO'LLASH</b>	<b>12</b>
2.1 MS Excel elektron jadvali haqida umumiy tushuncha	13
2.1.1 MS Excel dasturida Tasma (Lenta)	14
2.1.2. Tasmani kichraytirish	15
2.1.3. Tasmada yangi menuy tashkil etish	15
2.1.4. MS Excel dasturida <i>Varaq</i> (Лист, Sheet) larni boshqarish	18
2.1.5. MS Excel dasturida matnlarni katakchalarda joylashtirish	19
2.1.6. MS Excel dasturida formula va funksiyalar bilan ishlash	22
2.1.7. Katakchalardagi ma'lumotlardan boshqa ishchi jadvallarda foydalanish	25
2.1.8. Boshqa ishchi kitob katakchalariga ma'lumotlardan foydalanish	25
2.1.9. Funksiyalar bilan ishlash	26
2.1.10. MS Excel dasturida diagrammalar bilan ishlash	27
2.1.11. Diagramma elementlari bilan tanishish	30
2.2. MS Excel dasturida hisoblash asoslari	31
2.2.1. Muhandislik masalarini yechishda qo'llaniladigan funksiyalar	32

2.3.	MS Excel dasturida kimyo injeneringi masalalarini yechish	37
2.3.1.	MS Excel dasturida Поиск решения (Solver) ilovasi	37
	2.1-Masala. MS Excelda dasturi yordamida kimyoviy reaksiya konstantasini hisoblash	40
	2.2-Masala. Поиск решения ilovasi yordamida ishlab chiqarish masalalarini yechish. Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish misolida.	42
	2.3-Masala. Поиск решения ilovasi yordamida ishlab chiqarish masalalarini yechish. Qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish misolida.	46
	2.4-Masala. Поиск решения ilovasi yordamida ishlab chiqarish masalalarini yechish. Eng kichik kvadratlar usuli.	57
<b>3-BOB</b>	<b>C++ DASTURLASH TILI VA ALGORITMLASH ASOSLARI</b>	<b>67</b>
3.1.	Algoritmlash asoslari. Algoritm turlari va xossalari	68
3.1.1.	Masalalarni kompyuterda yechish bosqichlari	69
3.1.2.	Algoritm va uning xossalari	70
3.1.3.	Algoritm turlari va ularni ifodalash usullari	70
3.1.4.	Chiziqli hisoblash jarayonlarini algoritmlash	74
3.1.5.	Tarmoqlanuvchi algoritmlar	75
3.1.6.	Takrorlanuvchi algoritmlar	76
3.1.7.	Algoritmlarning ifodalanish usullari, turlari	78
3.1.8.	Algoritmkik tillar	82
3.2.	C++ dasturlash tili	83
3.3.	C++ tilida asosiy ma'lumot turlari	90
3.3.1.	<b>BOOL</b> ma'lumot turi	91
3.3.2.	<b>CHAR</b> ma'lumot turi	92
3.3.3.	Butun sonli ma'lumot turlari	93
3.3.4.	Suzuvchi nuqtali ma'lumot turlari	94
3.3.5.	Void ma'lumot turi	100
3.4.	C++ dasturlash tilida ifodalar va operatorlar	102
3.5.	C++ tilida arifmetik amallar	105

3.6.	C++ dasturlash tilida operatorlar	105
3.6.1.	C++ dasturlash tilida tarmoqlanish konstruksiyalari. <b>If</b> shart operatori	111
3.6.2.	Kalit bo'yicha tanlash ( <b>switch</b> ) operatori.	116
3.6.3.	O'tish operatori <b>GO TO</b>	119
3.6.4.	C++ dasturlash tilida <b>for</b> takrorlash operatori	121
3.6.5.	C++ dasturlash tilida <b>while</b> takrorlash operatori	124
3.6.6.	C++ dasturlash tilida <b>do while</b> takrorlash operatori	126
3.7.	C++ dasturlash tilida mantiqiy amallar	128
3.7.1.	Mantiqiy ko'paytirish operatori	128
3.7.2.	Mantiqiy qo'shish operatori	129
3.7.3.	Mantiqiy inkor operatori	129
3.8.	Massivlar tushunchasi. Massivlar bilan ishlash	129
<b>4-BOB</b>	<b>KIMYOVIY INJENERING MASALALARINI YECHISHDA MATHCAD AMALIY DASTURIDAN FOYDALANISH</b>	<b>151</b>
4.1.	MathCAD haqida umumiy tushuncha.	152
4.2.	MathCAD muhitida tasvir, grafiklar va dasturlash operatorlari	160
4.3.	Kimyo injenering masalalarini yechishda MathCad dasturidan foydalanish	161
4.4.	MathCAD dasturida shart operatorlaridan foydalanish	165
4.5.	MathCAD dasturida takrorlash (sikl) opreratorlari	166
4.6.	MathCAD va boshqa dasturiy ta'minotlar bilan o'zaro bog'liqligi	168
<b>5-BOB</b>	<b>MUHANDISLIK JARAYONLARIDA MATLAB DASTURIDAN FOYDALANISH</b>	<b>174</b>
5.1.	MATLAB dasturi haqida asosiy tushuncha	175
5.2.	Matlab dasturining asosiy xususiyatlari	177
5.3.	MATLAB dasturidan muhandislik hisoblashilarda foydalanish	183
5.3.1.	MATLABda elementar algebraik funksiyalar	183

5.3.2.	MATLAB da matematik ifodalar ustida shakl almash tirishlar	185
5.3.3.	MATLAB tizimida massiv, matritsalar bilan ish lash	187
5.4.	MATLAB tizimida dasturlash imkoniyatlari. M-fayllar bilan ish lash	189
5.5.	MATLAB da grafiklar bilan ish lash	199
5.5.1.	Funksiyalarning ikki o'lchamli grafiklarini qurish.	199
5.6.	MATLAB dasturining Simulink paketi bilan tanishish	205
5.7.	Kimyo injeneringida Matlab dasturidan foydalanish	209
5.7.1.	Kimyo texnologiyasida teskari tomonlama masalalarni yechish	209
5.8.	Amaliy mashg'ulotni bajarish uchun topshiriq vari antlari	214
<b>6-BOB</b>	<b>MUHANDISLIK MASALALARIDA ASPEN PLUS DASTURIDAN FOYDALANISH</b>	<b>226</b>
6.1.	Aspen Plus modellashtirish dasturi haqida umumiy tushuncha	227
6.2.	Kompyuterda modellashtirish dasturlarining ahamiyati	227
6.3.	Aspen Plus dasturida jarayonlarni modellashtirish	228
6.4.	Aspen Plus dasturida modelni tashkil etish	229
6.5.	Aspen Plus dasturining asosiy oynasi	230
6.6.	Modellashtirish jarayonidagi kimyoviy moddalar va termodinamik usullarni tanlash	231
6.7.	Modellashtirish jarayonidagi obyektlarni tanlash	231
6.8.	Aspen Plus dasturini kimyo injeneringida qo'llash	235
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b>	<b>249</b>

**A.T. NORQOBILOV, J. HASANOV, A.RASULEV,  
S.X. FAYZULLAYEV, G.J. ERGASHEV**

**KIMYO INJINIRINGI  
UCHUN AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI**

**darslik**

Muharrir *Axtam Ro'zimurotov*

Badiiy muharrir va texnik muharir *Dilmurod Jalilov*

Sahifalovchi *Madina Abdullayeva*

Musahhih *Nigora G'aniyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.  
2020-yil 8-oktabrda bosishga ruxsat etildi.  
Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . Times New Roman garniturası.  
Ofset bosma. 16 shartli bosma taboq. 14,85 nashr tabog'i.  
Adadi 100 nusxa. 143 raqamli buyurtma.  
Bahosi shartnomaga asosida

**YOSHLAR NASHRIYOT UYL.**  
Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

«Yoshlar matbuoti» MCHJda chop etildi.  
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.